

**A.B. SHAKAROV, F.B. ABDUKARIMOV,  
H.I. TURDIBEKOV**

# **MAKROIQTISODIYOT**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**A.B. SHAKAROV, F.B. ABDUKARIMOV, H.I. TURDIBEKOV**

# **MAKROIQTISODIYOT**

**O'quv qo'llanma**

**Toshkent**

**«IQTISOD-MOLIYA»**

**2009**

65.01  
44 176

Shakarov A.B., Abdulkarimov F.B., Turdibekov H.I. Makroiqtisodiyot:  
O'quv qo'llanma. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2009. -212 b.

Ushbu o'quv qo'llanmaning asosini mualliflar tomonidan Iqtisodiyot va servis institutida makroiqtisodiyot fanidan o'qitilayotgan ma'ruzalar tashkil etgan. O'quv qo'llanmada iqtisodiyotning yuqori pog'onasi ya'ni bozorda to'g'ridan to'g'ri harakat qiladigan subyektlarning iqtisodiy faoliyatining nazariy va amaliy tomonlari yoritilgan. Korxonalarning raqobatlashgan bozordagi harakati, monopol va oligopolik bozorlardagi harakati bilan bog'liq nazariy va amaliy masalalar o'rganilgan va grafiklar asosida tahlil qilingan hamda korxonalar foydasini maksimallashtirishga doir masalalarning iqtisodiy qo'yilishi va ularning yechimi ko'rsatib berilgan. Shuning bilan birga, bozor tuzilmalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, bozor iqtisodiyotiga davlatning ta'siri hamda uning oqibatlari bilan bog'liq nazariy masalalar ham darslikda o'z aksini topgan.

Har bir bobdan keyin tayanch iboralar va nazorat savollari keltirilgan. Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun darslikda boblar bo'yicha masalalar va ularni yechish hamda tahlil qilish yo'llari ko'rsatib berilgan.

O'quv qo'llanma "Iqtisodiyot" ta'lim yo'naliшining bakalavrлari, magistrantлari, aspirantлari uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:** i.f.n., dotsent U. Xotamov  
A. Navoiy nomidagi Samarcand davlat universiteti  
i.f.n., dotsent R.Q. Qarshiyev  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O'quv qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ilmiy kengashida ko'rib chiqilgan va chop etishga tavsija etilgan (2008 yil, 26 dekabr, 6-sonli bayonнома)

Mualliflar mazkur o'quv qo'llanmani yaratishda ozining maslahatlarini darig tutmaganligi, kitobning yanada mazmunli va sifatli bolishida fikrlari bilan ortoqlashganligi hamda tashkiliy ishlarga yordam bergenliklari uchun SamISI o'quv ishlari prorektori dotsent A.Bektemirovga, «Kasb-xunar talimi» kafedrasi dotsenti R.K. Karshiyevga, J.O. Oripovga va U.Xatamovga (SamDU) oz minnatdorchiligini bildiradi.

## KIRISH

Ushbu ma’ruza matnlarida mamlakat iqtisodiyotini makroiqtisodiy jihatdan rivojlantirishning mohiyati, uning tarkibiy qismi, rivojlantirish bosqichlari va ularni tashkil etish bilan bog’liq masalalar yoritilgan. Chunki, respublika iqtisodiyotining bozor munosabatlariiga o’tish bilan bog’liq bo’lgan tub o’zgarishlari yangicha boshqarish uslublarini, unga mos ravishda esa bozor iqtisodiyoti amal qilishining va davlat tomonidan o’zgacha rahbarlarni talab etadi. Bular chuqur va ko’p qirrali bilimlarga ega bo’lgan, yaxshi mushohada va mulohaza qilib qarorlar qabul qilishga qodir bo’lgan o’z ishining mutaxassislari bo’lishi shart. Ayniqsa, makroiqtisodiyot o’ta murakkab va, o’z navbatida, nozik bo’lgan sohada band bo’lgan amaliyotchilarga juda yuqori talablar qo’yiladi. Barcha mavjud bo’lgan resurslardan optimal foydalanish, hamda iqtisodiy o’sish uchun zarur bo’lgan shart-sharoitlarni muvaffaqiyat bilan ta’minlash uchun iqtisodechi makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qila bilishi, iqtisodiyotning o’ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, iqtisodiy jihatdan turli xulosalar chiqara olishi hamda bu xulosalarning to’g’ri va asoslangan ekanini isbotlab bera olishi kerak. Bunday mutaxassislar tayyorlashda “makroiqtisodiyot” kursini o’qish muhim rol o’ynaydi. Kursni o’rganish makroiqtisodiy jarayonlarning ilmiy asoslarini hamda ilg’or mamlakatlardagi bu jarayonlarni tartibga solish amaliyot va to’plangan boy tajribani o’zlashtirish imkonini beradi. Respublika iqtisodiyoti yangicha munosabatlarga o’tish bosqichida turgan sharoitda bu masalalar ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki bozor iqtisodiyoti oldingi tizimdan nafaqat prinsip jihatdan farq qiluvchi xo’jalik modeli, balki o’z axloq talablariga ega bo’lgan boshqa bir falsafa hamdir.

“Makroiqtisodiyot” o’quv fani sifatida boshqa iqtisodiy fanlar, ayniqsa “mikroiqtisodiyot” bilan chambarchas bog’langan. Chunki ularning barchasi uchun iqtisodiyot yagona tadqiqot obyekti bo’lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham ushbu ma’ruza matnlari “iqtisodiyot” ta’lim yo’nalishi bo’ylcha o’qiyedigan talabalarga mo’ljallangan.

UZARQAND IQTISODIYOT  
VA SERVIS INSTITUTI

AXBOROT RESURS MARKAZI

439962

## **I-bob. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, obyekti va uning ahamiyat**

- 1.1. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot tushunchasi.
- 1.2. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, obyekti va uning boshqa iqtisod fanlari bilan aloqalari.
- 1.3. Resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi.
- 1.4. Ochiq va yopiq iqtisodiyot tushunchasi.

### **1.1. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot tushunchasi**

Jamiyatning barcha iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatlarini o'rganish va yuritishda fundamental muammoga duch kelamiz. Bu muammo avvalam bor tabiat bizga in'om etgan resurslarning chegaralanganligidir. Demak, insoniyat xohlaganicha resurslar imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun biz insoniyat faoliyati uchun moddiy ne'matlar yaratish jarayonlarini o'rganib chiqishimiz kerak. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotni o'rganish demakdir. Chunki, iqtisod-grekcha so'z bo'lib, uy xo'jaligini yuritish san'ati demakdir. Endilikda ushbu fan uy xo'jaligini yuritish emas, balki hududlar, mamlakatlar va jahon xo'jaligini yuritish san'ati bilan shug'ullanmoqda. Buning isboti sifatida ishlab chiqarish sohalarida tashkil etilayotgan korxonalar, firmalar, korporatsiyalar, qo'shma korxonalar va firmalar kabi ko'plab misollarni keltirishimiz mumkin.

Iqtisodiyot keng va chuqur ma'noli muammolarni o'rganadi. Lekin iqtisodchilar o'rganadigan muammolar va hal qiladigan vazifalarni qisqacha quyidagicha ta'riflash mumkin: Birinchidan, inson chegaralangan imkoniyatlarni darajasida yashaydi. Insonning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, vaqt, mablag' va barcha resurslari chegaralangan. Vaqtning chegaralanganligi u yoki bu ishlab chiqarishni ma'lum vaqt davomida amalga oshirishni taqozo qiladi. Mablag'larning chegaralanganligi u yoki bu maqsadlarni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan mushkullashtiradi.

Demak, shaxs va jamiyat farovonligi chegaralangan imkoniyatlardan oqilona foydalanish bilan bog'liq ekan. Ya'ni, resurslarning chegaralanganligini iqtisodiy

o'rganish prinsipial ahamiyatga ega. Buning ma'nosi shuki, bir vaqtning o'zida barcha ehtiyojlarni qondirib bo'lmaydi. Agarda resurslar chegaralangan bo'lmaganda edi, u holda maqsadlarga erishish va mahsulotlarni iste'molchilarga samarali qilib taqsimlashga zarurat bo'lmagan bo'lar edi.

Bugungi kunda mavjud bo'lgan - inflyatsiya, ishsizlik, harbiy xarajatlar, hyudjet kamomadi, qashshoqlik va tengsizlik, atrof-muhitning ifloslanishi, biznesni davlat tomonidan tartibga solish va shu kabilar tub mohiyati jihatidan chegaralangan resurslardan samarali foydalanish muammosini bildiradi.

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki shaxs, korxona, hudud, mamlakat va hatto xalqaro miqyoslarda ham iqtisodiyot bilan shug'ullanish obyektiv zarurat ekan.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni o'z vaqtida va joy-joyida hal qilishda ko'pgina iqtisodiy fanlar qatori mikro va makroiqtisodiyot fanlari ham bevosita shug'ullanadi. Masalan, biror-bir mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun har xil qaror va qonunlar qabul qilishda iqtisodchilar ikki xil tahlil orqali yondashadilar. Ya'ni, mikroiqtisodiy va makroiqtisodiy yondashuvlardan iborat.

Mikroiqtisodiy yondashuv yoki mikroiqtisod bu biror-bir aniq iqtisodiy birlikni to'liq tahlil qilishdan iboratdir. Masalan, biror-bir ishlab chiqarish korxonasini o'rganish, ya'ni, korxonani tashkil qilishdag'i ichki (insonlar, ishlab chiqarish vositalari, kapital va ma'lumotlar bilan ta'minlanganlik darjasasi) va tashqi (ma'muriy va markaziy boshqaruv tashkilotlari, iste'molchilar, ishlab chiqarish komponentlarini yetkazib beruvchilar va aholi yashash joylariga uzoq - yaqinligi) omillar, ishlab chiqargan mahsulotlarining xarajatlari, foydasi, tushumi, to'lanadigan soliqlar va, shuningdek, korxona faoliyati bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni to'liq o'rganishdan iboratdir. Yoki boshqacha qilib aytganda, resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy aylanishini alohida olingan korxona, tarmoq hudud darajasida o'rganishdan iboratdir.

Makroiqtisodiy esa, keng ko'lamdag'i iqtisodiyot bilan shug'ullanadi. Uning obyekti bo'lib yalpi ishlab chiqarish, ish bilan bandlik, baho va tashqi iqtisodiy savdo, inflyatsiya hisoblanadi. Ya'ni, resurslar, tovarlar va daromadlar doiraviy

aylanishni xalq xo'jaligi yoki mamlakat miyosida o'rghanishlardan iborat. Hozirgi jahon xo'jaligi rivojlangan, ilmiy texnika taraqqiyoti davrida barcha mamlakatlarning iqtisodiyotlari uzviy bog'liqdir. Mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va mudofaa qobiliyatları ko'p jihatdan ularning makroiqtisodiyotiga bog'liqdir. U murakkab va ko'p qirrali masalalarni o'z ichiga olganligi tufayli hozirda iqtisodchilar orasida makroiqtisodiyot munozarali fan bo'lib kelmoqda.

## **1.2. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, obyekti va uning boshqa iqtisod fanlari bilan aloqalari**

Makroiqtisodiyot fani mamlakat iqtisodiyoti va uning yalpi ishlab chiqarishining o'sishi, pasayishi, turg'unlik davrlarini iqtisodiy tahlil qiladi va uni tartibga solish iqtisodiy mexanizmlarini yaratadi. Bunda makroiqtisodiyot nazariyasiga asoslanadi.

Barcha mavjud bo'lgan resurslardan optimal foydalanish hamda iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni muvaffaqiyat bilan ta'minlash uchun iqtisodchi makroiqtisodiy jarayonlarni tahlil qila bilishi, iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi, iqtisodiy jihatdan to'g'ri xulosalar chiqara olishi hamda bu xulosalarning to'g'ri va asoslangan ekanini isbotlab bera olishi kerak. Bunday mutaxassislar tayyorlashda "makroiqtisodiyot" muhim rol o'yndaydi. Kursni o'rghanish makroiqtisodiy jarayonlarning ilmiy asoslarini hamda ilg'or mamlakatlardagi bu jarayonlarni tartibga solish amaliyoti va to'plangan boy tajribalarini o'zlashtirish imkonini beradi. Respublika iqtisodiyoti yangicha munosabatlarga o'tish bosqichida turgan sharoitda bu masalalar ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki bozor iqtisodiyoti oldingi tizimdan nafaqat prinsip jihatdan farq qiluvchi xo'jalik modeli, balki o'z axloq talablariga ega bo'lgan boshqa bir falsafa hamdir.

Nisbatan kengroq bo'lgan amaliy iqtisod fani sifatida "Makroiqtisodiyot" kursining ahamiyati shundaki, u boshqa iqtisodiy fanlarning konsentratsiyalashgan yig'indisi sifatida xizmat qiladi hamda bu fanlarni bilishga tayanadi. Makroiqtisodiyot korporatsiyalari, uy-xo'jaliklari va hukumatning o'zaro

manfaatlariga taalluqli ko'pgina masalalarni yechishda to'g'ri yo'nalishlar beradi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolarni o'rghanish makroiqtisodiyot fanining predmeti bo'lib hisoblanadi.

"Makroiqtisodiyot" o'quv fani sifatida boshqa iqtisodiy fanlar, ayniqsa, "mikroiqtisodiyot", iqtisodiy matematika, iqtisodiy kibernetika, tarmoqlararo balans, loyihalar tahlili, milliy iqtisodiyot va shu kabi ko'pgina fanlar bilan chambarchas bog'langan. Chunki ularning barchasi uchun iqtisodiyot yagona tadqiqot obyekti bo'lib xizmat qiladi.


Iqtisodchilar makroiqtisodiyotni boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqalarini rivojlantirish yo'llarini tatqiq qilishda insonlarning samarali harakati gipotezasidan foydalanishadi.

Insonlarning samarali harakati - bu chegaralangan imkoniyatlar sharoitida ularning yuqori samaraga erishish uchun qiladigan xatti-harakatidir. Unda individ o'zining ehtiyojini: Birinchidan ish haqini yuqori qondirilishiga, ikkinchidan korxona - yuqori foydasi uchun, uchinchidan davlat esa aholini ijtimoiy farovonligini oshirishga harakat qiladi. Demak, insonlarning samarali harakati ularning tabiiy harakati bo'lib, uning obyektiv kuchlari majmuasidan ilmiy foydalanish ulkan iqtisodiy muammolardan biridir. Insonlarning samarali harakati ularning "mustaqil xohishlari" dan kelib chiqadi. Masalan, har bir inson o'z harakatining samarali bo'lishini ko'zlaydi, yaxshi, moddiy va ma'naviy boy yashashni istaydi va bu maqsadga intiladi. Barcha xohish-istiklarni o'rghanish, resurslar, vaqt va inson harakatining chegaralanganligi har doim bir nechta masalalarning hal qilinishini taqozo etadi. Bu makro va mikroiqtisodiyotning muammolaridir.

Demak, makroiqtisodiyot boshqa iqtisodiy fanlar kabi mamlakat xalq xo'jaligini butunligicha yoki uning yirik tarmoqlarini va, shuningdek, xalqaro iqtisodiyotni rivojlantirish muammolarini o'rGANAR ekan, har qanday mamlakat xalqaro iqtisodiy integratsiyada biror-bir mahsulotni eksport qiladi va biror-bir mahsulotni import qiladi. Ya'ni, biror-bir mamlakat o'z ichki ehtiyojlarini va xalqaro ehtiyojlarni ta'minlash uchun xalq xo'jaligi miqqosida nima, qanday,

qancha va kim uchun ishlab chiqarish kerak hamda mamlakat iqtisodiy tizimi bo'layotgan o'zgarishlarga tayyormi, degan muammolarni hal qilishi lozim.

Bunday muammolarni yechishda iqtisodchilar turli xil modellardan foydalanadi. Modellar u yoki bu iqtisodiy jarayonning umumlashgan, soddalashgan ko'rinishini ifodalaydi. Masalan, O'zbekistonning barcha tabiiy va mehnat resurslaridan foydalanib ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'rib chiqaylik.



Grafikda OX gorizontal o'qi iste'mol buyumlarini, OU vertikal o'qi ishlab chiqarish vositalarining o'sishi yoki kamayishini ko'rsatadi.


AVSD egri chizig'i barcha resurslardan yuqori darajada foydalanilganda ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlarining mumkin bo'lган ishlab chiqarish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Ushbu grafikdan biz uchta bir-biri bilan bog'liq bo'lган tushunchalar: resurslarning chegaralanganligini, har bir nuqta bo'yicha o'ziga xos variantlarda ishlab chiqarish bo'lisligi va xarajatlar o'zgarishini ko'ramiz. Masalan, F nuqtani olsak, u nuqtada mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kam darajada ishlab chiqarishni ifodalaydi. Aksincha, Ye nuqta bo'yicha yuqori imkoniyatlarda ham ishlab chiqarishning quvvati, resurslar yetishmaydi. Yoki V va S nuqtalarni taqqoslab ko'raylik. V nuqtani tanlasak, S nuqtaga nisbatan biz iste'mol


buyumlaridan ( $X_v$ ) kamroq va ishlab chiqarish vositalaridan ( $U_v$ ) ko'proq ishlab chiqarishni tanlagan bo'lamiz. Aniqrog'i V nuqtadan S nuqtaga o'tishda biz qo'shimcha  $X = OX_s - OX_v$  iste'mol buyumlari olamiz. Biroq, bu holda biz U ni yo'qotamiz. ( $U = Ouv - OUs$ ). Ya'ni resurslarni xalq iste'mol mahsulotlariga qo'shimcha sarflab, qo'shimcha xalq iste'moli mahsulotlari olamiz. Xuddi shuncha resurslar va imkoniyatlarni ishiab chiqarish vositalaridan yo'qotamiz.

Egri chiziq (AVSD) maksimal imkoniyatni ko'rsatar ekan, makroiqtisodiyot uning chegarasidan tashqariga (masalan, Ye nuqtaga) yuqori va o'ngga chiqishi mumkinmi - degan savol tug'iladi. Agar yangi texnika va texnologik jarayonlar xalq xo'jaligining barcha tarmoqlariga barobar kiritiladigan bo'lsa, AD egri chiziq A<sub>1</sub>, D<sub>1</sub> egri chiziqqa ko'chirilishi mumkin. U holda ishlab chiqarish vositalari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyatlari barobar, bir tekis kengayadi. Ye nuqtadagi ishlab chiqarishga erishish mumkin.

1.2-rasm.



Agar yangiliklar ishlab chiqarish vositalariga joriy qilinsa, u holda ishlab chiqarish imkoniyatlari ishlab chiqarish vositalariga qarab kengayadi va u qo'yidagi ko'rinishda bo'ladi.




### 1.3. Resurslar, mahsulotlar, daromadlar va xarajatlarning doiraviy aylanishi

Har qanday iqtisodiy tizimda: rejali yoki aralash tovar va xizmatlar takror ishlab chiqarish umumiylari jarayonini iqtisodiy resurslar, tovar va xizmatlar hamda daromadlarning doiraviy aylanish ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Asosan xususiy mulkka tayangan iqtisodiy tizimlarda bunday doiraviy aylanish korxonalar va uy xo'jaligi o'rtaida amalga oshiriladi.


Quyidagi chizimadan ko'rinishib turibdiki, uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, o'z navbatida, ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beriladi. Ayni paytda, resurslar, tovarlar va xizmatlar harakati bilan yonma-yon daromadlarning ham doiraviy aylanishi amalga oshiriladi. Ya'ni uy xo'jaliklari o'zlari yetkazib bergan iqtisodiy resurslari evaziga daromad oladilar hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste'mol qilish uchun sarflaydilar, yoki aksincha, korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.

**Resurslarga pullik daromadlar (ish haqi, xarajatlar, renta, foiz, foyda)**



Bu yerda barcha ishlab chiqarish va ayrboshlash jarayonlari faqat bozor orqali boshqariladi, boshqacha aytganda, resurslar tovarlar va xizmatlar bozoridagi shakllangan talab hamda taklif yordamida boshqariladi.

Iqtisodiyotda faqat baho yoki faqat davlat rejasi ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarining bir tekis kechishini ta'minlashga qodir emas. Bozor tizimida doimo qaytarilib turiladigan iqtisodiy inqirozlar va rejali tizimning yemirilishi buni yaqqol namoyon etdi. Shu bilan birga, tartibga solishning bozor va reja mexanizmlaridan qo'shib foydalananishga asoslangan aralash iqtisodiy tizimning hayotiyligini jahon amaliyoti tasdiqladi.



- |   |                                |
|---|--------------------------------|
| 1. Yer, mehnat, kapital.                    | 9. Iste'mol xarajatlari.       |
| 2. Resurslar.                               | 10. Sotishdan tushgan daromad. |
| 3. Tovar va xizmatlar.                      | 11. Resurs xarajatlari.        |
| 4. Tovar va xizmatlar.                      | 12. Soliqlar.                  |
| 5. Resurslar.                               | 13. Soliqlar.                  |
| 6. Tovar va xizmatlar.                      | 14. Xarajatlari.               |
| 7. Tovar va xizmatlar.                      | 15. Xarajatlari.               |
| 8. Pullik daromad (i/x, renta, foiz, foyda) | 16. Xarajatlari.               |

Yuqoridagi chizmadan ko'rinish turibdiki resurslar, tovarlar va daromadlarning uzuksiz harakati ham bozor orqali ham davlat aralashuvi bilan ta'minlangan. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida o'zining qatnashuvi bilan ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi.

#### **1.4. Yopiq va ochiq iqtisodiyot tushunchasi**

Har bir mamlakat ko'plab xalqaro iqtisodiy aloqalarga ega. Ya'ni, o'zaro tovarlar, xizmatlar, axborotlar, kapital va ishchi kuchlari bilan ayrboshlashlardan iborat. Bunday aloqalarning rivojlanish darajasiga qarab iqtisodiyotning qay darajada ochiqligi aniqlanadi.

Ochiq iqtisodiyot bu shunday iqtisodki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalgamoshirishlari mumkin. Biroq, shunday mamlakatlar ham borki o'zining qobig'iga o'ralib qolgan. Masalan, sobiq SSSR ning urushgacha bo'lgan davri. Halqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot yopiq iqtisodiyot deb ataladi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda bunday iqtisodiyot mutlaq mavjud emas. Ammo, makroiqtisodiy tablil va istiqbolni belgilashda foydalilaniladigan modellarda bunday mavhumlarga yo'l qo'yiladi. Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladidi:

$$U = S + I + G$$

Bunda, U-milliy mahsulot, daromad. S-uy xo'jaligining o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilishga sarflangan iste'mol xarajatlari.

I-shu mamlakat ishlab chiqaruvchilarining o'z mamlakati investitsiya tovarlariga xarajatlari. G-davlat tomonidan o'z mamlakati tovar va xizmatlarini xarid qilish.

Ochiq iqtisodiyotda mamlakatlar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjud va u milliy iqtisodiyotda tovarlar va daromad harakatida namoyon bo'ladi. Asosiy iqtisodiy tenglikka qo'shimcha ko'rsatkich kiritilsa, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:  $U = S + I + G + NX$

Bunda, NX- horijliklarning shu mamlakat ichkarisida ishlab chiqargan tovar va xizmatlarga qilgan xarajatlari bilan horijda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarga ichki xarajatlar o'rtasidagi, qisqacha aytganda eksport va import o'rtasidagi farq.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Makroiqtisodiyot fani iqtisodiyotni to'lig'icha, ya'ni aholi daromadlari-ning o'sishi va kamayishi, ishsizlik, ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar narxlarining o'zgarish darajasi va shuningdek boshqa makroiqtisodiy muammolarni o'rghanadi. Makroiqtisodchilar nafaqat ushbu holatlarni tushuntiradilar, balki iqtisodiyotni rivojlantirish uchun iqtisodiy siyosatlar ham olib boradilar.

2. Mikroiqtisodiyot uy xo'jaligi, firmalar darajasida iqtisodiy muammolarni o'rghanish va hal qilish bilan shug'ullanadi. Makroiqtisodiy vaziyatlar asosida mikroiqtisodiy aloqalar va tahlillar yotganligi uchun ham makroiqtisodchilar ko'p hollarda mikroiqtisodiyot usullaridan foydalanishadi.

3. Iqtisodiyotdagi barcha muammolarni hal qiladigan yagona model mavjud emas. Shuning uchun ham makroiqtisodchilar har biri alohida muammolarni hal qiladigan ko'pgina modellardan foydalanishadi.

4. Iqtisodiy modellarning asosiy shartlari narxlarning egiluvchan yoki noegiluvchanligini izohlashdan iborat. Ko'pgina makroiqtisodchilar hisoblashicha,

iqtisodiy modellar iqtisodiyotni uzoq muddatga rivojlanishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham qisqa davrlarda narxlar noegiluvchan bo'lib hisoblanadi.

## Tayanch iboralar

Mikro va makriqtisodiyot tushunchasi, makroiqtisodiyot fanining predmeti, obyekti va uning boshqa fanlar bilan aloqalari; modellar, ekzogen va endogen o'zgaruvchilar, bozorming tenglashuvi, elastik va noelastik narxlar, resurslar, daromadlar, xarajatlar va ularning doiraviy aylanishi, ochiq va yopiq iqtisodiyot.

## **Nazorat va mułohaza uchun savollar**

1. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyotning bir-biridan farqini tushintirib bering.  
Ular bir-biri bilan qanday aloqada?
  2. Nima uchun makroiqtisodiyot fani boshqa iqtisod fantari bilan aloqada?
  3. Iqtisodchilar nima uchun modellarni tuzishadi va ulardan foydalanishadi?
  4. Resurslar, daromadlar va xarajatlarning qanday doiraviy aylanishlari mayjud va ular bir-biridan qanday farq qiladi?
  5. Iqtisodiyotning qanday turlarini bilasiz? Ochiq iqtisodiyotning yopiq iqtisodiyotdan afzalliklari nimada?

## **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 351 бет.
  2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: “Ўзбекистон”. 1997, 326 бет.
  3. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
  4. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
  5. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судоиз строение. 1998.
  6. Галлирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1.

- С.Петербург.: 1994.
- / Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Ислո», 1996.
8. Йұлдошев З., Қосымов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Үқитувчи. 1994
9. Костюк В.Н. - М.: 1998.
10. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» М.: 1996.
11. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
12. Хейнс П. «Экономический обзор мышления». Перевод с анг. -М.: Изд. Новости при участии. 1991.
13. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
14. Ричард Леядр. «Макроэкономика» Курс лекций для российских читателей. -М.: 1994.
15. Хакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## **2-bob. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash**

2.1. Makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar.

2.2. YaMM hisoblashning asosiy shartlari.

2.3. YaMM xarajatlar va daromadlar bo'yicha hisoblash.

2.4. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtaсидаги  
nisbat.

2.5. Nominal va real YaMM.

### **2.1. Makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkichlar**

YaMM ni hisoblashdan oldin biz makroiqtisodiy holatni aks ettiruvchi asosiy  
ko'rsatkichlarga to'xtalib o'tamiz. Bu ko'rsatkichlarga:

- YaMM, YaIM, MD;
- davlat byudjeti taqchilligi, deflyator, iste'mol baholari indeksi,  
inflyatsiyaning o'sish sur'atlari;
- ishsizlik darajasi va ishsizlar soni, aholini ish bilan bandlik darajasi;
- aholini moddiy ne'matlar va xizmatlari iste'moli hajmi, ularning  
jamg'armalari, ish haqining quyi miqdori va boshqalar.

Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy tizimning umumiy holatini ifodalab, ijtimoiy  
ishlab chiqarishda barcha qatnashuvchilarni (korxona, tarmoq, mintaqqa, davlat) va  
uy xo'jaligi faoliyatları natijasida aniqlanadi.

Mamlakatning iqtisodiy barqarorligini aniqlashda ko'pgina ko'rsatkichlar  
mavjud. Xuddi shunday ko'rsatkichlarning eng asosiysi bo'lib YaMM ko'rsatkichi  
hisoblanadi.

U iqtisodiyotda bir yil davomida ishlab chiqarilgan jami tovar va xizmatlar  
tugallangan hajmining bozor qiymati yig'indisi orqali aniqlanadi.

### **2.2. YaMM hisoblashning asosiy shartlari**

Biz bilamizki, hisobot yilda ishlab chiqarilgan barcha tovarlar ham  
sotilmaydi, ya'ni, ularning ayrimlari zaxirani to'ldiradi. Zahiralarni to'ldirishga  
ketgan har qanday tovarlar YaMM ni hisoblashda hisobga olinishi lozim. Chunki,

YaMM miqdori orqali u sotilgan yoki sotilmagan bo'lishidan qat'iy nazar joriy mahsulot hisoblanadi. YaMM tushunchasi ma'lum darajada izoh talab qiladi.

Birinchidan, YaMM yillik ishlab chiqarishning bozor qiymati orqali o'chanadi. U pulli ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Haqiqatdan ham har xil yillarda har xil turdag'i ishlab chiqarilgan mahsulotlarni solishtirish uchun ularning nisbiy qiymatini bilishimiz lozim. Misol. Turli yillarda ishlab chiqarilgan har xil tovarlarni baho yordamida taqqoslash.

Yillar	Ishlab chiqarishning yillik hajmi	Bozor bahosi
1.	3 apelsin va 2 olma.	$3 \times 2 \text{ so'm} + 2 \times 3 \text{ so'm} = 12 \text{ so'm}.$
2.	2 apelsin va 3 olma.	$2 \times 2 \text{ so'm} + 3 \times 3 \text{ so'm} = 13 \text{ so'm}.$

Ikkinchidan, ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar hajmi bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shuning uchun YaMMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun faqat pirovard mahsulotning bozor qiymatini hisobga oladi, oraliq mahsulotlarni esa hisobga olmaydi.

*Pirovard mahsulot* deb biz tovar va xizmatlarni oxirgi iste'mol uchun sotib olinadigan mahsulotlarga tushunamiz.

*Oraliq mahsulotlar* esa sotib olingan tovar va xizmatlarni yanada qayta ishlash uchun sotib olingan mahsulotlardan iboratdir. YaMM da oraliq mahsulotlarning oxirgi sotish qiymati hisobga olinadi. Oraliq qiymat esa hisobga olinmaydi. Chunki, oraliq qiymat hisobga olinganda ayrim mahsulotlarda ikki yoqlama hisobga olish bo'lgan bo'lar edi. Milliy daromadni hisoblashda ikki yoqlama hisoblashdan qochish uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarni har tomonlama o'r ganib chiqish kerak va faqat har bir firmada yaratilgan qo'shilgan qiymatni hisobga olish zarur. qo'shilgan qiymat firma ishlab chiqarish hajmining bozor bahosini bildiradi.

Uchinchidan YaMMga noishlab chiqarish ishlarini qo'shilmaydi. Noishlab chiqarish ishlari ikki xil turda bo'ladi: sof moliyavly. RO'GAQCHILOGLARI  
VA SERVIS INSTITUTI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
№ 439962

Moliyaviy ishlar o‘z navbatida uchta asosiy turga bo‘linadi; Davlat byudjetidan transfert to‘lovlari, xususiy transfert to‘lovlari va qimmatbaho qog‘ozlarni sotish.

Masalan. Besh bosqichli ishlab chiqarish jarayonida qo‘shilgan qiymat.

Ishlab chiqarish bosqichi	Mahsulotlarning sotish bahosi, so‘m.	Qo‘shilgan qiymat so‘m.
Firma A. Qo‘ychilik firmasi	0	
	60	60(=60-0)
Firma B. Jun qayta ishlash korxonasi	100	40(=100-60)
Firma V. Kastyum ishlab chi- qarish firmasi	125	25(=125-100)
Firma G. Buyumlarni ulgurji sotuvchi korxona	175	50(=175-125)
Firma D. Buyumlarni chakana sotuvchi korxona	250	75(=250-175)
Sotuvchining umumiyligi	710	
<b>Qo‘shilgan qiymat.</b>		<b>250</b>

Davlat byudjetidan transfert to‘lovlariga ijtimoiy sug‘urtaga to‘lovlar, ishsizlarga va pensionerlarga nafaqalar. Davlat transfert to‘lovlaring asosiy xususiyati shundaki nafaqaxo‘rlar nafaqa evaziga davlatga hech narsa bermaydi.

Xususiy transfert to‘lovlariga - studentlarga beriladigan oylik stipendiyalar va boy qarindosh - urug‘laridan beriladigan bir martalik to‘lovlar.

Qimmatbaho qog‘ozlarni sotish, ya’ni aksiya va obligatsiyalarni sotish ham YaMM tarkibiga kiritilmaydi.

Ushlab turilgan tovarlarni sotish YaMM tarkibiga kiritilmaydi, chunki, bunday tovarlarni sotish joriy ishlab chiqirashni bildirmaydi, yoki tovarlarlarda ikki yoqlama hisobni bildiradi.

To'rtinchidan, YaMM ni hisoblashda ikki tomonlama yondashitadi.

Birinchidan, YaMM ni hisoblashda, iste'molchilarining yangitdan yaratilgan yurkuniy mahsulotlarni sotib olishga ketgan barcha xarajatlar miqdori bo'yicha aniqlanadi. Bu usul YaMM ni xarajatlar usuli deyiladi.

Ikkinchidan, YaMM ni hisoblashda esa tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan daromadlarning yig'indisi miqdorida aniqlanadi. Bu usul YaMM ni daromadlar yordamida aniqlash usuli deyiladi.

YaMMni hisoblashning ikki xil usuli - ishlab chiqarish va daromadlar bo'yicha.

Ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha	Ishlab chiqarish daromadlari bo'yicha
1. Uy xo'jaligining iste'mol xarajatlari.	1. Daromadlarni to'lash bilan bog'liq bo'limgan xarajat va to'lovlar.
2. Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiya.	2. Ish haqi. 3. Renta to'lovlar.
3. Tovar va xizmatlar bo'yicha davlat xaridi.	4. Protsent.
4. Sof eksport.	5. Foyda.

### **2.3. YaMM ni xarajatlar va daromadlar bo'yicha hisoblash**

YaMM ni ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisoblashda asosan pirovard mahsulot va xizmatlarni yaratishga ketgan barcha xarajatlar hisobga olinadi.

Birinchidan, **uy xo'jaligining iste'mol xarajatlari (S)** o'z ichiga:

- a) uzoq muddatli foydalaniladigan iste'mol buyumlar;
- b) kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlar;

c) iste'mol qilinadigan xizmatlarga ketadigan xarajatlar dan iboratdir.

**Ikkinchidan, yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):**

- a) asbob-uskunalar, mashinalar sotib olish;
- b) korxonalar, omborlar, turar-joy binolarini qurishga sarflangan xarajatlar;
- c) tovar zaxiralari o'rtasidagi farqlar yoki zaxiralarning o'zgarishlaridan iborat.

Uchinchidan, tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G). Bu guruhdagi xarajatlarga davlatning barcha xarajatlari, ya'ni mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyyati idoralari tomonidan korxonalarning pirovard mahsulotlar va resurslar xaridi (qurol-yarog' sotib olish, avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanadigan ish haqi ) kiritiladi. Lekin bu yerda shuni ham ta'kidlab ketish lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovleri kiritilmaydi.

To'rtinchidan, sof eksport (Xp) yoki mamlakatning import va eksport operatsiyalari o'rtasidagi farq.

Shunday qilib, YaMM ni xarajatlar orqali hisoblash asosan yuqorida ko'rsatib o'tilgan 4 guruh xarajatlari orqali olib borilar ekan. YaMM xarajatlar bo'yicha quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$YaMM = S + Ig + G + Xp.$$

YaMM ni ishlab chiqaruvchilarning barcha daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniładi:

Birinchidan, iste'mol qilingan kapital hajmi (SSA) yoki amortizatsiya, ya'ni joriy yildagi YaMMni ishlab chiqarish jarayonida iste'mol qilingan investitsiya tovarlarini sotib olishga mo'ljallangan ajratmalardan iborat.

Ikkinchidan, biznesga egri soliqlar (T) bu mahsulot bahosini oshiruvchi ishfab chiqarish xarajatlari hisoblanadi. Jumladan, sotishdan olinadigan soliq, aksizlar, mulkka soliqlar, litsenziya to'lovleri va bojxona bojlari.

Uchinchidan, yollanma ishchilarning ish haqlari (W) - xususiy va davlat kompaniyalarining ish haqi to'lashga sarflagan umumiylar xarajatlari (ish haqi va quyidagi qo'shimchalar; ijtimoiy sug'urta, pensiya, bandlik va boshqa ijtimoiy fondlarga ajratmalar hamda badallar).

To'ttinchidan, **ijara haqi** (kl) - bu iqtisodiyotni mulk resurslari bilan ta'minlovchi uy xo'jaliklarining daromadlaridir. Masalan, ijara ga berilgan turar joylar, binolar, asbob-uskunalar, yer va boshqalardan olinadigan daromadlar.

Beshinchidan, **foiz stavkalari yoki foizli daromadlar** (k) - pul kapitalini yetkazib beruvchilarga xususiy biznes daromadidan pul to'lovlar.

Oltinchidan, **mulkdan keladigan daromad yoki foyda** (R) - mulk egalarining daromadlari va korporatsiyalarning olgan foydalari. O'z navbatida, korporatsiyalarning foydalari quyidagilarga bo'linadi;

- a) korporatsiyalarning olgan foydasiga soliq yoki foyda solig'i;
- b) hissadorlar o'ttasida taqsimlanadigan dividendlar;
- v) taqsimlanmagan foyda.

Yalpi milliy mahsulotni aniqlashga ikki xil yondashuv.

Nº	<b>YaMMni tovar va xizmatlar sotib olishga mo'l-jallangan barcha xarajatlar bo'yicha o'lehash</b>	Shartli belgilari	Miqdor
1.	Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari	S	
2.	Biznesga investitsiya xarajatlari yoki yalpi xususiy ichki investitsiyalar	I	
3.	Tovar va xizmatlar bo'yicha davlat xaridi	G	
4.	Sof eksport	Xp	
<b>Jami: YaMM = S + I + G + Xp</b>		Y	
<b>YaMMni barcha daromadlar bo'yicha o'lehash</b>			
1.	Iste'mol qilingan kapital hajmi	A	
2.	Biznesga egri soliqlar	T	
3.	Yollanma ishchilarining ish haqlari	W	
4.	Ijara haqi	kl	
5.	Foiz stavkasi	k	
6.	Yakka qo'yilmalardan daromadlar	P	
7.	Korporatsiyalar foydasiga soliqlar	Tk	
8.	Dividendlar	P1	
9.	Taqsimlanmaydigan foydalar	P2	
<b>Jami: YaMM = A+T+W+k1+k+P+Tk+P1+P2</b>		Y	

## **2.4. Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'rsatkichlar va ular o'rtaсидаги нисбат**

Mamlakat milliy hisobchilik tizimida YaMM ko'rsatkichidan tashqari bir nechta bir-biri bilan aloqada bo'lgan ko'rsatkichlar mavjud. Milliy hisobchilik tizimi to'g'risidagi tushunchalarimizni kengaytirish uchun bu ko'rsatkichlarni tashkil topish manbalarini bilishimiz kerak. Bu ko'rsatkichlarga **biz YaIM, SMM, MD, ixtiyordagi daromad va soliqlar to'langandan keyingi daromadlarni kiritishmiz mumkin.**

YaIM ham YaMM kabi moddiy ishlab chiqarish va xizmatlar natijasida tashkil topadi.

**YaIM - bu biror-bir mamlakat hududida joylashgan korxona va Tashkilotlarda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning umumiy yig'indisidan iboratdir.** YaIMning YaMMdan farqi ushbu mamlakat yuridik va jismoniy shaxslarining horijdan oladigan foyda va daromadlari o'rtaсидаги farqlardan iboratdir. Yani,

Shu mamlakat yuridik va YaMM = YaIM + jismoniy shaxslarining horijdan oladigan foyda va daromadlari.	Horijiy investorlar va ishchilarni shu mamlakatda olgan foyda va daromadlari.
---	---

YaMM ni hisoblashda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yiladi. Chunki, unda hisobot yilda ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotlar miqdoridan shu mahsulotlarni ishlab chiqarishda iste'mol qilingan asosiy ishlab chiqarish vositalari qiymati hisobga olinmaydi. Yoki boshqacha qilib aytganda, amortizatsiya qiymati hisobga olinmaydi. Shuning uchun ham milliy hisobchilik tizimida SMM ko'rsatkichi hisoblanadi. SMM ning YaMM dan farqi yuqorida aytganimizdek amortizatsiya ajratmalari miqdoriga tengdir.

Yalpi milliy mahsulot	4862
Iste'mol qilingan kapitalga ajratma	505
Sof milliy mahsulot	4357.

Keyingi ko'rsatkich MD - bu milliy ishlab chiqarishdan olingan daromad yoki ijtimoiy ishlab chiqarishdagi barcha daromad turlarining yig'indisidir. Resurslarni yetkazib beruvchilarning, ya'ni yer, ishchi kuchi, kapital, shuningdek, boshqaruvenularini yetkazib beruvchilarning hisobot yilida oladigan daromadlari miqdori qanchani tashkil qilishini aniqlaylik. SMM tarkibidan faqat biznesga egri soliqlargina joriy yildagi iqtisodiy resurslar tarkibi kiritilmaydi. Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, davlat o'zi oladigan biznesga egri soliqlar o'rniiga ishlab chiqarishga hech narsa qo'ymaydi, ya'ni davlatni iqtisodiy resurslar ta'minotchisi shifтида baholamaymiz. Demak, joriy yilda yaratilgan YaMM tarkibidan ish haqi, renta to'lovleri, foiz va olingan foydalarning umumiy miqdorini aniqlashda biz SMM tarkibidan biznesga egri soliqlar miqdorini olib tashlashimiz lozim. Shunday qilib olingan ko'rsatkich milliy daromad (MD) hisoblanadi. Resurslar h'mintovchilar nuqtayi nazaridan u joriy ishlab chiqarishda qatnashish natijasida olgan daromadlarini o'lchanini bildiradi. Kompaniyalar nuqtayi nazaridan esa MD ishlab chiqarish omillari yoki resurslarni bahosini o'lchanini bildiradi. MD joriy ishlab chiqarishga ketgan iqtisodiy resurslarning bozor bahosini bildiradi.

SMM	4357
Biznesga egri soliqlar	393
	3964

MD SMM dan biznesga egri soliqlarni olib tashlagandan keyin qolgan qismidan iborat ekan.

**Shaxsiy daromad (yakka qo'yilmalardan daromad)** va MD bir-biridan shunisi bilan farq qiladiki, ya'ni ishlab chiqarishda mehnat qilish evaziga olingan daromadlarning bir qismi - ijtimoiy sug'urtalarga badallar, korporatsiya foydasiga soliq va korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi amalda uy xo'jaligiga bushmaydi. Aksincha, ya'ni uy xo'jaligi hisobiga to'g'ri keladigan daromadlarning bir qismi, masalan, transfert to'lovleri - mehnat natijalarini bildirmaydi. Transfert to'lovlariga - sug'urta tashkilotlari tomonidan to'lanadigan, ya'ni qariflikda va baxtsiz xodisalarga, shuningdek, ijtimoiy dasturlarga asoslangan holda ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, nogironlarga to'lanadigan har xil to'lovlar, ishsizlarga va

pensionerlarga to'lanadigan nafaqalar, iste'molchilar va davlat tomonidan to'lanadigan protsent to'lovlar va boshqa to'lovlar kiradi.

MD dan xususiy daromadlar tarkibiga o'tishda aholi tomonidan haqiqatda ishlangan ammo olinmagan daromadlarni olib tashlaymiz, shuningdek, aholi tomonidan olingan ammo joriy mehnat faoliyatini natijalarini bildirmaydigan daromadlarini qo'shamiz.

Milliy daromad	- 3964
Ijtimoiy sug'urtalarga badallar	- 445
Korporatsiya foydasiga soliq	- 145
Korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi	- 79
Transfert to'lovlar	- 768
Xususiy daromadlar (yakka qo'yilmalar daromadlari)	4063

Shaxsiy ixtiyordagi daromad deb, individual soliqlarni to'lagandan keyingi daromadlarga aytildi. Individual soliqlar - daromad solig'i, xususiy mol-mulkarga va meros qolgan mulklarga soliqlardan iborat.

Xususiy daromad (soliqlarni to'lashdan oldingi daromad)	- 4063
Individual soliqlar	- 590
Soliqlarni to'lagandan keyingi daromad	-----
	3437

Milliy hisobchilik tizimida o'lchaniladigan makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro nisbatlari.

Ko'rsatkichlar	Shartli belgilar	Miqdor
1. Yalpi milliy mahsulot. "Minus", amortizatsiya	YaMM	
2. Sof milliy mahsulot "Minus" biznesdagи egri soliqlar	SIM	
3. Milliy daromad	MD	

"Minus"- ijtimoiy sug'urta to'lovlar		
- daromad (foyda) soliq'i		
- taqsimlanmaydigan daromad(foyda)		
"Plus" + transfert to'lovlar		
1 Shaxsiy daromad	MD	
"Minus"- individual soliqlar		
6. Soliq to'langandan keyingi daromad, ya'ni ixtiyordagi daromad.	ID	

## 2.5. Nominal va real YaMM

Iqtisodiyotda mavjud bo'lgan infliyatsiya va deflyatsiya ko'rsatkichlari YaMM ni hisoblashni qiyinlashtiradi. Chunki, YaMM pul, vaqtinchalik va miqdor ko'rsatkichlaridan iboratdir. YaMM ni hisoblashda boshlang'ich ma'lumot bo'lib kompaniyalarning umumiylot sotish hajmi ko'rsatkichi hisoblanadi. Ammo, bu ko'rsatkichlar bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdori va baho darajalarining o'zgarishini ifodalaydi. Bu shuni bildiradiki, YaMM miqdoriga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning fizik hajmi va baho darajaci ta'sir kurasadi.

YaMM ni hisoblashda biz kompaniyalar moliyaviy hujjatlardan statistik ma'lumotlarni olamiz va YaMM ni hisoblaymiz. Bu haqiqatda nominal YaMM ko'rsatkichidan iborat bo'ladi. Chunki, biz biror-bir yilda yaratilgan nominal YaMM ning o'sishi bir tomonidan ishlab chiqarish hajmining o'zgarishini, ikkinchi tomonidan bahoning o'zgarishini bildiradi deb ayta olmaymiz. Masalan, biz YaMM ning 4% ga o'sishi infliyatsiyaning nollik darajasida ishlab chiqarish hajmini 4% oshirgan yoki ishlab chiqarish hajmi o'zgarmagan holda 4% infliyatsiyani oshirgan deb to'g'ridan-to'g'ri ayta olmaymiz. Muammo shundan iboratki pul (vaqt, miqdor) ko'rsatkichlarini shunday tuzatishimiz kerakki, u ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar fizik hajmining o'zgarishini aniq ifodalasasin.

Bu muammo yechimi iqtisodchilar tomonidan topilgan. Ya'ni, baholarning o'sib borishida YaMM fizik hajmi ko'rsatkichi kamaytiriladi, va aksincha, baholar

kamayib borishda ko'paytiriladi. Bu to'g'irlashlar YaMM ni har xil yillarda solishtirish imkonini beradi. Ya'ni joriy baholarda (baholarning o'zgarishi hisobga olmagan holda) hisoblangan YaMM nominal YaMM ni bildiradi. Demal bunga teskari ravishda inflyatsiya darajasini (ya'ni, baholarning o'sishi) yol deflyatsiya (ya'ni, baholarning kamayishi) darajalarini hisobga olgan holc hisoblangan YaMM real YaMM dan iboratdir. Real YaMM = (Nominal YaMM Baho indeksi)x100%.

### **Qisqacha xulosalar**

1. YaMM mamlakat aholisining umumiy daromadlari va tovar va xizmatlari ishlab chiqarish jarayonlarida sarf qilinadigan umumiy xarajatlar yig'indisida iborat ekan.
2. Nominal YaMM tovar va xizmatlarni joriy baholarda hisoblashni, re YaMM esa doimiy baholarda hisoblanganligini ko'rsatar ekan. Shunday qilib re YaMM tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining o'sishi bilan oshar ekan nominal YaMM esa tovar va xizmatlar baho darajasining o'sishi natijasida haoshishi mumkin ekan.
3. YaMM to'rt guruh xarajatlar yig'indisi orqali hisoblanar ekan: iste'mo investitsiya, davlat xaridi va sof eksport.
4. Milliy hisobchilik tizimining boshqa ko'rsatkichlarini ham hisobla mamlakat makroiqtisodiyotini to'g'ri tahlil qilgan holda rivojlantirish bosqichlari belgilashda asosiy omillar bo'lib hisoblanar ekan.

### **Tayanch iboralar**

Yalpi, sof, ichki investitsiya, YaMM ni daromadlar va xarajatlar bo'yich hisoblash, xususiy va davlat transfert to'lovleri, qo'shimcha qiymat solig'i, rent yalpi milliy mahsulot, shaxsiy daromad, ikki yoqlama hisob, qo'shimcha qiyma sof milliy mahsulot, milliy daromad, iste'mol xarajatlari, nominal YaMM, re YaMM, amortizatsiya, pirovard mahsulot, qiymat indeksi, sof eksport taqsimlanadigan daromad, davlat xaridi, foiz, yollanma ishchilarni rag'batlantiris YaMM inflyatsiyasi va deflyatsiyasi.

## Nazorat va murohaza savollari

- YaMM ni hisoblashning asosiy shartlari nimalardan iborat. Nima uchun ikki oqlama hisobga olishdan qochish zarur?
- YaMMni xarajatlar va daromadlar bo'yicha hisoblashning zaruriyati nimada?
- Miliy hisobchilik tizimidagi boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga qaysitari undi va ular qanday hisoblanadi?
- YaMM inflyatori va deflyatorini tushuntirib bering.
- Mamlakat makroiqtisodiyotini tahlil qila olasizmi?

## Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: "Ўзбекистон". 1996, 351 бет.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка таҳдид, шаркорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: "Ўзбекистон". 1997, 126 бет.
3. Агалова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
4. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
5. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). СПб. Петербург. Судоиз строение. 1998.
6. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. СПб. Петербург.: 1994.
7. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход», -М.: «Дело». 1996.
8. Йўлдошев З., Қосимов М.С. "Макроиктисодиёт асослари" -Т.: Ўқитувчи. 1994
9. Костюк В.Н. - М.: 1998.
10. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» М.: 1996.
11. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
12. Ҳакимова М.А. "Макроиктисодиёт". - Т.: "Мехнат". 1997.


### 3-bob. Makroiqtisodiy beqarorlik

- 3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari.
- 3.2. Mehnat bozori, ishsizlik tushunchasi, uning turlari, o'chanishi va to'j bandlik.
- 3.3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni.
- 3.4. Inflyatsiyaning mohiyati, turlari va hisoblash usullari.
- 3.5. Inflyatsiya va ishsizlik. Phillips egri chizig'i.

#### 3.1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari

Iqtisodiy sikl bu iqtisodiyotning bir necha yillar davomida o'sishi va kamayishini ko'rsatuvchi jarayon bo'lib hisoblanadi. Ayrim iqtisodiy sikllar boshqalaridan o'zining o'tish davrining davomiyligi va faoliyklari bilan farq qiladi. Shunga qaramasdan ularning barchasi bir xil davrlarni bosib o'tadi.

3.1-rasm.



Iqtisodiy sikllarning iqtisodchilar to'rtta rivojlanish davrlarini ko'rsatadila Birinchi davri iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishgan. Bu davrd iqtisodiyotda to'liq ish bilan bandlik va ishlab chiqarish to'liq quvvatd ishlayotganligini ko'zatamiz. Shuningdek, bu davrda mahsulotlar baho daraja o'sish jarayonida bo'ladi. Keyingi bosqich ishlab chiqarishning kamayish davri ko'rsatadi. Bandlik darajasi kamayadi, ammo bahoning o'sish darajasi pasaymayd qachonki, ishlab chiqarishdagi kamayish davri faol va uzoq davom etsagin bahoning o'sish darajasi kamayishi mumkin. Kamayishning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga yetganligini ko'rsatadi. Va oxirida jontlanish

davrida ishlab chiqarish va bandlik darajasi asta-sekin rivojlanib ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlik darajasiga boradi. O'z navbatida mahsulotlarning bahosi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlikka erishguncha o'sib boradi.

Iqtisodiy sikllarning bir xil bo'lishiga qaramay ularning ayrimlari davomiyligi va faolligi bilan boshqalardan farq qilib turadi. Shuning uchun ham iqtisodchilar bu jarayonga Iqtisodiy tebranishlar davri deb izoh berishadi. Iqtisodchilar bu tebranish davrlarini turlicha baholab kelishadi. Masalan, ayrimlari bu tebranishlarning asosiy sababchisi deb texnik yangilanishlarni ko'rsatadi. ularning usosiy g'oyasi bo'yicha ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini qo'llash turli yillar davomida Iqtisodiyotdag'i tebranishlar sababchisi hisoblanadi. Boshqa bir guruh olimlar Iqtisodiy sikllarni siyosiy va tasodifiy vaziyatlarga bog'lashadi. Monitar siyosatga bog'laydigan olimlar ham mavjud. Ya'ni, davlat qanchalik ko'p pul bosib chiqarsa shunchalik uning qadri kamayib boradi, va aksincha, pul miqdori qanchalik kam bo'lsa ishlab chiqarishning kamayishini va ishsizlar sonining ortishini tezlashtiradi. Iqtisodiy sikllarni baholashlarga turli xil yondashuvlar bo'lishiga qaramay ko'pgina iqtisodchilar ishlab chiqarish va bandlilik darajalarini umumiylar miqdori ko'rsatadi degan fikrlarni qo'llab-quvvatlaydilar. Chuaki, bozorga mo'ljallab ishlab chiqarishni tashkil iqtisodiyotda korxonalar o'zlarining tovar va xizmatlariga talab bo'lsagina ularni ishlab chiqaradi. Boshqacha aytganda ishlab chiqarish xarajatlari ko'p bo'lmasa korxonalarda tovar va xizmatlarni katta miqdorda ishlab chiqarish foydali emas. Ishlab chiqarish bandlilik va daromadlar darajasining pastligi ham mana shundan. Umumiylar miqdori qanchalik ko'p bo'lsa ishlab chiqarishning o'sishi katta foyda olib keladi. Shuning uchun ishlab chiqarish, bandlilik daromadlar darajasi ortib boradi.

### **3.2. Mehnat bozori, ishsizlik tushunchasi, uning turlari, o'lchanishi va to'la bandlik**

Mamlakat iqtisodiyotida YaMM yoki YaMM ni yaratishda qatnashadigan iqtisodiy resurslarning eng asosiyalaridan biri bo'lib mehnat resurslari hisoblanadi. Inson resurslari avvalam bor yollanma xodimlar mehnati va insonlarning tadbirkorlik qobiliyatlaridan iboratdir. Mehnat yoki inson resurslarining sotsial-iqtisodiy muammolarini demografik, statistika, etnografiya, mehnat iqtisodi, ijtimoiy-madaniy kompleksni prognozlashtirish fanlari qatori makroiqtisodiyot fani ham o'rganadi.

Makroiqtisodiyot inson resurslarining ijtimoiy-iqtisodiy yo'nalishlarini tadqiq etish orqali uni samarali boshqarishni maqsad qilib oladi. Chunki, mehnat resurslari va uning faol qismi bo'lgan ishchi kuchi-ishlab chiqarish kuchlarining eng asosiy qismidir. Ishchi kuchi yoki iqtisodiy faol aholi deganda, aholining mehnatga layoqatli yoshdagi tarkibiga kiruvchi ishlayotgan va ishsizlarning umumiyligi soni tushuniladi.

Mehnat resurslarini sifat jihatdan takomillashtirish iqtisodiyotning o'sish sur'atlari bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham mamlakatda mehnat bozorini, mehnatni boshqarish institutlarini va uning iqtisodiy-huquqiy mexanizmlarini yaratish eng asosiy vazifalardan biridir.

Demak, mehnat bozori va uning normal faoliyat ko'rsatishi quyidagi omillarga bog'liq ekan:

- aholi soni, yoshi va jinsining salmog'idagi o'zgarishlar;
- ish bilan bandlikdagi hudud va tarmoq o'zgarishlariga;
- qo'shimcha ishchi kuchini ishlab chiqarishga jalb etish mexanizmiga;
- ishlab chiqarish hajmiga, uning o'sish sur'atiga, ishlab chiqarish tarkibiga;
- ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashuviga;
- mehnat resurslarini boshqarish usuliga va boshqalar.


Hozirgi sharoitda mehnat bozorida ham talab, ham taklif qonuni amal qiladi. Chunki, ishchi kuchi ham boshqa mehnat mahsullari qatori, tovar shakliga ega bo'lib, tovar-pul munosabatlariiga faol jalb qilinadi. Uning bu xususiyati mehnat

ko'rsatkichlari tiziunida o'z aksini topadi. Ular orasida ish bilan bandlik va ishsizlik ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, ishbilarmonlar ishchi kuchidan shunday miqdorlarda foydalananadilarki bunda mehnatning yuqori mahsuli real ish haqi bilan teng bo'lishi yoki ish haqi hajmini puldag'i ifodasi mehnatning yuqori mahsuli qiymatga teng bo'lishi kerak. Agarda real ish haqi hajmi oshsa ishbilarmon ishchi kuchiga bo'lgan talabni qisqartiradi, agar real ish haqi hajmi kamaysa ishchi kuchiga bo'lgan talab ortadi.

Quyidagi rasmdan ko'rinish turibdiki, real ish haqini qisqartirish natijasida mehnatga bo'lgan talab oshmoqda, va aksincha, real ish haqi oshsa, mehnatga bo'lgan talab kamayadi.

3.2-rasm.

Mehnatga bo'lgan talab egri chizig'i.



Bu yerda:  $L$  - talab qilinadigan mehnatning miqdori;

$W/k$  - real ish haqi miqdori.

$L_d$  - mehnatga bo'lgan talab egri chizig'i;

Mehnatning taklif funksiyasida individ o'z xizmatini ish haqining puldag'i ifodasidan kelib chiqib emas, balki ish haqining o'chovlaridan kelib chiqib taklif qiladi. Buni biz quyidagi rasmdan ham ko'rishimiz mumkin.


Bu yerda:  $LS$  - mehnat taklifining egri chizig'i;

$W/P$  - real ish haqi.

$L$  - taklif qilinayotgan mehnatning miqdori.

### 3.3-rasm.


Mehnatga bo'lgan taklif egri chizig'i.



Real ish haqi miqdori katta bo'lsa, unga mos ravishida mehnatning taklifi ham yuqoridir, agar kichik bo'lsa pastroq bo'ladi.

Talab va taklif egri chizig'ini umumlashtirib quyidagi grafikda ifodalaymiz.

### 3.4-rasm.



Grafikdan ko'tinib turibdiki, ( $W/P$ ) Ye ga teng bo'lgan ish haqi doirasida mehnat bozorida muvozanat vujudga keladi. Buning ma'nosi shuki, agar ish haqining shu doirasida kim ish izlayotgan bo'lsa, u ish bilan ta'minlanadi, ikkinchi

tomondan, hamon ishbilarmonlar o'zlariga kerak bo'lgan ishchi kuchi miqdorini topish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ye harfi bilan belgilangan nuqta to'la ish bilan bandlilik holatini bildiradi.

Real ish haqining boshqacha qiymatida mehnat bozorida muvozanatni o'matib bo'lmaydi:

1. Agar ish haqi muvozanat nuqtadan yuqori bo'lsa, ( $W^*/P$ )\* nuqtada mehnatning taklifi  $A^*V^*$  - kattalikdagi talabdan oshib ketadi, ya'ni,  $2^{**} > L2^*$ ;

2. Agar ish haqi muvozanat nuqtadan past bo'lsa, ( $W^{**}/P$ )\*\* nuqtada mehnatga bo'lgan talab "A", "V" - kattalikdagi taklifdan oshib ketadi.

$11^{**} > L2^{**}$ ,

Birinchi holatda ishsizlik vujudga keladi, ikkinchi holatda esa ish joylari bo'shab qoladi.

Amaliyotda aholining "to'la ish bilan bandligi" degan tushuncha bor. Lekin bunday natijaga o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi, chunki 100% aholining ishlamoqchi bo'lgan qismini deyarli ish bilan band qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ma'lum miqdorda aholining ishsiz bo'lishi iqtisodiy jihatdan normal hol va asoslidir.

*Ishsizlar* - bu ishchi kuchlarining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan lekin ishlashni xohlovchi va ish qidirayotganlardan iborat.

Ishsizlarning quyidagi turfari mavjud:

*Friksion ishsizlik* - bularga ish qidirayotgan yoki yaqin vaqflar ichida ish bilan ta'minlanishni kutayotgan ishchi kuchlari kiradi. Ishsizlikning bu turi asosan mavso'miy ishlar, ishlab chiqarishlardagi eski modelning yangisi bilan almashtirilishi, ish yoki turar joylarini o'zgartirishlar, o'quv yurtlarini tugatish va shuningdek boshqa sabablardan kelib chiqadi. U doima mavjud bo'lib, ma'lum bir darajada kerakli deb hisoblanadi.

*Strukturali ishsizlik* - bularga asosan ishsizlarning malakalarini o'zgartirishi va oshirishi, ma'lumot olishi, kasb egallashi lozim bo'lgan ishsizlar guruhlari kiradi. Friksion ishsizlik bilan strukturali ishsizlikning asosiy farqi shundaki, birinchisida ma'lum malaka va tajriba mavjud bo'ladi va undan foydalaniib ish joylarini tezroq topib olishadi, ikkinchisida esa ishchi kuchi darhol va tezroq ish

joylarini topa olmaydilar. Strukturali ishsizlik iste'mol bozori ma'lum mahsulotlar bilan to'ldirilganda va u mahsulotga ehtiyoj qolmaganda paydo bo'ladi.

**Davrly ishsizlik** - bu asosan ishlab chiqarishning pasayishi natijasida ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishidan paydo bo'ladi. Davriy pasayish tovar va xizmatlarga bo'lgan yalpi taklifning kamayishi, shunga muvofiq, yalpi taklifning kamayishini va oqibatda ahofini ish bilan bandligining qisqarishi va ishsizlikning o'sishini bildiradi.

**To'la ish bilan bandlik** - barcha ishchi kuchining 100% ish bilan ta'minlanganligini bildirmaydi. Aksincha, friksion va strukturaviy ishsizlik ilojsiz hol bo'lganligini hisobga olsak, biz mutlaq to'la ish bilan bandlilikka erishib bo'lmasligini tushunamiz.

Agarda davriy ishsizlik bo'lmasa u holda to'la ish bilan bandlilikka erishiladi. To'la ish bilan bandlik davrdagi ishsizlik ishsizlikning tabiiy darajasi deyiladi. Bunga ish qidiruvchilar soni bo'sh ish joylari soniga muvofiq kelsagina erishish mumkin.

Ishsizlik tabiiy darajasining ikki holatini, ya'ni, birinchidan, u iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensialidan to'liq foydalanayotganligini ko'rsata olmaydi, chunki amaliyotda ishsizlik darajasi "ishsizlikning tabiiy darajasi"dan ko'proq bo'ladi, ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darajasi doimiy emas, chunki u qonun va milliy an'analar bilan bog'liq holda o'zgarishini bilishimiz lozim.

Umumiy holda ishchi kuchi - ish bilan band va faol ish qidirib yurgan ishsizlarga bo'linadi. **Ishsizlik darajasi deb** - ishsizlarni ishchi kuchiga nisbatiga (% hisobida) aytildi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin. Ishsizlik darajasi = ( ishsizlar / ishchi kuchi ) x 100.

Barcha mavjud resurslardan to'liq foydalinish yoki ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmini iqtisodiyotning **ishlab chiqarish potensiali** deb ataladi.

Mahsulotlarning potensial va haqiqiy ishlab chiqarilishi o'rtaсидаги farq YaMM hajmining uzilishi yoki orqada qolishi deb ataladi. U potensial ishlab chiqarishga nisbatan foizda aks ettiriladi.

YaMM uzelishi = (( mahsulotning potensial ishlab chiqarish-mahsulotni haqiqiy ishlab chiqarish) / mahsulotning potensial ishlab chiqarishi )x 100.

### 3.3. Ihsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni


Ihsizlikning ko'payishi natijasida mumkin bo'lgan YaMM hajmini iqtisodiyot oholmaydi. Shu sababli, mamlakat miqyosida ishsizlikni tabiiy darajasida saqlash va uni tartibga solish iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga egadir. Ihsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, YaMM uzelishi shuncha ko'p bo'ladi. Shuning uchun ham potensial hajmdagi YaMM \* haqiqatdagi YaMM dan katta bo'ladi. Ya'ni,  $YaMM^* > YaMM$  yoki  $U^* > U$ .

Potensial YaMM \* hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaq yo'q deb emas, balki ishsizlik mavjud, biroq u tabiiy darajada deb hisoblanadi.

Ihsizlik darajasi va YaMM uzelishi o'tasidagi miqdoriy nisbatni ingliz iqtisodchisi Artur Ouken matematik holda isbotlab bergan. Shuning uchun bu qonun OUKEN qonuni deyiladi. qonunning mohiyati shundan iboratki, agar haqiqatdagi ishsizlik, ishsizlikning tabiiy darajasidan bir foizga oshib ketsa, milliy iqtisodiyot YaMM ni ikki yarim foizga kam oladi. Ushbu nisbat ishsizlikning turli darajalaridagi mahsulot yo'qotishlarni aniqlash imkonini beradi.

Buning grafikkagi ifodasi quyidagicha bo'ladi.

3.5-rasm.



YaMM uztishi = -2,5 (ishsizlikning tabiiy darjası-ishsizlikning haqiqiy darjası).

Demak, mos ravishda ularning nisbati 1 : 2,5 yoki 2 : 5 ga teng. Yo'qotilgan YaMM ning esa absolyut qiymatini hisoblash mumkin. Misol uchun 1992-yili ishlab chiqarish pasaygan davrda ishsizlik 9,5 foizga teng bo'lgan deb olaylik. Ihsizlikning tabiiy darjası esa 6 foizga teng bo'lishi kerak yoki 3,5 foiz ihsizlik uning tabiiy darajasidan ko'p: 3,5 foizni OUKEN koeffitsiyentiga (2,5) ko'paytirib 1992 yilda YaMM ning potensial YaMM\* dan 8,75 foizga kam olganligini aniqlaymiz. YaMM ning pastroq darjası o'z navbatida, ishlab chiqarishda qatnashuvchilar daromadlarining nisbatan kamroq bo'lishini va iqtisodiyotni kelgusi taraqqiyoti investitsiyalash imkoniyatlarini qisqarishini bildiradi.

### **3.4. Inflyatsiyaning mohiyati, turlari va hisoblanish usullari**

Inflyatsiya bu yalpi tovar va xizmatlar bahosining ko'payishi va u bitan bog'liq pul birligi xarid quvvatining tushib ketishidan iborat. Inflyatsiya makroiqtisodiy beqarorlikni aks ettirib barcha mamlakatlar uchun uni tartibga solish yirik iqtisodiy muammo bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, ishlab chiqarish tizimini bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda bu ancha xavflidir. Chunki bu davr narxlarni erkinlashuvi va shunga muvofiq ularning umumiy darajasini keskin oshib ketishi bilan bog'liqdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, inflyatsiya davrida barcha tovarlarning baholari ham oshavermaydi. Ba'zi tovarlarning baholari barqaror bo'lib tursa ba'zilariniki esa tushishi mumkin. Demak, kengroq ma'noda inflyatsiya - bu barcha tovar va xizmatlar o'sib borishini va shu bilan birga ba'zi tovarlarni baholari pasayishini, ba'zilarining sekinlik bilan o'sishini va boshqa birlarini keskin o'sib borishini bildiradi.

Inflyatsiya iqtisodiyot rivojlanishining haqiqiy ahvolini buzib ko'rsatib boshqaruv jarayonini nihoyatda qiyinlashtiradi. Inflyatsiya baho indeksi - deflyator va iste'mol narxlar indeksi yordamida aniqlanadi. Baho indeksi esa haqiqatdag bahoning bazis bahoga nisbati bilan aniqlanadi.

$$R = \frac{Rx}{Rb} \times 100 \text{ yoki } R = \left( \frac{118\%}{100\%} \right) \times 100 = 118 \text{ yoki } 18\%$$

**Hisobot yilida inflyatsiyaning o'sish sur'ati quyidagicha aniqlanadi.**

Inflyatsiya o'sish sur'ati = ( I - I / I ) x 100 %.

Bunda, I - joriy yilning narxlar indeksi,

I - o'tgan yilning narxlar indeksi.

Misol uchun 1997-yili tovarlar bahosi 150% teng bo'lган, 1998-yili esa 180%

teng bo'ldi deylik. 1998 yilning inflyatsiya sur'ati quyidagicha bo'lган:

$$Is = (180 - 150 / 180) \times 100 = 6,7$$

Inflyatsiyani miqdoran o'lchash uchun makroiqtisodiyotda "70-qiyomat qoidasi" nazariyasidan ham foydalilaniladi. Bu usul narxlarni barqaror o'sish sharoitida inflyatsiya darajasi necha yilda ikki baravarga oshishini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun 70 ni yillik inflyatsiya darajasiga bo'lish kifoya:

Inflyatsiya sur'ati ikki baravarga ko'payishi uchun zarur bo'lган yil = 70 / unrxlarning yillik o'sish darajasi (%)

Misol uchun, yillik inflyatsiya darajasi 9,5% ga teng bo'lsa, taxminan yetti yllu uch oydan keyin baho ikki martaga ko'payadi, ya'ni, (70:9,5=7,3).

Real YaMM va jamg'armani necha yildan so'ng ikki marta oshishini hisoblash zarur bo'lган hollarda "70-qiyomat qoidasidan" foydalilaniladi.

Umuman mamlakat Iqtisodiyotida inflyatsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni tahlil qilish eng dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Inflyatsiyaning ikki xil ko'rinishi mavjud:

- 1) Talab inflyatsiyasi;
- 2) Jami taklifning kamayishidan kelib chiqadigan inflyatsiya, ya'ni taklif inflyatsiyasi.

**Talab inflyatsiyasi** - bu iqtisodiyotda talabni keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirilishi mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, iqtisodiyetning ishlab chiqarish imkoniyatlari jami o'sib borayotgan talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar buhosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi. Yoki oddiy so'zlar bilan aytganda "haddan ziyod pullar, haddan ziyod kam tovarlarni ovlaydi". Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar bo'lib

aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq ekan.

Agar mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsiz kamayadi, baho darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Baho o'zgarmasligining sababi shuki katta hajmdagi mehnat va xomast resurlarini shu o'zgarmas bahoda ishga tushirish mumkin bo'ladi. Chunki ish yurgan kishi ish haqini osbirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yo'llanishni o'zi kifoyadir.

Bundan tashqari, baho ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishi oldin ham ko'payishi mumkin. Ya'ni, ba'zi sanoat korxonalari oldinroq resurs rezervlarni tugallaydi va natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarish taklifga erisha olmaydi. Talab taklifdan ko'payib ketadi, natijada baho yana o'boshlaydi.

Ishlab chiqarishda umumiy ishlab chiqarish xarajatlarining oshishi firmala ishlab chiqarilgan mahsulotlar bahosini oshirishga olib keladi. Natijada, kasbuuyushmalar ish haqini yanada oshirishlarini talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida baholarning yana oshishini bildiradi.

**Taklif inflyatsiyasi** - bu mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizma taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paybo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baho ko'payib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YaMM ishlab chiqarish kamayishi yillari tovarlarning bahosi ko'payadi. Jami taklif qisqarishining asosiy sabo'lib mahsulot birligiga sarflangan xarajatlarning o'sishi hisoblanadi. Ya nominal ish haqi, xomashyo va yoqilgi narxlarini oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxining oshishi tushunitadi.


Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmin buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ish chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi.

Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning bujigit hajmi qisqarishi bilan bir vaqtida, uning nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi. Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi, aholi qo'llidagi pulning taklif qilinayotgan tovar va sur'atlardan oshiqchaligiga olib keladi. Ya'ni, pul birligining xarid quvvatini pommytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yilga nisbatan aholi kamroq mahsulotlar sotib oladi, ya'ni uning real daromadlari kamayadi. Misol uchun, joriy ildi aholining nominal daromadlari 30% ga ko'paygan, narxlar darajasi 50% ga algan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo'ladi. Chunki, surxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan ilgarilab ketgan (30% - 50% - 20%).

### 3.5. Inflyatsiya va ishsizlik. Fillips egri chizig'i

Ish haqi mehnat bozorida muvozanatni o'rnatuvchi vosita hisoblanadi va uning darajasini o'zgarishi ishsizlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu ikki hujjatkich o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.V.Fillips tomonidan aniqlangan. Grafikda Fillips egri chizig'i deb aks ettirilgan. Madomiki, ish haqi surxlarning o'zgarishining sur'atlari o'rtasida bir xil nisbat mavjud ekan, u holda Fillips egri chizig'i o'z mohiyatiga ko'ra inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi, ya'ni inflyatsiyaning o'sishi sur'atida ishsizlikning past hamjasini kuzatiladi, va aksincha. Ya'ni ishlab chiqarishni qisqarishi va ishsizlikni ko'payishi narxlarni oshishi bilan kuzatiladi. Bu hodisa stagfilyatsiya deb atalib, ham inflyatsiyani, ham ishsizlikni o'sishi bilan ifodalanadi.

Davlatning mehnat bozoriga ta'sir etish choralarini Fillips modeli bilan cheklanib qolmasdan, o'ziga yana soliq, pul-kredit siyosatining keng ta'sir etish choralarini hamda mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatiarni ham qo'shadi.



### **Qisqacha xulosalar**

1. Iqtisodiy tebranishlarning asosan to'rtta bosqichlarini va tebranishlarni iqtisodchi olimlar tomonidan turli xil yondashuvlarni ko'rsatib o'tish maqsadiga muvofiq ekan.
  2. Ishsizlik darajasi deb ishsizlarning ishechi kuchiga nisbatiga aytildi. Ishechi kuchi ham boshqa tovar mahsulotlari kabi bozorda sotiladi va sotib olinadigan ishsizlar sonining o'sishi real YaMM hajmining kamayishini ko'rsatadi. Shuningdek, to'la ish bilan bandlik 100% ish bilan ta'minlanganlik darajasi ko'rsatmaydi.
  3. Ishsizlar sonining oshishi, ya'ni ishsizlikning haqiqiy darajasi uning tabiiy darajasidan yuqori bo'lishi potensial hajmdagi YaMM bilan haqiqiy hajmdagi YaMM o'rta sidagi uzilishga olib kelar ekan. Bu uzilishni, o'z navbatida, inglez iqtisodchisi Artur Ouken hisoblab chiqqan.
  4. Inflyatsiya tovar va xizmatlar bahosining ko'payishi natijasida pul xarid quvvatining tushib ketishidan kelib chiqar ekan. Iqtisodiyotda inflyatsiyaning borchaligini aniqlangan. Shuning uchun ham barcha mamlakatlarda inflyatsiya kamaytirish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

## Tayanch iboralar

Iqtisodiy sikl, mavsumiy tebranish, asrli trend, friksion ishsizlik, davriy ishsizlik, strukturali ishsizlik, to'liq bandlik, tabiiy ishsizlik darajasi, YaMM ning potensial hajmi, YaMM ning haqiqiy hajmi, ishsizlik miqdori, ishchi kuchi, Ouchen qonuni, inflyatsiya, deflyatsiya, 70 miqdor qonuni, talab inflyatsiyasi, taklif inflyatsiyasi, kutilgan inflyatsiya, kutilmagan inflyatsiya, giperinflyatsiya, real daromad va boshqalar.

## Nazorat va mulohaza savollari

- 1 Nima uchun iqtisodiy tebranishlar takrorlanib turadi?
- 2 Ihsizlikning qanday turlari mavjud va ularga kimlarni kiritish mumkin.
- 3 Ihsizlik darajasi qanday aniqlanadi?  
Ouchen qonuni mohiyatini tushuntirib bering.
- 4 Iste'mol narxlar indeksi nimani ko'rsatadi. Iste'mol tovarlar korzinasini qanday tushunasiz. Inflyatsiya darajasi qanday o'lchanadi va sizningcha inflyatsiyani kamaytirish uchun nima qilish kerak?  
Ihsizlik bilan inflyatsiya o'rtaida qanday o'zaro bog'liqlik mavjud. Phillips egribijzig'i nimani ko'rsatadi.

## Adabiyotlar ro'yxati

- 1 Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: "Ўзбекистон". 1996, 351 бет.
- 2 Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафвсизликка таҳдид, биркарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: "Ўзбекистон". 1997, 126 бет.
- 3 Арапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
- 4 Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
- 5 Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст).  
Санктпург. Судоинстроеие. 1998.
- 6 Напириин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1.

- С.Петербург.: 1994.
7. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело». 1996.
8. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи. 1994
9. Костюк В.Н. - М.; 1998.
10. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
11. Меню Н.Г., Из-во Московского университета. 1994.
12. Хейнс П. «Экономический обзор мышления». Перевод с анг. -М.: Изд Новости при участии. 1991.
13. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
14. Ричард Леядр. «Макроэкономика» Курс лекций для российских читателей. -М.: 1994.
15. Ҳакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## 4-bob. Iste'mol va investitsiya funksiyalari

- 1) Daromad va iste'mol o'rtaqidagi o'zaro bog'liqlik.
- 2) Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari.
- 3) Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va chegaraviy moyillik.
- 4) Investitsiyalar va ularga talab.

### 4.1. Daromad va iste'mol o'rtaqidagi o'zaro bog'liqlik

Hozirgi kunda mamlakatning xalqaro bozorlarda erkin tovar ayriboshlashi ham xalqaro baholarda, jahon andozalariga moslashib bormoqda. Bu hol iqtisodiyot ta'minotining makroko'lamdag'i iste'mol funksiyasini o'rganishni taqozo etadi. Chunki, iste'mol funksiyasi mohiyatini bilsiz iste'mol bozorini boshqarishda asos bo'ladi.

Iste'mol bozorida xaridorlar faqat fuqarolardan iborat bo'lmaydi. Xaridorlar tukibiga aholiga bepul xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar ham kiradi. Iste'mol bozorida har xil xizmatlar sotiladi. Iste'mol bozorining hajmi unda sotiladigan tovarlarning yalpi summasi bilan belgilanadi. Iste'mol tovarlari qat'iy davlat narxlari, nazorat qilinadigan narxlar va erkin narxlarda sotiladi.

Jamg'arma - bu mamlakat yoki firmalar ixtiyoridagi turli majburiy to'lovlari heqirib tashlangandan qolgan daromadning bir qismi. Jamg'arma iste'mol maqsadida ishlatilmaydigan daromaddir. Jamg'arma funksiyasi daromadlar bilan jamg'arma xarajatlarining uzviy bog'liqligini ko'tsatadi.

Uy xo'jaliklari shaxsiy daromadlar miqdoridan turli xil soliqlarni to'lagandan so'ng o'z ixtiyoridagi daromad qoladi. Buni biz milliy daromadning bir qismi ham deb ataymiz. Bu daromadlar uy xo'jaliklari tomenidan iste'mol va jamg'arish uchun ishlatiladi.

$$\text{Jamtash} = \text{S} + \text{S} \quad (\text{ID} = \text{S} + \text{S});$$

Demak, jamg'arma bu uy xo'jaligi ixtiyoridagi daromadning iste'mol qilinmagan qismidan iborat.

Agarda milliy iqtisodiyot tashqi dunyo bilan hech qanday aloqaga ega emas ( $X = O$ ) va davlatning iqtisodiyotiga aralashuvi nolga teng ( $S=O$ ) deb faraz qilinsa,

unda soʻf milliy mahsulot koʻrsatkichi (SMM) orqali ifodalangan ishlab chiqari hajmi ixtiyoridagi daromadga (ID) teng boʻladi. Yaʼni:

$$SMM = ID = S + S;$$

Bu yerda makroiqtisodiy qonuniyat quyidagi koʻrinishga ega boʻladi:

$$S + I = S + S \text{ yoki } I = S$$

$C + I =$  yalpi xarajatlarga teng.

Ushbu jamgʼarish va investitsiyalardan koʻrinib turibdiki, uy xoʼjaliklarining jamgʼarishga boʼlgan istaklari tadbirkorlikning qancha miqdorda investitsiyalash xohishlariga mos tushsa, unda ishlab chiqarish hajmi ( $S+S$ ) va yalpi xarajatlar ( $S+I$ ) tengligiga yoki ishlab chiqarishning muvozanat darajasiga erishish mumkin.

Agarda deylik, iqtisodiyotda eksport-import aloqlari soliq solish va transfer toʼlovleri koʼrinishida davlat aralashuvi mavjud boʼigan boʼlsa, bunday holatda jamgʼarish tuşhunchasi murakkablashib quyidagi koʼrinishga ega boʼladi:

$$S = Sp + Sd + Sx$$

$Sp$  - xususiy jamgʼarmalar

$Sd$  - davlat jamgʼarmalari

$Sx$  - boshqa mamlakatlar jamgʼarmalari

Bunda xususiy jamgʼarmalar teng boʼladi: daromadlar ( $u$ ), transfert toʼlovla ( $Tk$ ), davlat zayomlari boʼyicha foizlar yigʼindisi ( $N$ ) minus soliqlar ( $T$ ) isteʼmol ( $S$ ):

$$Sp = ( U + Tk + N - T ) - C;$$

Davlat jamgʼarmalari teng;  $Sd = ( T - Tk - N ) - G;$

Agar davlat jamgʼarmalari nolga teng boʼlsa, davlat byudjeti muvoz natlashgan, jamgʼarishning manfiy miqdori byudjet taqchilligini ( $VT$ ) bildirac  $VT = - Sg.$

Boshqa mamlakatlarning jamgʼarmalari teng: tashqi dönyoning bizning importimiz hisobiga olgan daromadlari minus ularning bizning eksportimiz sarflangan xarajatlariga teng: yaʼni;

$$Sx = M - X \text{ yoki } Sx = -NX$$

Agar mamlakat eksportiga nisbatan ko'proq import qilsa, unda daromadning bir qismi horijda qoladi va keyinchalik u horijiy sheriklar tomonidan bizning mamlakatimizda ko'chmas mulk va moliyaviy aktiv sotib olishda tuydalaniadi.

Har qanday holatda ham barcha turdag'i jamg'armalarining umumiy yig'indisi investitsiyalarga teng bo'ladi:

$$Sp+Sd+Sx = ( U + Tk + N - T ) - C + ( T - Tk - Xl ) - G + ( - Nx );$$

yoki       $Sp+Sd+Sx = U - C - G - NX = IS = I.$

#### 4.2. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari


Ixtiyordagi shaxsiy daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlataladi. Ya'ni, quncha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi, va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtaqidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, ko'proq iste'mol qilib, hamroq jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish tumonga o'sadi.

Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

Yillar	Daromad u	Iste'mol s	Jamg'arish S
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	20
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25

Kelajuk bilan  
daromadni  
chiziqi

### Iste'mol grafigi.



Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Birinchi'sida shunday shartli holatni izohlaydigan, ya'ni har qanday yilda iste'mol ixtiyoridagi daromadga teng bo'ladi. Ikkinchisi haqiqatda iste'mol grafigi bo'lib, haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (390) bissektrisa bilan kesishadi. Bundan quyi nuqtada haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarni qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. Yuqori nuqtadagi haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtasidagi farq jamg'arishni tashkil etadi.


Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtasidagi bog'liqligini ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtasidagi farq sifatidagi aniqlanadi. ( $S = U - S$ ) Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nolga teng holda ular daromadinining o'sib borishi bilan oshib boradi. Jamg'arish grafigi ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodaga ega.

$$S = -a + v;$$

bunda;  $a$  - daromad darajasi uning boshlang'ich nuqtasidan past bo'lganda qanoti hajmi;

V - og'ish burchagi bo'lib jamg'arishni o'zgarishini (vertikal o'zgarish) madning o'zgarishiga (gorizontal o'zgarish) bo'lgan nisbati sifatida undi;  $5 / 20 = 0.25$

4.2-rasm.



Fenglamaga daromad to'g'risida berilganlarni qo'yib, unga muvofiq Ixtiyordagi jamg'arish miqdorini aniqlash mumkin;

$$S = -97,5 + 0,25 \times 370 = -5$$

#### 4.3. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha va chegaraviy moyillik

Makroiqtisodiy tahlil qilish va tartibga solishda iste'mol va jamg'arma foydalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'arma o'rtacha moyillik va chegaralangan jamg'arma va iste'molga moyillik tushunchalarini tanlamiz lozim.

O'rtacha miqdor yoki iste'molga o'rtacha moyillik deganda, o'z ixtiyordagi daromaddan iste'mol xarajatlarining ulushi tushuniladi. Ya'ni,

$$ARS = (S / U) \times 100 \% \text{ yoki } ARS = \text{Iste'mol (S)} / \text{Daromad (U)} ;$$

Ixtiyordagi daromaddan jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik debi atuladi; ya'ni,

$$ARS = (S / U) \times 100 \% \text{ yoki } ARS = \text{Jamg'arma (S)} / \text{Daromad (U)};$$

Misol uchun daromad darajasi 410, 430 va 530 million so'mlarga va iste'mol darajalari 405, 420 va 495 million so'mlarga teng bo'lsa, iste'molga o'rtachi moyillikni hisoblaymiz, ya'ni;

$$ARS = (405 / 410) \times 100 \% = 98,78 \text{ yoki } 0,98;$$

$$ARS = (420 / 430) \times 100 \% = 97,67 \text{ yoki } 0,97;$$

$$ARS = (495 / 530) \times 100 \% = 93,39 \text{ yoki } 0,93 \text{ ga teng ekan.}$$

Demak, bu misollardan ko'rinish turibdiki daromadlar miqdori ko'payilish borishi bilan iste'mol kamayib boradi va, aksincha, jamg'arma ko'payib boradi. Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, yoki buni matematik holda ifodalasak;

$$ARS = ARS = 1.$$

Uy xo'taligi soliqlarni to'lagandan keyin qolgan barcha daromadlarni hadoim ham iste'mol qilavermaydi. Daromadlar ma'lum darajada ko'payib va kamayib turadi.

Iste'mol qilinadigan daromadning o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i chegaralangan iste'molga moyillik deyiladi va quyidagicha aniqlanadi;

$$MRS = \text{Iste'moldagi o'zgarish}(+, -) / \text{Daromaddagi o'zgarish} (+, -) = S / U$$

Ya'ni;

$$S = 420 - 495 = 15; \quad U = 530 - 430 = 100;$$

$$U = 430 - 410 = 20; \quad S = 495 - 420 = 75;$$

$$MRS1 = 15 / 20 = 0,75; \quad MRS2 = 75 / 100 = 0,75;$$

Bu shuni bildiradiki, daromadni 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarishidagi iste'mol 75 % (yoki 0,75) o'zgaradi.

Daromadni o'sgan (yoki kamaygan) qismi (salmog'i) agarda jamg'armaga qo'yilsa, bunday daromad chegaralangan jamg'armaga moyillik deyiladi va quyidagicha aniqlanadi;

$$MRS = \text{Jamg'armaning o'zgarishi} (+, -) / \text{Daromadning o'zgarishi} (+, -) : S / U; \text{ Ya'ni,}$$

$$MRS1 = 5 / 20 = 0,25; \quad MRS2 = 25 / 100 = 0,25;$$

■ Bunday qilib, chegaralangan iste'molga moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, etalangan jamg'armaga moyillik esa qolgan 0,25 ni tashkil etadi. Etalangan iste'molga moyillik va chegaralangan jamg'armaga moyillik shaklida soliqlami to'lagandan keyingi daromadga tengdir. Xulosa qilib sinla, daromadning o'sgan qismi iste'molga yoki jamg'armaga ketadi. Agar muddning o'sgan qismi iste'mol qilinmasa u jamg'armaga qo'yilgan bo'ladi.

#### 4.4. Investitsiya va ularga talab

YarMMni xarajatlar bo'yicha aniqlashning ikkinchi qismi bo'lgan investitsiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar - bu hali buyumlashmagan, lekin shu chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, moliy xususiyatiga ko'ra, u yangi korxonalar qurish, uzoq muddatli xizmat beruvchi mashina va asbob-uskunalariga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan unni kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Demak, investitsiyalar bu yangi korxonalar qurilishiga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga, ya'ni kapital barpo etishga ketgan xarajatlardir.

Sof xarajatlarning investitsiyaga bo'lgan xarajatining miqdori ikkita omilga, yani, sof foydaning kutilayotgan me'yori va foiz stavkasi yoki tadbirkor real kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan bahoga teng.

Agarda kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va, aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so'mlik yangi stanok sotib olindi. Uni ishlatalish surʼiliati bir yilga teng deylik. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 110000 so'mlik kutilayotgan sof daromad oladi desak, zavod stanok xarajatini (100000 so'm) qaytagan va 10000 so'm daromad olgan bo'ladi. Sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$Fn = 10000/100000 \times 100 = 10\%$$

Investitsiya xarajatlari foya keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkas emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasini o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasini ayirmas ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa inflyatsiya daroji yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4% (16% - 12%) tashkil etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, investitsiyalash qarorini qabul qilishda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasida, nominal foiz stavkasi joriy baholarda, real foiz stavkasi doimiy yoki inflyatsiya hisobga olingandan keyin aniqlashtiriilgan baholarda hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, real foiz stavkasi - bu nominal foiz stavkasidan inflyatsiya chegirib, tashlab topilgan foiz stavkasidir.

Yuqoridagi misolimizda baho o'zgarmas deb olindi. Agar inflyatsiya bo'lshe real foiz stavkasi va kutilayotgan sof foya normasi qanday aniqlanadi. Misol uchun 100000 so'mlik investitsiya 10% haqiqiy kutilayotgan sof foya keltiradi deylik. Nominal foiz stavkasi 15% tashkil qilsin. Real foiz stavkasi=nominal foiz stavkasi - inflyatsiya foizi = 15%-10%=5%

Endi real foiz stavkasini (15%) kutilayotgan sof foya normasi (10%) bilan taqqoslasak investitsiya oilshga qaror qilish mumkinligini aniqlaymiz, ya'ni (10%-5%)=5%). Demak, 5% sof kutilayotgan foya normasiga erishish mumkin ekan.

Misol uchun biz quyidagi jadval ma'lumotnomalaridan foydalanib kutilayotgan foya normasi bilan (%) investitsiya hajmi o'rtasidagi o'zviy bog'liqlikni ko'rib chiqamiz. Ya'ni, yalpi kutilayotgan foya normasi va yalpi investisyaini aniqlaymiz.

## Kutilayotgan foyda va investitsiya (raqamlari shartli)

Kutilayotgan sof foyda normasi %	Investitsiya miqdori (yiliga mld. so'm hisobida).
16	0
14	5
12	10
10	15
8	20
6	25
4	30
2	35
0	40

Yana qo'shimcha 5 mld. so'm bo'lganda foyda normasi 10%.

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, kutilayotgan foyda normasi 16% ga teng va undan ko'p bo'lgan miqdordagi investitsiya loyihamarini investitsiya bilan ta'minlash bo'lmas ekan. Kutilayotgan foyda normasi 14% va 16% bo'lganda 5 mld. so'mlik investitsiya mavjud. Buning ma'nosi shuki, qo'shimcha 5 mld. so'mlik investitsiya 12-14 % oralig'idagi kutilayotgan sof foyda normasini keltiradi.

Yana qo'shimcha 5 mld. so'm esa 10-12% oralig'idagi kutilayotgan sof foyda normasini bildiradi. Buni biz grafikda ham tasvirlashimiz mumkin.

Grafikdan ko'rinish turibdiki, agar investitsiyalar miqdori 10 mld. so'mga teng bo'lsa, foyda normasi 12% va undan ko'p, 14% gacha bo'ladi.


Yuqorida aytiganidek, investitsiya olishga qaror qilish uchun eng asosiy shart shuki, kutilayotgan sof foyda normasi foiz stavkasidan yuqori bo'lishi zarur, aks holda, investitsiya xarajatlari qoplanmaydi.

Demak, real foiz stavkasi, ya'ni pul kapitalini qarz olish bahosi qanchalik yuqori bo'lsa, investitsiyalashni xohlovchilar shuncha kam bo'ladi va, aksincha, real foiz stavkasi qanchalik past bo'lsa, foyda keltiradigan investitsiya loyihamarini shuncha ko'p bo'ladi.

Foiz stavkasining miqdori pul-kredit siyosatining muhim quroli hisoblanadi davlat uni o'zgartirish orqali mamlakatdagi pul taklifini tartibga solib turadi.

Foiz stavkasini ko'tarilishi pulning qimmatlashuvi va unga bo'lgan tafabnini qisqarayotganligini bildiradi. Demak, investitsiya xarajatlari ham qisqarib boradi. O'z navbatida, investitsiya xarajatlarinin qisqarishi, kelajakda milliy ishlachiqarish hajmini pasayishini bildiradi.

4.3-rasm



### Qisqacha xulosalar

1. Aholining oladigan daromadlari va iste'moli o'rtasidagi bog'liqlik shun ko'rsatayapdiki, ya'ni aholining daromadlari miqdori oshib borishi bilan jamg'armalar miqdori ham oshib borar ekan. Bundan tashqari iste'mol bozorid xaridor bo'lib faqat fuqaro emas, balki ularga xizmat ko'rsatadigan korkona va tashkilotlar ham hisoblanar ekan.
2. Iste'mol va jamg'arish chizig'i iste'molchilar jamg'armasida bo'layotga o'zgarishlarga, narx va soliq, iste'molchi qarzi darajasi, shuningdek, uxo'jaliklarining taqsimlanadigan daromadlaridagi o'zgarishlarga bog'liq.

3. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik aholi oladigan daromadlarining qancha qismi iste'molga va qancha qismi jamg'armaga ketayotganligini tushunish imkoniyatini bildirar ekan.

4. Investitsiya yoki kapital qo'yilmalar hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan mablag' hisoblanar ekan. Demak, investitsiya yangi korxonalar qurishga, mashina va asbob-uskunalar sotib olishga ketgan surajatlardan iborat. Investitsiyaga qilingan xarajatlar sof foydaning kutilayotgan me'yori va foiz stavkasiga bog'liq ekan.

### Tayanch iboralar

Iste'mol funksiyasi, jamg'arma funksiyasi, jamg'arma va iste'molga o'rtacha va chegaraviy moyillik, jamg'arma va iste'mol grafiklari, qarz hisobiga hayot kechirish, xususiy jamg'armalar, davlat jamg'armalari, boshqa mamlakatlar jamg'armalari, ixtiyordagi daromad, iste'moldagi o'zgarish, jamg'armadagi o'zgarish, sof investitsiya, ichki investitsiya, yalpi investitsiya, kapital qo'yilmalar, sof xarajatlar, foyda me'yori, foiz stavkasi, nominal foiz stavkasi, real foiz stavkasi va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Daromad, iste'mol va jamg'armalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushuntirib bereng. qanday holatda iste'mol daromadga teng bo'ladi va qanday holatda jamg'arish bo'ladi?
2. Iste'mol va jamg'arma grafiklarini izohlang. Ya'nisi, qanday vaziyatda jamg'arish bo'ladi va qanday vaziyatda qarz hisobiga hayot kechiriladi?
3. Iste'mol va jamg'armaga o'rtacha va chegaraviy moyillik tushunchasini izohlang. Iste'molga jo'natiladigan yillik daromadning foydalanijadigan qismining foizdag'i ko'rsatkichi nimadan iborat bo'ladi?
4. Qaysi mablag'larni biz investitsiya tarkibiga kiritamiz. Investitsiya bilan ularga qilingan xarajatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud. Rejali investitsiya va rejalashtirilmagan investitsiya o'rtasida qanday farq mavjud?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 35 бет.
2. Агалова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст) С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галлирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М. «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Хакимова М.А. “Макроиктисодиёт”, - Т.: “Мехнат”. 1997.

## 5-bob. AD - AS modeli

- 5.1. AD - AS modeli tushunchasi.
- 5.2. AD egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar.
- 5.3. AS egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar.
- 5.4. AD - AS modellarida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajasi.

### 5.1. AD - AS modeli tushunchasi

Bir xil turdag'i tovarlarga bo'lgan talab va taklif modeli tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ularning narxlari o'rtaisdagi farqlarni tushunish imkonini beradi. Ular nima uchun ayrim tovarlarning barqaror narxlari bir-biridan farq qilishini ya'ni, paxtaning narxi oltinning narxidan kam yoki bir barrel neftning narxi bir barrel duxining narxidan kam yoxud paxtaning yillik xarajatlari boshqa mahsulotlar xarajatlaridan ko'pligi to'g'risida tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ishlab chiqarilgan biror bir mahsulotni barqaror narxlari va hajmi turli yillarda har xil bo'lishini tushunish imkonini beradi.

Ammo bir xil turdag'i tovarlarga bo'lgan talab va taklif modeli bir nechta zaruriy iqtisodiy muammolarga javob bermaydi. Ya'ni, nima uchun umuman narxlari oshadi va kamayadi, nima uchun narxlari darjasasi ayrim davrlarda o'zgarishsiz qoladi va boshqa davrlarda zudlik bilan o'sadi. Nima uchun ayrim vaqtarda milliy ishlab chiqarishning real hajmi kamayadi yoki ko'payadi va shuningdek boshqa muammolarga javob bermaydi.

Bu savollarga javob berish uchun biz mamlakatdagi barcha bozorlarni yig'ib umumiyl ho'lda o'rGANISHIMIZ kerak. Aniq aytganda biz minglab alohida narxlarni birlashtirib yig'ilgan baholar birligiga yoki baholar darajasiga olib kelishimiz lozim.

Turli xildagi tovar va xizmatlar narxlarini umumiyl baho darajasini birlashtirish, shuningdek, turli tovar va xizmatlarni milliy ishlab chiqarishning real hajmiga birlashtirish agregatlash (yoki yiriklashtirish) deb ataladi.

Birlashtirilgan baholar (baholar darajasi) va turli xil tovar va xizmatlar birlashishi (milliy ishlash chiqarishning real hajmi) yig'indi deb ataladi. Ko'rsatichlarni yiriklashtirishning bu usulidan makroqtisodiy tadqiqotlarda tez-tez foydalanib turiladi. Demak, turli xil tovar va xizmatlarga bo'lgan talab va taklif ya'ni ular hajmining o'zgarishi milliy ishlab chiqarish holatini ko'rsatar ekan.


Milliy bozordagi talab va taklif alohida xaridorlar istagi ko'rinishida bo'lmasdan, balki barcha xaridorlarning yig'ma talabi va taklifi ko'rinishida aks etar ekan.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, umumiylab milliy iqtisodiyotdagি barcha uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va, shuningdek, horijiy xaridorlarning tovar va xizmatlariga bo'lgan talabidan iborat ekan.

Jami talab va taklif hamda narxlar darajasi barcha makroiqtisodiy modellar tuzilishining asosi deb hisoblanadi.

### 5.1-chizma:


#### Jami talab, taklif va narxlar darajasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik



## 5.2. AD egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar

Biz o'tgan mavzui va savollarda ko'rdikki narxlar darajasi va jami talab o'rtaida teskari bog'liqlik mavjud bo'lib, narxlar qanchalik past bo'lsa xaridorlar ko'proq tovar va xizmatlarni sotib olishni istab qolishadi.

Narxlar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtaida bog'liqliknini ifoda etuvchi chiziq jami talab egri chizig'i deb ataladi. Buni chizma ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin:



Shunga e'tibor beringki, talab egri chizig'i doimo pastga va o'ngga suriladi. Niha uchun?

Bunday surilishning sababi har xil. Ya'ni alohida olingan tovarlarda talab egri chizig'inining surilishiga asosan daromad samarasi va o'rnbosar tovarlar sabab bo'lar edi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste'molchilarning pul daromadlari ko'proq mahsulotlar sotib olish imkonini beradi (daromad samarasi). Shuningdek, baho pasayganda iste'molchi ushbu tovari ko'proq sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Bunday izohlar jami talab to'g'risida gapirganda to'g'ri kelmaydi. Chizmadan ko'rniib turibdiki, agar biz talab egri chizig'i bo'yicha pastga qarab siljisak, barcha tovarlarning bahosi pasayadi. Shuningdek, alohida tovarlarga individning egri labi iste'molchinining daromadiga bog'liq bo'lsa, bu yerda esa umumiyl daromadlar miqdoriga bog'liqdir. Agarda jami talab egri chizig'ini daromad va

o'rnini almashtiradigan tovarlar samarasi bilan tushuntirib bo'lmas ekan, u he nima uchun u pastga siljiydi ?

**Avvalambor jami talab egri chizig'inining bunday holati uchta omil b. bog'liqdir. Ya'ni:**

1. Foiz stavkasi samarasi.

2. Moddiy qiymatliklar samarasi yoki real kassa qoldiqlari yoxud' bo samarasi.

3. Import xaridlar samarasi.

### **Foiz stavkasi samarasi**

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, ya'ni jami talab egri chizig'i siljishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga, demak iste'mol xaraja va investitsiyalarga bo'lgan ta'siriga bog'liq. Aniq aytganimizda, agar b darajasi oshsa foiz stavkasi ham oshadi, o'sgan foiz stavkalari, o'z navbat iste'mol xarajatlari va investitsiyalarni kamayishiga olib keladi.

Demak, tovarlarning baho darajalari oshsa iste'molchilarga xarid qilish uc katta miqdorda naqd pullar kerak bo'ladi. Ishbilarmonlar uchun ham ish haq boshqa xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pullar kerak bo'ladi. Qisqa aytganda, tovarlar bahosi darajalari yuqori bo'lsa pulga bo'lgan talabni oshiradi

Pul birligi hajmining o'zgarmagan holatida talabning oshishi pul foydalanishni chigallashtiradi. Bu foiz stavkasini ko'rsatadi. Foiz stavkalari yuqori sharoitida ishbilarmonlar va aholi xarajatlari miqdorini kamaytiradi. Ya tezda foiz stavkalarini oshishiga moslashadi.

Bundan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki narxlarning o'sishi pi bo'lgan talabni ko'paytirib, foiz stavkasining oshishiga olib keladi va shu tuf milliy mahsulotning real hajmiga bo'lgan talabni qisqartirar ekan.

### **Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari**

Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari shuni bildiradiki, nar darjasining oshishi, jamg'arilgan pul aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real x qobiliyatini tushirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi yanada kambagalla-

boradi va o‘z-o‘zidan xarajatlar miqdorini qisqartiradi. Masalan, biror-bir shaxs o‘zining aktivida 10 mln. so‘m bo‘lsa, undan hech ikkilanmasdan birorta avtomashina sotib olishi mumkin. Agarda inflyatsiya ushbu shaxs aktivining to‘lash qobiliyatini 6 mln. so‘mga tushurib yuborsa u mashina sotib olmasligi mumkin.

### **Import xaridlar samarasi**

Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki biror-bir mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, u mahsulotga bo‘lgan talab kamayadi va o‘z navbatida import mahsulotlarga bo‘lgan talab oshadi. Va aksincha ichki narxlarning kamayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga olib keladi yoki milliy mahsulotga bo‘lgan talabni oshiradi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan omillar jami talabning narx omillari deb ataladi, chunki milliy ishlab chiqarish real hajmining o‘zgarishi faqat narxlargagina bog‘liqdir. U egiluvchan narx modeli deb ataladi. Bundan tashqari jami talabning murxlarga bog‘liq bo‘lмаган omillari ham mavjud. Demak jami talab uy xo‘jaligi, korxonalar, hukumat va horijiy sheriklar talablaridan tashkil topar ekan. Unda ularning xarajatlardagi o‘zgarishlar jami talabning miqdorida o‘z aksini topadi va uning egri chizig‘ini chapga yoki o‘ngga siljitadi. Jami talabning narxlarga bog‘liq bo‘lмаган omillariga biz quyidagilarni kiritamiz.;

1. Iste’mol xarajatlardagi o‘zgarishlar;
  - a) iste’molchilar qo‘llaridagi moddiy qiymatliklar o‘sganda;
  - b) iste’molchilar kelajakda o‘z daromadlarini ko‘payishini kutishi natijasida ko‘proq xarid qilishni afzal ko‘risha;
  - c) iste’molchilar qarzlari miqdori kamaysa va ularga hozirgi kunda ko‘proq xarid qilish imkonini bersa;
  - d) iste’molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar stavkasi kamaysa.

2. Investitsiya xarajatlardagi o‘zgarishlar.
  - a) foiz stavkalari - pul massasining ko‘payishi bilan u oshib boradi va shunga muvofiq investitsiya xarajatlari qisqaradi;
  - b) investitsiyalardan kutilayotgan foyda normasi oshsa;
  - c) korxonalardan olinadigan soliqlar miqdori kamaysa;

g) texnologiya - yangi texnikalarni ishlab chiqarishga jahb qilishsa;

d) rezervdagi quvvatlar o'zgarishi natijasida.

3. Davlat xarajatlarining o'zgarishi, ya'ni davlat yangi-yangi xarajatlar miqdorin oshirganda. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilganda.

4. Sof eksport xarajatlari.

5. Boshqa mam'lakatlar milliy daromadlarining o'sib borishi.


6. Valyuta kurslaridagi o'zgarishlar.

### 5.3. AS egri chizig'i va unga ta'sir etuvchi omillar

Jami taklif deganda, muayyan narxlar sharoitida real ishlab chiqarish mumk bo'lgan tovar va xizmatlarni real hajmi tushuniladi. Narxlarning yuqori daraja ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga imkoniy yaratadi va, aksincha, past narxlar mahsulot ishlab chiqarishni qisqartiradi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan narxlar darajasi o'rtasiga to'g'ri aloqa mavjud. Demak, narxlarning o'sib borishi bilan mahsulotlar ishlab chiqarish o'sib boradi. Pasayishi bilan tushib boradi.

#### 5.3-chizma.

##### Jami taklif egri chizig'i.



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, jami taklif egri chizig‘i uch qismdan iborat. Ya’ni, gorizontal yoki keynsian kesma, ko‘tarilib boruvchi yoki oraliq kesma va vertikal yoki klassik kesma. Bundan biz ko‘rib turibmizki, jami taklif egri chizig‘i milliy ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishi sharoitida mahsulot birligiga ketgan xarajatlar miqdorini o‘zgarishini ko‘rsatadi. Bizga ma’lumki mahsulot birligi xarajatlari ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini ularga ketgan xarajatlarga bo‘lish orqali topiladi.

Jami taklif egri chizig‘idagi bu kesmalar qanday iqtisodiy vaziyatlarni aks ettiradi.

1. Keynsian kesmada milliy ishlab chiqarishning real hajmi tushuniladi. Chunki u to‘liq bandlik sharoitidagi milliy ishlab chiqarish hajmidan kamdir. Demak, gorizontal kesmada iqtisodiyot chuqur inqirozga uchragan sharoitda va katta miqdordagi resurslardan foydalanmagan sharoitini ko‘rsatadi. Ushbu foydalaniilmayotgan resurslarni narxlar darajasiga ta’sir ko‘rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi o‘sib boshlasa, ishlab chiqarishdagi hech qanday vaziyat narxlar oshishiga ta’sir ko‘rsatmaydi. Chunki uch-to‘rt oy ishdan bo‘sh yurgan ishchilar o‘z ish joylariga qaytishi natijasida maoshlarini oshirishni talab qilishmaydi. Shuningdek, ishlab chiqaruvchilar o‘ziga zarur bo‘lgan resurslarni barqaror narxlarda sotib olishlari mumkin, ishlab chiqarish xarajatlari ko‘paymaydi. Demak, mahsulotlar narxining oshishiga asos yo‘q. Ushbu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi o‘zgarganda narxlar darjasini o‘zgarmas ekan.

2. Vertikal yoki klassik kesma egri chiziq bo‘yicha o‘ngga siljishi natijasida ishlab chiqarishning mavjud hajmida iqtisodiyot to‘liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko‘ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu nuqtasida o‘zining ishlab chiqarish imkoniyatlari darajasida bo‘ladi. Bu shuni bildiradiki narxlarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to‘liq qavvatda faoliyat ko‘rsatayapdi. To‘liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriroq narxlarni taklif qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat

qiladi. Ammo, bunday holatda, ayrim firmalar resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi mumkin, boshqalari esa yo'qotadi. Natijada, bu narxlar oshishidan mahsulotlar narxi oshishi mumkin, ammo ishlab chiqarishning real hajmi o'zgarmay qoladi.

Jami taklif egri chizig'ining vertikal qismida ikkita kamchilik mavjud;

- a) bu kesma klassik iqtisodiy fanlar nuqtayi nazaridan qaralgan va to'liq bandlik me'yor deb qabul qilingan.
- b) "to'liq bandlik" va "to'liq bandlik sharoitidagi milliy ishlab chiqarishning real hajmi" - bu o'zgaruvchan tushunchadir. Chunki ishchi kuni va ishchi kuchlari ayrim vaqtarda me'yordan oshib ketishi ham mumkin.

3. Oraliq kesma - ishlab chiqarish real hajminig o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi. Nima uchun? Chunki iqtisodiyotning iqtisodiy pasayish holatidan to'liq bandlikka o'tish sharoiti notekis va turli vaziyatlarda ro'y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning yetishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda aksincha. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eski asosiy vositalardan va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketadigan xarajatlarni oshishiga va natijada narxlar darajasining o'sishiga olib keladi. Jami taklif egri chizig'idagi bu uchta kesma ayrim iqtisodchilar o'rtasida tortishuvlarga sabab bo'lmoqda.

Keynsianchilik maktabi vakillari jami taklif egri chizig'ini goh gorizontal, goh ko'tarilib boruvchi deb hisoblaydilar va shu sababli jami taklifdagi har qanday o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta'sir etadi deydilar.

Klassik yoki noklassik maktab vakillari egri chiziq butunlay vertikal ko'rinishda bo'ladi deb hisoblaydilar. Ularning fikricha jami taklifni o'zgarishi iqtisodiyot uchun unchalik sezilarli emas. Chunki bu o'zgarish faqat narx darajasiga ta'sir etib ishlab chiqarish hajmi va bandlik o'zgarishiga olib kelmaydi.

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi ko'payishi yoki kamayishi narxga bog'liq bo'limgan omillar hisobiga ham ro'y berishi mumkin. Bu omillar jami taklif egri chizig'ini goh o'ng tomonga, goh chap tomonga surishi mumkin. Narxga bog'liq bo'limgan omillarnig xususiyati shundaki ular mahsulot birligiga ketigan

xarajatlarga bevosita ta'sir qiladi. Va shu orqali jami taklif egri chizig'ining surilishiga sabab bo'ladı.


Bu omillar quyidagilardan iborat;

1. Resurslarga bo'lgan talabning o'zgarishi;
  - a) ichki bozordagi resurslar miqdorining kamayishi;
    - yer resurslari;
    - mehnat resurslari;
    - kapital resurslari;
    - tadbirkorlik qobiliyatları;
  - b) import resurslar narxlaridagi o'zgarishlar;
  - v) bozordagi hukmronlik va monopoliya;
2. Unumdorlikdagi o'zgarishlar;
3. Huquqiy me'yordagagi o'zgarishlar;
  - a) soliq va subsidiyalarning o'zgarishi;
  - b) davlatni tartibga solishdagi o'zgarishlar;

#### **5.4. AD va AS modelida narxlar va milliy ishlab chiqarish real hajmining muvozanatli darajaları**

Narxlarning muvozanatli darajasi deganda, shunday narx darajasi tushuniladiki unda jami talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Avvalam bor jami talab egri chizig'i va jami taklif egri chizig'ining oraliq kesmada mos kelishini ko'rib chiqamiz. Narxlarning muvozanatli darajasi va milliy ishlab chiqarish hajmining muvozanatli darajalari mos ravishda Pye va Qye far bilan belgilangan. Nima uchun Pye narxlarning muvozanatli darajasi va Qye milliy ishlab chiqarishning muvozanatli darajasini bildirishini ko'rsatishimiz uchun narxlar darajasi Pye bilan emas balki P1 bilan ko'rsatilgan. Jami taklif egri chizig'i ko'rsatayapdiki narxlar darajasi P1 bo'lgan vaziyatda korxonalar milliy ishlab chiqarish hajmini Q1 miqdoridan oshirmaydi.

Jami taklif egri chizig‘idagi Oraliq kesmadagi muvozanat.




Iste'molchilar bunday hajmdagi mahsulotlarni  $P_1$  darajada sotib olishga tayyor turadi. Iste'molchilar o'rtasidagi raqobat narxlari darajasini  $Pye$  gacha suradi. Chizmadagi strelkaning ko'rsatishicha narxlari darajasini  $P_1$  dan  $Pye$  gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini  $Q_1$  dan  $Qye$  gacha oshirishga va iste'molchilarning iste'molini  $Q_2$  dan  $Qye$  gacha kamaytirishga olib keladi.

Keyingi grafikda jami taklif egri chizig‘i keynsian kesma orqali o'tadi. Bunday vaziyatda narxlari darjasini hech qanday ahamiyatga ega emas. Buntushunish uchun avvalom bor biz milliy ishlab chiqarishni muvazanatli hajmin  $Qye$  va muvozanatli narxlari darajasini  $Pye$  bilan belgilaymiz.

Jami taklifning keyingi o'sishi egri chiziqni yanada yuqoriq surilishiga olib keladi. Jami talab egri chizig‘i jami taklif egri chizig‘ining vertikal kesmasida kesishadi. Bu yerda, muvozanat narx  $P_2$  darajasida, ishlab chiqarishning muvozanat hajmi  $Q_3$  nuqtasida o'rnatiladi. Jami taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat narxlari darajasining o'zgarishiga olib keladi. Ishlat chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

## 5.5-chizma.

Jami taklif egri chizig'ining keynsian kesmadagi muvozanati.




Oraliq va vertikal kesmalarda narxlar o'sib borishi bilan kuzatilgan jami talabning ko'payishi talab infliyatsiyasi mavjudligini ko'rsatadi.

Jami taklifning o'zgarishi muvozanat narxlar darajasiga va milliy ishlab shiqarish hajmining muvozanat darajasiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rib shilqamiz.

Birinchidan, tashqi hamkorlar import mahsulotlariga bo'lgan narxni oshiradi, deb faraz qilaylik. Import mahsulotlari narxining oshishi mamlakatda ishlab shiqarilayotgan barcha mahsulotlar va import qilinayotgan resurslar narxini oshirib yuboradi. Shunday qilib, milliy ishlab chiqarishning barcha bo'g'intalarida ishlab shiqarilayotgan mahsulotlar birligi xarajatlarni oshirib yuboradi. Shuning uchun ham jami taklif egri chizig'i AS1 dan AS2 ga qarab siljiydi. Bunday vaziyatda narxlar darajasining oshishi infliyatsiyaga olib keladi.

Agarda jami taklif egri chizig'i Q1 dan Q2 ga qarab siljisa narxlar darjasasi P1 dan P2 ga qarab o'sadi, bandlik kamayadi va infliyatsiya kelib chiqadi. Buni biz infliyatsiya deb ataymiz.

## Jami taklif o'zgarishining ta'siri.



Boshqa bir vaziyatda masalan narxlarga bog'liq bo'lmagan omillarda birortasi o'zgarib jami taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni, yerning baho pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va buning oqibatida mahsul birligiga ketgan sarf-xarajatlar qisqarsa unda jami taklif egri chizig'i Ye3 nuqtasi kesib o'tadi. Bunda narxlар muvozanat darajasi P1 dan P3 ga qarab siljydi, ishlab chiqarishning muvozanatlì hajmi Q1 dan Q3 ga oshadi. Ya'ni, iqtisod o'sish holati mavjud bo'ladi.

## Qisqa muddatli davrlarning xarakteristiqlari

## Qisqacha xulosalar

1. Uzoq va qisqa muddatli davrlarining bir-biridan asosiy farqi shundaki, uzoq muddatli davrlarda narxlar elastik, qisqa muddatli davrlarda narxlar noelast bo'ladi. AD-AS modeli iqtisodiy tebranishlarni tahlil qilish va baholash uchun ast yaratadi.

2. AD modeli narxlar darajasi qanchalik past bo'lsa tovar va xizmatlarni bo'lgan jami talab miqdorining shunchalik ko'p bo'lishini ko'rsatadi.

3. Uzoq muddatli davrlarda AS modeli vertikal joylashadi: ishlab chiqarish ujimi, mehnat xarajatlari, kapital va mavjud texnologiyalar orqali aniqlanadi. Shuning uchun AD dagi o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasiga jinas balki narxlar darajasigagina ta'sir ko'rsatadi.

4. Qisqa muddatli davrlarda AS modeli gorizontal joylashadi. Chunki, ish haqi u narxlar qayd qilingan bo'ladi. Shuning uchun AD gi o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi va bandlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

5. AD va AS modellari tomonidan bo'layotgan ta'sirlar iqtisodiy ebranishlarga sabab bo'ladi.

### Tayanch iboralar

Agregatlash, AD va AS modellari, foiz stavkasi samarasi, boylik va kassa qoldig'i samarasi, import xarid samarasi, AD va AS egri chiziqlari, AD va AS ga la'sir etuvchi baholi va bahosiz omillar va ularni aniqlash, makroiqtisodiy muvozanat tushunchasi, AD va AS ni o'zgarishini real YaMM va bahoga ta'siri, AS ni oraliq kesimi, AS ni klassik kesimi, AS ni Keyns kesimi, resession va Jefflyatsion oraliq, inflyatsiyali oraliq, daromad tengligi, xususiy talab, jami talab va taklif va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Qisqa muddatlardagi noelastik va uzoq muddatlardagi elastik narxlarga misol seltiring.
2. Nima uchun AD egri chizig'i pastga yo'naltirilgan?
3. Qisqa muddatli va uzoq muddatli davrlarda pul taklifini oshishini tahlil qiling.
4. AD va AS modellaridagi narxga bog'liq bo'lmagan omillarni sanab o'ting.
5. Nima uchun markaziy moliya tashkilotlari taklif tomonidan ko'rsatilayotgan falajlarga nisbatan talab tomonidan ko'rsatilayotgan falajlarni osonroq hal qiladi?

### **Adabiyotlar ro‘uxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 3 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст С.Петербург. Судоиздание. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -«Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Косимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитув, 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Хакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## **6-bob. Keyns makroiqtisodiy muvozanat nazaryasi**

### **6.1. Klassik iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanat nazariyasi.**

- Keynsning iqtisodiy muvozanat nazariyasi.
- Klassik iqtisodchilar va Keynschilarining iqtisodiy muvozanat nazariyalarida uni talab va uning o'zgarishi.
- 1. Keynsning bandlik nazariyasi.

#### **6.1.1. Klassik iqtisodchilarning iqtisodiy muvozanat nazariyasi**

Ma'lumki bu savolga javob turli yillarda turticha bo'lgan, ya'ni vaqt o'tishi bilan o'zgarib turgan. "Buyuk dipressiya" davrida ko'pgina yetuk iqtisodchilar, ya'ni hozirgi kunda klassiklar deb ataladigan iqtisodchilar bozor iqtisodiyoti iqtisodiyotdagi resurslardan to'liq foydalanish imkonini beradi deb hisoblashgan. Atinno ular iqtisodiyotda ayrim vaqlarda, ya'ni urush, siyosiy to'ntarish, tabiiy o'stl, shuningdek, boshqa holatlarda o'zgarishlar bo'lib turishini tan olishsa ham, shu bilan birga, bozor tizimining o'ziga xos xususiyatlari bu iqtisodiy qlyinchiliklarni o'z-o'zidan hal qiladi deb tushuntirishadi.

Klassiklar nazariyasi asosida ikkita asosiy tushuncha mavjud. Birinchidan, to'liq bandlik sharoitida mahsulotlarni sotib olish uchun xarajatlar miqdorining yetishmasligi mumkin emas. Ikkinchidan, agarda umumiylar xarajatlar miqdori yetishmay qolgan sharoitda ham baho va ishlabi haqi kabi dastaklar ishga tushadi va unijada xarajatlar miqdorining kamayishi ishlab chiqarishning real hajmi, bandlik va real daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelmaydi deb hisoblashadi.

Klassiklar nazariyasini tan olmaslik asosan Sey qonunidan boshlangan. Sey qonuni bo'yicha mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonining o'zi ishlab chiqarilgan mahsulotlar qiymatiga teng ravishda daromad yaratadi degan oddiy goyadan ilboratdir. Demak bu degani mahsulotlarni sotib olish uchun har qanday mahsulotlar hajmini ishlab chiqatish o'z-o'zidan daromad yaratadi. Ya'ni, taklif zining xususiy talabini paydo qiladi. Sey qonunining inohiyatini mahsulotlar surʼiboshlash savdosida ham ko'rish mumkin. Poyafzalchi poyafzal ishlab chiqaradi unki o'ziga zarur bo'lgan boshqa mahsulotlarga bo'lgan talabini qondirish uchun

poyafzal taklif qilishadi. Poyafzalchi tomonidan poyafzalning taklif qilinishi uning talabidan iboratdir. Xuddi shunday butun iqtisodiyot bo'yicha mahsulotlar almashishi amalga oshiriladi.

Ammo Sey qonuning mahsulotlar ishlab chiqarish mos ravishda pul daromadlari summasini olish imkonini bersa ham iste'molchilar ushbu daromadlarning hammasini to'liq xarajat qilmasligi umum qabul qilingan tushunchadir. Ya'ni, daromadlarning qandaydir bir qismini jamg'arishadi va bu jaing'arilgan qismi yuqoridaqgi bahsda o'z javobini topmaydi. Jamg'arish daromadlar tarkibidan ma'lum miqdordagi mablag'larni o'zida mujassamlashtiradi. Demak, iste'mol xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini sotib olishga yetmaydi. Agarda uy xo'jalikdari o'z daromadlarining bir qismini jamg'arishsa, u holda taklif o'zining talabini paydo qilmaydi. Jamg'arish iste'molning yetishmasligiga olib keladi. Natijada sotilmay qolgan mahsulotlar ishlab chiqarishning kamayishiga olib keladi.

Ammo klassik iqtisodichilar haqiqatda jamg'arish talabning yetishmasligiga olib kelmaydi, chunki har bir jamg'arilgan so'm tadbirkorlar tomonidan investitsiyalashadi deb ta'kidlashadi. Agarda tadbirkorlar uy xo'jaliklarining jamg'armalari miqdorida investitsiya qilishsa Sey qonuni amat qiladi va ishlab chiqarish hamda bandlik darajasi doimiy bo'lib qoladi. Iqtisodiyotning to'liq bandlik sharoitidagi daromadlar va mahsulotlar ishlab chiqarishini ta'minlash uchun xarajatlar darajasiga erishishi va saqlab qolishi tadbirkorlar tomonidan uy xo'jaliklari jamg'armalari miqdorida investitsiyalashiga bog'liqdir.

Klassik iqtisodchilar ta'kidlashadiki, kapitalizmning o'ziga xos pul bozor mavjud va bu bozor jamg'arma va investitsiyaning tengligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham to'liq bandlik mavjud deyishadi. Bu shuni bildiradiki, pul bozoridi (foiz stavkalari) jamg'arma tariqasida daromadlar va xarajatlar miqdoridan chiqqai mablag'lar o'z-o'zidan investitsion mahsulotlarga sarf qilingan mablag'la miqdorida qaytadan kelishi ustidan nazorat olib boradi. Foiz stavkalari yordamid jamg'arma va investitsiyalarni boshqarishni tushuntirish oddiy va hammag tushunarlidir. Klassik iqtisodchilarning ta'kidlashicha boshqa vaziyatlarda u

xo'jaliklari jamg'arish o'rniiga iste'mol qilishni afzal ko'rishadi. Tovar va xizmatlar iste'moli insoniyat talabini qondiradi, foydalanilmagan mablag'lar yo'q. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, iste'molchilar ularning tejamkorligini rag'batlantirish tariqasida foiz stavkalari to'lasagina jamg'arishi mumkin. Foiz stavkalari qanchalik yuqori bo'lsa shunchalik ko'p mablag'lar jamg'ariladi. Jamg'armalardan foydalanish uchun kimlar to'lov ishlarini olib borishadi. Albatta korxonalar xo'jayinlari, investorlar, ya'ni, o'zining ishlab chiqarishini kengaytirish va yangilash uchun pul kapitalini izlovlchilar hisoblanishadi. Biz bilamizki foiz stavkalari ishbilarmonlarning ishlab chiqarish xarajatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Demak, ular o'z vaqtida foiz stavkalarining pastroq bo'lishiga intilishadi. Qisqacha aytganda, foiz stavkalarining o'zgarishi Sey qonunini ko'proq miqdorda jamg'armalar mavjud bo'lgan iqtisodiyotda ham faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi. Foiz stavkasi jamg'arma va investitsiyani bog'lab turar ekan butun iqtisodiyot shunday bo'lishi kerak deb ta'kidlashadi.

Klassik iqtisodchilar o'zlarinig goyalarini yana bir tushuncha bilan isbotlashga barakat qilishadi. Ya'ni, tadbirkorlar tomonidan taklif qilingan mahsulotlar hujmining darjasini nafaqat umumiy xarajatlar miqdoriga, balki mahsulotlar bahosi darajasiga ham bog'liqidir. Bu shuni bildiradiki, agarda foiz stavkalari ayrim sabablarga ko'ra jamg'armalarni investitsiyalar tariqasida ishlab chiqarishga qaytarmasa, kamaygan har qanday xarajatlar miqdori mos ravishda bahoning pasayishi bilan qoplanadi. Boshqacha aytganda 40 so'mga 10 so'mdan to'rtta ko'ylak sotib olishsa, narxlar 5 so'mga kamayganda 20 so'mga shuncha ko'ylak sotib olish mumkin. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat bahoning egiluvchanligiga olib keladi. Bundan tashqari talabning kamayishi ortiqcha mahsulotlardan qutilish uchun narxlarning pasayishiga olib keladi. So'm to'lov qobiliyatlarining oshishi jamg'armasi mavjud bo'lmagan shaxslarga mavjud pul mablag'lari sharoitida ko'proq mahsulotlar sotib olishga undaydi. Shuning uchun jamg'arma ishlab chiqarish va bandlikning pasayishiga emas, balki narxlarning pasayishiga olib keladi.

Narxlarning pasayishi resurslar narxining pasayishiga olib keladi. Xususan ish haqining pasayishiga ham olib keladi. Klassik iqtisodchilarning fikricha ish haq miqdori kamayadi va kamayishi kerak. Ish haqining kamayishi ishsizlar sonin oshiradi. Ammo ishbilarmonlar ishsizlarni oldingidek yuqori ish haqi stavkalarig' jalb qilmasdan ish haqining past stavkalariga jalb qilishadi. Mehnatga bo'lgan talal tezda kamayadi. Yuqori ish haqi stavkalarida ishlaydigan ishchilar past ish haq stavkalarida ishlashga majbur bo'lishadi. Raqobatning mavjudligi bu ishchilarg' shunga rozi bo'lishga majbur qiladi. Bo'sh ish joylariga bo'lgan raqobat ish haqini shu darajagacha pasayishiga olib keladiki toki ishbilarmonlar barcha ishsizlarni ishga jalb qila olishsin. Shuning uchun klassik iqtisodchilar majburiy ishsizli mavjud bo'lmaydi deb hisoblashadi. Bundan tashqari klassik iqtisodchilarning fikricha davlatning iqtisodiyotga aralashuvi umuman mumkin emas.



## 6.2. Keynsning iqtisodiy muvozanat nazariyasi

Klassik iqtisodchilarning bandlik nazariyasiga iqtisodiyotda mavju bo'ladigan ishsizlik va inflyatsiya to'g'ri kelmaydi. Biz bilamizki iqtisodiyotda to'liq bandlik sharoitiga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ham iqtisodchilarning klassik nazariyaning asosiy jihatlarini tanqid qila boshladilar.

1936 yili ingliz iqtisodchisi Jon Keyns kapitalizm iqtisodiyotiga yangi is bilan bandlik nazariyasini yaratdi. U o'zining "Pul, protsent va ish bila bandlikning umumiy nazariyasi" asosida uning noto'g'ri jihatlarini isbotlashg urindi.

Keyns nazariyasining eng qat'iy jihat shuki, u bozor iqtisodiyotida ish bila to'la bandlikni ta'minlaydigan hech qanday mexanizm yo'qligini isbotlad. Makroko'lamda iqtisodiyot muvozanatga erishishi mumkin, lekin shunda har ma'lum miqdorda ishsizlik va inflyatsiya saqlanib qolinishini, to'la ish bila bandlik qonuniy holat emas, balki tasodifdir, kapitalizm o'z-o'zidan tartibga tushi rivojlanib ketavermasligini isbotlab berdi. Shuningdek, iqtisodiyotdagagi tebranishl faqat urush, tabiiy ofat va shu kabi vaziyatlarga bog'liq emas, balki u tinchli yillarida ham ichki omillarning salbiy oqibatlaridan kelib chiqishini asoslagan

Ishsizlik va inflyatsiyaning kelib chiqishi investitsiya va jamg'armalarga bevosita bog'liq. Narxlarning oshishi va ish haqining pasayishi boshqa salbiy omillar bilan birga iqtisodiyotning beqarorligiga olib keladi. Keyns nazariyasi Sey qonunini ham ma'lum darajada inkor etadi. Sey qonuni bo'yicha tadbirkorlar faoliyati va jamg'arish rejatlari foiz stavkasida mutonosiblashadi. Keynschilar fikricha esa agar tadbirkorlar jamg'armalarni ko'paytirishsa, firmalar investitsiyalarni ko'paytirishlari mumkin.

Chunki jamg'aruvchilar subyekti va investorlar har xil guruhdagi odamlardir. Korxonalar, ayniqsa, korporatsiyalar katta miqdordagi investitsiya qarorlarini qabul qilishadi. Katta hajmdagi ishtab chiqarishga ega bo'lgan iqtisodiyotda uy xo'jaliklari ko'p miqdorda jamg'arishadi. Shuni aytib o'tish kerakki jamg'arish va investitsiyalarni har xil guruhlardagi odamlar qabul qilishadi.

Jamg'aruvchilar va investorlar subyektlari har xil sabablarga ko'ra boshqariladi. Keynschilar fikricha jamg'arma va investitsiyalar bitta omilga bog'liq bo'Imagan holda turli sabablar asosida amalga oshiriladi. Masalan, aymumlari qiymati o'zining ish haqi miqdoridan ortiq bo'lgan mahsulotlarni sotib olish uchun, uy xo'jaliklari esa avtomobil yoki televizor sotib olish uchun jamg'arishadi. Jamg'armalar biror bir shaxs yoki uning oilasining kelajakdagi istemolini qondirish maqsadida; ya'ni uy xo'jaliklari oila boshlig'ining nafaqaga chiqishlari yoki bolalarini kollejlarda o'qishini ta'minlash maqsadida jamg'arishadi. Bundan tashqari jamg'arma tasodifiy vaziyatlarda foydalanish maqsadida jamg'ariladi. Keynschilar ta'kidlashicha, jamg'arma va investitsiyalarni aniqlashning eng asosiy omili bo'lib milliy daromad hisoblanadi.

Nima uchun tadbirkorlar ishlab chiqarish vositalarini sotib olishadi. Investitsiyalash uchun pul kapitaliga ega bo'lishga to'lanadigan to'lovlar, ya'ni foiz stavkasi investitsiya rejasini tuzayotganda hisobga olinadi. Ammo, foiz stavkasi yagona omil bo'lib hisoblanmaydi. Investitsiyalar miqdorini aniqlashda usosiy omillardan biri bo'lib foyda normasi hisoblanadi.

Klassiklar fikricha, pul bozorida investitsiyalashning asosiy manbayi bo'lib Joriy jamg'arma hisoblanadi. Keynschilar fikricha esa pul bozorida boshqa ikkita

manba mavjud. Birinchidan uy xo‘jaliklarining naqd jamg‘armalari va ikkinchidan pul taklifini ko‘paytiradigan kredit tashkilotlari faoliyat ko‘rsatadi.

Keynschilar nazariyasi bo‘yicha aholi o‘z mablag‘tarini nafaqat kunlik xaridlarni amalga oshirish uchun, balki o‘z boyliklarini oshirish uchun ham saqlashadi. Bu pul vositalari bir qismining kamayishi va ularni pul bozorida investorlarga berish joriy jamg‘armalarga nisbatan solishtirganda vositalarning ortiqchaligiga olib kelishi mumkin. Shunga o‘xshash kredit beradigan muassasalardan ssudalarning berilishi pulning taklifini ko‘paytiradi. Bank yoki boshqa moliyaviy tashkilotlardan kreditlarning berilishi joriy jamg‘armalar ko‘payishiga asos bo‘ladi. Natijada, uy xo‘jaliklari qo‘lidagi pul vositalarining kamayishi va banklar tomonidan ssudalarning berilishi investitsiyalar miqdorini joriy jamg‘armalar miqdoridan oshishiga olib kelishi mumkin. Bu shuni bildiradik. Sey qonuni faoliyat ko‘rsatmaydi.

Klassik nazariyachilar barcha joriy jamg‘armalar pul bozoriga chiqariladi de noto‘g‘ri aytishadi. Chunki, birinchidan uy xo‘jaliklari jamg‘armalarning qandaydir bir qismini pul bozoriga yubormasdan qo‘lida olib qolishi mumkin ikkinchidan joriy jamg‘armalar bank foizlarini to‘lash uchun ishlataladi.

Keynschilar yondashuvi shundan iboratki, jamg‘arish va investitsiyalar rejas bir-biriga mos kelmaydi va shuning uchun ham ishlab chiqarishi, daromad, bandlik narxlar darajasida o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Bundan tashqari, keynschilar fikrichi narxlar darajasi va ish haqi haqiqatda pasayishga yo‘naltirilgan egiluvchanlikda iborat emas. Hatto ular shunday bo‘lgan taqdirda ham shubhalidir. Chunki narxlar vish haqining pasayishi keng tarqalgan ishsizlikni biroz yumshatishi mumkin, xolos.

### **6.3. Klassik va keynsianchilar iqtisodiy muvozanat nazariyalarida jami talab va uning o‘zgarishi**

Klassik iqtisodchilar fikricha, jami talab egri chizig‘i vertikal to‘g‘ chiziqdan iborat va faqat ishlab chiqarishning real hajmini ifodalaydi. Ikkinci tomonidan pastga egilgan jami talab egri chizig‘i barqaror bo‘lishga intitadi va faqat narxlar darajasini aniqlaydi. Bu ikki umum ko‘rsatkichlarni qarab chiqamiz.

1. Vertikal jami taklif. Vertikal jami taklif egri chizig'i ishsizlikning tabiiy darajasiga yoki to'liq bandlik sharoitidagi ishsizlik darajasiga to'g'ri keladi. Klassiklar fikricha iqtisodiyot, Sey qonuni, barqaror foiz stavkasi, egiluvchan narx va ish haqi kabi omillar ta'sirida to'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsatadi. Ular fikricha narxlar o'zgarishi bilan bir vaqtida ishlab chiqarish hajmi o'zgarmaydi.

Oidingi mavzularda ko'rib o'tdikki narxarning past darajasida ishlab chiqarish foydaliligi kamayadi va ishlab chiqaruvchilarni kamroq mahsulotlar taklif qilishga majbur qiladi va, shuningdek, kamroq ishchilarni jalb qilishi mumkin. Klassiklar fikricha, ishlab chiqarishga kiritilayotgan omillarga xarajatlar, narxlar pasayishi bilan bir vaqtida kamayadi va natijada real foya va ishlab chiqarish hajmi o'zgartmay qoladi.

2. Barqaror jami talab. Klassiklar hisobicha, jami talab asosida pul yotadi. Ya'ni, ishlab chiqarishning real hajmini sotish, birinchidan, uy jihozlari va ishbilarmonlardagi mavjud pul miqdorlariga, ikkinchidan, ushbu pullarning narxlar darajasi bilan aniqlanadigan to'lov qobiliyatiga va real qiymatiga bog'liq. Vertikal chiziq bo'yicha pastga tushsak narxlar darajasi kamayadi. Bu shuni bildiradiki har bir so'mning to'lov qobiliyati oshadi va shuning uchun ushbu pullarga ko'proq mahsulotlar sotib olish mumkin.

Klassiklar fikricha, davlat moliya tashkilotlari pul taklifini doimiy ravishda qo'llab turadi. Ushbu taklif egri chizig'ida pul miqdorini ko'paytirish inflatsiyaga olib keladi, pul miqdorini kamaytirish esa deflyatsiyaga olib keladi. Shuning uchun narxlar barqarorligini saqlab turishda pul taklifi ustidan nazorat olib borish kerak.

Keynsianchilar fikricha, mahsulotlar narxi va ish haqi egiluvchan emas, shuning uchun jami taklif egri chizig'i gorizontall o'qdan iborat. Bundan tashqari, jumi taklif talabdagi narx omillari birortasining o'zgarishiga bog'liq ravishda davriy o'zgarib turadi.

1. Gorizontal jami taklif egri chizig'i. Pasayishga qarab narx darajasi va ish haqining noelastikligi jami taklif egri chizig'ini gorizontal joylashtiradi. Bunday holatda ishlab chiqarish hajmining kamayishi naxlarning pasayishiga olib kelmaydi. Shuningdek, teskarisi real ishlab chiqarish hajmining ko'payishi

narxlarning oshishiga olib kelmaydi. Shuning uchun ham Keynsian kesma ishlab chiqarish hajmining nol darajasidan to'liq bandlikka erishishi yoki ishlab chiqarishning potensial hajmiga erishgungacha bo'lgan qismidan iborat. Keynsianchilar fikricha, to'liq ish bilan bandlikka erishgandan keyin jami taklif egri chizig'i vertikal yo'nalish oladi.

2. Nobarqaror jami talab. Keynsianchilar fikricha, pul taklifida hech qanday o'zgarish bo'lmasa ham jami talab nobarqarordir. Xususan, jami talabdag investitsiya kabi omillar o'zgarishga olib keladi. Masalan, jami talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmi va bandlikka ta'sir ko'rsatadi. Narxlar darajas esa o'zgarmay qoladi.

Klassiklar fikricha, pul taklifida katta o'zgarish bo'lmasa jami talab o'zgarmaydi, ya'nii barqaror hisoblanadi. Jami talab kamaygan taqdirda han narxlar va ish haqining egiluvchanligi ishlab chiqarish real hajmining barqarorligini ta'minlaydi. Shuning uchun ham davlatning makroiqtisodiy siyosat ortiqchadir. Keynsianchilar fikricha jami talabning o'zgaruvchanligi va narxlarning noegiluvchanligi ishsizlar darajasini oshirishga olib keladi. Iqtisodiyotda katt yo'qotishlar qilmaslik uchun davlat jami talabni boshqarib turish uchun makroiqtisodiy siyosat yuritishi lozim deb hisoblaydi. Keynsianchilar fikricha jami talabni tahlil qilishda narxlarning noegiluvchanligidan tashqari YaMM n hisoblashda to'rtta komponent, ya'nii, iste'mol, investitsiya davlat xaridi va so eksportlarni ham qarab chiqish kerak.

#### **6.4. Keynsning bandlik nazariyasи**

Oldingi savollarda ko'riddikki Keynsning iqtisodiy nazariyasiga binoan bozo iqtisodiyotida ish bilan bandlikni to'la ta'minlaydigan hech qanday avtomati mexanizm yo'q. Demak, ishlab chiqarish va ish bilan bandlikni bog'liqligi qanda aniqlanishini bilish uchun tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hajmi, ish bila bandlik va ishlab chiqarishning umumiy xarajatlari kabi ko'rsatkichlarni qara chiqish lozim ekan.

Keyns modelida muvozanat darajadagi ishlab chiqarishni aniqlashda ikkita bir-biri bilan bog'liq usullardan foydalaniłgan.

1. Umumiy xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usuli, ya'ni,(S+ In)= SMM;

2. Inyeksiya va tortib olish usuli.

Demak, ushbu usullardan birinchisini, ya'ni, yalpi xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi usulini qarab chiqamiz. Bu usul qisqacha qilib " xarajatlar va ishlab chiqarish hajmi usuli " deb ham aytildi.

Ishlab chiqarish hajmi deganda amaliyotda ishlab chiqarilishi mumkin bo'igan SMM hajmiga aytildi. Unda SMM ishlab chiqarishning turli miqdordagi potensiali bilan taqqoslanadi. Bu yerda eng asosiy ko'rsatkich bo'lib, ishlab chiqarishga sarf qilingan umumiy xarajatlar miqdorida yalpi daromadlarni olishi hisoblanadi. Masalan, biror bir tadbirkor yuz ming so'mlik mahsulotni taklif etib yuz ming so'mlik daromad olsagina u ishlab chiqarishni davom ettirishi mumkin.

Yalpi xarajatlar deganda ishlab chiqarishga sarf qilingan umumiy xarajatlar miqdori tushuniladi. Yoki boshqacha aytganda YaMM ni hisoblashdagi iste'mol va investitsiya xarajatlaridan iboratdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki SMM ni hisoblayotganda, ya'ni, yalpi investitsiyalar miqdori emas, balki sof investitsiyalar miqdori hisobga olinadi, ya'ni SMM=YaMM-A

Bundan tashqari umumiy hisoblarda sof investitsiyalarni joriy miqdori emas, balki reja miqdori e'tiborga olinadi. Chunki ishlab chiqarish hajmi bilan yalpi xarajatlar o'rtaсидаги muvozanatning buzilishi rejadan ortiqcha investitsiyalarga bo'lgan talabni keltirib chiqaradi.

SMM Keynsning ish bilan bandlik nazariyasining asosini tashkil etadi. Muvozanat hajmidagi SMM ni aniqlanishi iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi.

Muvozanatlari ishlab chiqarish rejasiga bu ya'ipi xarajatlar rejasiga xarid qilingan tovar va moddiy resurslar tengligini ta'mintovchi SMM hajmini ishlab chiqarishdir. Muvozanatlari hajmidagi SMM ni ishlab chiqarish ish bilan to'liq

bandlikni, ishlab chiqarish xarajatlari va olinayotgan daromadlarning birlashtiradi.

Inyeksiya va tortib olish usuli to'g'ridan-to'g'ri mos kelmasa ham uning ma'nosi shundan iboratki, ya'ni, muvozanatlari darajadan tashqari holatlarda SMM va yalpi xarajatlar muvozanatining buzilishiga qaratiladi. Biz bilamizki har qanday hajmdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish o'ziga mos ravishda soliqlar to'langanda keyingi daromadlar miqdorini beradi. Yana shu ma'lumki, uy xo'jaliklari ushbu daromadlarning bir qismini jamg'arishi mumkin. Jamg'arish o'z navbatida tortib olishni bildiradi. Jamg'arish natijasida iste'mol ishlab chiqarishning umumiyligi hajmidan yoki SMM dan kam bo'ladi. Bunday holatda iste'mol bozorda jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini sotib olishga yetmaydi. Natijada esa ishlab chiqarish hajmini kamaytirishga olib keladi. Mahsulotlarning bir qismi ishlab chiqarish vositalari shaklini oladi. Shuning uchun investitsiyani daromadlar va xarajatlar miqdoridagi xarajatlar inyeksiyasi deb qarash mumkin. Boshqacha aytganimizda investitsiya jamg'armaga olingan vositalarni qoplash imkoniyatini bildiradi.

Agarda jamg'armaga olingan vositalar investitsiya inyeksiyasidan ko'p bo'lsa, jami xarajatlar SMM dan kam bo'ladi. Boshqacha aytganda SMMning har qanday darajasi ya'ni jamg'arish investitsiyadan ko'p bo'lgan vaziyatda muvoza-nat nuqtadan yuqori bo'ladi. Aksincha, investitsiya inyeksiyasi jamg'armaga olingan vositalar miqdoridan ko'p bo'lsa jami xarajatlar SMM dan ko'p bo'ladi. Investitsiyalar jamg'armalardan ko'p bo'lgan har qanday sharoitda SMM hajmi muvozanat nuqtadan past bo'ladi. Jamg'armaga olingan vositalar miqdori investitsiya inyeksiyasi tomonidan to'liq qoplansa jami xarajatlar umumiyligi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'ladi. Inyeksiya bu mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bo'lgan iste'mol xarajatlariga qo'shimcha bo'lib hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Klassik iqtisodchilar bir nechta nazariyalarni oldingi surishadi. Shulardan eng asosiysi bo'lib to'liq bandlik sharoitida mahsulotlarni sotib olish uchun xarajatlar miqdorining yetishmasligi mumkin emas. Shunday bo'lgan sharoit

ham baho va ish haqi kabi dastaklar ishga tushib barcha muammolarni hal qilishadi deb hisoblashadi.

2. Klassik iqtisodchilar nazariyalarini birinchilardan bo'sib ingliz iqtisodchisi Jon Keyns o'zining "Pul, protsent va ish bilan bandlikning umumiyl nazariyasi" da ularning noto'g'ri jihatlarini isbotlab bergan.

3. Klassiklar fikricha jami talab egri chizig'i vertikal to'g'ri chiziqdan iborat va ishlab chiqarishning real bajmini ifodalaydi. Keynsianchilar fikricha mahsulotlar narxi va ish haqi egiluvchan emas, shuning uchun jami taklif egri chizig'i gorizontal o'qdan iborat.

4. Keyns modelida muvozanat darajadagi ishlab chiqarishni aniqlashda bir-biri bilan bog'liq ikkita usuldan, ya'ni umumiyl xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash hamda inyeksiya va tartibga solish usullaridan iboratdir.

### Tayanch iboralar

Klassiklar nazariyasi, Sey qonuni, to'liq bandlik, umumiyl xarajatlar, baho, ish haqi, Keyns nazariyasi, pul bozori, jamg'arma, iste'mol, foiz stavkasi, investitsiya, kunlik xarajatlar, vertikal jami taklif, barqaror jami talab, gorizontal jami taklif, nobarqaror jami talab, umumiyl xarajatlar, ishlab chiqarishni taqqoslash, inyeksiya va tortib olish va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Klassik Iqtisodchilardan kimlarni bilasiz va ularning qanday nazariyalari bilan tanishsiz.
2. Sey qonunining mohiyatini, uning kamchiliklari va yutuqlarini tushuntirib hering.
3. Nima uchun klassiklar nazariyasi tanqidga uchragan. Kimlar bu nazariyalarning kamchiliklarini ochib bergan?
4. Keynsning umumiyl xarajatlar va ishlab chiqarishni taqqoslash usulini mohiyati nimada?
5. Inyeksiya va tortib olish usuli deganda nimani tushinasiz?

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст) С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М. «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Косимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Хакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## 7-bob. Pul bozori

7.1. Pul tushunchasi, uning funksiyalari va pul agregatlari.

7.2. Pul taklifi va talabi nazariyasi.

7.3. Pul bozori.

7.4. Pul-kredit tizimi va pul multiplikatori.

### 7.1. Pul tushunchasi, uning funksiyalari va pul agregatlari

Pul - bu bizning buyuk ixtiolarimizdan biridir. Pul insonlarni sehrlaydi. Unga ega bo'lish uchun qiynalamiz va mehnat qilamiz. Pul-undan qutilish yo'li bilan foydalananish mumkin bo'lgan yagona tovardir. Ularni sarf yoki investitsiya qilmasangiz sizni ular kiyintirmaydi ham, qorningizni to'yg'azmaydi ham, yaxshi dam olishingiz uchun sharoit ham yaratmaydi. Insonlar pul uchun hamma narsaga tayyor va pul ham, o'z navbatida, insonlar uchun hamma narsaga tayyor turadi.

Pul barcha iqtisodiy fanlarning eng asosiy bo'limlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Pul tizimining to'g'ri faoliyati daromadlar va xarajatlarning doiraviy uylanishiga hayotiy kuch beradi. Yaxshi ishlayotgan pul tizimi ishlab chiqarish quvvatlari va bandlikdan to'liq foydalananish imkonini beradi. Aksincha yomon ishlayotgan pul tizimi iqtisodiyotdagi inqirozlarga, ya'ni, ishsizlik, inflyatsiya va shuningdek boshqa salbiy oqibatlarga olib keladi.

Demak, pul maxsus xususiyatlarga ega bo'lgan tovar hisoblanib, barcha turdagи tovar va xizmatlarni ayrboshlash vositasi hisoblanar ekan. Pul tovarlar ayrboshlashda umumiyleng teng qiymatlilik (ekvivalent) rolini bajaradi. Pullar maxsus xususiyatga likvidlik (ya'ni, tez almashtirish) xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham ideal vosita hisoblanadi. Har qanday buyumning likvidliliqi uni sezilarsiz sarf xarajatlar bilan boshqa buyumga ayrboshlanish qobiliyatini bildiradi. Ayrboshlash kengayishi bilan kredit pullar deb ataluvchi veksellar, banknotlar, cheklar, sertifikatlar, kredit kartochkalari va boshqa shunga o'xshash qiymatliklarga ega bo'lgan pullar paydo bo'ladi.

Pul o'z tabiatiga ko'ra uch xil xususiyatga ega, ya'ni, hamma narsaga ayirboshlanadigan muhim xarid vositasi, boylik timsoli, mehnatning qiymat shaklidagi o'lchov vositasi.

Umuman pulning beshta vazifasi mavjud:

1. Qiymat o'lchovi.

2. Ayirboshlash vositasi.

3. Xazina toplash va jamg'anish vositasi.

4. To'lov vositasi.

5. Jahon puli.

Pul o'z xizmati mazmuni va miqyosiga qarab turli toifalarga berilinadi:

1. Xazina biletlari - bu pul oddiy muomalada ishlataladi.

2. Banknot - kredit pullari - bunday pullar qarz olish va berish jarayonida ishlataladi.

Pul tovar sifatida qiymatga ega. Hozirgi kunda pulning qiymatidan foydalanib uning turli ko'rinishlaridan foydalanilmoqda. Ya'ni, qog'oz pullarga tovar va pulli xizmatlar ekvivalent almashinadi. Bundan tashqari bank cheklaridan ham keng foydalanilmoqda. Shuningdek, kredit kartochkalaridan ham foydalanilmoqda.

Pul muomalasidagi eng asosiy masalalardan biri mamlakatda zarur bo'ladigan pul massasini aniqlash va muomalaga chiqarish hisoblanadi. Bu esa makroiqtisodiyotning asosiy muammosi hisoblanadi va davlat tomonidan tartibga solib turiladi.

Pul massasi - muomalaga chiqarilgan metall tangalar va qog'oz pullar (xazina va bank biletlari) ning jami miqdori. Xo'jalik muomalasidagi pul vositalarining umumiy hajmiga naqd puldan tashqari banklarning joriy hisobdagi pul vositalari ham kiradi.

Hozirgi zamон bozor iqtisodiyotida pul massasining asosini tashkil etuvchi yoki pul agentlarini bilish eng zarur muammolardan biridir. Chunki pulning eng samarali miqdordagi massasini chiqarish pulning xarid qilish qobiliyatı barqarorligini ta'minlaydi. Pulning xarid qilish qobiliyatı barqarorligi tovar va xizmatlar narxining keskin o'zgarishi oldini oladi. Hozirgi davrda O'zbekistonda pul muomalasi ikki ko'rinishda yuritiladi.

1. Naqd pul muomalasi.

2. Naqd bo'lmagan pul muomalasi.

Rivojlangan mamlakatlarda zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlashda "Sharhnomal tuzish uchun pul yoki tor ma'nodagi pullar" - M1 va "keng ma'nodagi pullar" - M2; M3; M4 miqdori hisoblanadi.

M1 - o'z ichiga tanga pullar, qog'oz pullar joriy hisobdag'i pullar va yo'l cheklarini oladi.

M2 - o'z ichiga M1 va tezkor jamg'arma hisoblarini oladi.

M3 - o'z ichiga M2 va likvidli qimmatbaho qog'ozlarni oladi.

M3=M2+LKB+SBO+SKV;

LKB-likvid qimmatbaho qog'ozlar (obligatsiyalar, sertifikatlar, xazina majburiyatları va boshqalar)

SBO - jamoat va byudjet tashkilotlari hisoblaridagi mablag'lar;

SKV - kapital mablag'arni moliyalashtiruvchi mablag'lar;

Eng umumlashgan shakldagi "keng ma'nodagi pullar" bo'lib M4 hisoblanadi.

M4=M3+NLS;

NLS - pul bo'lmagan likvid mablag'lar (oltin, brilliant, kumush, platina va shu kabi qimmatbaho pul bo'lmagan mablag'lar).

Jami pulning taklifi deb ma'lum vaqt birligi ichida iqtisodiyotga xizmat qilayotgan pullarga aytildi. Pul egasi pulni qanday shaklda saqlash samarali bo'lsa xuddi shu ko'rinishdan foydalanadi. Eng muhim pul taklifi davlat tomonidan tartibga solinadi.

## 7.2. Pul taklifi va talabi nazariyası

Avvalambor biz pul taklifi asosida nimalar yotishini bilib olishimiz lozim. Ya'ni, birinchidan pul taklifining asosiy qismi bo'lib qog'oz pullar va chek qo'yilmalari hisoblanadi. qog'oz pullar - respublika markaziy bankining muomalaga qo'yilgan qarz majburiyatlaridir. Chek qo'yilmalari esa tijorat yoki xalq banklarning qarz majburiyatlaridan iborat.

Bundan tashqari qog'oz pullar va chek qo'yilmalari haqiqiy qiymatga ega emas. O'n so'mlik kupyor bu bir bulak qog'oz yoki chek qo'yilmalari esa hisobxona kitobidagi oddiy yozuvdan iboratdir. Tanga pullar esa, biz bilamizki, uning haqiqiy qiymati nominal qiymatdan kam. Davlat sizning qo'lingizdagi qog'oz pullarni qiymati yuqoriq bo'lgan, masalan, otinga almashtirmaydi.

Ikkinchidan, pul qiymati. Agarda qog'oz pullar va chek qo'yilmalari qiymat beradigan ichki xususiyatga ega bo'lmasa va ular oltin yoki boshqa metall qiymatliklarga almashinmasa nima uchun ular unda pul bo'lib hisoblanadi. O'n so'mlik kupyorga yoki yuz so'mlik cheklarga qiymat qanday beriladi. Bu savollarga javob olish uchun biz quyidagi uchta jihatni qarab chiqamiz.

1. Yaroqliligi. Naqd va chek qo'yilmalari oddiy sababga ko'ra, ya'ni, ularni insonlar pul sifatida qabul qiladi, amaliyotda ular asosan pul vazifasining asosiy qismini bajarishadi va muomala vositasi sifatida qabul qilingan. Masalan, siz magazinda qog'oz pullarni kiyim kechakka almashtirasiz. Nima uchun. Sotuvchi bu qog'oz bo'lagini qabul qilib oladi. Javob oddiy, ya'ni sotuvchi biladiki uni boshqa birovlar ham tovarga almashtiradi.

2. Qonuniy to'lov vositasi. Qog'oz pullarga bizning ishonchimiz qonunlarga asoslangan. Davlat naqd pullarni qonuniy to'lov vositasi sifatida e'lon qilgan.

3. Nisbiy kamligi. Ya'ni, pul qiymati uning foydaliligiga nisbatan kamligi bilan aniqlanadi. Pulning foydaligi uning hozir va kelajakda tovar va xizmatlarga erkin almashtirish qobiliyatidan kelib chiqadi. Iqtisodiyotda pulga bo'lgan talab bajarilgan ishlarning so'mdagi qiymati plyus korxona va individlarning keyinchalik biror bir ishni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan pullar miqdori orqali aniqlanadi.

Pulning real qiymati yoki to'lov qobiliyati - pul birligiga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori orqali aniqlanadi. Tovar va xizmatlarni sotib oladigan pulning qiymati baho darajasi bilan teskari aloqaga ega. Narxlar qancha yuqori bo'lsa pulning to'lov qobiliyati shunchalik kam bo'ladi va aksincha. Umumiy pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mablag'lardan (D) balki aholi qo'lidagi naqd pullardan (S) ham tashkil topadi. Shuning uchun pul taklifining

umumi modeli pullarni bank depozitlaridan naqd pulga mumkin bo'lgan oqib o'tishini hisobga olib tuziladi. Naqd pullar miqdorini omonatlar hajmi bilan bog'liqligini deponentlash koeffitsiyentini SCh ifodalaydi. Bu koeffitsiyentni va bank multiplikatorini  $1/(c_k + k/k)$  qo'llab pulning umumi taklifini aniqlash mumkin.

$$M = (S_k + 1) * V / (C_k + k/k)$$

мн. с. т.и

о.п.т.и.и.и

и.и.и

и.и.и

Bunda: M - pulning umumi taklifi.

$S_k$ - $S/D$  teng bo'lgan deponentlash koeffitsiyenti. U pul mablag'larining naqd pulga ( $S$ ) va omonatlarga ( $D$ ) taqsimlanishini aholi tomonidan maqbulligini bildiradi.

$k/k$ - $k/D$  bo'lgan bank rezervlari normasi (rezervlarni omonatlarga nisbatan).

$V$ -  $S+k$  ga teng bo'lgan pul bazasi yoki quvvati kuchaytirilgan pullar, ya'ni naqd pullar plus bank rezervlari.

Yuqorida  $S_k+1/S_kk+k/k$  ifodani pul multiplikatori deb ataladi va odatda  $m$  bilan belgilanadi. Bu holatda pulning umumi taklifi quyidagicha aniqlanadi:

$$M = m \times V$$

Pulga bo'lgan umumi talab bitimlar uchun pulga talabdan ya moliyaviy aktivlar uchun pulga talabdan iborat.

Bitimlar uchun pulga bo'lgan talab bu aholiga va korxonalarga tovar va xizmatlarni xarid qilish uchun zarur bo'lgan pul miqdoridir. U nominal YaMMni o'sishi bilan ortib boradi.

Moliyaviy aktivlar tomonidan pulga bo'lgan talab pulning jamg'arish vositasi uslutiadi funksiyasiga asoslangan, ya'ni odamlar o'zlarining moliyaviy aktivlarini aksiyalar, obligatsiyalar, bankdagi omonatlari ko'rinishida qo'llarida tutib turadi.

Pulga bo'lgan talab umumi talab foiz stavkasi miqdoriga yoki pulning tildatilishi bahosiga nisbatan teskari bog'liqlikda bo'ladi. Foiz stavkasi qanchalik yuqori bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha past bo'ladi va, aksincha, foiz stavkasini pasayishi bilan pulga bo'lgan talab oshadi.

### 7.3. Pul bozori

Biz pulga bo'lgan talab va taklifni birlashtirib pul bozorini va foiz stavkasining tengligini aniqlashga harakat qilamiz. To'g'ri chiziq shaklida berilga pul taklifi umumiy holda berilgan. Ya'ni, pul-kredit va moliya tashkilotlari iqtisodiyotni ma'lum bir miqdordagi pul hajmi bilan ta'minlab turadi. Resurslar va mahsulotlar bozoriga o'xshab pulga talab va taklif to'g'ri chiziqlarining kesishishi muvozanat nuqtani bildiradi. Bunday holatda baho tengligi bo'lib foiz stavkasining tengligi hisoblanadi. Ya'ni, puldan foydalanganlik uchun to'langan bahodan iboratdir.

Uni sodda ko'rinishda quyidagi formula bilan ifodalash mumkin.

$$M \times V = P \times U$$

Bunda: M - muomalaga chiqarilgan pul;

V - pulning aylanish tezligi;

P - YaMM deflyatori;


U - real YaMM.

Ushbu ayniyatni pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi deb aytildi. Uning o'ng qismi ( $M+U$ ) bu real pul zaxirasining taklifini, chap qismi ( $P+U$ ) nominal YaMM ifodalaydi. Masalan, iqtisodiyotda 1000 birlik pul muomalada bo'lsa, unda har bir pul birligi yil davomida uch marta qo'ldan-qo'lga o'tsa yoki bir yilda 3 ta kirimga (oldi-sotdi) xizmat qilsa (V), unda pul zaxirasi taklifi real hisobda 3000 ga teng ( $M+U$ ). U mamlakatdagi bitimlarning umumiy soniga, ya'ni nominal YaMM hajmiga ( $P+U$ ) muvofiq kelishi mumkin.

Pul bozorida tenglikka erishilmasa nima bo'lishi mumkin. Pul bozorida qanday qilib tenglikka erishish mumkin?

## 7.1-chizma.

Pul bozorida tenglikka erishish.



Taklif qilingan va talab qilingan pullar miqdori (mlrd. so'm)

Keyingi grafikda ko'ringanidek, pul taklifi 200 mlrd. so'mdan 150 mlrd. so'mga kamaygan bo'lsin. Talab qilinayotgan pullar miqdori taklif qilingan pullar miqdoridan 50 mlrd. so'mga oldingi muvozanatga nisbatan ko'p. Bunday holatda odamlar o'zlarida mavjud bo'lgan moliyaviy aktivlarni sotish orqali moslashtirishga harakat qilishadi. Obligasiyalarni sotish orqali pulga ega bo'lish boshqa birovlar uchun pulni yo'qotish hisoblanadi.

Umuman 150 mlrd. so'm naqd pul mavjud. Obligatsiyalarni sotish orqali jumoa bo'lib, ko'p naqd pullarga ega bo'lish bozorga obligatsiyalar talabiga nisbatan taklifni ko'paytiradi va ularning narxini tushiradi. Obligasiyalar narxining pasayishi foiz stavkalarini oshiradi. Masalan, ming so'mlik nominal qiymatidagi obligatsiyani sotish natijasida 50 so'mlik doimiy foizlar to'fansa, yillik o'rtacha foiz stavkasi 5 foizga tengdir.

$$50 / 1000 = 5\%$$

Obligasiyalar taklifining ko'payishi natijasida obligatsiyalar narxi 667 so'mga tushib qoldi deylik. Obligasiyalarni sotib oluvchilar uchun obligatsiyaning 50 so'mlik doimiy foiz stavkasi 7,5 foizga teng bo'ladi.

$$50 \text{ so'm} / 667 \text{ cum} = 7,5\%$$

Grafikdan ko'rinish turibdiki, 200 mld. so'mlik pul taklifi davridagi 5 % li foiz stavkasi 150 mld. so'mlik pul taklifi sharoitida 7,5 % oshgan. Foiz stavkalarining oshishi pulni saqlashdagi xarajatlarni oshiradi va pul miqdorini kamaytiradi. Boshqacha aytganda talab qilinayotgan pullar 200 mld. so'mdan 150 mld. so'mga tushadi. Shunga e'tibor berishimiz kerakki, 7,5 % li foiz stavkasi sharoitida pulning talabi va taklifi 150 mld. so'mga tenglashadi. Aksincha pul taklifi 200 mld. so'mdan 250 mld. so'mga ko'paytirish 50 mld. so'mlik pulning ortiqchaligiga olib keladi. Odamlar obligatsiyani ko'proq sotib olish hisobiga puldan qutulishga harakat qilishadilar. Ayrimlar tomonidan pulning xarajat qilinishi boshqa birovlarining pulga ega bo'llishidan iboratdir. Shuning uchun jamoa tariqasida obligatsiyalarini ko'p miqdorda sotib olish ularga bo'lgan talabni oshiradi va narxning oshishiga olib keladi. Obligatsiyalar narxining oshishi foiz stavkalarini pasaytiradi. Masalan, yillik normasi 50 so'mlik foiz stavkasiga ega bo'lgan obligatsiyalar endi 2000 so'm bo'lsin.

$$50 \text{ so'm} / 2000 \text{ cum} = 2,5\%$$

Yuqorida ko'rib o'tilgan mulohazalarni umumlashtirib shunday xulos kelamizki, birinchidan obligatsiyalar narxi va foiz stavkalari teskari bog'liqqa e ikkinchidan pul bozoridagi nomuvozanat holat obligatsiyalar narxining o'shishiga va u orqali foiz stavkasining o'zgarishiga, uchinchidan foiz stavkalarir o'zgarishi insonlarning pulni saqlashga tayyorlanishiga ta'sir qiladi, to'rtinchik insonlarning pulni saqlashga tayyorgartligining o'zgarishi pul bozoric muvozanatni tiklaydi va beshinchidan muvozanatli foiz stavkasi taklif qilinayot va talab qilinayotgan pullar miqdorini tenglashtiradi.

Yuqori darajali foiz stavkasi investitsiya va iste'mol xarajatlarini kamayti va, aksincha, foiz stavkalarining past darjasini investitsiya va iste'mol xarajatla

oshiradi. Ushbu vaziyatlarning ikkalasi ham ishlab chiqarish, bandlik va baho darajalariga ta'sir etadi.

#### 7.4. Pul-kredit tizimi va pul multiplikatori

Aksariyat ko'pchilik mamlakatlarda davlat pul chiqarishga monopol huquqqa ega. Shuning uchun u butun pul massasi miqdorini tartibga solib turadi. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida, pul taklifini ko'paytirishga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to'lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 ga o'sgan bo'lsa, rezerv normasi 20 % ga teng bo'lганда (rezerv normasi - bu rezervlarning depozitlarga nisbati) u 400 so'mni o'zida qoldirib qolgan 1600 so'mni qarzga beradi. Shunday qilib A bank pul taklifini 1600 ga ko'paytiradi va u endi  $2000 + 1600 = 3600$  ni tashkil etadi. Ya'ni, omonatchilarning depozitlardagi 2000 dan tashqari yana 1600 qarz oluvchilarning qo'llarida qoladi. Agar 1600 so'm yana bankka tushsa (masalan B bankga), unda 20 % ni teng bo'lган rezerv normasida u 320 ni rezervda qoldirib, 1280 ni kreditga beradi. Hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'nggi pul biriligidan foydalanishga qadar davom etadi va pirovard natijada jami pul taklifi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Dastlabki omonat} = 2000$$

$$A \text{ bankning ssudasi} = (1-0,2) \times 2000 = 1600$$

$$B \text{ bankning ssudasi} = (1-0,2) \times (1-0,2) \times 2000 = (1-0,2)^2 \times 2000 = 1280 \text{ va x.k.}$$

Jami pul taklifi teng bo'ladi

$$(2000 + (1-0,2) \times 2000 + (1-0,2)^2 \times 2000 + \dots) = X_1 + (1-0,2) + (1-0,2)^2 + \dots \times 2000 = 1/1 - (1-0,2) \times 2000 = 1/0,2 \times 2000. (*-kvadratni bildiradi).$$

Ishodani quyidagi formula ko'rinishida yozish mumkin:

$$M = (1 / kk) \times D; \quad \text{M - pul taklifi, D - dastlabki omonat, kk - rezerv normasi}$$

Bunda - M- hajmi pul taklifi. (1)  
kk - bank rezervlar normasi. (2)

D - dastlabki omonat. (3)

Keltirilgan formuladan ko'rinib turibdiki, pul taklifi 1/kk koeffitsiyentiga bog'liq bo'lib, uni bank multiplikatori yoki pul *ekspansiyasi multiplikatori* deb ataladi. U ushbu bank rezervlar normasida ortiqcha rezervlarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

Kredit - qaytarib berish sharti bilan ma'lum muddatga qarz berish ma'nosini beradi. Kapitalizmda kreditning ssuda kapitali harakat shakli bo'lib bank va tijorat krediti ko'rinishida amalga oshiriladi. qarzga mablag' beruvchi tomon kreditor, ya'ni, kredit beruvchi, ssuda oluvchi tomon esa qarzdor, ya'ni kredit oluvchi hisoblanadi.

Bank kreditlarining asosiy qoidalari bo'lib, quyidagilar hisoblanadi: - muddatlilik; - aniq maqsadga yo'naltirilganlik; - foiz to'lash; - moddiy ta'minlangantlik va boshqalar;

Kredit uzoq va qisqa muddatli bo'ladi. qisqa muddatli kredit korxona va tashkilotlarning aylanma foizlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Uzoq muddatli kredit esa moddiy ishlab chiqarish tarmoqlariga kapital mablag'lar ajratish manbai bo'lib hisoblanadi.

Kredit pul tizimining asosini banklar tashkil etadi. Pul kredit siyosatining uchta asosiy vositasini ajratib ko'rsatiladi. Markaziy bank ular yordamida pul taklifini o'zgartiradi va shular orqali pul kredit muomalasini tartibga solib turadi:

1. Hisob stavkasi;
2. Majburiy rezervlar normasi;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar;

Hisob stavkasi deb Markaziy bank tomonidan banklarga beriladigar ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar. Hisob stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida Markaziy bankdan qo'shimcha rezervlarni olish imkoniyatlari kengayadi. O'savbatida bu tijorat banklarini rezervlardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifi ko'paytiradi. Yana shunday hollar mavjudki, markaziy bank hisob stavkasini

ko'tara borib, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha rezervlarni olish yo'lidagi to'siqlarni biroz ko'targanday bo'ladi va kreditlar berish bo'yicha ularning faoliyatni pasaytiradi. Ya'ni, shu yo'l bilan pul taklifini cheklaydi.

Majburiy rezervlar - bu kredit maqsadlari uchun ishlatalmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Ular mijozlar tomonidan o'z omonatlarini talab qilib olganda zarur bo'ladi. Markaziy bank tijorat banklarini ushlab turishga majbur bo'lgan rezervlarning eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha rezervlar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan "pullarni barpo etish" qobiliyati past bo'ladi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar - markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatbaho qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish. Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatbaho qog'ozlarni sotib olar ekan, shu bilan tijorat banklari rezervlarini sotib olingan obligatsiyalar miqdori hajmida ko'paytiradi. Bu rezervlardan kredit berib tijorat banklari pul taklifini kengaytiradi. Obligasiyalarni sotish salbiy natijaga olib keladi, ya'ni Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligasiyalarni sotish bilan rezervlarni hamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Banklarda yaratiladigan yangi pulning zaxira salmog'iga nisbati *pul taklifining multiplikatori* deyiladi va u quydagicha aniqlanadi:

$$MDP = 1 / \text{zaxira salmog'i} ;$$

Banklarga qo'yilgan pulning asosiy qismi naqd bo'lmagan pul sifatida suqlanadi. Turli banklarda naqd puuning salmog'i 3% dan 15 % gacha to'g'ri keladi. Pul qo'ygan korxonalarga (shaxslarga) beriladigan naqd pul zaxira pullar deyiladi.

Masalan, zaxira pullar salmog'i 10 % ga teng bo'lsin. U holda banklardagi balans hisobi quydagicha aniqlanadi:

Banklarning 1 balans hisobi.

Aktivlar

Passivlar

zaxira - 1 mln.so'm	jamg'arma - 10 mln.so'm
ssudalar - 9 mln.so'm	jami - 10 mln. so'm
jami -10 mln. so'm.	

Shunday qilib, pulning miqdori 10 mln. so'mdan 19 mln.so'mgacha davom etadi. 9 mln. so'm banklarda yaratilgan puldir. Bu bilan pulni banklarda yaratish tugallanmaydi. Pulning bunday harakati birinchi qo'yilgan pulning hammasi zaxira sifatida ishlatalguncha davom etadi. Demak misolimizda zaxiradagi har bir so'm 10 so'm pulni yaratar ekan. Bu yerda pul multiplikatori quyidagicha:

$$MDP = (1 / (1/10)) = 10 ;$$

Kredit beruvchi korxonalarining foydasi ular bergan mablag'larining (%) foizidan jamg'armaga qo'ygan korxona (shaxs) larning (%) foizini ayirib topiladi. Bank foydasi - marja deb ham yuritiladi.

Kredit tizimiga avvallari faqat banklar kirgan bo'lsa, bozor Iqtisodi munosabatlarining rivojlanishi bilan yana boshqalari ham qo'shiladi.

- Kredit tizimini uch guruhga bo'lishimiz mumkin:
  - 1. Markaziy bank;
  - 2. Tijorat banklari;
  - 3. Maxsus banklar va moliya kredit institutlari;

### Qisqacha xulosalar

1. Har qanday ishlab chiqarish tizimi faoliyat ko'rsatishi uchun zaru bo'ladigan ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar pul yoki uning vositalari yordamida amalga oshiriladi, o'chanadi, baholanadi. Demak pul maxsus xususiyatga ega bo'lgan tovar hisoblanib, ayriboshlashning rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan. Uning maxsus xususiyati likvidlilikdir (ya'ni tez almashtirish).

2. Mahsulotlar bozoridagi kabi pul bozorida ham pulga bo'lgan umumiy talat va taklif muvozanat nuqtada kesishadi. Mahsulotlar bozorida muvozanat nuqtani narxlar tengligi, asoslasa pul bozorida esa bunday tenglikni foiz stavkasi bildiradi. Umuman pullar keng ma'nodagi va tor ma'nodagi pullarga bo'linadi. Bularga pu aggregatlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

3. Pul insonlarga o'zlarining kundalik ehtiyojlarini qondirish va jamg'arish uchun zarur bo'ladi. Shuning uchun ham pulga bo'lgan umumiylab bitimlar uchun pulga talab va moliyaviy aktivlar uchun pulga talablardan iborat bo'ladi. Shuningdek, umumiylab pul taklifi nafaqat joriy hisoblardagi mablag'lardan, balki sholi qo'tidagi naqd pullardan ham tashkil topadi.

4. Pul-kredit tiziminining uchta asosiy vositasini ajratib ko'rsatish o'rinnidir. Itularga hisob stavkasi, majburiy rezerv normalari va ochiq bozordagi operatsiyalarni kiritamiz. Pul multiplikatori, bank multiplikatori, kredit multiplikatori kabi ko'rsatkichlarni hisoblash pul-kredit tiziminining asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Kredit tizimi uchta guruhga bo'linadi. Ya'ni, markaziy bank, tijorat banklari, maxsus banklar va moliya institutlari.

### Tayanch iboralar

Pul tushunchasi, pul bozori, pulning xususiyatlari, pulning vazifalari, pulning qiymati, pulli xiizmatlar, pul muomalasi, kredit kartochkalari, pul massasi, Naqd pul, Naqd bo'lmagan pul, pul agregatları, tor ma'nodagi pullar, keng ma'nodagi pullar, likvidli qimmatbaho qog'ozlar, tezkor jamg'arma, tanga pullar, qog'oz pullar, pul bo'lmagan likvid mablag'lar, pul talabi va taklifi, pulning yaroqliligi, pulning nisbiy kamligi, qonuniy to'lov vositasi, depozitlar, pul multiplikatori, bank multiplikatori, kredit multiplikatori, omonatlar, deponentlash koeffitsiyenti, pulning aylanish tezligi, pul zaxirasi, pul ekspansiyasi multiplikatori, bank rezervlari, foiz stavkasi, majburiy rezerv normasi, ochiq bozordagi operatsiyalar, kredit, Markazty bank, tijoart banklar, maxsus banklar, moliya institutlari, chek qo'yilmalari va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Respublikada pul muomalasi qanday tartibda olib boriladi? Pul massasi qanday aniqlanadi? Pul aggregatlarini aniqlay olasizmi?
2. Pul taklifi asosida nimalar yotadi? Pullar va chek qo'yilmalari deganda nimani tushunasiz? Bank multiplikatori va pul multiplikatori qanday aniqlanadi hamda ularning bir-biridan farqi nimada?

3. Pul bozoridagi muvozanat nuqtani nima bildiradi? Pul bozorida tenglikka erishilmasa nima bo'lishi mumkin? Pul bozorida qanday qilib tenglikka erishiladi?
4. Pul-kredit siyosatini kim olib boradi va uning qanday vositalari mavjud? qanday qilib bir so'mni un so'm qilish mmumkin? Pul taklifining multiplikatori qanday aniqlanadi?
5. Kredit nima va uni berishning qanday shartlarini bilasiz? Kreditni kimlar bera olishi mumkin va kredit tizimini nechta guruhg'a bo'lishimiz mumkin?

3. Pul bozoridagi muvozanat nuqtani nima bildiradi?

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: "Ўзбекистон". 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст) С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М. «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувчи 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Ҳакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”, 1997.

## **8-boʻb. Bozor iqtisodiyotida davlat**

- 8.1. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va uning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligi.
- 8.2. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning koʻrinishlari.
- 8.3. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni eʼtiborga olgan holda qayta taqsimlash.
- 8.4. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uning oʼsishi.

### **8.1. Davlatning iqtisodiy funksiyalari va uning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvining zarurligi**

Davlatning iqtisodiy vazifalari koʼp va turli xildir. Shuning uchun bizning tahlilimizga asos sifatida davlatning quyidagi iqtisodiy faoliyatlarini qarab chiqamiz.

**Birinchidan**, davlatning ayrim iqtisodiy vazifalari bozor tizimi rivojlanishini yengillashtirish va qoʼllab-quvvatlash maqsadiga egadir. Bu sohaga davlatning quyidagi ikki faoliyatini kiritishimiz mumkin:

1. Bozor tizimi samarali faoliyat koʼrsatishini taʼminlaydigan huquqiy baza va ijtimoiy muhitni taʼminlash;

2. Raqobatni himoya qilish;

**Ikkinci** guruh vazifalarini bajarishda davlat bozor tizimi faoliyatini kuchaytiradi va turlaydi. Bu yerda davlatning quyidagi uchta vazifasi asosiy shamiyatga ega.

1. Daromad va boyliklarni qayta taqsimlash;

2. Milliy mahsulot tarkibini oʼzgartirish maqsadida resurslar taqsimotini turtibga solish;

3. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish, yaʼni iqtisodiy konʼyunkturaning eʼtiluvchanligi natijasida paydo boʼladigan ishsizlik va inflyatsiya darajalarini nazorat qilish hamda iqtisodiy oʼsishni ragʼbatlantirish;

Davlat bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat koʼrsatishi uchun asos boʼladigan ayrim xizmatlarni va huquqiy bazani taʼminlash vazifalarini oladi.

Huquqiy bazalarni ta'minlash asosan xususiy korxonalarga haq-huquqlar berish, xususiy mulkchilikni aniqlash va shartnomalarni bajarishni nazorat qilish va shuningdek boshqa sohalarda namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotida raqobat asosiy tartibga soluvchi mexanizm bo'lib hisoblanadi. Bu ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilarni o'ziga bo'ysundiradigan yagona kuchdir. Bozor tizimiga bo'ysunadigan ishlab chiqaruvchilar raqobat natijasida foyda olishni rejalashtiradi. Kimki bu qonunni buzsa zarar ko'tadi va oqibatda batomom tugatilishi mumkin. Raqobat sharoitida iste'molchi - bu xo'jayin, Bozor - ularning ta'minotchisi (agenti), korxona esa - ularning xizmatkori hisoblanadi.

Monopoliyaning o'sishi bu vaziyatni tezda o'zgartiradi. Monopoliya raqobat bilan almashinar ekan sotuvchilar bozorga ta'sir qilishi mumkin yoki o'zlarining manfaatlaridan kelib chiqqan holda narxlarni oshirish orqali mamlakatga zarar olib keladi.

Bozor tizimi rivojlanishi bilan mamlakat aholisi oladigan daromadlar va qiladigan xarajatlari o'rtaida nomutanosibliklar paydo bo'ladi. Bu kabi muammo-larni hal qilishda davlat asosiy ahamiyatga egadir. Ya'ni, davlat jamiyatdagi daromadlar nomutanosibligini kamaytirish vazifasini bajaradi. Bu vazifalar bir nechta siyosiy tadbirlar va dasturlarda o'z yechimini topgan. **Birinchidan**, transfert to'lovlari yordamga muhtoj, boqimanda, nogiron va ishsizlarni nafaqalar bilan ta'minlaydi. **Ikkinchidan**, davlat bozorga aralashuvi orqali daromadlar taqsimlanishi o'zgartiradi. Fermerlarga kafolatlanadigan baho va minimal ish haqi to'g'risidagi qonunchilik davlatning ayrim guruh aholilarining daromadlarini tenglash-tirish maqsadida bahoni tartibga solib turishga misol bo'la oladi. Bundan tashqari aholidan olinadigan daromad soliqlarining foizlar bo'yicha tabaqalanishi ham kam ta'minlangan aholini qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borilayotgan dasturlardan biridir.

**Iqtisodchilarga bozor faoliyati buzilishining ikki holati ma'lum.** **Birinchidan**, kerak bo'limagan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qanday resurslar bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy jihatdan foydaliligini aniqlashda ajratib ko'rsata

olmaydi. Birinchi holatda resurslarni tuslanishi bilan yoki qo'shimcha samara, ikkinchidan esa davlat yoki ijtimoiy manfaatga bog'liq.

Oldingi mavzularda ko'rnikki raqobatlari bozor tizimining qulayliklaridan biri bo'lib resurslarni samarali taqsimlashlardan iborat ekan. Yoki boshqacha aytganda, har bir turdag'i tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishda resurslar "to'g'ri" yoki maqbul taqsimlanadi. Shu bilan birga, raqobatlari bozordagi resurslarning samarali taqsimlanishida yashirinchada ravishda kamchiliklar ham mavjud. Ya'ni, har xil turdag'i tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishda qo'shimcha samara yoki tovlanish bo'lmaydi deb hisoblanadi. Tovlanish tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish yoki is'temol qilish bilan bog'liq bo'lgan imkoniyat va xarajatlar uchinchi bir tomonga ya'ni bevosita sotuvchi yoki sotib oluvchi bo'lmagan tomonga o'tadi. Tovlanish, shuningdek, qo'shimcha samara deb ham yuritiladi. Chunki, u bozor oldi - sotdisida qatnashayotgan individ yoki guruhlar hisobiga to'g'ri keladigan imkoniyat va xarajatlarni bildiradi.

Tovarlarni ishlab chiqarish yoki iste'mol qilishda uchinchi bir tomondan kutilmagan xarajatlar paydo bo'lishi tovlanish xarajatlarini bildiradi. Bu xarajatlarning ko'pgina qismi atrof muhitning ifloslanishi bilan bog'liq. Davlat xarajatlarining tovlanishi natijasida resurslarning nomutanosib taqsimlanishini oldini olish uchun qonunlar va o'ziga xos soliqlar qabul qiladi.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga aralashuvidan asosiy maqsadi, iqtisodiyotga yangi demokratik usullar bilan rahbarlik qilish, barcha horijiy mamlakatlar bilan samarali iqtisodiy integratsiyaga o'tish, ITT yutuqlaridan samarali foydalanish asosida resurslardan samarali foydalanishni yo'liga qo'yish va sholining turmush darajasini yuksaltirishdir.

## **8.2. Davlat tomonidan yuritiladigan makroiqtisodiy siyosatlarning ko'rinishlari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiyotiga bevosita aralashadi. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi makroiqtisodiy siyosat urqali amalga oshiriladi. Bu siyosatlarga biz asosan quyidagilarni kiritamiz:

- 1. Byudjet;**
- 2. Pul-kredit;**
- 3. Dotatsiya; Subvensiya; Subsidiya;**
- 4. Halq xo'jaligi balansi;**
- 5. Soliq mexanizmi;**
- 6. Chegaralangan baholar va boshqalar.**

Davlat byudjet xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to'lovleri) ko'paytirilishi yoki qisqartirilishi orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari yoki byudjet siyosatiga tovar va xizmatlarning davlat xaridi, YaMM ni taqsimlash va qayta taqsimlash ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqarish va amalga oshirish davlat byudjetining daromadlar va xarajatlar qismidagi mutanosiblikni ta'minlash, ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam shakllarini ko'rsatish, narxlar ustidan nazorat o'rnatish, eksport va import qilinadigan tovarlarga kvotalar o'rnatish va, shuningdek, mamlakat aholisini himoya qilish maqsadida olib borilayotgan chora-tadbirlar majmuasidan iborat. Avvalambor u mamlakatda pul massasini tartibga solishga qaratilgan va uning asosiy vazifasi bo'lib narxlar va real milliy ishlab chiqarish hajmining o'sishiga mos keladigan pul emissiyasidan iborat. Bu siyosatning asosiy vositasi bo'lib, Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladigan hisob stavkasini tartibga solish, tijorat banklarining majburiy ravishda Markaziy bankda saqlaydigan rezerv normasini o'zgartirish, qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha ochiq bozordagi operatsiyalarni yo'lga qo'yish va boshqa tadbirlardan iborat.

Davlat tomonidan xo'jaliklarga ko'rsatiladigan moliyaviy yordamlar dotatsiya, subvensiya va subsidiya shakllarida olib boriladi.

**Dotatsiya** - byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan qaytarib olmaslik sharti bilan xo'jaliklarning zararlarini qoplash, shuningdek, mahalliy byudjetlar mutanosibligini ta'minlash uchun ajratilgan pul mablag'laridir.

**Subvensiya** - qat'iy maqsadlar uchun beriladigan dotatsiya turi bo'lib, undan foydalaniш sharti buzilganda ularni qaytarib olish mumkin.

**Subsidiyalar** - bu pul yoki natura ko'rinishidagi yordam turi bo'lib, byudjet va byudjetdan tashqari fondlardan ko'rsatiladi. Subsidiyalar bevosita va bivosita bo'lish mumkin. To'g'ri subsidiyalar kapital qo'yilmalar, ilmiy tadqiqotlar, kadrlarni qayta tayyorlashlarga ajratilgan mablag'lar. Egri subsidiyalar soliq imtiyozlari, imtiyozli shartlarda kreditlar berish, pasaytirilgan bojxona bojlari va hokazolar.

Bundan tashqari davlat aholini davlat transfertlari ko'rinishida himoya qiladi.

**Balans** - bu ikki qismdan iborat bo'lgan iqtisodiy hisob-kitobdir. Birinchi bo'limda, resurslarni tashkil etish manbalari, ikkinchisida ulardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi. Ikki bo'limning bir - biriga tengligi resurslar va ular iste'moli mutanosibligini bildiradi. Balanslar - moddiy balanslar, mehnat balanslari, moliyaviy balanslarga bo'linadi. Balanslar yana hisobot va reja balanslariga bo'linadi.

Balanslar yordamida xalq xo'jaligi tarmoqlari, turli xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faoliyatları hamda moddiy va moliyaviy bo'limlar harakati o'rtaсидаги bog'liqliк ta'minlanadi. Balanslarning eng asosiyalaridan biri xalq xo'jaligi balansi hisoblanadi. Bu balans jadvallar tizimi bo'lib, unda milliy iqtisodni rivojlanish ko'rsatkichlari, ijtimoiy mahsulot va milliy daromadning hajmi va o'sish sur'atlari, jamg'arish va iste'mol fondlari, ishlab chiqarish vositalarini va iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, aholining pul daromadlari va ularni mahsulotlar bilan ta'minlash va boshqalar o'rtaсидаги asosiy nisbatlar o'rinn oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'p qirrali soliqlar tizimidan foydalaniladi. Aholi davlat byudjetiga har oyda olgan daromadlariga qarab daromad soligi to'laydi, korxonalar esa olgan foydasiga qarab foydadan soliq to'laydilar. Shu kabi juda ko'p mavjud soliq turlaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish orqali davlat soliq tizimi siyosatini, soliq stavkalari miqdorlarini va imtiyozlari turlarini aniqlaydi. Va shu bilan butun makroiqtisodiy vaziyatga ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, soliqlarni o'zgartirish orqali investitsiyalar va jamg'armalar rag'batlaniriladi.

Davlat bozor tizimining faoliyat ko'rsatishida baho mexanizmidan, xususan chegaralangan baholardan keng foydalaniładi. Jumladan, chegaralangan baholar

aholini himoya qilish maqsadida ayrim turdag'i oziq - ovqat mahsulotlariga belgilangan. Chegaralangan baho uning haqiqiy qiymatlaridan bir necha barovariga kam bo'lishi mumkin. Davlat chegaralangan bahoni belgilashda uning bozor bahosidan yuqori va kam belgilashi mumkin.

Qayd etilgan narxlar davlat tomonidan tartibga solishning bevosita usullari tizimida alohida o'rinn tutadi. Bozor tizimida narxlar talab va taklifni tartibga soluvchi asosiy vosita hisoblansada, biroq dunyoning barcha mamlakatlarda davlat narxlarni shakllantirish jarayoniga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

### **8.3. Resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olgan holda qayta taqsimlash**

Tovar va xizmatlarning individual iste'moldagi xususiyatlarini qarab chiqadigan bo'lsak, avvalambor bu tovarlar ma'lum bir miqdorda bo'ladi. Ya'ni individual sotib oluvchilar uchun qulaydir. Bundan tashqari bu tovarlarni sotib oluvchilar tovar qiymatiga mos ravishda narxlarni to'lasagina unga ega bo'lishi mumkin, aksincha, bo'lgan sharoitda esa ushbu tovardan olishi mumkin bo'lgan imkoniyatga ega bo'lmaydi.

Ayrim turdag'i tovar va xizmatlar mavjud, ya'ni davlat yoki ijtimoiy manfaat deb ataladigan tovarlarni bozor tizimi umuman ishlab chiqarishni mo'ljallamagan, chunki ulaming xususiyatlari individual iste'molchilarga mo'ljallangan tovarlarning xususiyatlari teskaridir. Bundan tashqari ijtimoiy manfaatlarni bo'linmaydi va ularni individual iste'molchilarga sotish mumkin emas. Masalan bunday tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga davlat himoyasi suv toshqinlarin tartibga solish, hashorotlarga qarshi kurash va boshqalar. Jamiyat ushbu xizmatlardan manfaat olish uchun ularni davlat ishlab chiqarishi kerak.

Bundan tashqari, shunday xizmat turlari mavjudki, ularga qandaydir miqdordagi narx belgilash mumkin. Masalan, ko'cha va avtomagistrallar, militsiya va yong'inga qarshi kurash, kutubxona va muzey, profilaktik meditsina xizmatlari va boshqalar.

Demak, bozor tizimidagi baho ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga bo'lgan resurslarni ajratmas ekan, u holda ularni ishlab chiqarish mexanizmi qanday olib boriladi.

Ushbu tovar va xizmatlarning ishlab chiqarishga zarur bo'ladigan resurslar taqsimoti asosan davlat orqali guruh yoki jamoa qarorlarida qabul qilinadi. Yanada uniqroq aytadigan bo'lsak demokratik davlatlarda siyosiy usul ya'ni ovoz berish orqali aniqlanadi. Ijtimoiy manfaatlar iste'molini hajmi davlat siyosatini bildiradi. Siyosiy arenalarda qabul qilingan bu guruh qarorları uy xo'jaliklari va korxonalarining beshta fundamental savollarga bergan javoblariga qo'shimcha bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy manfaatlarining ishlab chiqarish uchun shaxsan individual iste'moldagi qanday resurslar qayta taqsimlanadi. To'liq bandlik sharoitida faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyotida davlat oldida ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun individual iste'moldagi tovarlarning ishlab chiqarishdan resurslarni ajratish muammosi turadi. Oddiy usul bo'lib, xususiy tarmoqdan tovarlarni ajratib olish uchun xususiy talabni qisqartiriladi. Bunga asosan uy xo'jaliklari va korxonalardan soliqlarni olish orqali erishiladi. Uy xo'jaliklari va korxonalar kam daromad olish natijasida o'zlarining investitsion va iste'mol xarajatlarini kamaytirishadi. Qisqacha aytganda, soliqlar xususiy iste'moldagi tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni qisqartiradi, bu o'z navbatida, resurslarga xususiy talabni qisqarishiga olib keladi.

Davlat bu soliqlarni taqsimlashda ijtimoiy manfaatdagi tovar va xizmatlami ishlab chiqarishni e'tiborga oladi va shu sohaga ma'lum bir qismini yo'naltiradi.

#### **8.4. Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi va uning o'sishi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi yanada oshlaydi. Xususan, davlat iqtisodiyotga kredit tizimi orqali faol ta'sir ko'rsata boshlaydi. Bunda ssudaga beriladigan pul miqdorini o'zgartirish uchun foiz vositasidan foydalanadi. Ma'lumki, kredit munosabatlarida Markaziy banklar markaziy rezerv tizimi vazifasini o'taydi va ular davlat ta'sirida bo'ladidi. Davlat,

kreditga bo'lgan talab va taklifni markaziy rezerv tizimi orqali o'zgartiradi. Ushbu jarayonni uch xil yo'l bilan amalga oshiradi.

Birinchidan, davlat markaziy rezerv tizimi orqali banklar mablag'inining qarzga beriladigan va rezervda turadigan qismlari ulushini o'zgartiradi. Rezerv oshirilsa, kreditga beriladigan mablag' qisqaradi va aksincha, rezerv kamaytirilsa, mazkur mablag' ko'payadi. Natijada qarzga beriladigan pul miqdori o'zgaradi, ya'ni pul ko'paysa uning taklifi oshadi, binobarin foiz (%) kamayadi, aksincha, u qisqarganda, taklif kamayadi, demak foiz (%) oshadi. Foizning kamayishi kreditni arzonlashtiradi, unga intilishni kuchaytiradi, olingan qarz esa investitsiya qilinib, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Foizning oshishi kreditni qimmatlashtirib, unga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi, binobarin investitsiya qisqaradi va natijada iqtisodiy o'sish kamayadi.

Ikkinchidan, markaziy rezerv tizimi o'zi boshqa banklardan oladigan foizlarni o'zgartiradi. U boshqa banklarga past foiz hisobidan qarz berib, ularga moliyaviy yordam ko'rsatadi. Imtiyozli qarz olish banklarga quvvat bergenidan ular kreditlash ishida faol qatnashib iqtisodiy o'sishga ta'sir eta oladilar.

Uchinchidan, davlat markaziy rezerv tizimi orqali xazina veksellarini (majburiyatlarini) tarqatadi, o'z zayomlarni sotadi yoki qimmatbahoh qog'ozlarni sotib oladi. Davlat veksellarni banklarga yoki boshqa moliya tashkilotlariga sotish orqali ularning mablag'ini o'z ixtiyoriga olib, qarzga beriladigan pul miqdorini qisqartiradi. Veksellarni xarid etish orqali esa davlat ularning qarz puli miqdorini oshiradi. Natijada qarzga taklif etilgan pul miqdori o'zgarib foizga ta'sir etadi, binobarin, qarzga olinib ishlab chiqarishda foydalanilayotgan pul miqdori ko'payib yoki kamayib turishi iqtisodiyotga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifni o'zgartirish borasidagi siyosat monetar siyosat deb yuritiladi. Ushbu siyosatni o'tkazish orqali davlat iqtisodiyotni tartibga solib turadi.

Bundan tashqari davlat antiinflyatsion tadbirlar bilan ham iqtisodiyotni aralashadi. Ya'ni, inflyatsiyani yumshatish uchun ish haqi va narxlarni tutib turish "muzlatish" yo'lidan foydalanadi.

Iqtisodiyotni tartiblash vositalaridan yana biri bo'lib davlat tomonidan iqtisodiyot kelajagini oldindan taxminlash (prognozlash) va uni rivojlantirish dasaturini ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq etish hisoblanadi. Davlat byurtmasiga asosan uzoq va qisqa muddatlarga mo'ljallangan prognozlar tuziladi. Prognozlar da resurslar, texnologiya, ichki bozor hajmi va tarkibi, eksport va import, davlat xarajatlari, ishlab chiqarish tarkibidagi o'zgarishlar, matematik modellar asosida hisob-kitob qilinadi va iqtisodiyotni qaysi yo'nalishda rivojlanishi aniqlanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvidan eng usosiy ko'zlagan maqsadi mamlakat iqtisodiyotini xalqaro iqtisodiy va siyosiy raqobatlardan himoya qilish, erkin bozor iqtisodiyoti uchun huquqiy baza va ijtimoiy muhitni yaratish, daromadlar va boyliklarni, shuningdek, resurslar taqsimotini qayta taqsimlash va makroiqtisodiy muammolarni hal qilishdan iborat.
2. Davlatning mamlakat iqtisodiyotiga aralashuvi asosan makroiqtisodiy siyosatlar asosida olib boriladi. Ya'ni, byudjet, pul-kredit, soliq, moliyaviy yordamlar, narxlarni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligi balanslari yordamida olib boriladi.
3. Bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlaydi va qayta taqsimlaydi. Ammo shunday turdag'i tovar va xizmatlar borki uni ishlab chiqarish bozor tizimiga batomom teskaridir. Shuning uchun ham davlat bunday turdag'i tovar va xizmatlari ishlab chiqarish vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bunday tovar va xizmatlarni biz ijtimoiy manfaatlarni ko'zlab ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibiga kiritamiz.
4. Bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirish davlatning iqtisodiyotga aralashuvini oshiradi. Xususan, davlat iqtisodiyotga kredit tizimi orqali faol ta'sir ko'rsata boshlaydi. Davlat kreditga bo'lgan talab va taklifni markaziy rezerv tizimi orqali boshqaradi. Davlatning bu siyosatini monitar siyosat deb yuritiladi.

## Tayanch iboralar

Davlatning iqtisodiy vazifalari, bozor tizimi va uning samarali faoliyati, huquqiy baza, ijtimoiy muhit, iqtisodiy qonunlar, raqobat, sof va girrom raqobat daromad, boylik, foyda, xarajat va ularni taqsimlash, milliy mahsulot, resurs taqsimoti, barqarorlashtirish, kon'yuktura, infrastruktura, egiluvchanlik, ishsizlik infliyatsiya, transfert to'lovlari, raqobatli bozor, tovlanish xarajatlari, byudjet, soliq pul-kredit, dotatsiya, subvensiya, subsidiy, balans, soliq mexanizmi, narx, tannarx baho mexanizmi, ijtimoiy manfaat, kredit tizimi, foiz, intiyoz, qarz, xazina veksillari va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Bozor iqtisodiyotida nima uchun davlat iqtisodiyotga aralashishi zarur? Davlatning qanday vazifalarini bilasiz? Daromad va boylik samarasi nimani bildiradi?
2. Qanday vaziyatlarda bozor faoliyati buziladi? Davlatning xarajatlari nimalarda tashkil topadi? Respublika hukumatining bozor iqtisodiyotiga aralashuvida maqsad nima?
3. Makroiqtisodiy siyosatni qanday tushunasiz? Davlatning makroiqtisodiy siyosatlarini sanab o'ting?
4. Nima uchun resurslar va daromadlarni ijtimoiy manfaatlarni e'tiborga olib qayt taqsimlash zarur? Bozor tizimining ijtimoiy manfaat deb ataluvchi mahsulotlarni etishtirishga munosabati qanday?
5. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvi nima uchu zarur va qanday ko'rinishlarga ega?

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Каримов И.А. Бунёлкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.

4. Бурдо М. Виллош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело», 1996.
7. Йўлдошев З., Косимов М.С. “Макроиқтисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувчи. 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Хакимова М.А. “Макроиқтисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## **9-bob. Fiskal siyosat**

- 9.1. Diskretsion fiskal siyosat.
- 9.2. Nodiskretsion fiskal siyosat.
- 9.3. Muammo, tanqid va murakkablashish.
- 9.4. Ochiq iqtisodiyotda fiskal siyosat.

### **9.1. Diskretsion fiskal siyosat**

Davlatning fiskal harakatlari iqtisodiyotni muvofiqlashtirishda kaihamiyatga egadir. Shuning uchun real milliy ishlab chiqarish hajmi va bandlik o'zgartirish, inflyatsiya va iqtisodiy o'sishni nazorat qilish maqsadida davoxarajatlari va soliqlar orqali boshqariladigan diskretsion fiskal siyosatni ko'riqamiz. Buning uchun avvalambor quyidagi mulohazalarni ko'rib chiqamiz;

1. Investitsiya va sof eksportning soddlashtirilgan modelidan foydalanish davetsin;
2. Davlat xaridi dastlab xususiy xarajatlar miqdoriga hech qanday ta's ko'rsatmasin;
3. Davlatning sof soliq daromadlari individual soliqlarni yig'ishdan tashkil topsin;
4. Davlat sof milliy mahsulot miqdoridan qat'iy nazar yig'ilgan soliqlar summasini olsin;
5. Narxlar darajasi doimiy bo'lsin;
6. Fiskal siyosat makroiqtisodiyotda talab omillarigagina ta'sir qilsin, jami taklifga esa umuman ta'sir qilmasin.

Bu mulohazalar bizga davlat xarajatlari va soliqlarining iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatish to'g'risida tushuncha hosil qilish imkonini beradi. Masalan, davlat SMM miqdori qanday bo'lishidan qat'iy nazar 20 mrd. so'mlik tovar va xizmatlarni sotib olishga qaror qildi deylik. Xususiy xarajatlarning oshishi kabi davlat xarajatlarining oshishi ham jami xarajatlar grafigini bissektirisaga nisbatan siljishiga va SMM muvozanat miqdorining o'sishiga olib keladi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz lozimki, davlat xarajatlari multiplikator samarasini bilan

tasdiqlangan. Davlat xarajatining 20 mlrd. so‘mga oshishi SMMni 80 mlrd. so‘mga oshishiga olib keladi. Ya’ni, multiplikator 4 ga teng.

Bundan tashqari davlat xarajatlarining 20 mlrd so‘mga oshishi soliq tushumlari hisobidan moliyalashtirilmaydi. Chunki soliqlarning oshishi SMM miqdorining kamayishiga olib keladi. Boshqacha aytganimizda davlat xarajatlari byudjet kamomadi bilan qoplanishi kerak.

Agarda davlat xarajatlar miqdorini kamaytirsa jami xarajatlar grafigi pastga qarab siljiydi. Ya’ni, har qanday sharoitda SMM miqdorini kamaytiradi. Masalan, davlat xarajatlari 20 mlrd so‘mdan 10 mlrd so‘mga qisqarsa SMM miqdori 40 mlrd so‘mga kamayadi. Multiplikator samarasi 4 ga teng bo‘ladi.


Davlat 20 mlrd. so‘m miqdorida soliq joriy qilsin. Ya’ni, davlat SMMning har qanday miqdorida 20 mlrd. so‘mlik soliq tushumiga ega bo‘lsin. Bu, o‘z navbatida, soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadlar miqdoriga ta’sir qiladi. Chunki bu ta’sir iste’mol va jamg‘arish miqdorining kamayishiga olib keladi. Xususiy iste’mol va xususiy jamg‘armalar multiplikatori soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadlar miqdori kamayishining qancha qismi iste’molga va qancha qismi jamg‘armaga to‘g’ri kelishini aniqlab beradi. Ya’ni, MRS va MRS lar bo‘yicha hisoblaganimizda har qanday miqdordagi SMM dan 20 mlrd. so‘mlik soliqlarning olinishi iste’mol xarajatlarini 15 mlrd. so‘mga, jamg‘armani esa 5 mlrd. so‘mga kamaytiradi. Bu kamayishlar SMM miqdorini 60 mlrd. so‘mga kamayishiga olib keladi.

Demak, soliqlarning olinishi SMM miqdoriga nisbatan soliqlarni to‘lagandan keyingi daromadlar miqdorining kamayishiga olib kelar ekan. Bu kamayish, o‘z navbatida, SMM ning har qanday miqdorida iste’mol va jamg‘armalar miqdorining kamayishiga olib keladi. Jamg‘arma va iste’mollar kamayishi miqdorlari MRS va MRS lar bilan aniqlanar ekan.

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorining bir xil miqdorda o‘sishi SMM miqdorining o‘sishiga olib keladi. Bizning mioslimizda G va T larning 20 mlrd. so‘mga oshishi SMM miqdorining 20 mlrd. so‘mga oshishiga olib kelgan. Bu bizga balanslashgan byudjet multiplikatorini tushunish imkonini beradi. Davlat

xarajatlarining o'zgarishi soliq miqdorining o'zgarishiga nisbatan jami xarajatla miqdoriga ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Davlat xarajatlari jami xarajatlar miqdoriga bevosita, soliqlar miqdori esa bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

$$\text{Jami xarajatlar} = S + I + X_p + G;$$



Bundan ko'riniib turibdiki, balanslashgan byudjet multiplikatori birga teng Soliqlar miqdoring 20 mird. so'mga oshishi soliqlar to'lagandan keying daromadlar miqdorini 20 mird. so'mga qisqartiradi va iste'mol xarajatlarini 1: mird. so'm kamayishiga olib keladi. O'z navbatida, iste'mol xarajatlarining 1: mird. so'mga kamayishi SMM ni 60 mird. so'mga kamayishiga olib keladi Ammo, davlat xarajatlarining 20 mird. so'mga oshishi SMM ni 80 mird. so'mga oshiradi. Demak mos ravishda davlat xarajatlari va soliqlir 20 mird. so'mga oshish SMM ni 20 mird. so'mga ( $80-60 = 20$ ) oshiradi.

Fiskal siyosatning fundamental maqsadi ishsizlik yoki inflyatsiyani tugatishdir. Iqtisodiyotning pasayish davrida rag'battantiruvchi fiskal siyosa to'g'risida gap ketadi. Ya'ni, u birinchidan davlat xarajatlarini oshiradi ikkinchidan soliqlarni kamaytiradi, uchinchidan birinchi va ikkinchi yo'nalishlar birga qo'shib olib boradi. Boshqacha aytganimizda balanslashgan byudjet bo'lsiqtisodiyot inqirozga uchragan paytda fiskal siyosat davlat byudjeti kamomad yo'nalishiga harakat qiladi.

Teskarisi iqtisodiyotda keragidan ortiqcha talab inflyatsiyasiga joy bo'lsi bunday sharoitga bosiq fiskal siyosat to'g'ri keladi. Ya'ni, birinchidan davlat xarajatlarini kamaytirish, ikkinchidan soliqlarni oshirish va uchinchidan ikkalasini bir-biriga qo'shib olib borish. Agarda iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazora o'rnatish muammosi turgan bo'lsa fiskal siyosat davlat byudjetining ijobi qoldig'iga yo'naltirilgan bo'ladi.

Lekin, shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki SMM qiymati nafaqat davlat xarajatlari va soliqlar o'rtasidagi farqqa bog'liq, balki byudjetning absolyut miqdoriga ham bog'liqdir.

Davlat byudjetida kamomad bo'lgan sharoitda uning iqtisodiyotni rag'batlantirishi kamomadni rag'batlantirishiga bog'liq. Mamlakat byudjet kamomadini ikki xil yo'l bilan moliyalashtirish mumkin. Ya'ni, aholidan qarz olish hisobiga (foizli qog'ozlarni sotish hisobiga) yoki kreditorlari tomonidan yangi pullarni pechat qilishi orqali.

Agarda davlat pul bozoriga chiqsa va u yerga o'zining qarzlarini olib chiqsa, u moliyaviy vositalar uchun xususiy tadbirkorlar bilan raqobatga kirishadi. Moliyaviy vositalarga bo'lgan bu qo'shimcha talab foiz stavkalari muvozanat nuqtasini oshiradi. Chunki, oldingi mavzulardan ma'lumki investitsiya xarajatlari foiz stavkalari bilan teskari proporsianallikka ega. Demak, davlat tomonidan qarzlar olish foiz stavkalari darajasining oshishiga olib keladi. Agarda davlat byudjeti kamomadi yangi pullarni chiqarish orqali moliyalashtirilsa xususiy investitsiyalar ta'siridan qutilishi mumkin. Davlat xarajatlari investitsiya va iste'molga kuchli ta'sir qilmagan holda o'sishi mumkin. Demak, davlat byudjeti kamomadini moliyalashtirishda yangi pullarni chiqarish davlat qarzlarini kengaytirishga nisbatan yaxshiroq usul bo'lib hisoblanar ekan.

## **9.2. Nodeskretsion fiskal siyesat**

Davlat xarajatlari va soliqlar miqdorining o'zgarishi ayrim holatlarda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Buni biz birinchi savolga kiritmagan edik. Chunki SMM ning har qanday darajasida bir miqdordagi soliqlar olinishini ko'rib chiqqan edik.

Barcha turdag'i soliqlar ham SMM o'sishiga mos ravishda sof soliqlar tushumini ko'paytiradi (sof soliq umumiyligi soliqlar tushumidan davlat trasfert to'lovlarini ayirmasiga teng). SMM miqdorining o'sib borishi bilan individual daromad soliqlari, korxonalar daromad va foyda soliqlari, QQS, aksizlar miqdori oshib boradi. Va aksincha SMM miqdori kamaysa soliq tushumlari kamayadi. Bu

yerda transfert to'lovlari qarama-qarshi xususiyatga ega. Chunki iqtisodiy o'sish sharoitida ishsizlarga to'lanadigan nafaqalar, fermerlarga beriladigan subsidiyalar kamayadi va iqtisodiyot inqirozga uchrayotganda esa ko'payadi.


Quyidagi chizma bizga soliq tizimi qanday qilib barqarorlikni oshirishini tushunish imkonini beradi.

Ushbu grafikda davlat xarajatlari SMM mahsulot miqdori qanday bo'lishidan qat'iy nazar davlat tomonidan bir xil qilib belgilangan. Soliq tushumlari esa SMM miqdori bilan mos ravishda o'sib boradi.

SMM miqdori va soliq tushumlari o'rtaсидаги bu to'g'ri bog'liqliк ikki holatda katta ahamiyatga egadir.

#### 9.1-chizma:

##### Sof milliy mahsulot (CMM, mlrd. so'm)



Birinchidan soliqlar iqtisodiyotning potensial sotib olish qobiliyatini yo'qotish hisoblanasa, ikkinchidan barqarorlik nuqtayi nazaridan iqtisodiyot infliyatsiyaga qarab ketayotgan bo'lsa bunday soliq tushumlari miqdorini oshirish lozim. Aksincha, o'sish darajasi kamaygan vaziyatiarda soliq tushumlarini kamaytirish kerak.

O'rmatilgan barqarorlikni yanada kengroq aniqlaydigan bo'lsak iqtisodiyotda iqtisodiy kamayish bo'lgan sharoitda davlat byudjetining ijobjiy qoldig'ini

kamaytirishga va inflyatsiya sharoitida esa ijobjiy qoldiqni oshirish (yoki uning kamomadini kamaytirish) borasida olib boriladigan har qanday chora-tadbirlardan iboratdir. Yuqoridagi chora-tadbirlardan ko‘rinib turibdiki soliq tizimi shaxsan ushbu vazifalarni bajaradi. SMM miqdori oshganda soliq tushumlari ko‘payadi. Aksincha, SMM miqdori kamayganda esa soliq tushumlari ham kamayadi. Jadvaldan foydalangan holda shuni aytishimiz mumkinki, SMM miqdorining kam miqdori ( SMM 3) avtomatik ravishda rag‘batlantiruvchi byudjet kamomadini paydo bo‘lishga chorlaydi, inflyatsiya bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitdagi SMM miqdori esa avtomatik ravishda bosiq byudjet ortiqchaligining paydo bo‘lishiga chorlaydi.

Faraz qilaylik, mamlakat to‘liq bandlik sharoitida ya’ni, balanslangan byudjet sharoitida faoliyat ko‘rsatadi. Yil davomida iste’mol, investitsiya va sof eksport xarajatlarida qisqarish mavjud bo‘lsin va u SMM kamayishiga olib kelsin. Davlat ushbu vaziyatdan chiqish to‘g‘risida birorta ham chora qo‘llamagan bo‘isin va G va T grafikda ko‘rsatilgan vaziyatda qolsin. Iqtisodiyotning SMM3 ga qarab harakatida soliq tushumlari kamayadi va davlat xarajatlarining o‘zgarmagan sharoitida kamomad kelib chiqadi. Bu davriy kamomad davlatning fiskal siyosatlari natijasini bildirmaydi. Asosiy tushuncha shundan iboratki bu yerda davlatning fiskal siyosati to‘g‘risida hech narsani ta’kidlab bo‘lmaydi.

Iqtisodchilar bu muammoni byudjetga to‘liq bandlik tushunchasini kiritish orqali hal qilishdi.

Soddalashtirib aytsak to‘liq bandlik sharoitida bandlik agarda mamlakat iqtisodiyoti to‘liq bandlik sharoitida faoliyat ko‘rsatganda byudjet ortiqchaliqi yoki kamomadi qanday bo‘lgan bo‘lar edi. To‘liq bandlik sharoitidagi byudjet bilan keyingi o‘ttiz yildagi haqiqiy byudjet miqdorini solishtirish natijasida iqtisodchilar ikkita xususiyatini aniqlashdi. Birinchidan, haqiqiy byudjet, odatda, kamomad bilan chiqqan bo‘lsa, to‘liq bandlik sharoitidagi byudjet byudjet ortiqchaligiga yoki balanslashgan byudjetga tomon intilgan. Ikkinchidan, haqiqiy byudjet kamomadi va byudjet to‘liq bandlik sharoitida kamomadining ko‘pligiga e’tibor bering. Mamlakat iqtisodiyoti to‘liq bandlikka erishishga yaqinlashganda yoki potensial

ishlab chiqarish darajasiga yaqinlashganda haqiqiy komomadlarning ko'pgina qismi davlat xarajatlari hisobiga to'g'ri kelgan. Bu strukturali kamomad bildirayaptiki, soliq tushumlari davlat xarajatlari miqdoridan iqtisodiyot to'liq bandlikga erishgan sharoitda ham kam bo'lgan.

Davlatning fiskal siyosatida to'lanadigan soliqlar miqdori katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalari to'laydigan soliqlar tarkibini qarab chiqamiz.

Korxonalar uchun qanday manbalardan soliqlami to'lashni bilish lozim. Soliqlar ularning to'lanadigan manbalarga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi.

- 1) Xarajatlari - mahsulot tannarxiga kiritiladigan soliqlar: yer solig'i, avtomobil yo'llardan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliq, transport solig'i, transport vositalari egalaridan olinadigan soliq;
- 2) Xarajatlari - mahsulotlarni sotishdan tushadigan tushumlar tarkibiga kiridiladigan soliqlar; QQS, aksizlar, eksport ta'riflari;
3. Xarajatlari moliyaviy natijalarga qo'shiladagan soliqlar: - foyda soligi, molmulk, reklama, atrof-muhitni toza saqlash, uy-joy fondi va ijtimoiy soha obyektlarini saqlab turish soliqlari va boshqalar.
- 4) Xarajatlari korxona ixtiyorida qoladigan foydadan qoplanadigan soliqlar hisoblash texnikasi va avtomobilarni sotish uchun to'lanadigan soliqlar, savdo qilish uchun beriladigan litsenziyalar yig'imi, birja amalga oshirgan ishlar uchun yig'imlar, dam olish va kurort zonalarida ishlab chiqarish obyektlarini qurish uchun to'lanadigan soliqlar va boshqalar.

### **9.3. Muammo, tanqid va murakkablashish**

Qog'ozdag'i fiskal siyosat bilan amaldagi fiskal siyosat o'rtaida katta farq bor. Shuning uchun fiskal siyosatni amalga oshirishda to'sqinlik qiladigan ayrim muammolarga to'xtalib o'tmoqchimiz.

Fiskal siyosatni amalga oshirish ayrim vaqt muammolarini hal qilishni talab qiladi.

1) Vaqtinchalik bosib o'tilgan yo'lni aniqlash - bu asosan iqtisodiyotda ishlab hileqarish pasayishiga ketish oldidagi yoki inflyatsiya oldidagi qisqa vaqt hisoblanadi. Bu vaqtida iqtisodiyotning kelajakdagi rivojlanishi to'g'risida aniq bir mukammal aytish qiyin. Iqtisodiy prognozlashtirish iqtisodiy rivojlanishi to'g'risida ma'lum bir yo'l-yo'riq ko'rsatsa ham, iqtisodiyot to'rt yoki olti oylik kamayishni o'kl inflyatsiyani bosib o'tgan bo'ladi.

2) Ma'muriy sustkashlik. Odatda, hukumat tomonidan iqtisodiyotni turg'unsikdan lib chiqish uchun qabul qilinadigan fiskal siyosat ancha vaqt o'tkazib qabul qilinadi. Bu vaqtida esa iqtisodiy vaziyat o'zgaradi va qabul qilingan chora-tadbirlar umuman kerak bo'lmay qoladi.

3) Vazifaviy kechikish. Shuningdek, hukumatning qabul qilgan tadbirlari ishlab chiqishga joriy qilguncha ancha vaqt o'tib ketadi.

Mamlakat fiskal siyosati siyosiy arenada tashkil topadi va bu iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun foydalinishda qiyinchiliklarga olib keladi.

4) Boshqa maqsadlar. Xarajatlar va soliq tizimi iqtisodiy barqarorlikka erishishda yangona davlat siyosati bo'lib hisoblanmaydi. Shuningdek, davlat umumiyl iste'mol va daromadlarni qayta taqsimlash va boshqa jarayonlarni tovar va xizmatlar bilan ta'minlash muammolatini hal qilish kabi vazifalarni ham bajarishi kerak.

5) Rag'batlantiruvchi chora-tadbirlarga qiziqish. Byudjet kamomadi siyosiy jihatdan ma'lum bir miqdorda qo'llab-quvvatlansa, byudjet ortiqchaligi esa katta muammo hisoblanadi. Siyosiy jihatdan soliqlarni kamaytirish va xarajatlarni oshirish keng tarqalgan tadbir hisoblanadi. Soliqlarni oshirish aholi naroziligiga olib kelsa, xarajatlarni kamaytirish siyosiy jihatdan ancha xayflidir.

6) Siyosiy sabablarga ko'ra bir-biri bilan bog'langan davra. Ayrim iqtisodchilar hisoblashadiki ko'pgina siyosiy kuchlarning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiyotini ko'tarish emas, balki hukumatga saylanish, ya'ni mansab egallashdan iboratdir. Shuning uchun ko'pgina iqtisodchilar siyosiy sabablarga ko'ra bir-biri bilan bog'langan ishchan davra tushunchasini kiritishgan. Ya'ni, ularning fikricha siyosatchilar o'zlarining saylovchilarini maksimum qo'llab quvvatlash maqsadida ish olib borishadi. Bunday vaziyatda fiskal siyosat

iqtisodiyotni izdan chiqarishini bilsa ham hiyla-nayranglar ishlatishga harak qilishadi. Demak, bundan kelib chiqqan holda shunday xulosaga kelishimiz ha mumkinki, fiskal siyosat iqtisodiy tebranishlar sababchisi ham bo'lishi mumk ekan.

O'rIN almashish samarasi. O'rIN almashish samarasi mohiyati shunda iboratki, rag'batlantiruvchi (kamomadli) fiskal siyosat foiz stavkalari o'sishi investitsion xarajatlar kamayishiga moyillik yaratadi. Masalan, iqtisodiy kamayish jarayonida va davlat fiskal siyosat tariqasida davlat xarajatlari miqdori oshiradi. Davlat pul bozoriga kamomadni moliyalashtirish maqsadida chiqac chunki, xarajatlar foiz stavkasi bilan teskari bog'liqlikka ega. Demak, ayri investitsiyalar qabul qilinmaydi. Agarda investitsiyalar davlat xarajatlarini o'sgan qismi miqdorida kamaysa fiskal siyosat samarasiz bo'lgan bo'lar edi.

9.4. Ochiq iqtisodiyotda fiskal siyosat

Hozirgi sharoitgacha bizning mulohazalarimiz yopiq iqtisodiyot sharoiti olib boriladigan fiskal siyosat to'g'risida cheklangan edi. Agarda mamlakat jahon iqtisodiyotining bir qismini tashkil qilsa, ya'ni, ochiq iqtisodiyot sharoitida faoliy ko'rsatayotgan bo'lsa qo'shimcha qiyinchiliklar kelib chiqadi.

Oldingi mulohazalarimizdan ma'lumki, chet mamlakatlarda ro'y berayotga hodisalar va ular tomonidan qabul qilinayotgan siyosiy tadbirlar mamlak eksportiga va iqtisodiyotiga ta'sir qiladi. Buni biz bugungi tahvilimizda ifoda qil ekanmiz, ya'ni yalpi talabning xalqaro zARBASIGA duchor bo'lishimiz mumki chunki u bizning (SMM) ni qisqartirish va fiskal siyosatimiz tadbirlari qadrsizlantirishi mumkin. Masalan, taxmin qilaylik bizni respublikamizda ishl chiqarishni pasayishini kutayapmiz va davlat xarajatlari va soliqlarini miqdori shu darajagacha qisqartirdikki, ya'ni yalpi talabni o'sishini ta'minlashga yetarlid. Endi faraz qilaylik, bizni asosiy savdo hamkorimiz bo'lgan davlatlar iqtisodiy kutilmaganda va tezlik bilan o'sib boshlaydi. Ta'minlanganlik darajasining oshis va daromadlarining o'sishi bu mamlakatlarda bizni respublikamizdan tovarlar sotib olishning o'sishiga olib keladi. Bizning so'f eksportimiz o'sadi. Yalpi tak

nihoyatda tez o'sadi va biz talab inflyatsiyasi muammosi oldida turibmiz. Agar biz oldindan bilgan bo'lsak, ya'ni bizni sof eksportimiz shunchalik o'sishini biz rag'batlantiradigan qulay fiskal siyosat yuritgan bo'lar edik.

Sof eksport samarası, fiskal siyosat samaradorligini xalqaro savdo orqali barbos qilishga harakat qiladi. Biz o'rın almashish samarasini qarashni tugatdik va rag'batlantiruvchi fiskal siyosat orqali foiz stavkalarini oshishi mumkinligi haqida xulosaga keldik, ya'ni investitsiyani qisqarishiga olib keladi shunday ekan fiskal siyosatni bekorga chiqaradi. Endi biz ishonishimiz kerakki, foiz stavkalarini o'sishi bizni sof eksportga qanday ta'sir qiladi. Keyin faraz qilaylik, biz rag'batlantiruvchi fiskal siyosat olib borayapmiz, ya'ni iqtisodiyotga yuqori stavkali foiz olib keladi. Bunday foiz stavkalari chetdan moliyaviy kapitallarni jalg qiladi. Chetdan kelgan moliyaviy investorlar chetdan qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishdan oldin, o'zining hisobida o'sha mamlakatning valyutasiga (mos, respublikamizning so'mi) ega bo'lishi kerak.

Biz bilamizki, tovarga talabni oshishi hozirgi sharoitda so'm bahosining oshishiga olib keladi. Shunday qilib, so'mni narxi boshqa valyutaga tenglashtirilgan narxda oshadi, boshqacha aytganda so'm qimmatlashayapti.

Sof eksportni fiskal siyosatga ta'siri oldingi savollarda ko'rib o'tganimizdek vaqt omili, iqtisodiy muammo, inflyatsiya va o'rın almashishlar bilan mos ravishda amalga oshadi va yalpi talabni nihoyatda qiyinlashtiradi.

Keyingi jadvalda fiskal siyosatga sof eksportning ta'siri ikki yo'nalish bo'yicha berilgan. Ushbu jadvalda sof eksportga ta'sir ikki yo'nalishda ham ro'y beradi. Ya'ni, ichki foiz stavkasini kamaytirish, bosiq fiskal siyosat, sof eksport miqdorini o'sishiga imkoniyat yaratadi.

**Fiskal siyosat va uni soʻf eksportga taʼsiri**

<b>1) Ragʼbatlantiruvchi fiskal siyosat.</b>	<b>2) Bosiq fiskal siyosat.</b>
Muammo: inqiroz, sekin oʼsish.	Muammo: inflyatsiya.
Ragʼbatlantiruvchi fiskal siyosat.	Bosiq fiskal siyosat.
Eng katta ichki foiz stavkasi.	Eng kichik ichki foiz stavkasi.
Soʼmga tashqi talabni oshishi.	Soʼmga tashqi talabni kamayishi.
Soʼmnинг qimmatlashuvi.	Soʼmnинг arzonlashuvi.
Sof eksportni kamayishi, (ragʼbatlantiruvchi fiskal siyosatni qisman qarama-qarshiligidan yalpi talab kamayadi).	Sof eksportni koʼpayishi (bosiq fiskal siyosatni qarama-qarshiligidan qisman yalpi talab oʼsadi).

**Qisqacha xulosalar**

1. Davlatning fiskal siyosatlari iqtisodiyotni muvofiqlashtirishda hal qiluvchi siyosatlardan biri hisoblanadi. Fiskal siyosatlari diskretsiyon va nodeskretsion siyosatlarga boʼlinar ekan. Bu siyosatlarni olib borish ishlab chiqarish hajmini oshirish, ishsizlik va inflyatsiyani kamaytirish, iqtisodiy oʼsishga erishish yoʼllarini izlab topishda asosiy omil boʼlib hisoblanadi.

2. Fiskal siyosat, asosan, davlat xarajatlari miqdorini oshirish orqali SMM miqdorini koʼpaytirish va soliqlar hajmini oshirish orqali esa SMM miqdorini kamaytirish, shuningdek, ushbu usullarni barobar olib borish natijasida SMM miqdorini oshirishga erishish yoʼllarini koʼrsatadi. Bu yerda asosan multiplikator samarasiga asoslaniladi.

3. Fiskal siyosatlar bosiq va ragʼbatlantiruvchi fiskal siyosatlarga boʼlinar ekan. Ragʼbatlantiruvchi fiskal siyosat iqtisodiyotning pasayish davrida olib borilsa, bosiq fiskal siyosat iqtisodiyotda keragidan ortiqcha talab inflyatsiyasiga joy boʼlgan sharoitda olib boriladi.

4. Umuman olganda, qogʼozdagi fiskal siyosat bilan amaldagi fiskal siyosalar oʼrtasida katta farq mavjud. Shuning uchun fiskal siyosatni olib borishda toʼsqinlik

qitadigan muammolar, ya'ni vaqtinchalik bosib o'tilgan yo'lni aniqlash, ma'muriy sustkashlik, vazifaviy kechikish, o'zga maqsadlarni ko'zlash, rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar, ayrim sabablarga ko'ra bir-biri bilan bog'langan davra va boshqa jihatlariga to'xtalib o'tiladi.

5. Ochiq iqtisodiyotda olib boriladigan fiskal siyosat yokiq iqtisodiyotdagi fiskal siyosatdan tubdan farq qilar ekan.

### Tayanch iboralar

Fiskal siyosat, diskretsion va nodeskretsion fiskal siyosat, davlat xarajatlari, soliqlar, investitsiya va sof eksport, xususiy xarajatlari, sof soliq daromadlari, narxlar darajasi, talab omillari, miltiplikator samarasi, MRS, MRS, fiskal siyosatning fundamental maqsadi, ishsizlik, inflyatsiya, davlat qarzi, nafaqalar, kamomad, ortiqchalik, byudjet ortiqchaligi va byudjet kamomadi, vaqtinchalik bosib o'tilgan yo'lni aniqlash, ma'muriy sustkashlik, vazifaviy kechikish, boshqa maqsadlar, rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar, siyosiy arena, siyosiy sabablarga ko'ra bog'langan davra, o'rinn almashtirish samarasi, yokiq iqtisodiyot, ochiq iqtisodiyot, ochiq iqtisodiyotda fiskal siyosat, sof eksport samarasi, foiz stavkasi va boshqalar.

### Nazorot va mulohaza savollari

1. Fiskal siyosatning mohiyati va uning vositalari. Davlat xarajatlari, soliq multiplikatori. Balanslashgan byudjet multiplikatori.
2. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi, ularni tugatish usullari qanday olib boriladi?
3. Fiskal siyosatning jami taklifga ta'sir qilish usullarini aniqlang.
4. Ochiq iqtisodiyot bilan yokiq iqtisodiyotdagi fiskal siyosatlarning farqini tushuntiring.
5. Davlat xarajatlari multiplikatori, davlat transfert to'lovlarini multiplikatori, soliq multiplikatori, byudjet ekspansiyasi siyosati, byudjet kamomadi va to'liq bandlik sharoitidagi byudjet tushunchalarini izohlab bering.

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 3-бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст) С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувч 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Ҳакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## **10-bob. Pul-kredit siyosati va bank tizimi**

- 10.1. Pul-kredit siyosatining maqsadi va turlari.
- 10.2. Davlat o'zining pul-kredit siyosatida nimalarga asoslanadi.
- 10.3. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari.
- 10.4. Jahon bank tizimi rivojidagi yo'nalishlar.

### **10.1. Pul-kredit siyosatining maqsadlari va turlari**

Pul-kredit siyosati deganda, to'liq bandlik sharoitida jami mahsulotni ishlab chiqarishga infliyatsiyani ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini hayotga taqdim etadi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozorda operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatbaho qog'ozlarini taklif qilish usulidan keng foydalanimoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi. Bozorda Markaziy bank xazina qimmatbaho qog'ozlarini sotish yoki xarid qilish yo'li bilan pul taklifiiga ta'sir etadi, ya'ni pul bozoridagi talab va taklif muvozanatini ta'minlaydi.

Pul bozorida muomalada pul miqdori ortiqchaligi mavjud deb faraz qilamiz. Tabiiyki Markaziy bank ortiqcha pul massasini kamaytirish yoki yo'q qilishga harakat qiladi. Buning uchun, u ochiq bozorda o'zining qimmatli qog'ozlarini aholi va banklarga taklif etadi, ular esa uni xarid qila boshlaydilar. Davlat qimmatbaho qog'ozlarining (sotish yoki xarid qilish yo'li bilan) taklifi oshib borgan sari, unga bo'lgan bahosi pasayadi, o'z navbatida, unga bo'lgan foiz (ya'ni, qimmatbaho qog'ozlarini sotib olganlarga foiz shaklida haq to'lanadi) oshadi, bu esa unga bo'lgan talabni oshiradi. Banklar va aholi qimmatli qog'ozlarini ko'proq xarid qila boshlaydilar, pirovard natijada banklarning zaxiralarini qisqaradi, o'z navbatida bu hol pul taklifini bank multiplikatoriga teng nisbatda qisqarishiga olib keladi. Bu bank zaxira va pul taklifining ortishiga olib keladi.

Pul - kredit siyosatini amalga oshirishning yana bir vositasi, bu hisob-kito stavkasi siyosatidir. Hisob-kitob stavkasini Markaziy bank belgilaydi. Agar ushb stavka past bo'lsa, unda tijorat banklari ko'proq kredit olishga harakat qiladilar. Buning natijasida banklarning ortiqcha bank zaxiralari ortib boradi v muomaladagi pul massasi miqdorining oshib borishiga olib keladi. Agarda hiso stavkasi miqdori yuqori bo'lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, olganlarini es qaytarib berishga harakat qiladilar, pirovard natijada, ortiqcha bank zaxiraiga qisqaradi, buning natijasida esa muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Amaliyotda, davlatlar hisob stavkasi siyosatini ochiq bozordagi operatsiyal siyosati bilan muvofiqlashtirilgan holda olib borishga harakat qiladilar.

Pul kredit siyosatining vositalaridan yana biri bu majburiy bank zaxira me'yорини о'зgartирish siyosatidir. Majburiy bank zaxira me'yорини Markaziy bank belgilaydi va uni o'zgartirib turди. Agar Markaziy bank majburiy bank zaxirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zaxiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsie ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu me'yор 25 % bo'lsa, unda bankka qo'yilga 800 so'mdan 200 so'm majburiy bank me'yорini tashkil etadi. Bunda bank faq 600 so'mni qarzga berish mumkin bo'ladi. Endi faraz qilaylik me'yор 10 % ga tushiriladi, unda bank 720 so'mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Majburiy bank zaxira me'yорини ko'tarish yordamida davlat pul taklifi kamaytiradi. Zero bu banklarning ortiqcha bank zaxiralarining qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o'tkazishda bu vosita butun bank tizimini asoslariq ta'sir etadi. Shuning uchun u ko'pchilik mamlakatlarda o'ta zarur bo'lgandagi qo'llaniladi.

Xo'sh pul-kredit siyosatlarining oqibatlari qanday? Davlat tomonidan amal oshiriladigan pul-kredit siyosati YaMM, bandlik va baholar darajasiga bevosita'sir ko'rsatadi, faraz qilamizki, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmokda , ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat Markaziy bank orqali pul taklifini oshirishga, biz yuqorida ko'rib chiqqan vositalar yordamida amal oshirishga harakat qiladi. Buning natijasida pul taklifi o'sadi, foiz stavkasi esa kamayadi. Bu esa investitsiyalarga bo'lgan talabni oshiradi va, o'z navbatid

YaMM miqdorining ko'payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma'lum davrda o'z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to'xtaydi, ishsizlar soni kumayadi, jamiyatning daromadlari esa oshadi.

Pul-kredit siyosatining oqibati to'g'risida gapirganda qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak. Agarda qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirish va buning natijasida YaMM miqdorini o'sishini rag'batlantirgan bo'lsa, bu bilan u ma'lum darajada samaradorlikka erishgan bo'lsa, uzoq muddatli davrda esa bu choralarining samaradorligi pasayadi.

Shuni ham esdan chiqarmaslik kerakki, pul-kredit siyosati asosida yaxlit iqtisodiyotga pul-kredait siyosatining ta'sir jarayonlarini o'rghanuvchi pul nazariysi yotadi. Ushbu nazariya ikki xil yondashuvchi iqtisodchilar o'rtasida ko'p yillardan beri tortishuvvurga sabab bo'lib kelmoqda. Bular takomillashirilgan keynsian nazariya va zamonoviy pul miqdori nazariyasi. Ushbu ikki nazariya tarafdarlari ham pul taklifini nominal YaMM ga ta'sirini inkor etmaydilar, ammo bu ta'sirning ahamiyatiga har xil baho beradilar. Keynschilar fikricha monetar siyosat asosiga foiz stavkasi darajasi asos qilib olinishi zarur, monetaristlar fikricha esa pul taklifining darajasi asos qilib olingan. Keynschilar bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat aralashuvli shart deb hisoblashadilar, monetaristlar esa uni ortiqcha deb hisoblaydilar.

Keynschilar pul taklifini YaMM ga ta'sirini quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi deb hisoblashadi; pul taklifining o'zgarishi foiz stavkasining o'zgarishini, u esa, o'z navbatida, investitsiyalarga bo'lgan talabni o'zgarishi orqali YaMM ga tu'sir etadi. Monetaristlar esa bu borada shunday deydilar; pul miqdorining o'zgarishi bilan YaMM o'zgarishi o'rtaida yaqinroq aloqa mavjud; ya'ni pul tuiqdorining o'zgarishi bevosita YaMM o'zgarishiga olib keladi.

Keynschilarning asosiy tenglamasi quyidagicha;

$$YaMM = S + I + Q + NX ;$$

Bu yerda, C - aholi iste'mol xarajatlari; I - investitsiyalar; Q - davlatning tovar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari; NX - soj eksport.

Monetaristlar  $M \times V = P \times Q$  tenglamaga asoslanadilar. Agar

$P \times Q = YaMM$  bo'lsa, unda tenglamani quyidagicha yozish mumkin bo'ladi;

$M = YaMM / V$ ; Bu yerda, M - pul taklifi; V - pulning aylanish tezligi yoki aynishlar soni; P - tovar va xizmatlarning o'ttacha bahosi; Q - sotilgan tovarlar soni.

Bunda monetaristlar pulning aylanish tezligini barqaror deb hisoblaydilar keynschilar esa aksincha nobarqaror deydi.

Hozirda mavjud bo'lgan monetaristik siyosatning modellari bu ikki yondashuvning sintez qilingan variantidir. Ya'ni, bu yondashuvlarning ijobi jihatlarini qo'shib o'zida aks ettirgan monetaristik siyosatning variantidir. Uzo muddatli davrda monetaristik yondashuv ko'proq ishlataladi. Shu bilan birga, qisq muddatli davrlarda esa davlat foiz stavkasiga ta'sir etishdan voz kechmaydi.

O'zbekistonda pul-kredit siyosatining quyidagi yo'nalishlari mavjud;

- davlat tomonidan pul massasini oldindan bilish, uni doimiy nazorat qilish;
- Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining operatsiyalarini pul bila ta'minlash, bunda Markaziy bankning tijorat banklariga foiz hisobida kredit berish nazarda tutiladi, bu esa, o'z navbatida, Markaziy bank tomonidan, umuman pi muomalasi sohasini nazorat qilishga imkon beradi;
- kredit va byudjet tizimlari o'rtasida o'zaro munosabatlardan vositasi takomillashtirish, kredit berish, byudjet kamomadi sharoitida pul chiqaris hisobiga emas, balki davlatning qimmatbaho qog'ozlarini sotish hisobiga qoplashturur.

### 10.2. Davlat o'zining pul-kredit siyosatida nimatlarga asoslanadi

Davlatning pulga bo'lgan talab va taklifi o'zgarishi borasidagi siyosatni monetar siyosat deb yuritiladi. Bu siyosat monetarizm nazariyasiga asoslanadi. Uning bosh goyasi-iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bi mexanizmning asosiy vositasi pul, degan xulosadan iborat. Pulga bo'lgan talab va taklifni quyidagi bog'lanish yordamida o'zgartirib turilishi tavsiya etiladi.

$$M \times V = P \times Q$$

Bu tenglik bozor iqtisodiyotidagi eng muhim muvozanat bo'lib, uning asoslanib quyidagi bog'lanishlarni aniqlash mumkin:

- Bozordagi baho pul massasi bilan bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlar qiymatiga bog'liq .

$$P^* = M \times V / P \times Q ;$$

Ya'ni, pul massasi bozorga chiqarilgan tovar va xizmatlarning bozordagi bahosini belgilaydi. Agar;

1.  $P^* > 1$  bo'lsa, pul talabga nisbatan ko'p bo'ladi;
2.  $P^* < 1$  bo'lsa, pul talabga nisbatan kam bo'ladi;
3.  $P^* = 1$  bo'lsa, pul massasi bilan tovar va xizmatlar massasi tenglashadi, ya'ni bozor muvozanatlashadi.

Birinchi holda narx oshgan bo'ladi va pul qadri pasayadi, ikkinchi holda esa uksincha, pul massasi kamaygan bo'ladi va to'lov krizisi yuzaga keladi.

Muomalada bo'lishi zarur bo'lgan pul massasi tovar va xizmatlar massasi bilan pul harakati-pul oborot tizimiga bog'liq;

$$M = P \times Q / V ;$$

Muomala uchun zarur bo'lgan pul massasini davlat o'zi belgilagan kurs bo'yicha oltinga muvofiqlashtirilgan holda muomalaga chiqaradi va shu davlat doirasida harakat qiladi. Muomalada tovarlar bilan ta'minlanmagan pulning paydo bo'lishi inflyatsiyani bildiradi. Pul qadrsizlanganda muomaladagi pul ko'payib unga nisbatan tovar va xizmatlar kamayib ketadi. Pul birligining xarid kuchi unga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdoridan kamayadi, uning natijasida ularning bahosi o'sadi. Bu esa, o'z navbatida, pulning valyuta kursini hissayshtiradi, chunki unga nisbatan boshqa valyutaga ko'proq tovar sotib olish mumkin bo'ladi.

Davlat o'z xarajatlarini qoplash uchun pul emissiyasini joriy qilib uni ko'paytirib muomalaga tashlashi mumkin. Lekin uni tovar va xizmatlar massasi bilan ta'minlay olmaydi. Buning natijasida pul inflyatsiyasi kuchayib boradi. Denak, qog'oz puilar oltinga, chet el valyutasiga nisbatan qadrsizlanadi. Binobarin pul miqdori asosan ishlab chiqarish holatiga, narxga, pul oboroti tizimiga bog'liq bo'lib unga nisbatan davlat jiddiy yondashadi. Iqtisodiyotni tartiblash uchun muomaladagi pul miqdorini o'zgartirib uni normal holga keltirib turadi. Bu ishni

Markaziy bank amalga oshiradi. Monetaristlar iqtisodiyotga amaliy jihatdan yondashib pul massasini 3 - 5 foiz oshirishni tavsiya etishadi.

Agar moliya barcha xo'jalik subyektlarini o'ziga tegishli pul mablag'lari xususidagi aloqalarni anglatса, kredit, o'zga mulki bo'lgan pulni qarzga olib, ishlatish borasidagi munosabatlarni bildiradi va bozor munosabatlarining bir unsiri hisoblanadi.

Kredit deganda vaqtincha o'z egalari qo'llida bo'sh turgan pul mablag'larini boshqalar tomonidan ma'lum (hudud) muddatga haq to'lash sharti bilan qarzga olish va qaytarib berish yuzasidan kelib chiqqan munosabatlarni tushunish kerakdir. Kredit munosabatlari ikki subyekt o'rtasida yuzaga keladi; biri pul egasi, ya'ni qarz beruvchi, ikkinchisi pulga muxtoj, ya'ni qarz oluvchi.

Qarz beruvchi qarzdorga aylanishi va buning aksi ham ro'y beradi. Ayni bir subyekt bir vaqtning o'zida ham qarz beruvchi ham qarz oluvchi bo'lishi mumkin. Masalan, bank aslida pul egasi bilan qarz oluvchi o'rtasida vositachi, ayni vaqtda, uning o'zi bo'sh pulni qarzga oladi va so'ngra uni boshqalarga qarzga beradi.

Kredit subyektlari har xil, bularga korxona, firma, tashkilot, muassasa, davlat va turli toifa aholi kiradi. Kredit obyekti har qanday pul emas, balki vaqtincha bo'sh turgan egasi tomonidan ishlatilmay va qarzga berilishi mumkin bo'lgan puldir. Bo'sh pul uch xil bo'ladi:

- 1) Tadbirkorlar yoki katta puldorlar qo'lidagi pul, ya'ni pul kapitali;
- 2) Aholi kulidagi pul - ertami kechmi ehtiyojni qondirish uchun to'plangan pul, egasi qo'lida kapital emas, balki iste'molni qondirish vositasi;
- 3) Davlat ixtiyoridagi pul. Bu ham pul kapitali (Davlat korxonasi uchun) ham umumiy iste'mol puldir.

Xullas, jamiyatdagи pul resurslari harakatining notekrit bo'lishi, bir qism pulning bo'sh qolib, qarz fondiga aylanishi uchun imkon bo'ladi. Albatta, bu hodisa bo'sh pulning taklifini bildiradi. Ammo, kredit paydo bo'lishi uchun pulga talab ham bo'lishi zarurdir. Bu talabni iqtisodiyotning o'zi yuzaga chiqaradi.

### **10.3. Banklar va ularning bozor iqtisodiyotidagi vazifalari**

Moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasatari vositasida amalga oshiriladi. Bunday mussasalarga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug‘urta kompaniyalari, investitsiya fondlari, agentliklar kiradi.

“Bank” tushunchasi qadimiy fransuzcha bang va banca so‘zlaridan kelib chiqgan bo‘lib, “sarrof kursisi, do‘koni” degan ma’noni anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarining taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko‘rsatgan bankirlar haqidagi ma’lumotlarida ham mavjud.

Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo‘lgan aloqalariga xizmat qiluvchi institut (muassasa)dir. Pul bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlar ko‘p, ummo ularning markazida banklar turadi. O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida” qonunida bank nima degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O‘zbekistondagi bank tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aksiyadorlik kommersiya banklari va xususiy banklardan iboratdir.

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor - yurak, pul bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to‘lovleri (transfertlar) banklar orqali o‘tadi. Banklar quyidagi ishlarni amafiga oshiradi:

- pul va qimmatbaho buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo‘ladigan hisob-kitob opresiyalarini, xususan pul to‘lash ishlarini bajaradi;
- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;
- o‘z qo‘lidagi pulni qaytarishlik, foizlik va muddatlik sharti bilan unga (muxtojlarga) qarz (ssuda)ga beradi, ya’ni kredit bilan shug‘ullanadi;
- o‘z puliga aksiya sotib olib, uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hokazo.

Bank ishi pul olamida bo‘ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi.

Moliya va kredit operatsiyalarining asosiy qismini qamrab oladigan kredit tizimining hal qiluvchi bo‘g‘ini bank tizimidir. Banklar juda qadimiy va anchi keng tarqalgan kredit muassasalari guruhi bo‘lib, ular kredit-moliya xizmatlarini aksariyatini bajaradi hamda mohiyatiga ko‘ra keng sohali muassasa hisoblanadilar. Banklarning an’anaviy operatsiyalari to‘planib qolgan mablag‘larni haq to‘lashtirish, muddatilik, qaytarish sharti bilan ssudaga jaib qilish, shuningdek, hisob-kitoblarni amalga oshirishdan iborat.

Halq xo‘jaligining har qanday tarmogi kabi kredit tizimi ham tarkib qismilarni, bosqichma-bosqich pastdan yuqoriga tomon tuzilishini tashkil etishga ya’ni markaziy boshqaruv bo‘g‘ini va quyi (ish bajaruvchi) organlarni ajratishga ehtiyoj sezdi. Quyi organlar faoliyatini muvofiqlashirish maqsadida boshqaruvchi organi kredit muassasalarining faoliyat ko‘rsatishini nazaratga olishi, ular ishlashni qilishi hamda kredit tizimi to‘xtovsiz va pishiq-puxta ishlashi uchun mavjud ta’sir etish dastaklari orqali tizim faoliyatini kerakli izga solishi, xalq oborotiga kredit - hisobi samaradorligini ta’minlanishi, kredit operatsiyalarining hajmi asossiz ravishda kengayib yoki kamayib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

Markaziy bankning monopolik mavqyei uning mamlakatdagi pul va pirovan natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarcha bog‘liqdir. Bundan tashqari, Markaziy bank ayni paytda boshqa, jumladan banklarning banki, davlat banki, milliy oltin-valyuta zaxiralarini boshqaruvchilil vazifalarini ham bajaradi. Markaziy bank o‘zining butun faoliyatini zimmasidagi turgan vazifalarni sifatli va samarali ado etadigan darajada uyuştiradi. Umumiy pul xo‘jalik aylanmasida Markaziy bankning monopolik mavqyei unga pul muomalasini nazaratida saqlab turishga imkon beradi, pul miqdori nazoratsi ko‘paymasa, uning xarid qobiliyati ham pasayib ketmaydi.

Bundan tashqari, tijorat banklari Markaziy bankda o‘z qisqa muddatli va o‘rtacha muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zaxira deyariladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Markaziy bank naqdsiz to'lov aylanmasini texnik tarzda bajarish uchun so'f bank xizmatlarini taqdim etadi. Banklar bu xizmatlardan iqtisodiyotning turli obyektlari o'rtaida to'lov aylanmasini yo'lga qo'yish uchun foydalanadi.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o'zining mintaqaviy bo'linmalari orqali kredit muassasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma'lumotlarini taqdim etishi asosida qatnashadi.

Kredit muassasalarining bo'ysunishiga qarab bank qonunchiligi hamda kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy tuzilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin.

Bu tizim banklar o'rtaida yonlama aloqa bo'lishini, ularning operatsiyalari va uzo'no etadigan vazifalarini universallashni ko'zda tutadi. Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit - hisob xizmati ko'rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi. Tuzilishning bunday tamoyili asosan iqtisodi sost rivojlangan mamlakatlarga, shuningdek, boshqaruvning totalitar, ma'muriy buyruqbozlik tariblari hukm surayotgan mamlakatlarga ham xos.

O'zbekistonda bank tizimini qayta qurish mustaqil davlat iqtisodiy siyosating muhim yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Yuqorida qayd etilganidek, xo'jalik mexanizmini bir maromda faoliyat yuritishini barqaror ishlaydigan banklar milliy tizimini taqozo etadi. Bunday tizim emissiya banki va tijorat banklari tarmogini o'z ichiga oladi. Mustaqillik qo'lga kiritilgunga qadar O'zbekiston hududidagi bank muassasalari SSSR bank tizimining tarkibiy qismiga mansub edi. Bu banklar bozor qoidalari asosida ishlaydigan banklar milliy tizimini taqdim eta olmasdi. Shunday qilib, mustaqillik qo'lga kiritilgach, O'zbekiston Respublikasida banklarni isloh qilish muammosi o'sha paytda ishlab turgan banklarni shunchaki qayta qurish va qayta tashkil etishdangina iborat bo'lmay, balki sifat jihatidan butunlay yangi bank tizimining tub asoslarini yaratish va ko'tish zaruratini tugdirar edi.

S) Mazkur tizim banklar o'rtaida o'zaro munosabatlarning ikki: bo'yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo'nalishda tuzilishiga asoslanadi. Vertikal - tubbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi

bo‘g‘inlar - tijorat va ixtisoslashgan banklar o‘rtasidagi bo‘ysunish munosabatlari gorizontal-turli quyi bo‘g‘inlar o‘rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlar tushuniladi. Markaziy bank faqat mijozlarning ikki toifasi - tijorat va ixtisoslashgan banklar hamda davlat tuzilmalari uchun tom ma’noda Markaziy bank bo‘lib qoladi, binobarin, banklar banki va kredit - moliya xizmatlari bozorin tartibga solib turish hamda faoliyat ko‘rsatishini nazorat qilish maqsadida banl muassasalari ishini boshqarish vazifasi ustunroq mavqeiga ega.

O‘zbekiston tijorat banklarining rivojlanishida bank sohasini monopoliyada chiqarishga intilish kuzatildi. Dastlabki bosqichda bu hol asosan iqtisodiyotning alohida tarmoqlariga xizmat qiladigan banklar tashkil etishda namoyon bo‘ldi 1995 yilda aksiyadorlik tijorat “Aloqabank”, Aksiyadorlik tijorat “Toshsanoatuy joybank”, O‘zbekiston aksiyadorlik tijorat investitsiya banki “Sayoxatinvest bank” maxsus davlat aksiyadorlik - ipoteka “Zamin” banklari tashkil etildi. “O‘zagrosanoatbank” aksiyadorlik tijorat banki “Paxtabank” ixtisoslashgan tijora aksiyadorlik bankiga aylantirildi. Sobiq “O‘zagrosanoatbank” hamda “O‘zsanoatqurilishbank” ni maydalashtirish natijasida mijozlarini yangi tashki etilgan banklarga o‘tkazish tufayli mamlakat bank tizimi doirasida aktivlar va passivlarni taqsimlash ham tegishli ravishda o‘zgardi. Shunga qaramay uchta yiril bank tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, “O‘zsanoatqurilishbank” va “Paxtabankning” ulushi 1995 yil oxiriga kelib barcha banklar kredi qo‘yilmatarining 75 foizini tashkil etdi.

Islohotning dastlabki bosqichida, ixtisoslashgan tijorat banklarining paydi bo‘lishiga sabab tarmoq xususiyatiga kura korxonalarining jamlanish zaruriyat hamda ularni maqsadli moliyalashni yaxshilash va o‘zaro hisob-kitobni yaxshilasi edi. Shu bilan birga ixtisoslashgan tijorat banklari sonining ko‘payishi resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini toraytirib qo‘ydi. Ularning depozit va kredit faoliyatini kerakli darajada deversifikasiyalashni ta’minlamadi. 1995 yilda ixtisoslashgan kredit moliya muassasalarni tashkil etishga faol kirishildi.

Bunday muassasalar bozor iqtisodiyotidagi mamlakatlarda mavjud bo‘lit banklar bilan bir qatorda davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi

hisoblanadi. Shunday yo'nalish obyektiv xususiyatga ega bo'lib, uni moliya muassasalarining turli-tuman ko'rinishlari o'rtasida kredit sohasini taqsimlash zarurati taqozo etgan edi. "Biznes fond", "Madad" sug'urta kompaniyasi, "O'zbekinvest" Milliy sug'urta kompaniyasi, Xususiy sug'urta va investitsiya kompaniyalari singari ixtisoslashgan moliya kredit muassasalari tashkil etildi.

Ustav kapitali eng kam miqdorining o'z vaqtida qayta ko'rib chiqilganligi bank sohasi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu esa bank nazorati talablariga javob beradi. 1995-yilda tijorat banklarining umumiy ustav kapitali 56 foiz o'sdi. Yangi banklarning paydo bo'lishi hamda ishlab turgan tijorat banklarining ustav kapitali miqdorining ko'payishi natijasida ana shunday o'sish ro'y berdi. Fond bozori huquqiy negizlarining shakllanishi va 1995-yilga kelib xususiy lashirishning ikkinchi bosqichi boshlanganligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarga jalb etish uchun shart-sharoit yaratdi. Xususiy-lashirishning ikkinchi bosqichini faollashuvi tufayli korxonalar va tijorat banklari aksiyalarining birlamchi bozori keng rivoj topdi.

#### **10.4. Jahon bank tizimi rivojidagi yo'nalishlari**

A) Jahon banki tizimi murakkab, ziddiyatli yo'ldan rivojlanib bormoqda, birorta asosiy yo'nalishni alohida ajratib ko'rsatish qiyin. Shunday bo'lsa ham, bu sohadagi asosiy tamoyillar haqida gapirganda, banklarning qo'shilib ketishi yoki birl-birini yutib yuborishi hisobiga ularning yiriklashuvi jarayoni birinchi navbatda unzarda tutiladi. Bu tamoyil barcha mamlakatlarda biror-bir tarzda namoyon bo'lmoqda. Dunyoning eng yirik o'nta banki orasida faqat Fransyaning Gkudit Agkucolu banki dehqonchilik sohasiga investitsiya beruvchi aniq ixtisosga ega. Boshqa hamma banklar o'zlarining dastlabki yo'nalishlarini allaqachon o'zgartirib yuborgan. Masa'an, Buyuk Britaniya moliya bozorida chet el banklari bo'limlarining ko'pligi uning xususiyatiga aylanib qolgan. Ularning ko'plari bu mamlakatda 19-asrdayoq o'tnashib olishgan. O'sha paytda London dunyoning moliyaviy markazi edi. O'tgan asming oltmishinchchi yillaridayoq Londonda

Fransiyaning uchta banki o‘z bo‘limini ochgan edi. 1914-yilda 20 tadan ko‘proq banklarning idoralari ishlardi.

Amerika banklari ham 1990-yillarning boshlarida o‘zaro qo‘shilish va bir-birini yutib yuborishni kuchaytirib yuborishdi. 1991-yilda 47 shtat va Kolumbiya okrugi qabul qilgan shtatlararo bank qonuniga ko‘ra o‘z shtati hududida “Begona” shtat depozitlarini qabul qilishga ruxsat berilganidan so‘ng shunday bo‘ldi. Kaliforniya shtatining ochilishi bu sohada ayniqsa muhim edi. Tinch okean mintaqasiga, shu jumladan, Yaponiyaga yaqinligi tufayli ko‘pgina banklar uchun bu shtatning imkoniyatlari ayniqsa katta. Nyu-yorkdagi ikkita yirik bank Shumical Bank bilan Manifuctgkuks Hanovuk Bank ning, shuningdek Sucgkity Pacific Cokpokation bilan Bank of Amukika ning birlashuvi bilan katta qo‘shilish deb atalgan jarayon boshlanadi.

Yaponiyada eng yirik ikki bank - Tokyo va Mitshbishi birlashgach dunyodagi eng zo‘r bank tizilmalari ro‘yxatining boshida turuvchi bank paydo bo‘ldi.

Amerikalik olimlar - Deyv Fillips va Kristin Peylevelning tadqiqotlariga qaraganda, boshqa banklarda qo‘lga oluvchi yoki yutib yuboruvchi banklar 100 dan ortiq filialga va 4 milliarddan ko‘proq aktivga ega bo‘lgan eng yirik banklar jumlasiga kiradi. **Qo‘lga o‘tayotgan** banklar esa qo‘lga oluvchi banklardan kichikrok (1 mldr. dollarga yaqin aktivlarga ega va 50 tadan ko‘proq bo‘limga ega). Ammo, odatda, o‘rtacha banklardan kattaroqdir. Banklarning qo‘shilishi miyosi ular faoliyatining samaradorligiga zarar yetkazmagan tarzda qadar jagacha yetishi mumkin? - degan mantiqiy savol tug‘iladi. Amerikalik olimlarning shuni aniqlashga bag‘ishlab bir talay asarlar yozishdi. Ularning xulosalariga ko‘ra, kichikroq bank (Amerikacha “o‘Ichov” bilan aktivlarning qiymati 100-500 mln.dollar bo‘lgan bank) samarali ishlaydi va tarmoqdagi eng yirik banklar bilan bemalol raqobat qila oladi. Shu jihatdan Shefferning ishi diqqatga sazovordir. U aktivlarning qiymati 1 mldr. dollardan ortiq bo‘lgan banklar o‘zaro qo‘shilganda xatto yangi bankning turlari va bo‘limlari o‘zgarmagan taqdirda ham jamchiqimlari 50 foizdan ham kam kamayar ekan. Biroq, aktivlarning jami qiymati \$

mlrd. dollardan oshadigan banklar o'zaro qo'shilganda chiqimlar arzimas darajada qisqarishini ham aniqlashdi.

B) O‘z mablag‘ini imkonli boricha diversifikasiyalash (kengaytirish) jahon bank tizimining boshqa muhim tomonidir. Masalan, Britaniyadagi Midland bankining (Honkong Bank) va Amerikadagi Makinu banki birqalikda bu bank Londondagi NSBC Holdings guruhiga kirib, hammalari birqalikda 1995-yil yakuniga ko‘ra “Thu Bankuk” jurnalining an’anaviy reytingida birinchi o‘rinni oldi). An’anaviy bank faoliyati bilan turdosh tarmoqlarga jadal kirib borish jarayoni asr boshidayoq boshlangan. 1909-yilda tuzilgan kompaniya keyinroq bankning chet el bozoriga kirib olishda asosiy qurol bo‘ldi. 1958-yilda M. Gland shu vaqtga kelib tuzilgan o‘zining sho‘ba banki bilan birqalikda haqi bo‘lib-bo‘lib to‘lanadigan tovarlar sotib olish uchun qarz berish bilan shugullanuvchi firmanın hamma aksiyalarini sotib oldi. Tashqi ekspansiyani kuchaytirish uchun bank 1965 yilda 3 ta bank - “Amko Bank” (Niderlandiya), Dugtschu Bank (Germaniya) va Societu gunukalu (Belgiya) bilan mustahkam aloqa o‘rnatdi. Mazkur banklarning Yevropa maslahat qo‘mitasi nomini olgan bitimi aksiyalari biron-bir tarzda ayirboshlashni ko‘zda tutmagan bo‘lsa ham keyingi yillarda xalqaro maydonda banklarning yanada yaqin kooperatsiyalashuvi uchun asos yaratdi.

Yaponiya banklarining xalqaro ekspansiyasi 70-yillarning oxirlarida boshlandi. Bu hodisaning boisi: mamlakatning barcha yetakchi banklari dunyoning asosiy markazlarida, shuningdek, Yapon korporatsiyalarining strategiyasi nuqtai nazaridan alohida ahamiyatga ega bo'lgan (mamlakatlarda) mintaqalarda (Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari, AQSh G'arbiy sohili, Avstraliyada) bo'limlar ochgan edi. Bu ekspansiya bir necha ustun yo'tnalishlar bo'yicha davom etdi.

Birinchisi, dunyoning turli mintaqalariga investitsiya qo'yuvchi Yapon transmilliy korporatsiyalarga xizmat qilish. Bu yo'naliш Yapon banklarining ichki bank biznesiga kirib olib, bo'lim va sho'ba komponiyalar ochilishi hamda moliyaviy nochor ahvolga tushib qolgan mahalliy banklarni setib olish yo'lidan bordi.

Ikkinchisi, Nyu-York, London, Syurix kabi yirik moliya markazlarida jahon muda kapitali bozorida yirik operatsiyalar o'tkazish.

Uchinchisi, Yaponiya uchun “qiziqarli” mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish chunonchi, ko‘pchilik Yapon banklari Xitoyda vakolatxonalar va sho‘ba kompaniyalar ochib, yirik investitsiya loyihaferini moliyalashda qatnashmoqda.

S) Bankiar faoliyatini dereguliyasiyalash jarayoni uchinchi jahonshumul tamoyildir. 70-yillar oxirida AQSh da fuqarolarning omonatlari xafvsizligi darajasini oshirish maqsadida jamg‘arma depozitlari bo‘yicha foiz stavkasining yuqori chegarasini ko‘tarishdan boshlangan. Bu jarayon moliyaviy xizmatlarning butun sohasiga yoyildi. Yangi qonunlar tufayli banklar mijozlarga operasion depozitlar, shuningdek iste’mol va tijorat kreditining turli variantlarini taklif etish huquqini oladi. Shu bilan birga turli qimmatli qog‘ozlar operatsiyaiari o’tkazildi. Dunyodagi boshqa yetakchi mamlakatlar masalan, Avstraliya, Kanada, Angliya va Yaponiya ham 80-yillarda deregulyatsiya amaliyotiga qo‘shildi.

Jahon bank tizimi rivojlanishining asosiy tamoyillari ana shunday. Ularni tahlil etib chiqariladigan umumiyl xulosa quyidagicha:

Zamonaviy bank tizimi murakkablashib yiriklashib bormoqda. Unda so‘f klassik “bankcha” xususiyatlari boshqa moliya muassasalarining xususiyatlari bilan qo‘shilib ketmoqda.

Banklarning rivoji butun dunyoda davom etayotgan iqtisodiy integratsiya tamoyilini aks ettiradi. Bu jarayonning bank ishida namoyon bo‘lishi natijalarini rivojlangan mamlakatlar misolida o‘rganish orqali o‘z bank tizimini endigina vujudga keltirayotgan mamlakatlar xatolarga yo‘l qo‘ymay, bundan buyongi taraqqiyot konsepsiyasini oqilona amalga oshirishlari mumkin bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

### Qisqacha xulosalar

1. Pul-kredit siyosati asosan ishlab chiqarishda infliyatsiyani va ishsizlikni kamaytirish maqsadida muomaladagi pullar miqdorini o‘zgartirishga qaratilgan. Pul-kredit siyosatlarini amalga oshirishda foiz stavkasi, majburiy bank zaxiralari va ochiq bozordagi operatsiyalar kabi vositalaridan foydalaniлади.

2. Davlat tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosati asosan quyidagilarga asoslanadi. Ya'ni, monetar siyosat. Bu siyosat monetarizm nazariyasiga asoslanib, uning bosh goyasi - iqtisodiy o'sishni bozor mexanizmi ta'minlaydi, bu mexanizmning asosiy vositasi pul degan xulosadan iborat.
3. Moliya bozoridagi operatsiyalar moliya muassasalari vositasida amalga oshiriladi. Bularga turli xil banklar, birjalar, depozitariylar, sug'urta kompaniyalar, investitsiya fondlari va agentliklar kiradi. Bularning ichida eng asosiysi bo'lib banklar hisoblanadi. Bank - tijorat tashkiloti bo'lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir. Respublikada Markaziy bank - aksiyadorlik tijorat banklari, xususiy banklar va qo'shma banklar faoliyati ko'rsatadi.
4. Jahon bank tizimi rivojlanishi juda murakkab va ziddiyatli yo'ldan bormoqda. Shuning uchun ham bu sohada biror-bir yo'nalishni aniq ko'rsatish qiyin bo'lsada uning asosiy tamoyillariga, ya'ni banklarning qo'shilib ketishi yoki bir-birini yutib yuborishi hisobiga yiriklashuvi, o'z mablag'larini iloji boricha diversifikasiyalash, o'z faoliyatini deregulyatsiyalash kabi tamoyillarga to'xtalib o'tiladi.

### Tayanch iboralar

Pul-kredit siyosati, to'liq bandlik, inflyatsiya, barqarorlik, ochiq bozordagi operatsiyalar, qimmatbaho qog'ozlar, xazina, xarid qilish, Markaziy bank, tijorat banklari, foiz stavkasi, majburiy rezerv normasi, investitsiya, monetar siyosat, keynschilar nazariyasi va tenglamasi, monetaristlar tenglamasi, aholi iste'mol xarajatlari, sof eksport, pul taklifi, pulning aylanish tezligi, pulga bo'lgan talab va taklif, pul emissiyasi, pul inflyatsiyasi, kredit munosabatlari, qarz beruvchi, qarz oluvchi, omonat, valyuta, moliya operatsiyalari, monopolik mavqyei, bir bosqichli bank tizimi, vertikal va gorizontal yo'nalishda tashkil qilingan banklar, ixtisoslashish va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Davlat tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatlarining asosiy maqsadlari va vazifalari nimalardan iborat.

2. Pul-kredit siyosatining asosiy instrumentlari va ularidan foydalansht mehanizmini izohlang.
3. Arzon pul va qimmat pullar siyosatlari nimalardan iborat.
4. Real ishlab chiqarish hajmi va turli iqtisodiy davrlardagi narxlar dinamikasiga pul-kredit siyosati qanday ta'sir ko'rsatadi.
5. Bank tomonidan beriladigan (qaytarilgan) ssudalar sharoitida pul massasining ko'payish (kamayish) mehanizmini izohlang.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 35 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст) С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М. «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Косимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувчи 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Долан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Хакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”, 1997.

## 11-bob. IS-LM modeli

### 11.1. Makroiqtisodiy muvozanat va unga erishish yo'llari.

11.2. IS egri chizig'i va uning o'zgaruvchilari.

11.3. LM egri chizig'i va uning o'zgaruvchilari.

11.4. IS-LM modeli va undagi muvozanat.

### 11.1. Makroiqtisodiy muvozanat va unga erishish yo'llari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning roli va ahamiyati benixoya kattadir. Makroiqtisodiy muvozanat mamlakat Iqtisodiyotining to'g'ri yoki noto'g'ri yo'ldan borayotganligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotda bo'layotgan doimiy o'zgarishlar har qanday mamlakatni ham iqtisodiy muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin. Ya'ni, biror bir kechayotgan jarayon mutanosibli, muvozanatli bo'lsa, uni bir maromda faoliyat ko'rsatayotgan organizm deb tushunamiz va aksincha undagi har qanday siljish uning mukobilligining buzilishi deb qaraladi.

Iqtisodiy tizimlardagi bunday og'ish tovarlar va xizmatlar taqchilligini yoki ortiqcha ishlab chiqarilganligini, inflyatsiya, ishsizlik va shunga o'xshash boshqa salbiy hodisalar sifatida namoyon bo'ladi. Ular iqtisodiyot samaradorligining pasayishiga va aholi turmush tarzini tushib ketishiga olib keladi. Shu sababli ham iqtisodiy muvozanat muammolarini tadqiq qilish eng muhim vazifalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy muvozanat milliy iqtisodiyotni shartli ravishda barcha iste'molchi va ishlab chiqaruvchi birliklarining o'zaro bog'liqligi sifatida ko'z oldimizga keltirsak, unda muvozanat shunday holatki, qachonki ular o'rtasida qaramaqarshiliklar bo'lmaydi va resurslar, tovarlar va daromadlarning doiraviy aylanishi uzlusiz ravishda amalga oshishini ta'minlashi shart. Milliy darajadagi yoki makroiqtisodiy muvozanat pulda ifodalangan jami talab va taklifi, iqtisodiyotni pulli va moddiy mutanosibligining mos kelishini ko'zda tutadi. Bu milliy xo'jalikni ideal holati bo'ladi, uni doimiy saqlab turish mumkin emas.

Jahon amaliyoti iqtisodiy muvozanatga erishishning ikki asosiy usulini ishlab chiqqan:

1. Narxlar talab va takliflarini tartibga solib turuvchi bir-biriga bog'liq bo'lgan bozorlar yordamida (tovar va xizmatlar, kapital, ishchi kuchi bozorlari) muvozanatlashadi.
2. Moddiy, mehnat va moliyaviy balanslarni tuzish yo'lli bilan kelajakda talab va taklifning hajmlarini, shuningdek, narxlarning o'zini ham o'matuvchi davlat rejalari yordamida muvozanatlashadi.

Aralash iqtisodiyot mamlakatlarida makroiqtisodiyotning asosiy usuli bozor hisoblanadi. Shu bilan birga davlat ham sezilarli darajada rol o'ynaydi. U ma'muriy huquqiy va iqtisodiy aralashuv chegaralaridan foydalanib jami talab va taklifning o'zgarishiga va shu orqali makroiqtisodiy muvozanatga ham bevosita yoki bilvosita ta'sir etadi. Buni avvolambor mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun barcha rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikka erishishga katta ahamiyat beriladi. Chunki iqtisodiy barqarorlashtirish islohotlarini amalga oshirayotgan barcha mamlakatlarda eng dolzarb va qiyin hal qilinadigan vazifadir.

Nazariya va jahon amaliyotida barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirishning ikki asosiy yondashuvi ishlab chiqilgan:

1. Monetar;
2. Tarkibiy.

Monetar yondashuv tarafдорлари iqtisodiyotda tovar pul muvozanat buzilishining asosiy sababi bo'lgan inflatsiyani asosan muomalada pu massasining ortiqchaligidan kelib chiqqan deb hisoblashadi. Shuning uchun ular tomonidan taklif qilinayotgan chora-tadbirlar pul taklifini cheklashga qaratilgan Jumladan, davlat xarajatlarini, birinchi navbatda ijtimoiy dasturlarni keski qisqartirish, pul emissiyasiga va davlat zayomlariga qat'iy chegara o'rnatish, ishlashi o'sishini cheklash, tadbirkorlik faoliyatiga yanada kengroq yo'll olib berish.

Monetaristlardan farqli ravishda tarkibiy barqarorlashtirish tarafдорларини inflatsiyani butun inqiroziy voqyealarning bosh sababchisi deb hisoblamaydilar

Shuning uchun ularning takliflari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish yordamida narxlar o'sishining oldini olishga qaratilgan. Bunda ular davlat tomonidan taribga solish usullariga muhim ahamiyat beradi.

### 11.2. IS-egri chizig'i va uning o'zgaruvchilari

Iqtisodiyotdagi muvozanat yoki tovar pul muvozanitiga erishishda investitsiya va jamg'armalarning YaMM bilan bog'liqligi tushuntiriladi. Bu bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, banklar foiz stavkalarini pasaytirib borishi bilan YaMM hajmi ham ko'payib boradi. Ya'ni, milliy iqtisodiyot moliyaviy "kislorodni" ko'proq olish natijasida YaMM ishlab chiqarishi ham ko'payib boradi. Ushbu nazariyani atoqli iqtisodichi Xeyk tadqiq qilganligi uchun uning nomi bilan yuritiladi. IS - egri chizig'i esa Xeyk egri chizig'i deyiladi.

Umuman IS-egri chizig'i tovar va xizmatlar bozorida vujudga keladigan daromadlar darajasi va foiz stavkasi o'rtaсидаги munosabatlarni bildiradi. Buni tushunish uchun biz tovar va xizmatlarga bo'lgan talabni, ya'ni, "Keynsian xochi"ni qarab chiqamiz. Bunda avvalombor biz rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini, ya'ni, keynsian xochini olish uchun rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini tashkil qiluvchi omillarni ko'rib chiqamiz. Rejalashtirilayotgan xarajatlar uy-xo'jaliklari, firmalar va davlatning tovar va xizmatlarini sotib olishga mo'ljallagan xarajatlar miqdoridan iborat. Haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlardan, ya'ni, biror bir firma rejalashtirilmagan investitsiyalar miqdorini oshirishga yoki kamaytirishga qaror qilgan vaziyatlardagina farq qiladi.

Faraz qilaylik, iqtisodiyot yopiq iqtisodiyotdan iborat, sof eksport nolga teng. Biz rejalashtirilayotgan xarajatlar miqdorini ( $Y_e$ ), iste'mol ( $S$ ), rejalashtirilgan investitsiyalar ( $I$ ) va davlat xarajatlari ( $G$ )ning yig'indisi orqali topishimiz mumkin.

$$Y_e = S + I + G$$

Demak, keynsian xochi daromadning ( $U$ ) rejalashtirilayotgan xarajatlarga bog'liqligini aks ettirar ekan. Bu tenglamaga biz iste'mol funksiyasini qo'shsak:

$$S = S(U - T)$$

Iste'mol funksiyasi ko'rsatayapdiki, iste'mol ixtiyoridagi daromadla miqdoriga bog'liq ekan (U-T). Bundan tashqari rejalashtirilgan investitsiyalari miqdori ( $I=I$ ) shaklida qayd qilingan bo'lsin va byudjet siyosati davlat xarajatlari va sofiqlari miqdori - o'zgarmagan holda qolsin:  $G=G$ ;  $T=T$ . Bu tenglamalarni birlashtirsak, quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz:  $Y_e=S(U-T)+I+G$ ;

Quyidagi rasmida rejalashtirilayotgan xarajatlar grafikda daromad funksiyasi shaklida berilgan. Bu to'g'ri chiziq ijobiy siljishga ega. Chunki, yuqori daromadning darajasi yuqoriroq iste'mol darajalariga, ya'ni, rejalashtirilayotgan xarajatlarning yuqoriroq darajasiga olib keladi. Chiziqning egilishi iste'molga chegaravut moyillikni bildiradi - MPC. Ya'ni, daromadlarni 1 so'mga oshirgan rejalashtirilayotgan xarajatlarning qanchaga oshishini ko'rsatadi.

### 11.1-chiziq

Daromad funksiyasi sifatida rejalashtirilayotgan xarajatlar.

Rejalashtirilayotgan

xarajatlar

$Y_e$

$$Y_e = S(U-T) + I + G$$

MPC

1

Daromadlar

U

Muvozanatdagi iqtisodiyot. Biz bilamizki, iqtisodiyot haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo'lgan sharotda muvozanatga erishadi. Bi ma'lumki YaMM ko'rsatkichi ikki yoqlama ma'noga ega: ya'ni, iqtisodiyot agentlar daromadi va ishlab chiqarish mahsulotlarini sotib olishga ket xarajatlardan iborat. Shuning uchun u nafaqat jami daromadlar, balki tovar xizmatlarga qilingan xarajattar miqdoriga tenglashadi. Biz muvozanat sharolari

quyidagicha yozamiz, ya'ni, haqiqiy xarajatlar teng rejalashtirilgan xarajatlarga  $Y = Ye$ ;

Keyingi rasmdagi 45 gradusli burchak hosil qilgan chiziq ushbu sharoit bujarilishini ko'rsatadigan nuqtani bildiradi. Agarda biz rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasini qo'shsak, diagramma keynsian xochi shakliga keladi. Iqtisodiyot muvozanatga A nuqtada erishadi. Ya'ni, rejalashtirilgan xarajatlar funksiyasi grafigi 45 gradusli burchak hosil qilgan chiziq bilan kesishgan vaziyatda.


Keynsian xochi IS-LM modelini tuzishdagi birinchi g'isht bo'lib hisoblanadi. Keynsian xochi modeli shuning uchun ham kerakki, ya'ni u mavjud

### 11.2-chizma.

#### Keynsian xochi.

Rejalashtirilayotgan

xarajatlar



Rejalashtirilgan investitsiyalar darajasi sharoitida iqtisodiyotdagi daromadlar miqdorini aniqlash imkonini beradi. Ammo, u haddan tashqari yiriklashtirilgan, uning rejalashtirilgan investitsiya darajasi qayd qilingan. Oldingi mavzularda to'rdikki, rejalashtirilayotgan investitsiyalar miqdori foiz stavkasi, ya'ni investitsiya loyihamini molijalashtirish uchun olinadigan kreditlarga sarflangan xarajatlar bilan aniqlanadi. Foiz stavkasi qancha yuqori bo'lsa, investitsiya qilishni obloychilar va rejalashtirilayotgan xarajatlar shuncha kam bo'ladi. Xarajatlarning omayishi daromadlar darajasining tushib ketishiga olib keladi. Shunday qilib,



LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtaсидаги о'заро bog'liqliknii tushunish uchun foiz stavkasining oddiy nazariyasini qarab chiqamiz. Bu nazariya "tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi"dir.

Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi - bu keynsianchilar foiz stavkasi nazariyasini oddiy sharhlab berishdan iborat. IS egri chizig'ini tashkil qilishda keynsian xochi asos bo'lganidek, tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ham LM egri chizig'ini tashkil qilib pul vositalari real zaxiralariga talab va taklif foiz stavkasini aniqlashni tushuntirib beradi. Real pul vositalariga taklifdan boshlaymiz. Agarda M pul taklifini, P-narxlar darajasini bildirsa, M/P esa pul vositalarining real zaxirasi miqdorini ko'rsatadi.

$S = \frac{M}{P}$

$$(M/P) = M/P$$

Bu yerda, M- pul taklifi darajasini bildiradi.


P - narx darajasi ham ushbu modelda tashqi o'zgaruvchilar miqdorini ko'rsatadi.

Bu farazlar shuni bildiradiki, ya'ni real miqdordagi pul taklifi foiz stavkasiga bog'liq bo'limgan vaziyatni ko'rsatadi. Shuning uchun biz real pul vositalari taklifini grafikda ko'rsatayotganimizda vertikal egri taklifiga ega bo'lamic.

#### 11.4-chizma.

Real miqdorda pul vositalari zaxirasi taklifi.

Foiz stavkasi



Endi real miqdordagi pul vositalari zaxirasiga talabni qarab chiqamiz. Insonlar qo'lda pulni saqlashadi, chunki pul tez almashtirish xususiyatiga ega. Tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning alternativ xarajatlari miqdorini bildiradi. Ya'ni, siz foiz olib kelmaydigan naqd pu'llarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd puliarni qo'lda ushlab turish miqdori ham pul zaxiralari talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.


Real pul zaxiralari talabni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$(M/P) = L(k)$$

Bu yerda:-L( )-funksiyasi pulga talab miqdorini bildiradi. Bu tenglama ko'rsatayaptiki, puiga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiyasini bildiradi. Keyingi grafikda foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab teskari bog'liqlikka ega. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko'rsatadi.

*11.5-chizma. Real pul zaxiralari talabini tuzuvchi foiz stavkasi*


### Foiz stavkasi



### Real pul zaxiralari

Foiz stavkasi tengligiga ega bo'lishi uchun pulga talab va taklif egri chiziqlarini birlashtiramiz.

## Tez (pulga) aylanishi afzalligi nazariyasi.



Tez aylanish afzalligi nazariyasiga mos ravishda foiz stavkasining o'zgarishi pul bozorida muvozanatga olib keladi. Foiz stavkasining muvozanat nuqtasida pul vositalari zaxirasiga talab miqdori taklif miqdoriga teng. Tez (pulga) aylanma olish afzalligi nazariyasi, ya'ni pul taklifining kamayishi foiz stavkasini oshiradi, pul taklifining ko'payishi esa foiz stavkasini kamaytirishdan kelib chiqqan.

Endi tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyasini LM egri chizig'ini tashkil qilishda foydalanamiz. Muvozanat foiz stavkasi - pul talabi va taklifini tenglashtiradigan foiz stavkasi o'rtaidagi bog'liqlikni LM egri chizig'i ifodalaydi.

Shungacha biz faqat foiz stavkasi real pul zaxiralariga bo'lgan talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi deb hisobladik. Yanada aniqroq aytadigan bo'lsak, pul talabi miqdoriga daromadlar darajasi ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar ham ko'p bo'ladi. Shuning uchun insonlar ko'proq ishlarni amalga oshirishga harakat qiladi. Bu esa o'z navbatida ko'proq pulni talab qiladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'llishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab o'rtaida to'g'ri aloqa mavjud.


Pulga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz:

$$(M/P) = L(k, u);$$


Pul bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar o'rtaсидаги bunday o'заро муносабатлар yig'indisining grafigi quyidagicha bo'ladi.

### 11.7-chizma

#### A. Real pul bozor.



#### B. LM egri chizig'i.



#### Real pul zaxirasi.

#### Daromad

A qismidan ko'rinib turibdiki foiz stavkasini pasayishi bilan pulga bo'lgan talab oshadi. Shuningdek, daromadlar ko'payishi natijasida ham oshadi. Bu holda  $L(k,u)$  yuqori surilib  $L(k,u)$  holatini egallaydi va unda muvozanatli foiz stavkas ham o'sadi -  $k_u$  holatidan  $k_2$  holatigacha ko'tariladi.

Shunday qilib yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egri chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtaсидаги муносабатларни ко'ргазмали тарзда ifodalaydi. Daromad darajas qancha baland bo'lsa pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.


Bulardan shunday xulosaga kelish mumkinki IS chizig'i ham o'zida ikki o'zgaruvchi, ya'ni foiz stavkasi va daromadni mumkin bo'lgan turli xil o'zaro bog'liqliklarini aks ettiradi.

#### 11.4. IS-LM modeli va undagi muvozanat

Endi bizda IS-LM modelining barcha o'zgaruvchi omillari mavjud. Modelning ikkita tenglamasi:

$$(IS) \quad U = S(U-T) + I(k) + G; \quad (LM) \quad M/P = L(k, u);$$

Byudjet-soliq siyosati  $G$  va  $T$  pul kredit siyosati  $M$  va narxlar darajasi  $R$  modelda o'zgaruvchi omillar sifatida berilgan. Bu ikki IS va LM egri chiziqlarini birlashishida hosil bo'ladigan grafikni biz, IS-LM modeli deb atashimiz mumkin.



IS - egri chiziq - bu tovarlar bozoridagi muvozanat egri chizig'idir. U o'zida tovarlar bozoridagi muvozanatni ta'minlovchi foiz stavkasi  $k$  ning va daromad u ning barcha o'zaro birliklarini ko'rsatadi, LM egri chizig'i esa pul bozoridagi muvozanat shartlarini qondiruvchi  $k$  va u ning o'zaro birlashuvlarini beradi.

IS-LM egri chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanatlik holatidir. Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi  $k$  ni va daromad darajasi  $U$  ni aniqlaydiki qachonki ular real pul mablag'lari bo'lgan talab ularning taklifiga teng kelgan vaziyatni ifodalaydi. Ya'ni, mahsulotlar pul bozorida

ham muvozanat shartlariga rioya qilinsa, pulga bo'lgan umumiy talab foiz stavka miqdoriga yoki pulning ishlatalish bahosiga nisbatan teskari bog'liqlikda bo'ladi.

Shunday qilib, IS-LM modeli iqtisodiy siyosatning oqibatlarini qisqa muddat davrga makroiqtisodiy tahlil qilishda juda keng qo'llaniladi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Iqtisodiy muvozanatga erishishda jahon amaliyoti ikkita usulga asoslanad narxlar yordamida tartibga solib turiladigan bozorlar va turli xil balanslarning yordamidan foydalaniлади. Shuningdek barqarorlashtirish siyosatini amalqoshirishning ikki xil asosiy yondashuvi: monetar va tarkibiy yondashuvlari ishlachiqilgan.

2. IS egri chizig'i tovar va xizmatlar bozorida paydo bo'ladigan daromadlarning darajasi va foiz stavkasi o'rtasidagi munosbatlarni bildiradi. Buning uchi "Keynsian xochi"ni o'rganish va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Iqtisodiy haqiqiy xarajatlar rejalashtirilgan xarajatlarga teng bo'lgan sharoitda muvozanatga erishar ekan.

3. LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozoridagi vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtasidagi o'zai bog'liqlikni tushunish uchun "tez (pulga) aylana olish afzalligi nazariyası"ni qara chiqishini ko'rsatar ekan. Tez (pulga) aylana olish nazariyası esa keynsianchil foiz stavkasi nazariyasini izohlashdan iborat ekan.

### **Tayanch iboralar**

IS-LM modeli, IS- egri chizig'i, LM-egri chizig'i, Keynsian xochi, tez pulga aylanish nazariyası, narx darajasi, daromad, xarajat, foiz stavkasi, real paxiralari, muvozanat nuqta, byudjet-soliq siyosati, pul-kredit siyosati, tovarlarning bozoridagi muvozanat, makroiqtisodiy muvozanat, tovar va xizmatlar, kapitali shchi kuchi bozorlari va ulardagи muvozanat, monetar-tarkibiy yondashuv, polumissiyasi, Xeyk egri chizig'i va boshqalar.

## Nazorat va mulohaza savollari

1. Milliy darajadagi yoki makroiqtisodiy muvozanat nimani bildiradi.
2. IS egri chizig'ining asosiy o'zgaruvchilari qanday? Yopiq iqtisodiyot va ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy muvozanatga qanday erishiladi?
3. LM egri chizig'ining asosiy o'zgaruvchilari nimalardan iborat? LM egri chizig'ida Keynsian xochi nimani ko'rsatadi? Tez (pulga) aylana olish afzallagi nazariyasini qanday tushunasiz?
4. IS-LM modeli qanday vaziyatni ifodalaydi ?

### Adabiyotlar ro'yxati.

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
4. Бурдо М. Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судоинстроеие. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувчи. 1994
8. Костюк В.Н. - М.: 1998.
9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г.. Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Ҳакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## **12-bob. Iqtisodiy o'sish**

**12.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi.** Iqtisodiy o'sish o'chovi; potensial va haqiqiy daromad dinamikasi.

**12.2. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar.**

**12.3. Iqtisodiy o'sish modellari.**

### **12.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi. Iqtisodiy o'sish o'chovi; potensial va haqiqiy daromad dinamikasi**

Iqtisodiy o'sish - bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholining o'sishi, FTI jarayonlari, ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini bildiradi yoki boshqacha so'z bilan aytganimizda potensial jami ishlab chiqarish hajmini bildiradi. Shunday qilib iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarishning o'sishini, balki iqtisodiyot potensialining o'sishini bildiradi.

Iqtisodiy o'sishda nafaqat mamlakat real daromadlarning o'sishini, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham tushuniladi.

Iqtisodiy o'sish ikki xil usul bilan aniqlanadi va o'chanadi.

Birinchi usul, YaMM ni (YaIM, SMM) o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlataladi.

Ikkinchi usul, real YaMM ni (YaMM, SMM) o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor berish kerak:

1) Iqtisodiy o'sishni o'chash;

2) O'sish omillari;

3) Iqtisodiy o'sish modellari.

Milliy iqtisodiyot o'sishini o'chashda jami daromadlarning (mahsulotlarning) har xil indiqatorlaridan foydalanish mumkin. Umumiyl o'sish darajasi aslida YaIM

miqdori bilan belgilanadi. Shuningdek, bu ko'rsatkichlar miqdori va hal qilayotgan vazifasiga qarab YaMM yoki MD ham bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichlarning bari bir-biriga juda ham yaqin. YaMM ham YaM kabi ushbu mamlakat aholisi olayotgan daromadlar miqdorini ko'rsatadi. Shuning uchun ham uni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar dinamikasi va darajasini aniqlayotganda foydalansh mumkin. Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning farqi unchalik katta ahamiyatga ega emas. Chunki, ularning farqi iqtisodiy o'sish chegarasi va omillari o'sish darajasini tahlil qilishda hal qiluvchi jarayon bo'lib hisoblanmaydi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasida daromadlarni olishdagi umumiy ko'rsatkichlar tarkibi odatda iste'mol va investitsiyalarga bo'linadi.

$$I : Y = C + I ;$$

Davlat xarajatlari va sof eksport ko'rsatkichlari ham iste'mol va investitsiyalarga bo'linadi. Absolyut miqdordagi ko'rsatkichlar dinamikasi  $Y_t$  ( $t$ -vaqt indeksi) va jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar birgalikda o'sish jarayonini bildiradi. Iste'mol hajmi  $C_t$  iqtisodiyotning pirovard maqsadini va yashash darajasini oshishini bildirsa, investitsiya esa  $I_t$  resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini bildiradi. Iste'mol va investitsiya o'rtaida yetarlicha qarama-qarshilik mavjud, chunki joriy iste'mol miqdorining oshishi iqtisodiy o'sish potensiali imkoniyatlarini qisqartiradi.

O'sishning barcha imkoniyatlari real miqdorda, ya'ni doimiy narxlarda qaraladi. Aksincha, nominal ko'rsatkichda ularning dinamikasi nafaqat o'sish darajasini, balki infliyatsiyani ko'rsatgan bo'lar edi.

Har bir ko'rsatkich bo'yicha uch xil miqdordagi dinamikani tahlil qilish mumkin.

1. Absolyut ko'rsatkich: masalan, real ishlab chiqarish  $Y_t$ ;
2. Absolyut qo'shimcha o'sish: masalan, ishlab chiqarishning oshishi.

$$Y_t = Y_t - Y_{t-1} ;$$

3. Qo'shimcha o'sish darajasi: masalan, ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sishi  $Y_t$ .

Iqtisodiy o'sish sur'atlari quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

- a) bazis o'sish sur'ati =  $Y_i / Y_o$  ;  
b) zanjirli o'sish sur'ati =  $Y_i / (Y_{i-1})$  ;  
Qo'shimcha o'sish sur'atlari esa:  
a) bazisli qo'shimcha o'sish sur'ati =  $(Y_i - Y_o) / Y_o$  ;  
b) zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati =  $(Y_i - Y_{i-1}) / Y_{i-1}$  :

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan milliy mahsulot hajmini va daromadni ko'payishini, ikkinchidan resurslardan samarali foydalanishni, uchinchidan yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo'lishiga, to'rtinchidan xalqaro bozorlarda mamlakat obro'sining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sish usullaridan to'g'ri va o'z joyida foydalanish katta ahamiyatga egadir. Masalan, mamlakat harbiy saloxiyatini aniqlash va rivojlantirish muammosi qaralayotganda iqtisodiy o'sishning birinchi usulidan, mamlakat aholisining turmush faoliyati taqqoslanayotganda ikkinchi usuldan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Hindistonda yetishtirilgan YaMM Shveysariyada yetishtirilgan YaMM dan 70 % ga ko'p, ammo aholisi yashash darajasi bo'yicha Hindiston aholisi Shveysariya aholisi yashash darajasidan 60 martagacha kam.

## **12.2. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar**

Iqtisodiy o'sish avvalambor foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga, shuningdek, foydalanilayotgan texnologiyaga bog'liq. Agarda karalayotgan omillar va iqtisodiy o'sish tarkibiy qismlari yaxlitlashtirilgan bo'lsa iqtisodiy o'sishni ekstensiv va intensiv o'sishga bo'lish mumkin. Agarda foydalanayotgan resurslar miqdori o'zgarmay qo'lgan holda ishlab chiqarish o'ssa to'liq intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi.

Umuman olganimizda iqtisodiy o'sish bir nechta omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Ya'ni:

1. Tabiiy resurslar soni va sifati;
2. Mehnat resurslari soni va sifati;
3. Asosiy kapital hajmi;

#### 4. Texnologiya va boshqalar.

Ushbu omillarning barchasi ishlab chiqarishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bu esa iqtisodiy o'sish istiqbollarini belgilashda ishlab chiqarish funksiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi. Ya'ni, iqtisodiyotdagi ishlab chiqarish omillari miqdorining qo'shimcha o'sish sur'atlari (  $K / K$  va  $L / L$  ) va texnika taraqqiyoti natijasida ularning umumiy unumdorligini qo'shimcha o'sish sur'atlariga ( $\Delta A / A$ ) bog'liq hoida mahsulot ishlab chiqarishning qo'shimcha o'sish sur'atini ( $\Delta Y / Y$ ) hisoblash imkonini beradi:

$$\Delta Y/Y = \alpha (\Delta K/K) + (1 - \alpha) \Delta L/L + \Delta A/A \text{ yoki}$$

Ishlab chiqarish hajmining qo'shimcha o'sish sur'ati teng kapital hajmi plus mehnat hissasi plus omillar umumiy unumdortigi qo'shimcha o'sishi hissasi.

Bunda koeffitsiyent  $\alpha$  ishlab chiqarilgan mahsulotda kapital hissasini,  $(1 - \alpha)$  - mehnat hissasini ko'rsatadi. Faraz qilaylik, milliy mahsulotda kapital hissasi 0,3 ni, mehnat hissasi esa  $1 - 0,3 = 0,7$  ni Tashkil etsa, unda kapitalni ( $\Delta k/k$ ) va mehnatni ( $\Delta L/L$ ) 10% ga qo'shimcha o'sishi ishlab chiqarish hajmini ham 10 % ga qo'shimcha o'sishiga olib keladi. ( $0,3 \times 10\% + 0,7 \times 10\% = 3\% + 7\% = 10\%$ ) Ya'ni, ekstensiv omillar hisoblanadi. Ammo, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi intensiv omillar hamma vaqt ham qadrlangan va iloji boricha ular dan foydalanishga harakat qilinadi. Shuning uchun ham davlat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash maqsadida, fan-texnikaning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, soliq mexanizmi va tizimini iloji boricha ixchamlashtirish kabi ishlarni olib bormoqda.

Xususan, respublikamizda fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishni Respublika fan-texnika qo'mitasi olib boradi. Ya'ni, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini rivojlantirish va natijalarni ishlab chiqarishga zudlik bilan qo'llash maqsadida yirik-yirik loyihamar ishlab chiqilgan va, shuningdek, ushbu qo'mita tomonidan har yili bir nechta mahalliy va xalqaro olimpiada, konferensiya, kollukvium va eng yaxshi ilmiy ishlar ko'rnik tanlovlari o'tkazilib turiladi.

Bundan tashqari respublika ta'lim tizimida keskin yangiliklar qilinmoqda. Ya'ni, respublikada milliy kadrlarni yetishtirish maqsadida ko'p bosqichli

“Kadrjarni tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi. Ushbu dasturga asosan yoshlarni xalqaro jahon bozortari talabiga javob beradigan darajada o‘qitish ishlari amalga oshirilmoqda. Ya’ni, litsey, kollej, bakalavratura, magistratura, aspirantura va doktoranturalarda o‘qishini ta’minalash, yoshlarni xalqaro darajada tayyorlash va qayta tayyorlash uchun respublika “Umid” “Ustoz” va shuningdek boshqa fondlarning faoliyat olib borayotganligini keltirib o‘tishimiz mumkin.

Iqtisodiy o‘sishga mamlakatning soliq tizimi ham sezilarli ta’sir qiladi. Soliqqa tortish stavkalarini kamaytirish va amortizatsiyaga ajratmalarning o‘sish tomon o‘zgarishi investitsiyalar hajmini ko‘paytiradi va shu orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

Keyingi yillarda ijtimoiy va ekologik muammolarni kuchayishi deyarli barcha mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish eng avvalo aholi farovonligini ta’minalashning sharti sifatida qaralmoqda. Chunki, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minalash zarurligi sababli rivojlangan mamlakatlarda amal qilgan iqtisodiy o‘sishning miqdoriy nazariyasini o‘z o‘rnini iqtisodiy o‘sishning sifat nazariyasiga bo‘shatib berdi. 70-yillar oxirlaridan boshlab jahonda muhim rivojlanish goyasi tabora tarqalib bormoqda. Uning asosiy maqsadi kelajak avlodlar ehtiyojini, ya’ni ekologiya jihatdan cheklashlar va aholining kambagal qatlamlari ehtiyojini hisobga olishdir.

Ya’ni, davlat siyosati iqtisodiy o‘sishning quyidagi muammolarini hal etishga yo‘naltirilgan:

- iste’mol darajasi yuqori bo‘lgan iqtisodiyotning barqaror holatini ta’minalashga qaratilgan omonat jamg‘arish me’yorlarini tanlash;
- aholi o‘sishini tartibga solish;
- fan-texnika taraqqiyotining ekologik jihatdan xavfsiz yutuqlarini joriy etish va mehnat unumdarligini oshirish.

Iqtisodiy o‘sishning ijtimoiy yo‘naltirilganligi kuchayib borishi bilan iqtisodiy nazariya va amaliyotda xalq farovonligi tushunchasi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim mezonlari sifatida yanada aniqlanmoqda va kengaytirilmoqda.

Agarda ilgarilari uni moddiy ta'minlanganlikning miqdoriy ko'rsatkichlari aks ettirgan bo'lsa, hozirda birinchi o'ringa o'rtacha umr ko'rish, o'lim darajasi, shu jumladan, bolalar o'limi, ishsizlik darajasi, daromadlar tengsizligi, ta'lif darajasi, atrof-muhitning ifloslanishi va boshqa shu kabi ko'rsatkichlar qo'yilmoqda. Ya'ni, iqtisodiy o'sish shaxsnинг rivojlanib borishi uchun sharoit yaratib berishi lozim.

Iqtisodiy o'sishning salbiy oqibatlaridan biri bo'lib aholini ijtimoiy, mulkiy tabaqalanishi kuchayishi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlat aholi turli qatlamlarini himoya qilish maqsadida ijtimoiy siyosatlarni olib boradi.

Davlat ushbu ijtimoiy siyosatlarni olib borishdan oldin aholi daraomadlari miqdorini aniqlaydi. Aholi daromadi ish haqi, dividendlar va foiziardan, shuningdek, transfert to'lovlaridan tashkil topadi. Daromadlarning kengroq ma'nosи pulsiz yoki intiyozli narxlarda aholi oladigan tovarlar va ta'lif, sog'liqni saqlash, uy-joy communal xo'jaligi, transport va boshqa xizmatlar ko'rinishidagi to'lovlarini ham o'z ichiga oladi.

Ish haqi, dividendlar va foizlarni ishlab chiqarishda bevosita qatnashganlar daromadlarni taqsimlash natijasida oladilar. Davlat daromadlarni taqsimlanishiga ish haqining eng kam miqdorini qonuniy ravishda o'matish orgali ta'sir ko'rsatadi. Eng kam ish haqi ushbu mamlakatda tarkib topgan turmush sharoitiga bog'liq bo'lib, eng kam iste'mol byudjeti asosida aniqlanadi.

Davlat daromadlarning qayta taqsimlanishini asosan ikki xil tayanch omillar yordamida amalga oshiradi:

1. Soliq tizimi;
2. Transfert dasturlari.


Davlat transfert dasturlaridan tashqari yana bir qator nodavlat va jamoat dasturlari ham mavjud. Davlat va nodavlat tashkilotlari transfert dasturlarini barcha turlari yagona bir maqsadga, ya'ni aholi daromadlarini tenglashtirishga yo'naltirilgan.

Daromadlar taqsimlanishining tengsizligini ifodalash uchun ko'p hollarda Lorens egri chizig'i diagrammasidan foydalaniladi.

Bu chizma to'rtburchak ko'rinishida bo'lib, uning gorizontal tomonida- aholi hissasi (foizi), vertikal tomonida-daromad hissasi (foizi) ko'rsatilgan. Agar jamiyatda daromad mutlaq baravar taqsimlangan deb faraz qilsak, ya'ni 20 % aholi jami daromadning 20 % ga, 40 % - 40 % ga ega bo'lsa, unda mutlaq tenglikning bu vaziyatini ifodalovchi chiziq bissektrisa ko'rinishiga ega bo'lar edi.

### 12.1-chizma.

#### Lorens egri chizig'i.



Ammo, hayotda aholi o'rtasida daromadlarni taqsimlanishi bir xil emas. Masalan, agar aholining 20 % A nuqta bilan belgilangan daromadlarning ozgina qismini olsa, aholining 40 % B nuqta bilan belgilangan qismini oladi va hokazo. Bunday holatda daromadni haqiqatda taqsimlanishini bildiruvchi chiziq Lorens egri chizig'i deb ataladi. Bissektrisa va Lorens egri chizig'i o'rtasidagi uзilish yoki maydon qancha katta bo'lsa, daromad taqsimlanishining tengsizlik darajasi shuncha yuqori bo'ladi. Bu uзilish kattaligi tengsizlik darajasini ifodalaydi.

### 12.3. Iqtisodiy o'sish modellari

Iqtisodiy o'sish modellari uzlusiz yoki diskret variantlarda yozilishi mumkin. Birinchi holatdagi  $U_t$ ,  $I_t$ ,  $C_t$ ,  $K_t$ ,  $L_t$ ,  $W_t$  o'zgaruvchi modellari vaqtning uzlusiz funksiyasi hisoblanadi. Ikkinci holatda bu miqdorlar vaqtning ketma-ketligi sifatida qaraadi. Agarda model real statistik ma'lumotlardan tashkil topsa va amaliy hisob-kitoblarda foydalanilsa, u holda uni diskretnoy qilish osan, chunki statistik ma'lumotlar har doim uzlusiz emas, balki diskretdir.

Iqtisodiy o'sish modellarining umumlashtirilgan "karkasi"ni quyidagicha yozish mumkin. Ushbu karkasdagi har bir aniq modelni tuzayotganda ayrim qo'shimcha o'zgaruvchilar, cheklashtar, iqtisodiy sharoitlar va imkoniyatlardan foydalanish mumkin.

$$Y_t = F(K_t, L_t, t); \quad (1)$$

$$Y_t = C_t + I_t; \quad (2)$$

$$K_t = K_{t-1} + I_t - W_t; \quad (3)$$

$$I_t = \alpha_t Y_t; \quad (4)$$

$$W_t = \beta K_t. \quad (5)$$

Ushbu modellar nisbatining ma'nosi qisqacha quyidagilardan iborat:

- (1) ishlab chiqarish funksiyasi formulasi: bu yerda  $t$  ga bog'liq holda modelda texnik taraqqiyotni tasvirlashni kiritish mumkin;
- (2) daromadlarni iste'mol va investitsiyaga taqsimlashni ko'rsatuvchi asosiy makroiqtisodiy ayniyat;
- (3) vaqtinchalik investitsiya bo'limgan vaziyatda investitsiya va uni chiqib ketishini hisobga olgan holda kapital hajmi dinamikasini hisoblash formulasi;
- (4) jamg'arish normasi ( $\alpha_t$ ) orqali daromadlar va investitsiyalarni bog'lab turuvchi ayniyat;
- (5) chiqib ketishning doimiy normasi ( $\beta$ ) sharoitida kapitalni chiqib ketishini hisoblash formulasi.

Ushbu tizimdaggi eng asosiy formula bo'lib ishlab chiqarish funksiyası (1) hisoblanadi.

(1)-(5) modeli birinchi marta 1956-yili R. Solou tomonidan taklif qilingan edi. Uning turlicha ko'rishinishlari va usullaridan hozirgi kunda ham keng foydalanilib kelinmoqda. Solou modelida ishlab chiqarish funksiyasi (1) ishlab chiqarish omillarining eng so'nggi natijasini bildiradi va unda kapitalni jamg'arishda investitsiyalarga qilingan qo'shimcha xarajatlar kapitaldan foydalanishdagi qo'shimcha samaralarni qoplamatay qolgan vaziyatda to'xtatiladi. Solou modeli paydo bo'lguncha iqtisodiy o'sishni ko'rsatadigan model bo'lib Harrod-Domar modeli (1939,1946) hisoblangan. Ularning modelida o'sishni ta'minlaydigan asosiy omil bo'lib doimiy kapital qaytimi o'sishi hisoblangan. Solou modeli Harrod-Domar modeliga nisbatan iqtisodiy o'sishni izohlashda qo'shimcha ko'rsatkichlarga ega.

Demak, Harrod-Domar modelida o'sishini ta'minlaydigan asosiy omil bo'lib kapital jamg'arish hisoblanar ekan. U 1920-50 yillardagi iqtisodiy o'sishlarni ko'zatishlarda qo'l kelgan, ammo keyingi yillardagi kuzatishlarga to'g'ri kelmay qolgan. Uning asosiy mohiyati:

1. Kapital unumdarligining doimiyligini,  $v = dy/dk$ ;
2. Doimiy jamg'arish normasi,  $a = I/Y$ ;
3. Kapital chiqib ketishi mumkin emasligi,  $W = O$ ;
4. Investitsion uzilish ham nolga teng,  $dk(t)/dt = I(T)$ ;
5. Model texnik taraqqiyotni hisobga olmaydi;
6. Ishlab chiqarish mehnat xarajatlariga bog'liq emas, chunki mehnat resurslari kamyob hisoblanmaydi.

Kapital unumdarligining doimiy xususiyati, agarda mehnat kamyob resurs hisoblanmasa Leontyevning ishlab chiqarish funksiyasidan iborat bo'ladi.  $Y(t) = \min ((aL(t); dK(t))$ ;

Modelda daromadlarning o'sish tezligi investitsiya bilan proporsionaldir.  $dy/dt = VI(t) = VAU$ ;

Daromadlarni qo'shimcha o'sishi  $du/Udt$  vaqt bilan doimiydir va  $\alpha$  v ga teng. U jamg'arish normasiga va kapital unumdarligiga proporsional. Harrod - Domar modelida investitsiya ( $I$ ) va iste'mol ( $S$ ) ham shunday darajada o'sadi. Bunda

iste'mol bilan investitsiya o'ttasidagi qarama-qarshiliklar shundan iboratki, ya'ni jamg'arish normasi ( $\alpha$ ) qanchalik yuqori bo'lsa, iste'molning o'sish normasi ham shunchalik yuqori va uning boshlang'ich darajasi shunchalik kam bo'ladi. Bu qarama-qarshilikni hal qilish uchun iste'mol to'g'risida doimiy ravishda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish kerak.

Agarda ishlab chiqarishning talab qilinayotgan o'sish darajasi aholi soni va bandlikning o'sish darajasidan yuqori bo'lsa, mehnat kamyob omil bo'lib hisoblanmaydi. Ya'ni, bunda mehnatni kapital bilan almashtirib bo'limasa va shuningdek texnik taraqqiyot ham bo'limasa ushbu modelda mehnat limitlovchi omil bo'lib hisoblanishi mumkin. Umumiyligi o'sish darajasi mehnatga qilingan xarajatlarning o'sish darajasiga tenglashadi, jon boshiga iste'mol va jamg'arish darajalari esa o'sishdan to'xtaydi. Hozirgi davrda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda texnik taraqqiyot, mehnat va kapitalning sifati, bir-birini almashtirishi va birgalikda faoliyat ko'rsatishlari asosiy resurs va omil bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham ushbu omillarni hisobga olmaydigan o'sish nazariyasida, ya'ni, o'sishning asosiy manbai bo'lib, kapitalni fizik jamg'arish, o'sishni doimiy ravishda tartibga solib turuvchi omil bo'lib hisoblanadi. Jamg'arish normasi esa asta-sekinlik bilan ikkinchi planga tushib qoladi.

Iqtisodiy o'sishni tariflaydigan boshqa bir model bo'lib R.Solou modeli hisoblanadi. Harrod-Domar modeliga nisbatan Solou modeli makroiqtisodiy jarayonlarning ayrim tomonlarini to'liqroq ochib beradi. Ya'ni, birinchidan bu modelda ishlab chiqarish funksiyasi to'g'ri chiziqdan iborat emas va unumdarlikning kamayib borishi kabi xususiyatlarga ega. Ikkinchidan, model asosiy kapitalning chiqib ketishini hisobga oladi. Uchinchidan, Solou modeli mehnat resurslari va texnik taraqqiyot dinamikasi va ularning iqtisodiy o'sishga ta'sirini hisobga oladi. To'rtinchidan, bu yerda ko'pgina hollarda iste'mol darajasini maksimallashtirish vazifasi qo'yiladi va hal qilinadi.

Biz Solou modelini to'liq izohlab bermoqchi emasmiz, balki uning asosiy yo'nalishilari, xususiyatlari va xulosalarini keltirib o'tmoqchimiz.

Solou modelining ko'rinishi va xususiyatlari:

## 1. Ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$U=F(K,L)$ ; bu yerda  $U$  - ishlab chiqarish yoki daromad;  $K$  - kapital;  $L$  - mehnat.

Masshtab qaytimi doimiy  $F$  ( $ZK, ZL$ ) =  $ZF = (K, L)$ . Omillar unumdarligi ijobiy, ammo kamayuvchi bo'lib hisoblanadi:  $U'k > 0$ ;  $U'L > 0$ ;  $U''kk < 0$ ;  $U''ll < 0$ .

## 2. Kapitalning $W$ chiqib ketish miqdori uning miqdoriga $K$ proporsional:

$W = \beta K$ , bu yerda  $\beta$  chiqib ketish normasi.

## 3. Jamg'arish normasi doimiy va investitsiya $I$ esa $\alpha$ $U$ ga teng.

## 4. Daromadlar $U$ iste'mol va investitsiyaga bo'lganida: $U=S+I$

## 5. Bandlar soni $L$ esa n darajada doimiy usadi.

## 6. Mehnatni tejaydigan texnik taraqqiyot g darajaga ega, ya'ni bir ishchiga g daraja bilan birga o'sadi.

### Qisqacha xulosalar

1. Mamlakat iqtisodiy o'sishi ikki xil usuldan foydalangan holda aniqlanar ekan. Birinchisi, mamlakatda yetishtirilayotgan mahsulotlarni o'tgan davrga nisbatan solishtirish va ikkinchisi, mamlakatda yetishtirilgan mahsulotlarni o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga solishtirish orqali aniqlanar ekan.

2. Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor berilar ekan: iqtisodiy o'sishni aniqlash, o'sish omillari, iqtisodiy o'sish omillari va boshqalar. Iqtisodiy o'sish sur'atlari bazisli o'sish sur'atlari, zanjirli o'sish sur'atlari, qo'shimcha bazisli va zanjirli o'sish sur'atlari yordamida aniqlanadi.

3. Keynsianchilar iqtisodiy o'sishni, birinchi navbatda, talab omillariga bog'lashadi va ular ta'kidlashicha, davlat fiskal va pul-kredit siyosati orqali uni boshqarib turishi mumkin. Iqtisodiy teoriya tarafdarlari ta'kidlashicha, iqtisodiy o'sish avvalambor taklif omillariga bog'lanadi, ya'ni oldindan o'ylangan soliq tizimi orqali rag'batlantirilib boriladi deb hisoblashadi. Ko'pgina iqtisodchilar fikricha, iqtisodiy o'sish davlatning industrial siyosatini tashkil qilishda qatnashishiga olib keladi.

4. Iqtisodiy o'sish foydalanilayotgan resurslarning soni va sifatiga hamda texnologiyaga bog'liq ekan. Agarda bularni yaxlitlashtirilsa ular ekstensiv va intensiv o'sishga bo'linadi. Ishlab chiqarish resurslar miqdorini o'zgartirmagan holda o'ssa intensiv omillar hisobiga amalga oshgan hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatadigan omillarga tabiiy resurslar soni va sifati, mehnat resurslari soni va sifati, kapital, texnologiya va boshqalar kiradi.

5. Iqtisodiy o'sish modeliari deganda, iqtisodiy o'sishni aniqlashda foydalaniladigan modellar tushuniladi. Bu modellar bir nechta iqtisodiy formulalar yordamida izohlanadi. Xuddi shunday modellarga R.Solou, Harrod-Domar, Leontyev va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

### Tayanch iboralar

Iqtisodiy o'sish, aholining o'sishi, FTT, YaMM, SMM o'tgan davrga nisbatan solishtirish, iqtisodiy o'sish usullari, inson kapitali investitsiyasi, innovasiya, ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sishni o'lhash, o'sish omillari, iqtisodiy o'sish modellari, iste'mol va investitsiya, bazisli va zanjirli o'sish sur'ati, bazisli va zanjirli qo'shimcha o'sish sur'atlari, absolyut ko'rsatkich, absolyut qo'shimcha o'sish, qo'shimcha o'sish darajasi, tabiiy, inson, kapital resurslar, texnologiya, sifat nazariyasi, soqliq tizimi, transfert dasturlari, Lorens egri chizig'i, R.Solou va Harrod-Domar modeli, doimiy jamg'arish normasi, kapital unumdonligi doimiyligi, investitsion uzilish va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uni o'lhash usullarini izohlab bering.
2. Iqtisodiy o'sish sur'atlari qanday aniqlanadi ?
3. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillarni formulalar yordamida tushuntirib bering.
4. Iqtisodiy o'sish qanday salbiy oqibatlarga olib keladi ?
5. Iqtisodiy o'sishda Lorens egri chizig'ining qanday aloqasi mavjud ?

6. Iqtisodiy o'sish modellarining шумулаштирилган каркасini qanday yozish mumkin.

7. R.Solou va Harrod-Domar modellarini tushuntirib bering.

Библиография

бюлтенинда

журналда, китобда, китобга оған табигатта оған табигатта

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 351 бет.

2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.

3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.

4. Бурдо М., Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судостроение. 1998.

5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.

6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело», 1996.

7. Йўлдошев З., Косимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувчи. 1994

8. Костюк В.Н. «Макроэкономика»- М.: 1998.

9. Линвут Т., Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.

## **13-bob. Xalqaro savdo nazariyasi**

**13.1. Xalqaro savdo rivojlanishining ahamiyati va uning asosiy ko'rinishlari.**

**13.2. Tashqi savdo kontraktlarini tuzish va ularning turlari.**

### **13.1. Xalqaro savdo rivojlanishining ahamiyati va uning asosiy ko'rinishlari**

Jahon savdosi tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shaklidir. Uning kengayishi va chuqurlashuvi natijasida kapitalni chetga chiqarish imkoniyatlari yuzaga keldi va unga bog'liq ravishda xalqaro moliya-valyuta kredit munosabatlari rivojlandi.

Tashqi savdoning vujudga kelishi ikki muhim obyektiv sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, bu tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlar o'rtaida tekis taqsimlanmaganligidir.

Xalqaro savdo rivojlanishining zarurligini aniqlovchi ikkinchi muhim sabab - bu turli mamlakatlarda ishlab chiqaruvchi kuchlarning bir xil rivojlanmaganligidir.

Bu ikki obyektiv sabab har qanday milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarishi jarayonida xalqaro savdoning ahamiyatini aniqlaydi. 90-yillarning boshlarida xalqaro savdo hajmi AQShda yalpi milliy mahsulotning 16-18 foizini, Germaniyada 30-39 foizini tashkil etdi. Shu davrda O'zbekiston yalpi milliy mahsulotida tashqi savdoning ulushi 10-12 foiz atrofida bo'ldi.

Tashqi savdo xalqaro ayrboshlashning an'anaviy shakli sifatida quyidagi ko'rinishlarni o'z ichiga oladi:

- mahsulotlarni ayrboshlash: yoqilg'i-xomashyo mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, sanoat mahsulotlari;
- xizmatlarni ayrboshlash: muhandislik-maslahat xizmatlari, transport xizmatlari, turizm va boshqa xizmatlar. Hozirgi vaqtida xizmatlarning jahon eksportidagi hissasi 30 foizdan oshib ketdi;
- yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayrboshlash: litsenziyalar va "nou-xou" lar. Ular hissasiga xalqaro savdo oborotining 10 foiziga yaqini to'g'ri keladi.

Xalqaro savdo mahsulotlar, xizmatlar va fan-texnika ma'lumotlarini ayrboshlashning barcha ko'rinishlari tashqi savdo operatsiyalari yordamida

amalga oshiriladi. Ular o‘z navbatida eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalariga bo‘linadi.

Eksport operatsiyasi-mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Import operatsiyasi-mahsulotni horijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Reeksport operatsiyasi - avval import qilingan va qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elga olib chiqib sotish.

Reimport operatsiyasi - avval eksport qilingan va u yerda qayta ishlov berilmagan mahsulotni chet elda sotib olish va mamlakatga olib kelish.

### **13.2. Tashqi savdo kontraktlarini tuzish va ularning turlari**

Tashqi savdo operatsiyalari turli mamlakatlardagi sheriklarining ma’lum izchillikda amalga oshiriladigan harakatlarni ifodalaydi. Bu harakatlar bozorini o’rganish, uning reklamasi, sotish tarmoqlarini yaratish, tijorat takliflarini o’rganish, muzokaralar o’tkazish, kontraktlar tuzish va uni bajarishni o‘z ichiga oladi. Kontrakt bitim qatnashchilari ya’ni, sheriklar o’rtasidagi tijorat munosabatlari rasmiylashtiriladigan asosiy hujjat hisoblanadi. Savdo sohasidagi bitimning boshqa bir qatnashchisi sherik - kontragent deb ataladi.

Har qanday savdo operatsiyasi bozorni o’rganishdan boshlanadi. Talab va uni kengaytirish yo’llari, narx darajasi va o’rganish tendensiyasi, raqobatning keskinligi, ishlab chiqarishning texnik darajasi va rivojlanish imkoniyatlari va hokazolar o’rganiladi. Kontraktlarni tuzish bo‘yicha tayyorlov ishlarini muhim bosqichi chet ellik sherikni aniqlash, uning faoliyati xususiyati va hajmini, Huquqiy va moliyaviy ahvolini va ishonchlilikini o’rganish hisoblanadi.

Tashqi savdo bitim qatnashchilaridan biri o‘z shergini aniqlagandan so‘ng unga taklif kiritadi. Bu taklif “oferta” deb yuritilib, qat’iy va erkin bo‘lishi mumkin.

Qat’iy taklif - bu faqat bir xaridorga mahsulotni sotish uchun qilingan taklif bo‘lib, taklif qilgan tomon bu xaridordan javob ofmaguncha yoki taklifda ko‘rsatilgan muddat tugamaguncha boshqa sherikga murojaat qilish huquqiga ega

emas. Agar xaridor qilingan taklifga roziligidini bildirsa, u holda bitim tuzilgan hisoblanadi.

Erkin taklif - bu sotuvchini bog'liq qilib qo'ymaydigan hamda javob uchun muddat belgilanmagan taklifdir. Bunda sotuvchi bir necha xaridorga bir vaqtida taklif qilishi mumkin. Agar ularidan biri sotuvchiga o'z roziligidini bildirsa, u holda bitim tuzilgan hisoblanadi.

Kontraktda aniqlanadigan shartlarga ko'ra ular quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- uzoq muddatli (3-5 va undan ortiq yilga), bu obyektlar ko'rish, qo'shma ishlab chiqarish, mollarni muntazam yetkazib berish va shu kabilar;
- bir martalik - bu sheriklar o'tasida bevosita aloqalarni tez ayirboshlash maqsadida tuziladi;
- muddatli - mahsulotni qat'iy belgilangan vaqtida yetkazib berishni ko'zda to'tadi. Bu shart bo'zilganda xaridor kontraktdan voz kechish huquqiga ega;
- maxsus - bu loyiha va montaj ishlariiga, texnik xizmat ko'rsatishga, extiyot qismlarni yetkazib berish va shu kabilar yuzasidan tuziladi;
- chegaraviy - bitimning asosiy shartlariga ega bo'lib, ular ishlarni bajarish mobaynida aniqlanadi;
- niyatlar haqida shartnomalar - bunda faqat sotuvchining ma'lum mahsulotlarni sotish niyati va xaridorni ularni kat'iy majburiyatlarsiz sotib olish niyati belgilanadi.

Jahon amaliyotida bitimlarni tayyorlashni yengillashtirish maqsadida bir necha bo'limlar yoki qismlarni o'z ichiga oluvchi bir shakldagi kontraktlar qo'llaniladi:

1. Tomonlarni aniqlash, ya'ni sotuvchi va xaridor sifatida qatnashuvchi korxona va tashkilotlarning nomi.
2. Kontraktning predmeti yoki shartnoma turini va oldi-sotdiga mo'ljalangan mahsulotni ta'riflash.
3. Mol yetkazib berishning bazis shartlari, sotuvchi va xaridor o'tasidagi mahsulotlarni tashish uning haqini to'lash, hujjatiarni rasmiylashtirish bo'yicha

majburiyatlarni taqsimlaydi, shuningdek, mahsulotga egalik huquqini sotuvchidan xaridorga o'tish holatini aniqlaydi.

4. Yetkazib berish muddati - unda mahsulotni muddatdan avvalroq yetkazishga ruxsat olish huquqi va tartibi kelishib olinadi.

5. Mahsulot miqdori - u asosan fizik birliklarda ko'rsatiladi.

6. Narx va kontraktning umumiyligi bahosi.

7. To'lov shartlari.

8. Mahsulotlarni o'rash va markirovkalash.

9. Sotuvchilarning kafolatlari, ya'ni, ularni xaridorga ma'lum sifatdagi mahsulotni yetkazib berish majburiyatları.

10. Sug'urta qilish yuklarini tashishda yuz beridagan yo'qotishlarni qoplashni ko'zda to'tadi.

11. Yengib bo'lmas kuchlar holati yoki "fors-major" holati.

12. Sanksiyalar yoki kontrakt shartlari buzilganda qo'llaniladigan ta'sir etish tadbirlari.

13. Nizolarni arbitraj va sud tomonidan ko'rib chiqilishi tomonlar o'tasida jiddiy kelishmovchiliklar yuzaga kelgan hollarda ko'zda tutiladi.

14. Kontraktning boshqa sharti jumlasiga kontraktlarni tuzish o'zgartirish va to'xtatish tartibi, davolarni bildirish va ularni ko'rib chiqish tartibi va muddati, yuklash bo'yicha qoidalar va mahsulotni yetkazib berish haqidagi xabar va boshqalar kiradi.

Xalqaro savdoda oldi-sotdi kontraktlaridan tashqari, shuningdek, pudrat kontraktlari, ijara kontraktlari va muqobil savdodagi kontraktlar tuziladi.

### Qisqacha xulosalar

1. Xalqaro savdo nazariyasi 19-asr boshlarida David Rikardo tomonidan aniqlangan taqqoslash imkoniyatlari konsepsiyasiga asoslangan. Bu konsepsiya asosan biror-bir mamlakat boshqa mamlakatga nisbatan birorta tovar ishlab chiqarishlarda imkoniyatlarga ega bo'ladi va ushbu tovarni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi.

2. Umuman tashqi savdo munosabatlari ikki muhim obyektiv sabablarga, ya'ni tabiiy va xomashyo resurslarining mamlakatlar o'rtasida bir tekis taqsimlanmaganligi hamda mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarining bir xil rivojlanmaganligiga ko'ra paydo bo'lgan.

3. Tashqi savdo aloqalariga mahsulotlarni ayirboshlash, xizmatlarni ayirboshlash va yangi ilmiy-texnik ma'lumotlarni ayirboshlash kiritiladi. Bu ayirboshlashlarning barcha ko'rinishi tashqi savdo operatsiyalari, ya'ni eksport, import, reeksport va reimport operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

### Tayanch iboralar

Tashqi savdo, xalqaro savdo, absolyut imkoniyatlari, taqqoslash imkoniyatlari, savdo shartlari, reklama, tijorat takliflari, savdo imkoniyatlari liniyasi, savdodan yutish, muzokaralar o'tkazish, kontraktlar tuzish, sheriklar o'rtasida munosabatlarni rasmiylashtirish, sherik kontragent, sherikni aniqlash, sherik faoliyatining xususiyati va hajmi, huquqiy va moliyaviy ahvoli va ishonchliliginini aniqlash, oferta, qat'iy va erkin taklif, uzoq muddatli, bir martalik, muddatli, maxsus, chegaraviy shartnomalar, tomonlarni aniqlash, kontraktning predmeti yoki shartnoma turini aniqlash, bazis shartlari, yetkazib berish muddati, mahsulot miqdori, uning umumiyyahosi, sotuvchilarning kafolatlari, sug'urtalash, fors-major, sanksiya, arbitraj va sud, pudrat, ijara va muqobil savdodagi kontraktlar va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Xalqaro savdoni rivojlantirishning obyektiv va subyektiv sabablari.
2. Xalqaro savdoning qanday shakllarini bilasiz ?
3. Xalqaro savdoda savdo kontraktlari qanday tuziladi? Kontrakt bitim qatnashchilari kimlar bo'ladidi.
4. Savdoda o'z sherigini aniqlagandan keyin qanday taklif kiritiladi .
5. Kontraktlar aniqlanadigan shartlariga ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi? Savdo bitimlarini yengillashtirish maqsadida qanday kontraktlar tuziladi?

### **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» -М.: 1995.
4. Бурдо М., Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” -Т.: Ўқитувчи. 1994.
8. Костюк В.Н. «Макроэкономика»- М.; 1998.
9. Линвут Т., Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г. «Макроэкономика». Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Ҳакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997.

## 14-bob. Savdo siyosati

- 14.1. Bojxona tariflari nazariyasi.
- 14.2. Bojxona tariflarini ishlab chiqaruvchilarga, iste'molchilarga va mamlakat aholisi turmush darajasiga ta'siri.
- 14.3. Tariflarni qo'llovchi hamda ularga qarshi fikrlar.
- 14.4. Import kvotalari va litsenziyalarini taqsimlash uslublari.
- 14.5. Demping va dempingga qarshi tadbirlar.

### 14.1. Bojxona tariflari nazariyasi

Savdo siyosati - davlat tomonidan xalqaro savdoga soliq, subsidiya, valyuta nazorati va import yoki eksportni to'g'ridan-to'g'ri cheklash siyosatlari olib borish orqali ta'sir ko'rsatish hisoblanadi.


Mamlakat tashqi savdosini cheklash borasida olib borilayotgan har qanday chora-tadbirlar aholi turmush faoliyatining pasayishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazaridan olib qarasak erkin tashqi savdo siyosati foydaliroq bo'lib hisoblanadi. Ammo, amaliyotda tashqi savdoni cheklashning 50 dan oshiqroq turi mavjud. Ularning ayrimlari davlat gaznasini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lsa, boshqa birlari esa umuman importni cheklashga va yana boshqa bir tadbirlar esa eksportni cheklashga yoki rag'batlantirishga yo'naltirilgan. Bundan tashqari, ko'pgina mamlakatlardagi katta-katta iqtisodchi va siyosatchi guruhlar proteksionizmni kuchaytirishni qo'llab-quvvatlashadi. Savol tug'iladi, agarda tashqi savdoni cheklash natijasida aholi turmush faoliyati yomonlashsa proteksionizmani keng qo'llash nima bilan bog'liq ?

Ya'ni, ko'pgina argumentlar proteksionizmga yon bossa ham, u xato hisoblanadi. Chunki uni iqtisodiy tahlillar yordamida asoslab berish mumkin. Erkin savdo jahon iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan foydali bo'lish mumkin, ammo alohida olingan mamlakat iqtisodiyoti nuqtai-nazaridan esa erkin savdo hamma vaqt ham foydali hisoblanavermaydi. Ayrim holatlarda savdo cheklashlarini tashqi savdo yutuqlarini qayta taqsimlashda, ya'ni, bir mamlakat aholisi turmush faoliyatini yomonlashtirish evaziga oshirishda foydalanish mumkin. Ulardan, shuningdek,

guruqlar o'rtaida oladigan daromadlarini qayta taqsimlashda foydalanish mumkin. Shuning uchun ham tashqi savdo siyosatini ishlab chiqishda olib boriladigan tashqi savdo siyosatining iqtisodiy tahlili katta ahamiyatga egadir.

Tashqi iqtisodiy savdoni tartibga solishning eng asosiy usullaridan biri bo'lib bojxona bojlari va ta'riflari hisoblanadi. Ta'rif, ya'ni importga bojxona boji savdo siyosatining eng qadimiy usullaridan biri bo'lib hisoblanadi va doimiy ravishda davlat g'aznasini to'ldirish uchun foydalaniлади. Ammo, ta'rif nafaqat davlat g'aznasini to'ldirishda foydalaniлади, balki milliy ishlab chiqaruvchilarni import raqobatidan himoya qilishda ham foydalaniлади. Tariflarni o'zgartirish orqali davlat eksport va importni rag'batlantirishi va shu yo'l bilan ishlab chiqarish va iste'mol munosabatlariga ta'sir etishi mumkin.

Bojxona boji - bu mamlakatga olib kelinayotgan yoki mamlakatdan olib chiqilayotgan mahsulotlarga solinadigan majburiy soliqdir. Xalqaro amaliyotda bojxona bojlarining turli xillari qo'llaniladi va ularni hisoblash yo'llari, ifodalanishi hamda harakat sohasiga ko'ra quyidagicha guruhash mumkin.



Chizmadan ko‘rinib turibdiki, amaliyatda qo‘llaniladigan bojxona bojlari turlicha. Agar ularning hisoblash bo‘yicha guruhanishini ko‘radigan bo‘lsak, mahsulot narxiga nisbatan foizda belgilanadigan advaler bojlar jahonda ko‘proq tarqalgan. Shu sababdan ham bojning bu turi qo‘llaniladigan mamalkatlarda mahsulotning boj qiymatini ya’ni, advaller bojlarini hisoblashiga asos bo‘ladigan mahsulotning narxini aniqlash usullariga katta e’tibor beriladi. Boj qiymati import va eksport qiluvchi, tashuvchi yoki ularning ishonchli vakillar tomonidan mahsulotlar bayonnomasida ko‘rsatiladi va shunga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlanadi.

Bojxona bojlarning ifodalaniishi va faoliyat sohasi bo‘yicha birlashtirilgan ikkinchi guruhi avvalo import bojlari va eksport bojlariga ajraladi.

Import bojlari davlat byudjetini to‘ldirish maqsadida va ichki bozorlarga tushadigan chet el tovarlari oqimini tartibga solish uchun belgilanadi. O‘z navbatida, ular eng kam va eng ko‘p miqdordagi import bojlariga bo‘linadi. Eng kam miqdordagi import bojlari o‘zaro qulay sharoitlarni yaratib berishni ko‘zda tutuvchi savdo shartnomalari va bitimlari bo‘lgan mamlakatlar mahsulotlariga o‘rnataladi. Eng ko‘p miqdordagi import bojlari esa bunday shartnoma bitimlar tuzilmagan mamlakatlar mahsulotiga nisbatan o‘rnataladi.

Eksport bojlari mamlakat ichida talab ko‘p bo‘lgan mahsulotlar taqchilligini oldini olish maqsadida belgilanadi.

Boj olinadigan mahsulotlar, boj olinmaydigan mahsulotlar, olib kelish va olib ketish taqiqlangan mahsulotlar, shuningdek, bojxona bojlari stavkasi ya’ni, ularning tartibga solingan ro‘yxati bojxona tariflari deb ataladi.


Bojxona tariflarini ishlab chiqarish, tabiiy farqlar (hayvonot va o’simlik dunyosi), qayta ishlash darajasiga (xomashyo, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor buyumlar) ko‘ra taqsimlangan mahsulotlar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan mahsulot sarxillovchilar (klassifikatorlari) asosida ko‘rilgan.

Bu klassifikatorlar mahsulotlarini tariflash va shartli belgilashning uygunlashtirilgan tizimi bo‘lib unda olti xonali shartli raqam belgiga ega bo‘lgan mahsulot haqidagi asosiy ma’lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasidagi o‘rnini ko‘rsatilgan.


Bojxona tariflari bir yoki bir necha boj miqdorlari ustuniga ega bo'lishi mumkin, ya'ni ular oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy bojxona tariflari ustuni mahsulotlar kelib chiqqan mamlakatlardan qat'iy nazar mahsulotlarga yagona stavkalarni ko'zda tutadi. Murakkab bojxona tariflari ustunida esa, mahsulot bir necha boj stavkalariga ega bo'ladi va u yoki bu mamlakatga unda vujudga kelgan Iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarga qarab tanlov asosida qo'llaniladi.

#### **14.2. Bojxona tariflarining ishlab chiqaruvchilarga, iste'molchilarga va mamlakat aholisi turmush darajasiga ta'siri**

Bojxona tariflari avvalambor import bilan raqobatlashadigan milliy ishlab chiqarishni himoya qilishdan iborat. Agarda tariflarni joriy qilish orqali import cheklansa, milliy ishlab chiqarish sotilayotgan mahsulotlar hajmini oshirish va tarifni joriy qilish orqali narxlarning oshishi hisobiga sotadi. Milliy ishlab chiqarishning ta'rifi joriy qilish orqali sotishni biz grafikda ham ko'tishimiz mumkin.



**Tarifning ishlab chiqaruvchilar manfaatiga ta'siri**



Tarif milliy ishlab chiqarishni Pw dan Pw+1 gacha oshishiga olib keladi. Milliy ishlab chiqaruvchilar bu o'sishni ular uchun qulay bo'lgan vaziyatgacha, ya'ni S1 dan S2 gacha davom ettiradi. Aynan S2 nuqtada ishlab chiqarish xarajatlari bozor narxiga Pw+t tenglashadi. Undan yuqorisi milliy ishlab chiqaruvchilar uchun foydali hisoblanmaydi. Chunki ishlab chiqarish xarajatlari bozor narxidan oshib ketadi. Ishlab chiqaruvchilarning foydasi yalpi tushum bilan xarajatlar o'rtaсидаги farqga teng. Yuqoridagi chizmada ishlab chiqaruvchilarning yalpi tushumi tarifni joriy qilgungacha OPwDS1 (ya'ni, P\*wS1) to'g'ri to'rburchak maydoniga teng. qachonki ishlab chiqarish xarajatlari egri taklif maydoniga teng ekan, milliy ishlab chiqaruvchilar foydasi xalqaro narx to'g'ri chizig'i (Pw) egri xarajatlar (ya'ni, egri taklifga mos keladigan Sh) narxlarning vertikal to'g'ri chizig'idan tashkil topgan uchburchak shaklida oladi. Tarif mahsulotlari narxini OPwDS dan Pw+t gacha oshirar ekan milliy ishlab chiqaruvchilarning tushumi OPw DS1 to'g'ri to'rburchak maydonidan OPw+tCS2 to'g'ri to'rburchak maydonigacha oshiradi. Ularning foydasi esa tarifni joriy qilgandan keyingi egri xarajatlar va narxning vertikal to'g'ri chizig'i asosida tashkil qilingan uchburchak shaklini oladi. Demak, tarif joriy qilgandan keyin milliy ishlab chiqaruvchilar foydasi ye+a ko'rinishidagi uchburchak maydoniga teng.

Oldingi savollarda aytiganidek tariflarni joriy qilish orqali import tovarlari va narxning oshishi birinchi o'rinda iste'molchilarga ta'sir etadi. Chunki tarif nafaqat import tovarlarini balki, milliy tovarlarni ham narxini oshirib yuboradi. Iste'molchilar tovarlarni sotib olish uchun ko'proq sarf qilishga yoki kamroq miqdorda sotib olishga yoxud ikkalasini baravariga olib borishga majbur bo'lishadi. Demak tariflarni joriy qilish iste'molchilar imkoniyatlarini yomonlashtiradi.

Importga tarif joriy qilinmagan sharoitda erkin xalqaro narxlarda ayirboshlashlar amalga oshiriladi.

Milliy ishlab chiqarish bilan horijiy ishlab chiqaruvchilar o'rtaсидаги raqobat ichki narxlarni ham xalqaro narxlarga tenglashtirib qo'yadi.

Tarif ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxini oshirishi natijasida hajmini kamaytirishga olib keladi. Demak mos ravishda tariflar iste'molchilarning

qo'shimcha mahsulotlarini sotib olishdan sotadigan imkoniyatlarni kamaytiradi. Iste'molchilarining tarifni joriy qilish natijasida yutqazadigan sof yo'qotishlarni kichkina a+v+s+d chegarasida tashkil topadi.

Iste'molchilarining tarifni joriy qilish natijasida yo'qotishlar miqdorini aniqlash uchun import tovarlarni tarif joriy qilishdan oldin va tarif joriy qilishdan keyingi qiymatini shuningdek ushbu tovarga bo'lgan talab hajmini bilish lozim.

Agarda tarifni joriy qilish natijasida iste'molchilar a+v+s+d chegarasida yo'qotishsa ishlab chiqaruvchilar a chegarasida va davlat xazinasiga chegarada nuqtalarga ega bo'lsa, tariflami joriy qilish mamlakatga qanday ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tariflarning iste'molchilarga, ishlab chiqaruvchilarga va davlat xazinasiga ta'sirini umumlashtirib import qilayotgan mamlakatga ta'sirini aniqlash mumkin. Jamiyat uchun tariflarni joriy qilishdan keladigan sof yo'qotishlar v+d chegarasidan iborat. D chegarasi (ko'proq tarifning iste'mol samarasi deb yuritiladi.) import qilayotgan mamlakat iste'molchilarining ushbu tovarlarni iste'mol qilishni kamaytirish natajasidagi yo'qotishlarni ko'rsatadi. V chegarasi (ko'proq tarifning ishlab chiqarish samarasi deb yuritiladi.) mamlakat ichkarisidagi ishlab chiqarishning ko'payib ketishi natijasida vujudga keladi.

Umuman bojxona tarifflari amalda aholi turmush darajasini kamaytiradi. Chunki, iste'molchilar ishlab chiqaruvchilar va davlat yutuqlariga nisbatan ko'proq yo'qotishadi. Tariflar iste'molchilarining import qilinayotgan mahsulotlardagi daromadlarini boshqa ijtimoiy guruhlar manfaatiga qayta taqsimlaydi.

#### 14.3. Tariflarni qo'llovchi hamda ularga qarshi fikrlar

Bojxona tariflar asosan milliy darajada qo'llaniladi va bunda qator vazifalarni bajaradi.

- 1) fiskal, ya'ni davlat byudjeti daromadlarini to'ldirish manbayi bo'lib xizmat qiladi;
- 2) proteksionistik, ya'ni milliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qiladi;
- 3) boshqaruv, ya'ni iqtisodiyot tuzilishini qayta ko'rishni boshqarish vositasini hisoblanadi va ular yordamida mamlakat iqtisodiyotidagi ilgor siljishlar ragbalantiriladi.

Milliy iqtisodiyotni tiklanishi sharoitida ko'pgina davlatlar o'z ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida proteksionizm siyosatini qo'llaydilar. Aks holda mahalliy korxonalar "sinishi" jamiyatda ishsizlik xavfini tugdiradi. Shu bilan birga proteksionizm siyosatini qo'shash salbiy oqibatlarni olib kelishi mumkin. Ular asosan iqtisodiyotning himoya qilinayotgan sohalarida resurslarni samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Agar mamlakatlar bojxona ittifoqiga birlashsalar unda bojxona tarifi barcha ishtirokchi mamlakatlar uchun ularning savdo munosabatlarida yagona bo'lib qoladi (masalan, Yevropa Iqtisodiy hamjamiyati). Bojxona tariflari miqdori alohida mamlakatlar iqtisodiyotida va jahon xo'jaligida yuz berayotgan jarayonlar ta'sirida yuz beradi. Umumjahon bojlarining pasayish tendensiyasi kuzatilmogda va u ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama muzokaralar asosida mamlakatlar tomonidan rag'batlantiriladi va nazorat qilinadi. Asosan GATT doirasida o'tkazilgan bunday muzokaralar natijasida boj-tarif yon berishlarini ayrboshlash haqida bitimlar tuzilgan edi.

Bojxona tariflari bojlaridan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita egiluvchan usullari sifatida turli soliq turlari keng qo'llaniladi. Bunda faqat tashqi soliq tizimidagi emas, balki ichki soliq tizimidagi soliq turlaridan ham foydalaniлади.

Faqat tashqi iqtisodiy bitimlarni tartibga solishda qo'llaniladigan soliqlarga import va eksportga soliqlar kiradi. Ular olib kelinayotgan yoki olib chiqilayotgan mahsulotlarga ularning oqimlarini tartibga solish, ya'ni rag'batlantirish yoki to'xtatish maqsadida belgilanadi.

Ko'pgina mamlakatlarda import tushumlariga soliqlar keng qo'llanilsa eksport mahsulotini sotishdan tushumlarga soliqlar esa imtiyozlarga egadir. Bu eksportni rag'batlantirishga ichki va tashqi bozorlardagi narxlar farqi ko'p bo'lгanda o'z mahsulotlari kabi import mahsulotlariga ham mamlakat ichida sotish uchun bir xil sharoitlar yaratish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, ichki soliqlar tizimi yordamida ham tartibga solinadi. Davlat sotishdan olingan foydaga pul kapitalidan daromadlarga kapitalning qo'shimcha o'sishiga qimmatbaho

qog'ozlarga, ortiqcha foydaga va boshqalarga soliqlarni belgilab o'zining hamda horijiy ishlab chiqaruvchilarning faoliyati uchun qulay va qulay bo'limagan sharoitlarni yaratishi mumkin.

#### **14.4. Import kvotalari va litsenziyalarini taqsimlash uslublari**

Jahon amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bilvosita usullariga qaraganda bevosita usllaridan kengroq foydalaniadi. Bevosita usullar o'zining mazmuniga ko'ra iqtisodiy, ma'muriy, me'yoriy - huquqiy ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

Litsenziyalash va kvotalash iqtisodiy harakterdagi bevosita usullar ichida keng tarqalgan hisoblanadi.

Litsenziyalash - bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olishning ma'lum tartibidir. Tashqi iqtisodiy operatsiyalarga mahsulotlar, ishchi va xizmatchilar eksporti hamda, moliya operatsiyalarini o'tkazish, horijga ishchi kuchini ishga joylashtirish va boshqalar kiradi. O'zbekistonda litsenziyalar faqat davlat ro'yxatida qayd etilgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga beriladi. Boshqa yuridik shaxslarga berish ta'qilangan.

Mahsulotlar eksporti va importini litsenziyalash davlatga ular oqimini qattic tartibga solishga, ba'zi hollarda ularni vaqtincha chegaralashga va shu asosda tashqi iqtisodiy taqchillik o'sishining to'xtashiga hamda savdo balansining tenglashtirishga imkon beradi.

Mahsulotlar va ishchi va xizmatchilar eksporti va importiga litsenziyalar berish huquqiga O'zbekiston Respublikasining quyidagi boshqaruv tashkilotlari ega: Vazirlar Mahkamasi, Moliya, Adliya, Ichki ishlar, Soglikni saqlash, Halq ta'llimi vazirliklari, shuningdek Markaziy bank.

Belgilangan chegaralar doirasida amalga oshiriladigan bitimlarga litsenziyalar har bir alohida bitim uchun mol yetkazib berish hajmi yoki qiymatiga tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tomonidan beriladi.

Moliya operatsiyalarini o'tkazishga litsenziyalar asosan Respublika Moliya vaziriligi va Markaziy bank tomonidan o'z va horijiy banklarga, Moliya

muassasalariga beriladi. Ular moliya-kredit muassasalariga mamlakat ichida va uning tashqarsida chet el valyutasi bilan opreasiyalarini amaiga oshirish, horijiy moliya kredit muassasalariga esa ichki bozorda yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatish huquqini beradi.

Lisenziyalash bilan bir qatorda jahon amaliyotida mahsulotlar shuningdek, ishchi kuchi eksport va importini chegaralash maqsadida kvotalash keng qo'llanalidi.

Bu usulning mohiyati shundan iboratki unda vakolatli davlat yoki xalqaro tashkilot alohida mahsulotlar, xizmatlar, mamlakatlar va mamlakatlar guruhi bo'yicha ma'lum davrga eksport va importga miqdoriy yoki qiymat chegaralarini belgilaydi. Davlat tomonidan tartibga solish tadbiri sifatida kvotalash to'lov balnslarini ichki bozorda talab va taklifni balanslashtirish uchun muzokaralarda o'zaro kelishuvga erishish uchun qo'llaniladi. O'zbekistonda kvotalash xalq iste'moli mollarini va strategik xomashyoning muhim turlarini olib chiqishni chegaralash usuli sifatida qo'llanilmoqda.

Kvotalash faqat mahsulot oqimlarini emas, balki ishchi kuchi oqimlarini tartibga solishda qo'llaniladi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlar ichki mehnat bozorini himoyalash maqsadida horijdan ishchi kuchi importiga kvotalar o'rnatadi.

#### **14.5. Demping va dempingga qarshi tadbirlar**

Tashqi savdoni tartibga solishning bevosita tarifli bo'lmagan usullari guruhiga bojxona bojlarining maxsus dempingga qarshi, kompensatsion va boshqa turlari kiradi.

Ba'zi xollarda mamlakatlar tomonidan maxsus bojxona bojlari qo'llaniladi. Masalan, masulotlar olib kelish hajmi va sharti maxalliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirsa yoki mamlakat manfaatlariga zid bo'lganda qo'llaniladi. Maxsus bojxona bojlarining miqdori har bir aniq holat uchun alohida o'rnatiladi.

Dempingga qarshi qaratilgan bojlar jahon amaliyotida keng qo'llanilib o'zida qo'shimcha import bojlarini aks ettiradi. Ular odatda, jahon narxlaridan yoki import qilayotgan mamlakat ichki narxlaridan past narxlar bo'yicha eksport

qilinayotgan mahsulotlarga o'rnatiladi. Bu bojlamni belgilash haqidagi qarorni xalqaro sud mahalliy ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar murojaatidan so'ng chiqaradi hamda uning miqdorini va to'lash tartibini belgilaydi. Masalan, dempingga qarshi bojlar o'z valyuta resurslarini to'ldirish maqsadida jahon bozoriga xomashyo resurslarini eksport qilishni ko'paytirgan sobiq ittifoqdosh respublikalariga nisbatan faol qo'llanilmoqda.

Kompensatsion bojlar. Olib kelinayotgan mahsulotlar kabi olib chiqilayotgan mahsulotlarga ham belgilanadi. Ular ishlab chiqarish yoki eksport qilishda subsidiyalar ajratilgan va bu olib kelish yoki olib chiqish milliy ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarga zarar yetkazishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi. Bunday holat davlat mamlakatga yetkazilgan zaramni yoki davlatning moliyaviy xarajatlarini qoplashi lozim bo'lgan bojlarini o'rnatadi. Kompensatsion bojlar miqdori aniqlangan subsidiyalar miqdoridan oshmasligi lozim.

So'nggi o'n.yilliklarda eksportni ixtiyoriy chegaralash va eng kam import baholarini belgilash haqida bitimlar tuzish amaliyoti keng tarqala boshladi. Savdo cheklashlarining bu yangi turlarining xususiyatlari ularni o'rnatishning noan'anaviy usulidan iborat. Ya'ni import qiluvchi mamlakatni himoya qiluvchi savdo to'siqlari import qiluvchi mamlakat chegarasida kiritilganda eksportni ixtiyoriy chegaralash qo'llaniladi. Xuddi shunga o'xhash eng kam import bahosini o'rnatish ham amalga oshiriladi. Bunday baholarni o'rnatgan import qiluvchi mamlakatlar bilan kontraktlar tuzishda bunga eksport qiluvchi firmalar tomonidan qat'iy amal qilinmog'i lozim. Eksport bahosi eng kam darajadan pasaytirilgan holda import qiluvchi mamlakat dempingga qarshi boj kiritadi va uni qo'llash bozordan chiqishga olib kelishi mumkin.

Eksportni davlat tomonidan rag'batlantirish tadbiri sifatida ko'pgina mamlakatlarda eksport subsidiyalari qo'llaniladi, ya'ni tajriba konstrukturlik ishlari va eksportga mo'ljalangan ishlab chiqarishni bevosita moliyalashtirish yoki bu maqsadlarga davlat byudjetidan imtiyozli kreditlar berish ko'zda tutiladi.

Ro'yxatga olish o'rnatilgan shaklda to'ldirilgan ro'yxatga olish varaqasini taqdim etish, ro'yxatga olinganlik raqamini berish, tashqi iqtisodiy aloqa

qatnashchilarini rasmiy ravishda chop etiladigan davlat ro'yxatlari to'plamiga kiritish va ro'yxatga olinganlik haqidagi guvohnomani berishni o'z ichiga oladi.

Mahsulot bayonnomasi - bu tashqi iqtisodiy aloqa qatnashchisining mahsulotni davlat chegarasini kesib o'tayotgani haqida ushu mamlakatda o'rnatilgan qoidalarga muvofiq bergan rasmiy arizasidir. U ikki ko'rinishda, ya'ni bojxona bayonnomasi bo'yicha va tovar - transport xarajatlari bo'yicha (yetarli malaka va tajribaga ega bo'lgan tashqi iqtisodiy birlashmalar uchun) amalga oshiriladi. Ba'zi fuqarolar mamlakatga kirishda va chiqishda tashilayotgan buyumlar, mulk shu jumladan, valyuta haqida bayonnomani bir xil andozadagi varaqalarga to'ldirishiari lozim.

Tashilayotgan yuklarga bayonnomma tashqi iqtisodiy operatsiya qatnashchisi tomonidan har bir mahsulot uchun to'ldiriladi va unda operatsiya turi (eksport va import) mahsulot nomi, eksport va import qilinayotgan mamlakat, valyuta, mahsulotning umumiyligi haqiqiy bahosi va boshqalar ko'rsatiladi. Bu hujjat asosida import, eksport uchun soliqlar miqdori aniqlanadi, horijga pullarning o'tkazilishining to'g'riligi nazorat qilinadi. U faqat tashqi savdoga emas, balki butun tashqi iqtisodiy faoliyatga to'siq bo'lgan ma'muriy tadbir bo'lib, valyuta bilan chegaralash hisoblanadi.

### **Qisqacha xulosalar**

1. Ichki ishlab chiqaruvchilami xalqaro raqobatlardan himoya qilish uchun mamlakat erkin savdo siyosatiga turli xil baryerlar qo'yishi mumkin. Savdo hajmini cheklaydigan bunday siyosat proteksionizm deb ataladi. Savdo cheklashlari import tariflari va notarif baryerlarga bo'linadi. Savdo baryerlarini qo'llashni oqlaydigan proteksionizm siyosati tarafdarlari asosan milliy himoyani ta'minlashning zarurligi, ish joylarini saqlash, ishlab chiqarish tarmoqlarini horijiy raqobatchilardan himoya qilish kabi sabablarni ko'rsatishadi.

2. Bojxona ta'riflarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan klassifikatorlar mahsulotlarni ta'riflash va shartli belgilashning uyg'unlashtirilgan tizimi bo'lib,

unda olti xonali shartli raqam belgiga ega bo'lgan mahsulot haqidagi asosiy ma'lumotlar hamda uning mahsulotlar nomenklaturasi o'rni ko'rsatiladi.

3. Ta'riflarni joriy qilish orqali import tovarlari narxlarining oshishi birinchi o'rinda iste'molchilarga ta'sir ko'rsatadi. Chunki, tariflar milliy tovarlarning ham narxini oshiradi va, shuningdek, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar narxini oshirish natijasida hajmining kamayishiga ham olib keladi.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning bevosita usullari keng tarqalgan. Litsenziyalash bu tashqi iqtisodiy operatsiyalarini amalga oshirishga davlat tashkilotlaridan ruxsat olish hisoblanadi.

#### 3. Savdo siyosati

##### Tayanch iboralar

Savdo siyosati, import bojlari, import kvotalari, notarif baryerlar, tashqi savdo, proteksionizm, bojxona bojlari, reklama, tijorat takliflari, savdo imkoniyatlari liniyasi, savdodan yutish, muzokaralar o'tkazish, kontraktlar tuzish, sheriklar o'rtasida munosabatlarni rasmiylashtirish, sherik kontragent, sherikni aniqlash, sherik faoliyatining xususiyati va hajmi, huquqiy va moliyaviy ahvoli va ishonchlilikini aniqlash, oferta, qat'iy va erkin taklif, uzoq muddatli, bir martalik, muddatli, maxsus, chegaraviy shartnomalar, tomonlarni aniqlash, kontraktning predmeti yoki shartnoma turini aniqlash, bazis shartlari, yetkazib berish muddati, mahsulot miqdori, uning umumiy bahosi, sotuvchilarning kafolatlari, sug'urtalash, fors-major, tariflar, advaler mahsulotlar, import bojlari, eksport bojlari, boj olinadigan va olinmaydigan mahsulotlar, fiskal, GATT, kvotalar, litsenziyalar, demping, kompensatsion, dempingga qarshi tadbirlar.

#### 4. Savdo qurʼani

##### Nazorat va mulohaza savollari

1. Nima uchun xalqaro savdo qatnashuvchi tomonlarning barchasi uchun foydali ekanligini izohlang.
2. Savdo baryerlarining asosiy shakllarini va import bojlari va notarif chegaralashlami kiritishdan keladigan iqtisodiy oqibatlarni tushintiring.

3. Nima uchun proteksionizm siyosatini xalqaro savdo qatnashchilarining hammasi ham yoqlayvermaydi.
4. Tashqi savdoni tartibga solishning qanday usullarini bilasiz ?
5. Bojxona ta'riflari ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar va aholi tur mush darajasiga qanday ta'sir ko'rsatadi ?
6. Ta'riflarni qo'llovchi hamda ularga qarshi fikrlar to'g'risida misollar keltiring.
7. Demping nima ? Dempingga qarshi qanday tadbirlarni bilasiz ?

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
4. Бурдо М., Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи. 1994.
8. Костюк В.Н. «Макроэкономика»- М.: 1998.
9. Линвут Т., Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менкю Н.Г. «Макроэкономика». Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
12. Хакимова М.А. “Макроиктисодиёт”, - Т.: “Мехнат”. 1997.

## **15-bob. To'lov balansi**

- 15.1. To'lov balansining mohiyati.
- 15.2. To'lov balansining tarkibiy tuzilishi.
- 15.3. To'lov balansining nomutanosibligini tartiblash usullari.
- 15.4. O'zbekistonda to'lov balansini ishlab chiqish tajribasi.

### **15.1. To'lov balansining mohiyati.**

Mamlakatning ma'lum vaqtidagi barcha xalqaro iqtisodiy faoliyati, shu jumladan, tashqi savdo, kapital va ishchi kuchi migratsiyasi ham to'lov balansida o'z aksini topadi. Har qanday tashqi iqtisodiy bitim valyuta ayrboshlash va valyuta operatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Olish - sotish bitimi hisoblanar ekan, demak mamlakatning jahon bozoridagi faoliyatining natijalari pirovardida horijiy valyuta tushumlari va xarajatlarida ifodalanadi. Shuning uchun ham, to'lov balansi - bu bir tomonida chetdan keladigan barcha tushumlar, ikkinchi tomonda esa, chetga chiqaradigan barcha to'lovlar ko'rsatilgan hujjatdir. Tushum (kredit) faqat eksport yordamida ta'minlanishi mumkin. Aksincha, horijiy valyutalarni sotib olish (import) to'lovlar va horijiy valyuta xarajatlari bilan (Dt) bog'liq bo'ladi. Bunda, tovar deganda, ayrboshlanadigan har qanday narsa tushuniladi, ya'ni u moddiy ne'mat, xizmat, ishchi kuchi, kapital va valyuta bo'llishi mumkin.

### **15.2. To'lov balansining tarkibiy tuzilishi**

Barcha iqtisodiy bitimlar ikkita katta guruhga bo'linadi: joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq opreasiyalar (1-jadval). Joriy operatsiyalarning asosiy moddasi tovarlar eksporti va importi hisoblanadi, ularning farqi tashqi savdo balansining qoldig'i deb yuritiladi. Bizning misolda bu balans salbiydir, ya'ni mamlakat tovarlarni chetga olib chiqishdan ko'ra ko'proq olib keladi. (-80).

Joriy operatsiyalarning keyingi moddasi bu xizmatlar eksporti va importidir ularga transport, sug'urta, sayyohlik xizmatlari va boshqalar kiradi. Tovarlar bilan operatsiyalardagi kabi xizmatlar bilan operatsiyalarda ham mamlakat horijiy xizmatlarni ko'proq oladi, ya'ni mamalkatda yashovchilar horijga chetdan

sayyoxtlarga nisbatan ko'proq boradilar, shuningdek mamlakatdagi tadbirkorlarga horijiy transport va sug'urta xizmatlarini ko'rsatish hajmi, horijiy tadbirkorlarga mamlakatda transport va sug'urta kompaniyalari ko'rsatadigan xizmatlar hajmiga qaraganda yuqoriq. Bu operatsiya ham balansning salbiy qoldig'iiga ega. (-2)

1-jadval.

Mamlakat to'lov balansining taxminiy ko'rinishi (raqamlar shartli)

Nº	Moddalar nomi	Kredit (+) yoki eksport hisobiga tushumlar	Debit (-) yoki import natijasidagi xarajatlar	Sof kredit yoki sof debit
I	Joriy operatsiyalar schyoti			
1	Tovarlar	+125	-205	-80
2	Tashqi savdo balansining qoldig'i			
3	Xizmatlar	+35	-37	-2
4	Investitsiyalardan daromadlar (foizlar va dividendlar)	+17	-10	+7
5	Pui o'tkazmalari	+1	-8	-7
6	Joriy operatsiyalar bo'yicha balansning qoldig'i			-82
II	Kapital harakatining schyoti			
7	Investitsiyalar va boshqa o'r-ta va uzoq muddatli kapital	+90	-37	+53
8	Kapital harakati balansning qoldig'i			+53
9	Joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning qoldig'i			-29
II	Rasmiy rezervlar (oltin, SDR,XVF			
I	dagi rezervlar)	+29		+29

• Investitsiyalardan daromadlar foizlar va dividendlar bo'yicha to'lovlarni o'z ichiga oladi. Agar horijga qo'yilgan milliy kapitalga chet elliqlarning amalga oshiradigan bunday to'lovlaridan tushunilar mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan horijiy kapitaldan bunday to'lovlar miqdoridan ko'p bo'lsa, unda sof daromad ijobiy bo'ladi.(+7)

Pul o'tkazishlar shu mamlakatlarning horijda yashayotgan fuqarolariga to'lanidagan nafaqalami, muxojirlarning horijdagi o'z qarindoshlariga pul o'tkazishlari, turli ko'rinishdagi hukumat yordamtarini o'z ichiga oladi. Jadvaldan ko'riniib turibdiki, horijga jo'natilayotgan pul o'tkazishlar miqdori olinayotganga nisbatan yuqori, ya'ni operatsiyalar mamlakatdagi horijiy valyuta zaxiralarini kamaytiradi. (-7).

Joriy hisoblar bo'yicha barcha operatsiyalar yig'indisi joriy operatsiyalar to'lov balansini tashkil etadi. Bizning misolda u salbiy (-82), bu esa shuni anglatadiki, mamlakatda import operatsiyalari natijasida horijiy valyutaga bo'lgan talab uning eksport operatsiyalari ta'minlaydigan taklifdan ortiq bo'ldi. Yoki boshqacha aytganda ushbu holda mamlakat joriy operatsiyalar bo'yicha taqchillikga ega. Uni qoplash uchun mamlakat yoki qarz oladi (uzoq va qisqa muddatli,) yo o'z ko'chmas mulkini (yer, bino va moliyaviy aktivlarini ( aksiya va obligatsiyalar) sotadi.

Biroq mamlakat joriy to'lov balansining ijobiy qoldig'iga ega bo'lishi mumkin. Agar uning eksport operatsiyalari import operatsiyalaridan ortiq bo'lsa, shunday hol yuz beradi. Bunda mamlakatda chet elda ko'chmas mulkni sotib olish yoki boshqa mamlakatlarga qarzga berishga yo'naltirilishi mumkin bo'lgan horijiy valyuta ortiqchaligi yuzaga keladi. Investitsiyalash va kreditlash bilan bog'liq operatsiyalar to'lov balansining keyingi bo'limida, ya'ni kapitallar harakati hisobida aks ettiriladi. Bu yerda moddiy va moliyaviy aktivlarni (korxonalar, yer, uylar, qimmatbaho qog'ozlar, aksiyalar, xazina majburiyatları va boshqalar) olish-sotish bilan bog'liq kapitallar oqimini aks ettiradi. Agar bu aktivlar sotilsa yoki eksport qilinsa, unda bu horijiy valyutani mamlakatga kelishini, tushumini ko'paytiradi (+90). Biroq kapitalni olib kelish bilan bir vaqtida uni olib chiqish

bilan bog'liq operatsiyalar ham amalga oshiriladi. Bunda mamlakatning tadbirkorlari horijdan aksiyalar sotib oladi, horijliklarga kreditlar beradi va shu asosda ular horijiy valyuta zaxiralarini sarflaydi. Bu operatsiyalar debit ko'rinishida aks ettiriladi (37). Kapital harakati balansining qoldig'i - bu uni olib kelish va olib chiqish o'rtaсидagi farqdir (+53).

Avval aytib o'tilganidek, joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital harakati balansi o'zaro chambarchas bog'langan. Bizning misolda birinchisining taqchilligi (-82) kapitalning sof oqib kelishi hisobiga (+53) moliyalashtiriladi va aksincha, agar joriy operatsiyalar bo'yicha aktivga ega bo'lsa u holda bir vaqtida kapitallar balansi bo'yicha kapitallarning sof kelib chiqishi amalga oshirilgan bo'ladi.

Shunday qilib balansning bu ikki bo'limi bir-birini tenglashtirib boradi va aslida ham bir-biriga teng bo'lishi kerak. Biroq amalda doimo taqchillik yoki ortiqchaliq yuzaga kejadi. Shuning uchun, turli mamlakatlarning Markaziy banklari rasmiy rezervlar deb ataluvchi xorijiy valyuta zaxiralariga ega. Bu rezervlar joriy operatsiyalar bo'yicha balans va kapital balansi nomutanosibligini bartaraf etishda qo'llaniladi. Bizning misolda bu nomutanosiblik yoki qoldiq (-29)ni tashkil etadi va rasmiy rezervlardan tushumlar hisobiga tartibga solindi. Rezervlardan tushumlar kredit (+) ustunida aks ettirilgan, chunki mamlakatda horijiy valyuta taklifini ko'paytirish boshqa har qanday eksport operatsiyasiga xosdir. Natijada, to'lov balansining qoldig'i umuman "0"ga keltirilgan.

15.3. To'lov balansining nomutanosibligini tartiblash usullari

Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, "to'lov balansining taqchilligi" yoki to'lov balansi aktiv ifodalari joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning ijobiy yoki salbiy qoldig'i miqdorini bildiradi. Rasmiy rezervlarning qisqarishi (+) bu taqchillik miqdorini ifodalaydi, rasmiy rezevrlarning o'sishi (-) esa to'lov balansining aktiv qoldig'i miqdorini ko'rsatadi. Pirovardida uning barcha uch bo'limi summasi "0"ni tashkil etishi lozim. Bu esa horijiy valyuta taklifini va unga mamlakatda bo'lgan talab baravarligini bildiradi.

Davlatlar rasmiy rezervlar va qarzlar hisobiga qoplash qobiliyatiga ega bo'lmagan to'lov balansining katta doiraviy taqchilligi bo'lgan hollarda o'z valyutalari devalvatsiyasini amalga oshirishlari mumkin. Bu importning fizik hajmi ko'payishiga va oqibatda mamlakatga horijiy valyuta tushumini o'sishi hamda taqchilligini yo'qotishga olib keladi.

#### **15.4. O'zbekistonda to'lov balansini ishlab chiqish tajribasi**

Ochiq iqtisodiyotli ko'plab mamlakatlar o'z to'lov balanslarini XVF tavsiya etgan tarx bo'yicha ishlab chiqardilar. Bu tarx rivojlangan bozor munosabatlari sharoitida amalga oshiriladigan barcha iqtisodiy operatsiyalarini amalga oshiradi. To'lov balansining ma'lumotlari muntazam chop etiladi va davlatning kredit qobiliyati haqidagi guvohnoma sifatida xalqaro tashkilotlar, boshqa mamlakatlar ning hukumatlari hamda tadbirkorlari tomonidan kreditlash va moliyalashtirish, moliyaviy, texnika va moddiy yordam ko'rsatish masalalarini hal etishda qo'llaniladi.

O'zbekistonda to'lov balansi faqat respublika mustaqillikka erishgandan va bozor munosabatlariga o'tishidan keyin tuzila boshlandi. Jahon bozorida teng huquqli sherikchilik respublikani xalqaro iqtisodiy munosabatlar subyekti sifatida aniq ma'lumotlami talab etadi, shuning uchun respublika to'lov balansi XVF tafsiyalariga juda yaqinlashtirilgan tarx asosida tuzilgan.

#### **Qisqacha xulosalar**

1. Xalqaro savdo va moliya operatsiyalarida har xil valyutalar qo'llaniladi. Mamlakatning eksport operatsiyalari milliy valyutaga horijda talabni va bir vaqtning o'zida horijiy valyuta taklifini keltirib chiqaradi. Import horijiy valyutaga ichki talabni ya milliy valyuta taklifini keltirib chiqaradi. Bir valyutaning ikkinchi bir valyutaga kamayishi valyuta bozorida amalga oshiriladi. Mamlakat ichkarisida rezidentlar bilan horijiy rezidentlar o'rtaсидаги barcha ishlar ushbu mamlakat to'lov balansida qayd qilinar ekan.

2. To'lov balansi bu biror bir mamlakatda chetdan keladigan barcha tushumlar va ikkinchi tomondan esa chetga chiqadigan barcha to'lovlari ko'rsatilgan hujjat hisoblanar ekan. Bunda barcha iqtisodiy bitimlar ikkita guruhga bo'linib, joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar deb atalar ekan.

3. To'lov balansining taqchilligi yoki to'lov balansi aktiv ifodalari joriy operatsiyalar va kapital harakati bo'yicha balansning ijobjiy yoki salbiy qoldig'i miqdorini ko'rsatar ekan, ya'ni, rasmiy rezervlarning qisqarishi bu taqchillik miqdorini ifodalasa, rasmiy rezervlarning o'sishi esa to'lov balansining aktiv qoldig'i miqdorini ko'rsatar ekan.

### Tayanch iboralar

To'lov balansi, kapital harakati schyoti, rasmiy qoldiq, to'lov balansi debeti, to'lov balansi krediti, chetdan keladigan tushumlar, chetga chiqadigan barcha to'lovlari, valyuta operatsiyalari, import, eksport, joriy operatsiyalar, kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalar, ijobjiy balans, salbiy balans, tashqi savdo balansi qoldig'i, xizmatlar, investitsiya daromadlari, pul utkazmalar, joriy operatsiyalar bo'yicha balans qoldig'i, o'rta muddatli va uzoq muddatli kapital, kapital harakati bo'yicha balansning qoldig'i, rasmiy rezervlar (oltin, SDR, XVF dagi rezervlar), rasmiy rezervlarning qisqarishi, rasmiy rezervlarning o'sishi va boshqalar.

### Nazorat va mulohaza savollari

1. Xalqaro savdo qanday moliyalashtiriladi? Mamlakat to'lov balansi nima va uning tarkibi nimalardan tashkil topadi?
2. Mamlakat to'lov balansi necha qismdan iborat va ularda nimalar qayd etiladi?
3. Joriy operatsiyalar va kapital harakati bilan bog'liq operatsiyalarni qanday tushunasiz?
4. To'lov balansining nomutanosibligini qanday tartiblash mumkin?
5. O'zbekistonda to'lov balansini tuzish tartibi qanday olib boriladi?

## **Adabiyotlar ro‘yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
4. Бурдо М., Виллош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судостроение. 1998.
5. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело». 1996.
7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи. 1994.
8. Костюк В.Н. «Макроэкономика» - М.: 1998.
9. Линвут Т., Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.
10. Менжю Н.Г. «Макроэкономика». Из-во Московского университета. 1994.
11. Эдвин Дж. Допан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994. 144 с.
12. Ҳакимова М.А. “Макроиктисодиёт”. - Т.: “Мехнат”. 1997. 162 с.

## 16-bob. Valyuta kursi

- 16.1. Valyuta kursi tushunchasi va valyuta ayirboshlash zaruriyati
- 16.2. Valyuta bozori.
- 16.3. Valyuta kursini aniqlovchi omillar.
- 16.4. Valyuta kursini aniqlash.

### 16.1. Valyuta kursi tushunchasi va valyuta ayirboshlash zaruriyati

Xalqaro valyuta munosabatlari pulning xalqaro to'lov oborotida amal qilish jarayonida vujudga keladi. U tashqi savdo bilan birga paydo bo'ldi va rivojlanishning uzoq yo'llini bosib o'tdi. Tarix davomida jahon puli shakllari va xalqaro hisob-kitob shakllari o'zgardi. Bir vaqtida valyuta munosabatlari ahamiyati o'sdi va ularning nisbatan mustaqil darajasi oshdi. Tovarlar, xizmatlar, kapitallar va ishchi kuchi harakati mamlakatdan mamlakatga ko'chadigan pul massasalari oqimi yordamida amalga oshadi. Bu harakatni tartibga solish zarurligi xalqaro valyuta tizimi va jahon valyuta tizimlarining shakllanishiga olib keldi. Valyuta - bu mamlakatlar pul birligi (masalan, so'm, dollar, marka, funt-sterling va hokazo.) Juda qisqa ma'noda - bu chet el davlatlarining pul belgilari. Har bir milliy bozor xususiy milliy valyuta tizimiga ega bo'ladi.

Milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarini tashkil qilish shakli bo'lgan jahon valyuta tizimi amal qiladi.

Mamlakatlar o'rtasida tovar va xizmatlar oqimi ko'paygan sari pul vositalarini ayirboshlashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblardagi nomutanosiblik muammolari yuzaga keladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Uning maqsadi - mamlakatlar o'rtasidagi barcha turdag'i bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Shunday qilib, jahon valyuta tizimi bu xalqaro ayirboshlashning barcha shakllariga xizmat qilishiga va ularning samarali rivojlanashini ta'minlashga qaratilgan mamlakatlar o'rtasidagi valyuta

munosabatlarining yig'indisidir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarining tarkibiy qismi sifatida u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Xalqaro bitimlarda foydalaniладigan to'lov va kredit vositalarini (oltin, eng rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari, xalqaro pul birliklari);
2. Valyuta kurslarini o'rnatish va saqlab turish mexanizmi;
3. Valyuta bozorini ishlash tartibini;
4. Xalqaro hisob-kitoblarni amalga oshirish tartib va qoidalari;
5. Valyuta yordamida tartiblash va nazorat qilish tizimini;
6. Valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valyuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimini (Xalqaro valyuta fondi, Umum jahon banki, Yevropa milliy tiklanish va taraqqiyot banki).

Hozirgi zamonda xalqaro hisob-kitoblarda va kreditlashda uch ko'rinishdagi pul vositalari ishlataladi:

- oltin, hozirda o'zining asosiy to'lov va hisob-kitob vositasi xususiyatini yo'qotgan bo'lsada, ammo ko'pchilik valyuta zaxiralarining sezilarli qismini tashkil etadi va muhim tashqi savdo operatsiyalariga xizmat qilish va kreditlashni kafolatlash uchun ishlalitidi;
- jahonda asosiy o'rinn tutuvchi rivojlangan mamlakatlarning milliy valyutalari (AQSh dollari, ingliz funt-sterlenji, nemis markasi, shveysariya franki, yaponiya yenasi va boshqalar);
- xalqaro pul birliklari (YeVRO, SDR, EKYU). Ular milliy valyutalardan farqli ravishda banknotalar ko'rinishidagi moddiy shaklga ega emas va naqd pulsiz hisob-kitoblarda ishlataladi. Uni ishlatish sharti - shu pul vositalarini muomalaga chiqargan tashkilotga a'zo bo'lgan mamlakatlar Markaziy banklatining maxsus hisoblariga yozilgan puli bilan amalga oshiriladi. Bunday pul birliklari jahon valyutalari deb hisoblanadi. Ular barcha mamlakatlar tomonidan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda ishlataladi. Horijda kreditlash va investitsiyalashda, chet elliik ishchi kuchi mehnatiga, shuningdek mamlakat valyuta zaxiralarini yaratishda qo'tlaniladi.

Xalqaro valyuta yoki xalqaro to'lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishga kerak bo'lgan talab ularning konvertirlashuvi hisoblanadi.

Valyuta konvertirlashuvi deganda uni boshqa horijiy valyutalarga almashish qobiliyatiga tushuniladi. Hozirgi paytda ular erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalarga ajratiladi. Erkin konvertirlanadigan valyuta bu amalda kurs bo'yicha har qanday boshqa horijiy valyuta erkin va cheklanmagan miqdorda ayrboshlanadigan valyutadir. Bunga misol qilib AQSh, Yevropo hamjamiyatiga a'zo mamlakatlar, Yaponiyalarning valyutalarini kiritish mumkin.

Qisman konvertirlanadigan valyuta, bu faqat ba'zi bir horijiy valyutalarga almashtiriladigan va xalqaro to'lov oborotini qisman qamrab oladigan milliy valyutadir.

Konvertirlanmaydigan valyuta bu faqatgina ichki to'lovlarga xizmat qiladigan va horijiy valyutaga ayrboshlanmaydigan milliy valyutadir.

Konvertirlashni ichki va tashqi konvertirlashga ham ajratish mumkin. Ichki konvertirlash rezidentlarining (ya'ni, shu mamlakatda yashash joyi bo'lgan shaxslarning) mamlakat ichkarisida horijiy valyutani sotib olish, uni ushlab turish va u bilan ayrim operatsiyalarni olib borishni aks ettiradi.

Tashqi konvertirlashda horijda to'lovlarni amalga oshirishga va moliyaviy aktivlarni ushlab turishga ruxsat etiladi. Valyutalarni konvertirlash ko'pgina mamlakatlar olib borayotgan iqtisodiy siyosatlarinig muhim maqsadi bo'lib hisoblanadi.

## 16.2. Valyuta bozori

Bozordagi talab va taklif ta'siri natijasida vaqt-i-vaqti bilan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun valyuta bozorini amal qilishiga bevosita yoki bilvosita aralashishi zarur. Buning bir qator usullari mavjud:

1. Ehtiyyot(zaxira)lardan foydalanish. Valyuta kursini mustahkamlashning ko'proq qo'llaniladigan usuli - rasmiy rezervlar yordami bilan bozorni manipulyatsiya

qilish hisoblanadi. O'z-o'zidan aniqki, valyuta zaxiralari alohida mamlakatlar ega bo'lgan chet mamlakatlar valyutalarining oddiy zaxirasi hisoblanadi.

"Jahon puli" sifatida yoki boshqacha aytganda, zaxiralar sifatida, odatda oltindan foydalaniladi. Masalan, AQSh hukumati Buyuk Britaniyaga o'zi ega bo'lgan oltinning bir qismini sotib, uning funtlarini olishi mumkin. Shu yo'l bilan sotib olingan funtlar amerika savdosiga va moliyaviy operatsiyaulari tufayli jamg'arilgan zaxiralarini o'stirish uchun foydalanish mumkin. Bu yerda zaxiralar miqdori funt taklifini zarur miqdorda ko'paytirishga erishishi uchun yetarli bo'lishi juda muhimdir.

2. Savdo siyosati. Valyuta bozoriga ta'sir ko'rsatishning boshqa tadbirlariga savdo va moliyaviy okimlar ustidan to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilishni kiritish mumkin. Masalan, AQSh funt sterlengning yetishmasligi sharoitida valyuta kursini tegishli darajada (2dollar=1 f.st.) importni ushlab turish (shu orqali funt taklifini oshirish) hisobiga ushlab turishga borishi mumkin. Xususan import boj yoki import kvotalarini kiritish bilan qisqarishi mumkin. Xuddi shunday amerikaliklar chet el kapital qo'yilmalaridan oladigan foiz va dividendlardan maxsus soliqlar undirishi mumkin. Boshqa tomondan Amerika hukumati subsidiya berib, shu orqali funt sterleng taklifini ko'paytirishi mumkin. Bu tadbirdan foydalanishda vujudga keladigan asosiy muammo shundan iboratki, u jahon savdosiga hajmini qisqartiradi, uning tarkibini va savdo aloqalarini o'zgartirib yuboradi, iqtisodiy maqsadga muvosiflikning buzilishiga o'zining hissasini qo'shayapti. Buning oqibatlarini hisobga olmaslik mumkin emas.

3. Valyutali nazorat. Boshqa muqobil variant valyutali nazorat hisoblanadi. Valyutali nazorat sharoitida hukumat milliy eksportyorlar olgan barcha tegishli chet el valyutalarini davlatga sotish talabi bilan ularning yetishmasligi muammosini hal qilishi mumkin. Keyin hukumat o'z navbatida chet el valyutasining bu katta bo'limagan zaxirasini turli milliy importyorlar o'rtaida taqsimlaydi. Shu yo'l bilan hukumat milliy importni, milliy eksport hisobidan olingan chet el valyutasi miqdoriga cheklaydi. Valyutali nazorat tizimi bir qator kamchiliklarga ega. Birinchidan, savdo cheklashlari (boj, kvota, eksportli

subsidiya) kabi valyutali nazorat qiyosiy ustunlik tamoiliga asoslangan xalqaro savdoning tarkib topgan aloqalarini buzadi. Ikkinchidan, yetarli bo'lmagan valyuta resurslarini valyutali nazorat jarayoni so'zsiz alohida importyoriarni kansitish bilan bog'liq. Uchinchidan, nazorat tadbirlari iste'molchining tanlash erkinligiga tajovuz qilish hisoblanadi.

4. Ichki makroiqtisodiy tartibga solish. Valyuta kursi barqarorligini ushlab turishning oxirgi vositasi ichki soliq yoki pul siyosatidan shunday foydalanish hisoblanadiki, bunda tegishli chet el valyutasining yetishmasligi bartaraf qilinadi. Masalan, cheklovchi soliq va pul tadbirlari AQSh milliy daromadini Buyuk Britaniya milliy daromadiga nisbatan pasaytiradi. Chunki import miqyosi milliy daromad darajasiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib bu Britaniya buyumlariga va demak funt sterlenga talabning cheklanishiga olib keladi.

Qayd qilingan valyuta kursi tizimi tarafдорлари tasdiqlaydiki, undan foydalanish xalqaro savdo va moliya bilan bog'liq bo'lgan tahlika va noaniqligini kamaytiradi. Qayd qilingan valyuta kurslarini qo'llash o'zaro foydali savdo va moliyaviy operatsiyalar hajmini kengaytirishga olib keladi. Ammo qayd qilingan valyuta kurslari tizimining hayotga layoqatligi ikkita o'zaro aloqalar sharoitiga bog'liq:

- 1) zaxiralarning mavjudligi;
- 2) o'z hajmi bo'yicha sezilarsiz kamyoblik yoki to'lov balansi aktivlarining tasodifiy vujudga kelishi. Katta va doimiy kamyobliklar mamlakat zaxiralarini yo'qqa chiqarishi mumkin. Xulosa qilib aytganda valyuta kurslarining talab va taklif ta'siri ostida shakllanish darjasini, o'z-o'zicha kursli nisbatlarga ta'sir etuvchi real jarayonlarni aniqlab bera olmaydi. Chet valyutalariga talab va taklifga, demak valyuta kurslariga mamlakatdagi ham ichki va ham tashqi iqtisodiy munosabatlar majmui bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kurslari dinamikasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ichidan quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- milliy daromad va ishlab chiqarish xarajatlari darjasini;
- pulning real xarid qilish layoqati va mamlakatdagi inflyatsiya darjasini;

- valyutalarga talab va taklifga ta'sir ko'rsatuvchi tojjoy balansi holati;
- mamlakatdagi foiz stavkasi darajasi;
- valyutaga jahon bozoridagi ishonch va h.k.

Nazariy jihatdan valyuta kurslarining tebranishini tushuntirish, xarid qilish layoqatinig paritet nazariyasi yordamida beriladi (G.Kassel tomonidan isbotlab berilgan). Bu nazariyaga ko'ra kursli nisbatlarni aniqlab berish uchun ikki mamlakat iste'molchilik tovarlari shartli "xaltasi" baholarni taqqlash talab qilinadi. Masalan, agar O'zbekistonda bunday xalta, aytaylik 500 so'm, AQSh da esa 10 dollar tursa, 500 so'mni 10 ga bo'lib 1 dollarning bahosini hosil qilamiz, bu 50 so'mga teng ekan. Agarda O'zbekistonda muomaladagi pul massasining ko'payishi natijasida, tovarlar bahosi ikki marta oshsa, AQSh hammasi o'zgarishsiz qoladi va hamma sharoitlar teng bo'lganda dollarning so'mga nisbatan ayirboshlash kursi ikki martaga oshadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosan giperinfiyatsiya ro'y berganda xarid layoqatinig paritet nazariyasi kursni nisbatlarini oldindan aytish imkonini beradi. Valyuta kurslarining o'zgarishi eksport mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar imkoniyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, agarda AQSh bir dollari 2,5 nemis markasiga ayirboshlansa (1975-yilgi rasmijy kurs) Germaniya uchun maishiy elektronika ishlab chiqaruvchi amerika eksportyorlarining tushumi, 100 marka 40 dollarga tenglashadi. Valyuta kurslarining 1:1, 682 nisbatga o'zgarishi (1991-yilgi kurs) sotishning o'zgarmas hajmida tushunning 59 dollarga ko'payishiga olib keldi. Valyuta kurslari milliy iqtisodiyotga, ishlab chiqarish va undagi bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Milliy valyutalar kursining pasayishi mamlakatlar eksport imkoniyatini oshiradi. Ammo mamlakat eksporti xomashyo tovarlari importiga asoslansa, bunda valyutalar kursining pasayishi eksport qilinadigan tovarlar bahosining o'sishiga olib keladi va bu ularning raqobatga layoqatliligidagi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Valyuta kurslarining oshishi mamlakatlar eksport imkoniyatlarini yomonlashtiradi. Valyuta kurslarining beqarorligi tashqi iqtisodiy alcqalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Uning tebranishi xalqaro bitimlarda noaniqlik va tahlika darajasini ko'paytiradi. Shu sababli valyuta kursi ham mamlakat ichida va xalqaro munosabatlarda tartibga

*solistning muhim obyekti hisoblanadi. Davlat bevosita tartibga solish vositasi sifatida valyutali intervensiya va diskont siyosatidan foydalanishi mumkin.*

Diskont- banklar tomonidan olinadigan foiz. Bank foiz hisob stavkasini oshirib yoki tushirib chet el kapitallari kirishi yoki chiqib ketishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tartibga solishning ko'proq universal usuli valyutali intervensiya hisoblanadi. Bunda markaziy banklar taklifi yetarli bo'limgan, kurs esa yuqori bo'lgan chet el valyutalarini sotadi, taklif ortiqcha va kurs past bo'lganda sotib oladi. Bu bilan talab va taklifni tenglashtirib, milliy valyuta kursi tebranish chegarasini cheklaydi. Valyutali intervensiyaning qo'llash zaxira valyuta fondining miqdori bilan cheklanadi, shu sababli valyutalarni sotish albatta uni sotib olish bilan almashtirib turilishi lozim. Bundan tashqari inflyatsiyaning yuqoti sur'atida valyutalar kursi valyuta xarid qilish kuchlari nisbatining o'zgarishi tufayli pasayadi. Bu holda valyutali intervensiya mazkur mamlakat valyutali devolvatsiyasi (kursning rasmiy o'sishi) bilan birga borishi zarur.

### **16.3. Valyuta kursini aniqlovechi omillar**

Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishini ko'rsatadi. Valyuta kurslarining ikkita bir-biriga qarama-qarshi variantlari mavjud bo'лади:

- 1) milliy valyutalarning bir-biriga ayriboshlash kursi, talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi;
- 2) qattiq qayd qilingan valyuta kurslari tizimi. Bunda valyuta kurslari talab va taklif tebranish natijasida o'zgarishga chet el valyutalari bozorining amai qilishga davlatning aralashuvi yoki boshqa mexanizmlar qarshilik ko'rsatadi.

Erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari talab va taklif ta'siri ostida aniqlanadi. Amerika dollari Britaniya funt sterlengiga ayriboshlanishi mumkin bo'lgan kurs yoki bahoni qarab chiqamiz. Funtga amerikaliklarning tushib boruvchi talabi shuni bildiradiki, ular uchun funt va demak britaniya tovarlarining barcha turlari arzon bo'лади. Amerikaliklar uchun funtning taklifi o'ssa, dollardagi funtning ancha yuqori bahosida britaniyaliklar ko'proq miqdordagi amerika tovarlarini sotib

olishni xohlaydi. Amerika tovarlatini sotib olish uchun biritaniyaliklar funtni valyuta bozoriga tashlaydi, chunki ular avvalo funtni dollarga ayirboshlashi zarur bo'ladi. Erkin bozor kuchlari ta'sirida o'rnatiladigan valyuta kurslari o'zgarib turadi. Funtning dollardagi bahosi oshganda dollarning qiymati pasayadi yoki dollar funtga nisbatan qadrsizlanadi. Aksincha funtning dollardagi bahosi pasayganda dollarning qiymati oshadi yoki dollar funtga nisbatan qimmatlashadi. Valyuta kurslarining o'zgarishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Ularni qisqacha qarab chiqamiz.

1. Iste'molchi dididagi o'zgarishlar. Iste'molchilarning boshqa mamlakat buyumlariga dididagi o'zgarishlar, bu mamlakat valyutasiga talab yoki taklifni hamda uning valyuta kursini o'zgartiradi.
2. Daromadlardagi nisbiy o'zgarishlar. Agar bir mamlakatda milliy daromadning o'sishi, boshqa mamlakatdagi bu ko'rsatkichning o'sishidan ustun bo'lsa, bunda uning valyuta kursi pasayadi. Mamlakatning importi uning daromadi darajasiga to'g'ri bog'liqlikda joylashadi.
3. Bahodagi nisbiy o'zgarishlar. Agar bir mamlakat, masalan, AQSh ichki baho darajasi tez o'ssa, boshqa mamlakat, masalan Buyuk Britaniyada bu daraja o'zgarishsiz qolsa, bunda amerikalik iste'molchi nisbatan arzon britaniya tovarini izlaydi va shu bilan funtga talabni oshiradi. Aksincha, britaniyaliklar amerika tovarlarini sotib olishga kam moyil bo'ladi va bu funt taklifini pasaytiradi. Funtga talab o'sishi va taklif pasayishining bu uygunlashuvi dollarning qadrsizlanishini keltirib chiqaradi.
4. Nisbiy real foiz stavkalari. Faraz qilamiz, AQSh inflyatsiyani quvib o'tish maqsadida "qimmat pul" siyosatini amalga oshira boshlaydi. Natijada, real foiz stavkalari (inflyatsiya sur'atini hisobga olib korrektirovka qilingan foiz stavkalari) AQSh da boshqa mamlakatlar, masalan Buyuk Britaniyaga qaraganda ko'tariladi. Britaniyalik jismoniy shaxs va firmalar ishonch hosil qiladiki, AQSh moliyaviy vositalarni qo'yish uchun juda jozibador va qulay joyga aylanadi. Amerika moliyaviy aktivlariga talabning bu ko'payishi Angliya funti taklifning kengayganligi va shu sababli dollar qiymati o'sganligini bildiradi.

5. Olib-sotarlik. Faraz qilamiz, AQSh iqtisodiyotida quyidagilar kutiladi
- a) britaniyanikiga qaraganda tez o'sa boshlaydi ;
  - b) britaniyanikiga qaraganda ancha kuchli inflyatsiyaga duch keladi;
  - v) britaniyaga qaraganda ancha past real foiz stavkalariga ega bo'ladi.

Bu prognozlar kelajakda dollar kursi pasayishi, funt kursi esa, aksincha, ko'tarilishidan darak beradi. Demak, dollarni ushlab turuvchilar ularni funtga aylantirishga harakat qiladi va shu bilan funtga bo'lgan talabni oshiradi. Bu almashish, dollar kursining pasayishini va funt kursining oshishini keltirib chiqaradi.

#### 16.4. Valyuta kursini aniqlash

Barcha xalqaro bitimlar valyutalarni ayriboshlash bilan olib boriladi. va har qanday ayriboshlashda bo'lgani kabi valyuta bahosining yoki valyuta kursini aniqlash zaruriyati paydo bo'ladi. Shunday qilib, valyuta kursi-bu bir mamlakat pul birligining boshqa mamlakatlar pul birligida ifodalangan bahosidir. Valyuta kursini o'rGANISH kotirovkalash deb ataladi. U to'g'ri va teskari kotirovkalashga ajratiladi. Agar horijiy valyuta birligining bahosi milliy valyutada ko'rsatilsa, bunga to'g'ri kotirovkalash deb ataladi. Masalan 1 AQSh dollari 23 so'mga, 1000 Rossiya rubli 7,2 so'mga teng va hokazo. Teskari kotirovkalashda milliy valyutaning bir - birligiga to'g'ri keladigan horijiy valyutaning miqdori o'rnatiladi. Masalan, 1 o'zbek so'mi 0,004348 AQSh dollariga to'g'ri keladi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida shu jumladan O'zbekistonda ham to'g'ri kotirovkalash qabul qilingan. Valyuta bozoridagi talab va taklifni solishtirish natijasida valyutaning bahosi yoki kursi aniqlanadi. O'zbek so'mining kursi O'zbekiston valyuta birjasida o'rnatiladi, uning ishtirokchilari bo'lib valyuta operatsiyalarini olib borish huquqiga ega bo'lgan banklar hisoblanadi. Shu bilan birga, turli pul birliklari uchun valyuta kurslarini o'rnatish jarayonida bozor kuchlarini ta'sir etish darajasi bir xil emas. Bu ta'sir kuchiga bog'liq hamda kurslari erkin suzib yuruvchi, cheklangan suzib yuruvchi va qayd etilgan valyuta kurslariga ajratiladi. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi shu valyutaga bo'lgan bozor talabi va taklifi ostida erkin

o'zgarib turishi mumkin. Masalan, AQSh dollari, yapon yeni, ingiliz funti sterlengi kurslari. Shu bois, bu valyutalar jahon valyuta ayirboshlashida ko'proq ishlatiladi. Cheklangan suzib yuruvchi valyuta kursi uning o'zgarishi ayrim horijiy valyutalar yoki valyutalar to'plami kurslari o'zgarishiga bog'liq bo'lishini ko'zda tutadi. Qayd etilgan valyuta kursi, bu horijiy valyutada ifodalangan davlat tomonidan rasmiy o'rnatilgan milliy pul birligining bahosi bo'lib, unga valyuta bozorida talab va taklifning o'zgarishi ta'sir qilmaydi. Valyuta kursining eksport va importga ta'siri. Valyuta kursining tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarning mamlakatlararo harakatini o'ziga xos boshqarib turuvchisi hisoblanib uni o'zgarib turishi mamlakatning tashqi iqtisodiy oborotiga hamda butun makroiqtisodiy vaziyatga kuchli ta'sir qiladi. Bu ta'sirni shunday vaziyat misolida ko'rib chiqish mumkin. Masalan, o'zbek so'mining kursi 1000 Rossiya rubliga nisbatan 7,2 so'mdan 10 so'mgacha pasaygan bo'lsin, ya'ni so'm Rossiya rubliga nisbatan arzonlashgan va aksincha, rubl so'mga nisbatan qimmatlashgan bo'lsin. Bunday hofatda mamlakatimizda ishlab chiqarilgan 720 so'mlik qiymatga ega bo'lgan tovar Rossiya bozorida arzonlashib boradi va endi bu tovar 100 ming Rossiya rubliga ( $720 \div 7,2 \times 1000$ ) emas, balki 72 ming rubl turadi ( $720 \div 10 \times 1000$ ). Natijada tovarning raqobatga chidamliligi orta boradi va unga bo'lgan talab oshadi, eksport rag'batlantiriladi. Biroq milliy valyutani Rossiyaga chiqarish O'zbekiston uchun foydali bo'lmay qoladi. Rossiyada ishlab chiqarilgan 2000 rublik mahsulot endi o'zbek so'mi kursining pasayishini va Rossiya rubli kursining qimmatlashuvi natijasida o'zbek bozorida 14,4 so'm ( $2000 \times 7,2 \div 1000$ ) emas, balki 20 so'm ( $2000 \times 10 \div 1000$ ) turadi. Ko'rinish turibdiki, mahsulot narxi qimmatlashadi va shu sababli uni olib kelish qisqarib boradi, va aksincha, o'zbek so'mining kursi oshib borishi bilan Rossiyadan tovar olib kelish va kapitalni chetga chiqarish foydali bo'ladi.

### Qisqacha xulosalar

1. Mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlar kuchaygan sari pul vositalari ayirboshilashi ham tobora oshib boradi, o'zaro hisob-kitoblarda nomutanosiblik

muammotari paydo bo‘ladi. Bularning barchasi jahon valyuta tizimining barpo etilishiga obyektiv shart-sharoitlar yaratadi. Buning asosiy maqsadi esa mamlakatlar o‘rtasidagi barcha turdag‘i bitimlarni amalga oshirishni tartibga solishdan va shuningdek bu ishlarni tezlashtirishdan iborat. Umuman olganda milliy valyuta tizimi bazasida jahon bozori rivojlanishi tarkib topadigan va davlatlararo kelishuvlar bilan mustahkamlangan xalqaro valyuta munosabatlarni tashkil qilish sharti bo‘lgan jahon valyuta tizimi tashkil topar ekan.

2. Xalqaro valyuta yoki xalqaro to‘lov-hisob va kreditlash vositalariga javob berishi kerak bo‘lgan talab ularning konvertirlashuvi deb hisoblanadi. Valyuta konvertirlashuvi deganda, uni boshqa horijiy valyutalarga almashish qobiliyati tushuniladi. Hozirgi kunda erkin konvertirlanadigan, qisman konvertirlanadigan va konvertirlanmaydigan valyutalar mavjud ekan.

3. Davlat valyuta kurslarini barqarorlashtirish uchun ehtiyoj (zaxira) lardan foydalanish, savdo siyosati, valyutali nazorat va ichki makroiqtisodiy tartibga solish usullaridan keng foydalaniladi.

4. Valyuta kurslarining tebranib turishlarini “xarid qilish layoqatining paretet” nazariyasi yordamida tushuntirib beriladi. Bu nazariyaga ko‘ra kursli nisbatlarni aniqlab berish uchun ikki mamlakat iste’mol tovarlari shartli “xaltasi” baholarni taqqoslashni talab qilar ekan.

5. Valyuta kursi bir mamlakat valyuta bahosining boshqa mamlakat valyutasida ifodalanishini bildiradi. Valyuta kurslarining ikkita bir-biriga qaramaqarshi variantlari mavjud, ya’ni milliy valyutaiarning bir-biriga ayrboshlash kursi, talab va taklif bilan aniqlanadigan egiluvchan yoki suzib yuruvchi valyuta kurslari tizimi va qayd qilingan valyuta kurslari tizimlaridan iborat.

### Tayanch iboralar

Valyuta kursi, xalqaro valyuta munosabatlari, xalqaro to‘lov oboroti, tashqi savdo, xalqaro hisob-kitob, valyuta, milliy valyuta, xalqaro valyuta, jahon puli, jahon valyuta tizimi, valyuta kurslarini o‘rnatish va saqlab turish mexanizmi, valyuta bozori, valyuta yordamida tartiblash, xalqaro pul birliklari, valyuta

munosabatlari, oltin, valyuta konvertirlashuvi, erkin konvertirlashuv, qisman konvertirlashuv, konvertirilanmaydigan valyuta, rasmiy rezervlar yordami bilan bozorni manipulyatsiya qilish, valyuta zaxiralari, savdo siyosati, valyuta nazorati, boj, kvota, eksportli subsidiya, valyutaga jahon bozoridagi ishonch, valyutada intervensiya, diskont siyosati, erkin suzib yuruvchi valyuta kurslari, iste'molchi didiga o'zgarishlar, daromadlardagi nisbiy o'zgarish, bahodagi nisbiy o'zgarish, nisbiy real foiz stavkalari, olib sotarlik, kotirovkalash, teskari kotirovkalash va boshqalar.

### **Nazorat va mulohaza savollari**

1. Valyuta kursi nima va qanday qilib har xil milliy valyutalar bir-biriga almashinadi ? Turli xil valyuta kurslari tizimini tahlil qiling va izohlab bering.
2. Valyuta munosabatlarini tartibga solib turuvchi va jahon valyuta tizimining barqaror faoliyatini ta'minlovchi xalqaro tashkilotlar tizimini bilasizmi?
3. Valyuta bozori tushunchasini izohlang. Milliy valyutalar qanday tartib bilan kotirovkalanadi?
4. Erkin suzib yuruvchi va qayd qilingan valyutalarni izohlang. Paretit nazariyasini tushuntiring. Valyuta kurslarining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni sanab o'ting. Valyuta kursi qanday aniqlanadi?

Ботбеков А. Узбекистон

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т., "Ўзбекистон". 1996, 351 бет.
2. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
3. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
4. Бурдо М., Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судоиз строение. 1998.
5. Галлирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.

- 6. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело», 1996.
- 7. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи, 1994.
- 8. Костюк В.Н. «Макроэкономика»- М.: 1998.
- 9. Линвут Т. Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.

## **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, сиёсат, мағкура. 1 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 364 бет.
2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 382 бет.
3. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. 3 том. -Т.: “Ўзбекистон”. 1996, 367 бет.
4. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. 4 том. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996, 351 бет.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хафсизликка таҳдид, баркарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари. -Т.: “Ўзбекистон”, 1997, 326 бет.
6. Агапова Г.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика С., Дис нашриёти, 1997.
7. Борр Р. Политическая экономика в 2-х томах. 1- том. Перевод с Французского. –М.: Международные отношения. 1995.
8. Бункина М.К., Семянов В.А. «Макроэкономика» –М.: 1995.
9. Бурдо М., Виплош Ч. «Макроэкономика» (Европейский текст). С.Петербург. Судостроение. 1998.
10. Галпирин В.М., Игратов С.М., Моргунов В.И. «Макроэкономика» Том-1. С.Петербург.: 1994.
11. Жеффри Д., Сакс Д и др. «Макроэкономика. Глобальный подход». -М.: «Дело». 1996.
12. Йўлдошев З., Қосимов М.С. “Макроиктисодиёт асослари” –Т.: Ўқитувчи. 1994.
13. Костюк В.Н. «Макроэкономика» - М.: 1998.
14. Линвут Т., Гайгер. «Макроэкономика теория и переходная экономика» -М.: 1996.

15. Макконелл, Кембелл Р., Брюстенли Л. «Экономика. Принципы проблемы и политика». В 2-х томах, перевод с английского второе издание. -М.: Республика. 1992.
16. Максимова В.Ф., Ишшов А.А. и др. «Рыночная экономика» учебник в трёх томах, 2-том. -М.: Соминтек. 1992.
17. Менкю Н.Г. «Макроэкономика». Из-во Московского университета. 1994.
18. Самуэльсон Н. «Экономика вводный курс» -М.: Прогресс. 1996.
19. Хейнс П. «Экономический обзор мышления». Перевод с анг. -М.: Изд. Новости при участии. 1991.
20. Эдвин Дж., Долан. «Макроэкономика». С.Петербург.: 1994.
21. Ричард Леядрд. «Макроэкономика» Курс лекций для российских читателей. -М.: 1994.
22. Хакимова М.А. "Макроиктисодиёт". - Т.: "Мехнат". 1997.

**Almashtirish samarasi** – ish haqini ortishi natijasida bo'sh vaqtning qisqarishi.

**Alternativ harajatlar (opportunity cost)** – tanlashda voz kechilgan eng yaxshi alternativ variantdan olinadigan natija (qiymat, foyda, naflik). Alternativ qiymatni foydalanilmagan imkoniyat deb ham qarashadi: biror ne'mat qiymatini voz kechilgan boshqa bir nechta ne'mat qiymati bilan ifodalanishi.

**Amortizatsiya (depreciation)** – bosqichma-bosqich asosiy kapital qiymatining ma'lum bir qismini ishlab chiqariladigan mahsulot qiymatiga o'tkazish yo'li bilan uni qoplash.

**Asimmetrik axborot** – bu shunday holatki, bunda bozorda bo'ladigan savdosotiqa bozor qatnashchilaridan bir qismi kerakli, muhim axborotga ega qolgan qism ega emas.

**Auksiyon** – tovarni oldi-sotdisini tashkil qilish usullaridan biri bo'lib unda transaksiya harajatlari real vaqt rejimida o'tadi.

**Bertran muvozanati (Bertrand equilibrium)** – bozor duopolik bo'lganda firmalar tovar narxini tushirish va mahsulot ishlab chiqarish xajmini oshirish orqali bir biri bilan raqobatlashadi. Tovar narxi chekli harajatga teng bo'lganda muvozanat holat barqarorlashadi.

**Befarqlik chizig'i (indifference curve)** – shaxs uchun bir xil naf beradigan bo'sh vaqt, ish vaqt va ish haqi (daromad) kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziq (bu yerda bo'sh vaqt va ish vaqt 0 dan 24 soatgacha qiymat qabul qiladi va har bir ish vaqt ma'lum daromadni, ish haqini ifodalaydi).

**Bozor muvozanati** – bozorda taklif miqdorini talab miqdoriga teng bo'lgan hol; taklif chizig'i bilan talab chizig'i kesishgan nuqtaga muvozanat nuqta deyiladi.

**Byudjet** – iste'molchining ma'lum vaqt oralig'ida oladigan barcha daromadlari yig'indisi.

**Byudjet chegarasi (budget constraint)** – «cumumiy vaqt - daromad» koordinatalariga ega bo'lgan to'g'ri chiziq bo'lib, uning yotiqlik burchagi ish haqini ifodalaydi. (daromad 0 bo'lganda vaqt 24 soatga teng, ya'ni (24,0).

**Byudjet chizig'i** – byudjetni to'liq sarflash sharti bilan iste'molchi sotib oladigan tovarlar kombinatsiyalarini ifodalovchi chiziq.

**Vaqt bo'yicha ustun ko'rish** – joriy iste'molga sarflash bilan kelajakda iste'mol qilish uchun sarflashdan qaysi birini befarqlik chizig'i asosida tanlash.

**Vaqt bo'yicha ustun ko'rishni chekdash normasi** – umumiy turmush darajasi o'zgarmaganda joriy iste'moldan bir birlik kechishni to'liq qoplapydigan kelajakdagi qo'shimcha iste'mol qiymati.

**Vaqtlararo byudjet chegarasi** – shaxsning daromadi va ssuda foizi stavkasi bilan aniqlanadigan vaqtlaro ustun ko'rish kartasidagi chiziqning holati.

**Vaqtlararo muvozanatlik** – joriy va kelajakda iste'mol qilish o'rtasida tanlayotgan shaxs uchun maksimal naflik keltiruvchi holat

**Gollandcha auksiyon** – bu auksionda stavka yuqorida pastga tovar sotilgunga qadar pasayib boradi.

**Daromad (revenue, yalpi daromad, TR)** – sotilgan tovar miqdorini narxga ko‘paytirilganiga teng, mahsulotlarni sotishdan tushgan tushum.

**Daromad samarasi** – ishchining ish haqining o‘sishi natijasida ish vaqtining qisqarishi hisobidan dam olish vaqtining ortishi.

**Daromad samarasi (income effect)** – iste’mol majmuasiga kiruvchi ne’matlardan birining narxi o‘zgarishi natijasida bosil bo‘lgan real daromad hisobidan iste’mol tarkibini o‘zgarishi.

**Depozit foizi** – mablag‘ qo‘yuvchining pulidan foydalangani uchun unga bank tomonidan to‘lanadigan to‘lov, ya’ni narx.

**Diversifikatsiya** – tavakkalchilikni pasaytirish usuli bo‘lib bunda tavakkalchilik (yo‘qotishlar) bir qator tovarlarga shunday taqsimlanadi, tovarlardan bittasini sotib olishdan tavakkalchilikning ortishi boshqa tovari sotib olishdagi tavakkalchilikning pasayishini bildiradi. Masalan, 2 ta mahsulotga bo‘lgan talabni bir vaqtda kamayib ketish ehtimolidan ulardan bittasiga talabni kamayib ketish ehtimoli yuqori.

**Diskontirlash** - qiymatlarni (daromadni, harajatni, kapitalni) boshlang‘ich yilga yoki oxirgi yilga keltirish.

**Dispersiya kutiladigan natijadan haqiqiy natijaning o‘rtacha kvadratik chetlanishi:**

**Differensial renta** – boshqa resurslarga nisbatan yuqori unumdarlikka ega bo‘lgan resurs egasi tomonidan olinadigan renta.

**Yopiq auksion** - bunda tovra uchun auksion qatnashchilarini bir-biriga bog‘liq bo‘limgan holda stavkalarini qo‘yadi va tovar kim ko‘p stavka qo‘yan bo‘lsa shunga beriladi.

**Yer narxi** – cheklangan vaqt davomida yerdan olingan barcha daromadlar yig‘indisining keltirilgan (boshlang‘ich yilga) qiymati.

**Ijara haqi (to‘lovi)** – yerdan foydalanuvchi tomonidan bir yilda yer egasiga to‘lanadigan pul miqdori.

**Izokvanta** – bir xil xajmda mahsulot ishlab chiqarishni ta’minlovchi omillar sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi egri chiziq.

**Izokosta** – yig‘indisi bir xil yalpi harajatga teng bo‘lgan resurslar sarflari kombinatsiyalarini ifodalovchi chiziq.

**Iqtisodiy ne’mat (economic good)** – ehtiyojni qondirish vositasi.

**Iqtisodiy renta** – resursni sotilishi mumkin bo‘lgan narx bilan muvozanat narx ayirmasiga teng. Noyob, cheklangan resur va ishchining yuqori malakasi uchun to‘lanadigan qo‘simecha to‘lov.

**Iqtisodiy resurslar (economic resources)** – ishlab chiqarishda foydalilanadigan omillar yoki ishlab chiqarish omillari.

**Iqtisodiy o’sish (economic growth)** - ishlab chiqarishda foydalilanadigan resurslar miqdorini oshirish yoki texnologiyani takomillashtirish orqali jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish.

**Investitsion loyihani oqlash muddati** – joriy foydalar yig‘indisini investitsiya qiymatiga teng bo‘lishini ta’minlovchi minimal vaqt oralig‘i.

**Investitsiyalash** – asosiy kapitalni to‘ldirish va o’sirish uchun vapital qo‘yish jarayoni.

**Investitsiyani ichki oqlash normasi (IRR – internal rate of return)** – investitsion loyiha samaradorligi ko'rsatkichi. Investitsiyani (minus bilan olingan) qiymati bilan kelajakda olinadigan soʻf foydaning diskontirlangan qiymati yig'indisini nolga aylantiruvchi ichki qaytim normasi:

$$NPV = -I + \frac{R_1 - C_1}{1+IRR} + \frac{R_2 - C_2}{(1+IRR)^2} + \dots + \frac{R_T - C_T}{(1+IRR)^T} = 0$$

**Inglizcha auksjon** – bunda stavka pastdan yuqoriga tovar sotilgunga qadar oshib boradi, tovar taklif qilingan maksimal narxda sotiladi.

**Inson kapitali nazariyasi (human capital theory)** – inson kapitaliga investitsiya qo'yish natijasida ish haqining har xil darajada bo'lishi sabablarini tushuntirib beruvchi nazariya.

**Inson kapitaliga investitsiya (human capital investment)** – insonning qobiliyatini, malakasini, ishchining mehnat unumdortligini oshirishga olib keladigan har qanday harakat (shu bilan birga bitim olishiga, sog'lig'ini tiklashga sarflar).

**Institutlar** – iqtisodiy sub'ektlar harakatini cheklovchi, ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me'yortar, qoidalari hamda ushbu me'yor va qoidalarni bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari.

**Iste'molchi ortiqchaligi (yutug'i)** – iste'molchi tovarlar uchun to'lashi mumkin bo'lgan narxlar bilan tovarlarga bozorda haqiqiy to'langan narxlar ayirmalarining yig'indisi.

**Ish haqi (wage rate)** – foydalilanigan mehnat uchun berilgan pul miqdori yoki narx.

**Ishlab chiqarish (product)** - ishlab chiqarish omillaridan foydalangan holda mahsulot yaratish jarayonini yoki ishlab chiqarish omillarini tayyor mahsulotga aylantirish jarayoni.

**Ishlab chiqarish imkoniyatlari chizig'i** – mavjud bo'lgan ishlab chiqarish resurslaridan to'liq va samarali foydalananish orqali ishlab chiqariladigan tovarlar kombinatsiyasini ifodalovchi chiziq.

**Ishlab chiqarish omillari cheklangan bo'lib, ularga mehnat (labour), kapital (capital), materiallar (xom ashyo, butlovchi qismlar, elektr energiyasi, gaz, suv va hokazo), yer (land).**

**Ishlab chiqarish funksiyasi** – ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan shu mahsulotni ishlab chiqarishdagi sarflangan ishlab chiqarish omillari miqdori o'rtaсидаги bog'liqliкни ifodalovchi funksiya.

**Ishlab chiqarish shartnomalari chizig'i** – resurslarni Pareto samarali joylashtirish chizig'i bo'lib, bunda quyidagi shart bajariladi:

**Ishlab chiqaruvchi muvozanati yoki maksimal mahsulot ishlab chiqarish uchun optimal sarflanadigan mehnat va kapital miqdorini aniqlash sharti** - ishlab chiqarishning shuday holatiki bunda har qanday omil uchun sarflangan bir birlik pul miqdori bir xil miqdordagi mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

**Ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi (yutug'i)** – tovarlarning haqiqiy narxlaridan chekli (bir birlik qo'shimcha tovar ishlab chiqarishga ketgan) harajatlarni ayirmalari yig'indisiga teng.

**Ishchining nafliligini maksimallashtirish sharti (utility maximization rule)**

– bo'sh vaqt ni daromad bilan chekli almashtirish normasini ish haqiga tengligi  $MRS_{HR} = W$ .

**Kapital** – uzoq muddatli oraliqda mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalilaniladigan resurs.

**Kapitalni mehnat bilan chekli texnologik almashtirish normasi** - ikkala ishlab chiqariladigan A va V tovarlar uchun bir xil bo'lib, ular mehnat narxini kapital narxi nisbatiga teng.

**Kasaba uyushmasi** - bu ishchilar uyushmasi bo'lib, u o'zining a'zolari nomidan va ko'rsatmasiga ko'ra tadbirkorlar bilan muzokara olib borish huquqiga ega tashkilot.

**Kvazioptimum** – Pareto-samarali xajmida tovar ishlab chiqarish mumkin bo'lganda ishlab chiqarish mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshisini tanlash (optimalga yaqin).

**Koldora-Xiks mezoni** – turmush farovonligi mezoni bo'lib, unga ko'ra yutganlar o'z yutug'ini boy bergenlarning yo'qotishidan yuqori deb baholasa.

**Kooperativ o'yin (cooperative game)** – o'yinda bir neta o'yinchilar o'zaro kelishib, birgalikda o'ynaydi (iqtisodiyotda kooperativ o'yinga misol sifatida karterni qarash mumkin).

**Kurno muvozanati** – duopolik bozorda har bir firma mustaqil ravishda shunday optimal ishlab chiqarish xajmini tanlaydiki ushbu mahsulot xajmi ikkinchi firmani qanoatlantiradi. Kurno muvozanati firmalarning aks ta'sir qiluvchi funksiyalari grafiklarining kesishish nuqtasida vujudga keladi.

$$E(x) = \sum_{i=1}^n P_i X_i$$

**Kutiladigan qiymat (matematik kutilish)** -

**Lorens chizig'i** – biror bir ko'rsatkichni taqsimlanish darajasini ifodalovchi egrı chiziq. Bu amerikalik olim Maks Otto Lorens (1876-1944) tomonidan aholi daromadlatining taqsimlanishini baholash uchun ishlab chiqilgan. Aholidan daromad solig'i olinib, ularga transfert berilgandan keyin Lorens chizig'inining botiqligi kamayadi.

**Masshtab samarası** – bu ishlab chiqarish masshtabining kengayishi surati bilan mahsulot ishlab chiqarishni o'sish surati o'rta sidagi bog'liqlikni ifodalaydi. Ishlab chiqarishda foydalilaniladigan omillar miqdoriga ishlab chiqarish masshtabi deyiladi.

**Ma'naviy tavakkalchilik** – yo'qotishlar sug'urta kompaniyasi tomonidan to'liq qoplanishiga ishonch hosil qilgan holda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar ehtimolini ongli ravishda oshirib ko'rsatishga intiluvchi shaxsning hatti-harakati.

**Mehnat bozorida monopsoniya** – bu mukammallashgan raqobatdagি mehnat bozorining alohida bir chetki ko'rinishi bo'lib, bunda biror kichik shahardagi yagona firma mahalliy aholining ko'p qismini ish bilan ta'minlaydi.

**Mehnatni chekli mahsuloti** – boshqa ishlab omillari sarfi o'zgarmaganda bir birlik qo'shimcha mehnat sarfi hisobidan ishlab chiqarilgan qo'shimcha mahsulot,

**Monopolianing o'lik yoki yoki jamiyatning sofi yo'qotishi** – monopolist bo'Imagandagi mahsulot ishlab chiqrish xajmidan monopolist ishlab chiqargan mahsulotni ayirmasiga teng.

**Monopoliya** – bu shunday bozorki, unda faqat bitta mahsulot ishlab chiqaruvchi firma faoliyat olib boradi va mahsulot ishlab chiqarishni, sotishni to'liq nazorat qiladi.

**Muvozanat narx (equilibrium price)** – talab bilan taklifni tenglashtiruvchi narx. Muvozanat narxga to'g'ri keladigan tovar miqdoriga muvozanat mahsulot miqdori deyiladi.

**Mukammal raqobatlashgan bozor** – agar bozor quyidagi xususiyatlarga ega bo'lsa:

**Narx (price)** – bir birlik tovarni sotib olish uchun to'lanadigan pul miqdori.

**Narx diskremintasiysi (price discrimination)** – bunda firma bir xil tovarni har xil narxda sotib olish imkoniyati har xil bo'lgan haridorlarga sotadi.

**Naflik** – iqtisodiy ne'matlarni, shaxs ehtiyojini qondirish darajasi. Ne'mat inson ehtiyojini qancha to'laroq qondirsa uning nafligi shuncha yuqori bo'ladi.

**Naftlik funksiyasi** – iste'mol qilingan ne'matlar miqdorining o'zgarishi natijasida olinadigan naftlikni o'zgarishini ifodalovchi funksiya.

**Noaniqlik** – axborotlar yetarli, to'liq bo'Imagan qabul qilingan qarorlarda noaniqlik vujudga keladi. Noaniqlik sharoitida qabul qilingan qarorlar natijasida tavakkalchilik vujudga keladi.

**Nokooperativ o'yin** – bu o'yinda qatnashchilar mustaqil ravishda qaror qabul qiladi (Iqtisodiyotda misol sifatida oligopolik bozorda harakat qiluvchi firmalar o'rtaсидаги «narxlar jangini» keltirish mumkin).

**Nol so'm yutuqqa ega bo'lgan o'yin (zero sum game)** – o'yinda bir kishining yutug'i boshqa o'yinchilarning yutqazgan summalarini yig'indisiga teng.

**Nolga teng bo'Imagan so'mga ega bo'lgan o'yin (non zero sum game)** – bu o'yinda bir guruh o'yinchilar yo yutadi yoki boy beradi.

**Nominal ish haqi (nominal wage rate)** – yollanma ishchi tomonidan olinganpul miqdori.

**Normal tovarlar** – daromad oshganda talab oshadigan tovarlar.

**Ob'ektiv (matematik) ehtimol** – voqealari va hodisalar jarayonida takrorlanishlarni hisob-kitob qilishga asoslangan ehtimol.

**Oliy kategoriyali tovar** – daromad oshganda talab oshib ketadigan tovarlar.

**Pareto optimum (Pareto samaradorlik)** – ne'matlarni shunday taqsimlanishi ki bunda biror kishining turmush farovonligini pasaytirmasdan boshqa kishining turmush farovonligini oshirib bo'lmaydi.

**Past kategoriyali tovarlar** – daromad oshganda talab kamayadigan tovarlar.

**Real ish haqi (real wage rate)** – olingan pul mablag'i hisobidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalovchi ish haqining sotib olish imkoniyati.

**Real foiz stavkasi** – inflatsiyadan tozalangan foiz stavkasi. Nominal, real foiz stavkalari va narx o'sishi (inflyatsiya) o'rtaсидаги miqdoriy bog'liqlikni quyidagicha yozish mumkin:

$$(1+i) * (1 + \Delta P) = 1 + R$$

**Renta** – taklifi qat'iy cheklangan resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

**Resurslarga chekli harajat** - qo'shimchabir birlik resurs sotib olish uchun sarflangan qvo'shimcha harajat.

**Resursning chekli daromadligi yoki resursning pulda ifodalangan chekli mahsuloti** – resursdan qo'shimcha bir birlik foydalanish natijasida olingan qo'shimcha mahsulotni sotishdan tushgan qo'shimcha daromad.

**Sof diskontirlangan (keltirilgan) qiymat (NPV)** - bu kelajakda olinadigan sof daromadning diskontirlangan qiymatidan diskontirlangan investitsiya ayirmasi:

**Sof iqtisodiy renta (pure economic rent)** – narx bo'yicha absolyut elastik bo'limagan taklifga ega bo'lган resurs egasi tomonidan olinadigan daromad.

**Ssuda foizi** – kapital egasiga uni kapitalidan foydalangani uchun iqtisodiy sub'ekt tomonidan to'lanadigan narx.

**Standart (o'rta kvadratik) chetlanish** – **dispersiyadan olingan kvadrat ildiz:**

$$D = \sqrt{\delta^2}$$

**Tavakkalchilik (risk)** - qo'yilgan maqsadga erishidagi yo'qotishlar.

**Tavakkalchilikka befarq qarovechi shaxs** – kutiladigan daromadda u kafolatlangan daromad bilan tavakkal daromaddan qaysi birini tanlashga befarq qaraydigan shaxs.

**Tavakkalchilikka qarshi inson (zist orvezse person)** – kutilgan daromadga nisbatan kafolatlangan daromadni ustun ko'radigan inson.

**Tavakkalchilikka moyillik (zist prefeped)** – kutiladigan daromadda kafolatlangan natijaga ko'ra ko'proq tavakkalchilik bilan bog'liq bo'lган natijani ustun ko'radigan shaxs.

**Tavakkalchiliklarni qo'shish** – ushbu usul tasodifiy yo'qotishlarni o'zgarmas harajatlarga aylantirish orqali tavakkalchilikni kamaytirishga qaratilgan (mulkni sug'ortalash).

**Tavakkalchilikni taqsimlash** – ushbu usulga ko'ra zarar ko'rish ehtimoli bilan bog'liq bo'lган tavakkalchilik qatnashuvchi sub'ektlar o'rtasida shunday taqsimlanadi, oqibatda har bir sub'ektning kutiladigan zarari nisbatan kichik bo'ladi. Yirik moliya kompaniyalari katta masshtabdagi loyihalarni tavakkalchilikdan qo'rmasdan moliyalashtiradi.

**Tadbirkorlik qobiliyati, boshqaruq qobiliyati, axborot** – biror ob'ekt to'g'risida va unda bo'layotgan jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

**Taklif (supply)** – bu ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilar tomonidan berilgan narxlarda sotilishi mumkin bo'lган tovarlar miqdori.

**Taklif qonuni** – to'g'ridan-to'g'ri narx o'zgarishi bilan bog'liq holda taklifning o'zgarishi.

**Taklif funksiyasi (supply function)** – taklifga ta'sir qiluvchi omillar miqdori bilan taklif miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

**Taklif chizig'i (supply curve)** – tovar narxi bilan taklif qilinadigan ushbu tovar miqdori o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq.

**Talab (demand)** – berilgan narxlarda haridorlar tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lган tovarlar miqdori.

**Talab qonuni** – narxdan boshqa omillar o'zgarmaganda talab miqdori bilan narx o'rtasidagi bog'liqlik.

**Talab funksiyasi (demand function)** – talabga ta'sir qiluvchi omillar miqdori bilan talab miqdori o'rtaqidagi bog'liqlikni ifodalaydi.

**Talab chizig'i (demand curve)** – tovar narxi bilan sotib olinadigan ushbu tovar miqdori o'rtaqidagi bog'liqlikni ifodalovchi egri chiziq.

**Transaksion harajatlar (transaction costs)** – bozorda tovarlarni sotishda egalik huquqini aniqlash va uni berish bilan bog'liq harajatlar.

**To'ldiruvchi tovarlar (complementary goods)** – birqalikda, komplektlarda iste'mol qilinadigan tovarlar.

**To'lov funksiyasi** – o'yin natijasi bo'lib o'yinchining yutug'ini yoki yo'qotishini bildiradi.

**Umumiy muvozanatlik** – barcha bozorlarning o'zaro bir-biriga ta'siri natijasida o'matiladigan muvozanatlik. Barcha bozorlarni muvozanat holatda bo'lishi. Bunda biror bozorda muvozanatlik buzulsa boshqa bozorlarda ham muvozanatlilik buziladi.

**Umumiy naflik (total utility)** – iste'mol qilingan ne'matlardan olingan jami naflik.

**O'yin** – oldindan belgilangan qoidalar asosida iqtisodiy sub'ektlar o'rtaqidagi o'zaro munosabatlar (qarorlar qabul qilish).

**O'yintar nazariyasi** – fan yo'nalishi bo'lib u o'yin qatnashuvchilarining vaziyat bo'yicha harakat qilish va qaror qabul qilishni matematik usullar yordamida o'rghanadi.

**O'rindosh tovarlar (substitution goods)** – iste'mol qilishda bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlar yoki bir xil ehtiyojni qondiruvchi tovarlar.

**O'rindosh tovarlarni almashtirish samarasi** – iste'molchining iste'mol majmuasiga kiruvchi ne'matlardan birining narxi o'zgarishi natijasida iste'mol tarkibining o'zgarishi.

**O'rtacha daromad (average revenue)** – bir birlik tovari sotishdan tushgan

$$AR = \frac{TR}{Q}$$

daromad:

**Firma (firm)** – jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida mahsulot ishlab chiqarish va sotish bilan shug'ullanuvchi iqtisodiy sub'ekt.

**Firmanın bozordagi strategik harakati** – bunda firma o'zining harakatini raqobatlashuvchi firmanın harakatiga ko'ra ishlab chiqadi.

**Foiz stavkasi (interest rate)** – nominal foiz stavkasi infliyatsiyani hisobga olmagandagi joriy kursdagi foiz stavkasi.

**Foyda (buxgalteriya)** – mahsulotni sotishdan tushgan tushumdan ushbu mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ketgan yalpi harajatni (tashqi harajatni) ayrliganga teng. Maksimal foyda olish sharti  $MR = MC$ . Raqobatlashgan bozorda maksimal foyda olish sharti  $MC = P$ . Raqobatlashuvchi firmanın zararsiz ishlash nuqtasini ifodalovchi shart  $P = AC(Q)$ .

**Fyuchers** – hozirgi narxlarda ma'lum miqdordagi tovari kelajakda ma'lum kunda yetkazib berish uchun tuzilgan muddatli shartnoma. Tavakkalchilik bilan bog'liq bo'limgan aktivlar – aktiv tomonidan tushadigan pullar miqdor oldindan belgilangan miqdorda bo'lishi.

**Harajatlar (costs)** – mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan sarflar.

**Chekli daromad (marginal revenue)** – bir birlik qo'shimcha tovar sotishdan

$$MR = \frac{\Delta TR}{\Delta Q}$$

tushgan qo'shimcha daromad

**Chekli naflik (marginal utility)** – oxirgi yoki navbatdagi birlik ne'matni iste'mol qilishdan olinadigan naflik.

**Chekli texnologik almashtirish normasi (marginal rate of technological substitution, MRTS<sub>xy</sub>)** – ishlab chiqarish xajmi o'zgarmaganda bir birlik X omilini necha birlik Y omil bilan almashtirish mumkinligini ko'rsatadi.

**Chekli transformatsiya normasi (MRT)** – birinchi tovardan qo'shimcha bir birlik ishlab chiqarish uchun ikkinchi tovardan qancha voz kechish kerakligini ko'rsatadi. Bu birinchi tovarning alternativ qimmatini ifodalaydi va ikkinchi tovarni chekli ishlab chiqarish harajatlarini birinchi tovarni chekli ishlab chiqarish harajati nisbatiga teng.

**Chetlanish** – kutiladigan natija bilan haqiqiy natija o'tasidagi farq.

**Shartnomalar chizig'i** – 2 iste'molchi o'tasida ikkita ne'matning samarali taqsimlanish variantlarini ifodalovchi chiziq.

**Shaxs talabi (individual demand)** – bitta iste'molchining tovarga talabi.

**Shtakelberg muvozanati** – bu duopolik sharoitda lider firma bilan ergashuvchi firma faoliyat ko'rsatganda lider tovar narxini va ishlab chiqarish hajmini mustaqil belgilaydi, ergashuvchi firma lider firmaga moslashgan holda narx va mahsulot hajmini belgilaydi.

**Elastiklik (elasticity)** – talab va taklifga ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarishi natijasida ularni qanchaga o'zgarishi tushuniladi (narxni, daromadi, iste'molchilar soni va hokazo).

**Engel chiziqlari** – iste'mol qilingan tovarlar miqdorini iste'molchi daromadining o'zgarishidan bog'liqligini ko'rsatuvchi chiziq.

**Ehtiyoj (needs)** – insonni, korxonani faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar. Ehtiyoj – bu insonlarni iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishiga undaydigan ichki kuch.

**Etimol (probability)** – ma'lum natijaga erishish imkoniyati.

**Yalpi investitsiya (gross investment)** – bu amortizatsiya qiymati bilan sof investitsiya (kapitalning o'sgan qismi) ning yig'indisi.

## MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-bob. Makroiqtisodiyot fanining predmeti, obyekti va uning ahamiyati.....	4
2-bob. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni hisoblash.....	16
3-bob. Makroiqtisodiy beqarorlik.....	28
4-bob. Iste'mol va investitsiya funksiyalari.....	43
5-bob. AD - AS modeli.....	55
6-bob. Keyns makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi.....	69
7-bob. Pul bozori.....	81
8-bob. Bozor iqtisodiyotida davlat.....	95
9-bob. Fiskal siyosat.....	106
10-bob. Pul-kredit siyosati va bank tizimi.....	119
11-bob. IS-LM modeli.....	135
12-bob. Iqtisodiy o'sish.....	148
13-bob. Xalqaro savdo nazaiyasi.....	161
14-bob. Savdo siyosati.....	167
15-bob. To'lov balansi.....	187
Adabiyetlar ro'yxati.....	200
Glossariy.....	202

**SHAKAROV A.B., ABDUKARIMOV F.B., TURDIBEKOV H.I.**

# **MAKROIQTISODIYOT**

## **O‘quv qo‘llanma**

Muharrir

*E. Bozorov*

Kompyuterda sahifalovchi

*H. Bozorova*

Bosishga ruxsat etildi 18.03.2009. Qog‘oz bichimi 60x84  $\frac{1}{16}$ .  
Hisob-nashr tabog‘i 13,25. Adadi 300 ta  
Buyurtma № 11

«IQTISOD-MOLIYA» nashiryotida tayyorlandi.  
100084, Toshkent shahar, Kichik xalqa yo‘li ko‘chasi, 7-uy.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI” bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Qori-Niyoziy ko‘chasi – 39.